

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

2026-yil
17 (36)-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

RU

ФИЛОЛОГИЯ И ПЕДАГОГИКА

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

PHILOLOGY AND PEDAGOGY

EN

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL OF THE MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

“Filologiya va pedagogika” ilmiy-metodik jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 30-noyabrdagi 364/5-qarori bilan 10.00.00 – Filologiya va 13.00.00 – Pedagogika fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 19-avgustda 360240-raqami bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

2026-yil
17 (36)-son

e-ISSN 3060-4885

MAS'UL MUHARRIR
Nargiza Sotvoldiyeva

MUHARRIRLAR:
Shahobiddin Rasulov
Najmiddin Ermatov
Emma Torosyan
Shaxina Muxamedjanova

SAHIFALOVCHI
Ziyoda Komilova

Tahririyat manzili:
100011, Toshkent shahri
Navoiy ko‘chasi 30-uy.
Telefon: (55) 510-28-44,
(77) 358-57-67
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Materiallar
@FilologiyaPedagogikaBot
orqali qabul qilinadi.

Elektron jurnal 30.09.2026 da nashr etildi.

MUASSIS
O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi
"Til va adabiyot ta'limi"
davlat korxonasi

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

TAHRIR HAY'ATI:

10.00.00 – FILOLOGIYA

E'zozxon Karimova
O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri
Farhod Boqiyev
O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o‘rinbosari
Azizbek Turdiyev
O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o‘rinbosari
Farrux Jabborov
"Til va adabiyot ta'limi" – "Преподавание языка и литературы" – "Language and literature teaching" jurnali bosh muharriri
Baxtiyor Mengliyev
Toshkent Amaliy fanlar universiteti tadqiqotchi-professori, filologiya fanlari doktori
Baxtiyor Doniyorov
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nurafshon filiali professori, filologiya fanlari doktori
Anatoliy Lixodziyevskiy
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, filologiya fanlari doktori
Oksana Gibraltarskaya
O‘zbekiston Milliy universiteti professori, filologiya fanlari doktori
Sherzod Atamuradov
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Mohichexra Boltayeva
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali dotsenti, pedagogika fanlari doktori
Muxtarbay Kurbanov
Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti, filologiya fanlari doktori
Anvar Bo‘ronov
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Dilmurod Teshaboyev
Farg‘ona davlat universiteti boshlang‘ich ta'lim uslubiyati kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori
Gulhida Ikromova
Farg‘ona davlat universiteti boshlang‘ich ta'lim uslubiyati kafedrasi katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Aziza Axmedova
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi o‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi
Iroda Nasimova
O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Ma'suma Mo‘minova
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsent, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Qozoqboy Yo‘ldoshev
Toshkent Amaliy fanlar universiteti professori, pedagogika fanlari doktori
G‘ofir Hamroyev
Toshkent Amaliy fanlar universiteti tadqiqotchi-professori, pedagogika fanlari doktori
Xadicha Muxitdinova
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, pedagogika fanlari doktori
Gulnora Mansurova
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, falsafa fanlari doktori
Sevara Ziyayeva
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori
Indira Narkulova
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Abduvali Daminov
O‘zbekiston Milliy universiteti ijtimoiy fanlar fakulteti huquqiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi
Gulnoza Uzokova
Qarshi davlat universiteti professori, pedagogika fanlari nomzodi
Lola Akramova
Toshkent davlat tibbiyot universiteti o'zbek tili va xorijiy tillar, pedagogika kafedrasi dotsenti
Zulfiya Ortiqova
Farg‘ona davlat universiteti boshlang‘ich ta'lim uslubiyati kafedrasi katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Pulotjon Qaxorov
Samarqand davlat universitetining Urgut filiali dotsenti
Dilafruz Asqarova
Farg'ona davlat universiteti maktabgacha ta'lim kafedrasi o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 30-noyabrdagi 364/5-qarori bilan 10.00.00 – Filologiya va 13.00.00 – Pedagogika fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashr.

M U N D A R I J A

10.00.00 – FILOLOGIYA

Charos Yoqubova. Folklor ertaklarining teatr sahnasidagi konseptual transformatsiyasi ("Muqbil toshotar" ertagi talqinida) 4
Gulruh Azamova. O'zbek tilshunosligida sodda gapda subyekt va predikat o'rtasidagi paradigmatik munosabatlar turlari 6
Shoxidaxon Kurbanova. Ingliz va o'zbek tilshunoslik diskursida til modelining epistemologik pozitsionalligi 8
Dilmurod Sirojidinov. Kognitiv lingvistikada antropotsentrik paradigma va lisoniy shaxs konsepti 11
Nafisa Nazarova. O'tkir Hoshimovning "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasida qo'llangan iboralarning lingvistik talqini 13
Gulshan Rahim. O'zbek manbashunosligi va matnshunosligining dolzarb masalalari 15
Shaxnoza Sultanova. Biznes PR kontentida sintetik media vositalaridan foydalanish 17
Mohim Xusanova. "Saddi Iskandariy" dostonining tasavvufiy-irfoniy talqinlari 20
Yulduzxon Qosimova. O'zbek mumtoz adabiyotida ayol obrazining poetik talqini va evolutsiyasi 22
Gulxayyo Po'latova. O'zbek tilidagi savol-javob tizimlari uchun morfologik segmentatsiya va normalizatsiya muammolari 24
Zarina Nizomjonova. "Mavlidi Barzanjiy" asarining poetik o'ziga xosligi 26
Xusniddin Narbutayev. Poetik obrazning semantik transformatsiyasi 28
Diloram Fattakhova. Comparative Analysis of Speech Expressiveness Tools in Russian and Uzbek Languages for Methodological Purposes 31
Dilnora Choraqulova. Linguistic Analysis of Oikonyms in the Short Stories of Vasily Shukshin 33
Dilbar Mirnosirova. O'zbek ontolingvistikasida nutqiy ijod talqini 35
Shahnoza Mansurova. Ibn Sinoning "Salomon va Absol" qissasi haqida nazariy qarashlar 38
Aziza Qarshiyeva. Ma'danlar timsolining tasavvufiy ramzlar tizimidagi o'rni 40
Ra'no Buronova. Neologizmlarning shakllanishi va rivojlanishi: tarixiy lingvistik yondashuvdan globallashuv va raqamli muhitgacha 42
Dilbar Niyazova. Jahon tilshunosligida assotsiativ-somatik portret konsepsiyasining nazariy asoslari va uni ishlab chiqish zarurati 44
Nigina Izamova. Detektiv asarlarda qahramon ruhiyatini ifoda etishda tabiat tasvirining badiiy-estetik vazifalari 46
Nafisa Nazarova. Alisher Navoiyning "Navodir ush-shabob" devonida rad san'atining qo'llanishi 50
Gulbaxor Nabiyeva. Zamonaviy nemis tilida to'siqsiz kommunikatsiyaning diskursiv-pragmatik xususiyatlari 52
Madina Bobomurodova. Lutfiyshunoslikning shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari 54
Fazliddin Mahmadrajabov. Badr Chochiy merosining o'rganilish tarixi va zamonaviy tadqiqot zarurati 56
Римма Биксалиева. Языковые инновации В.Пелевина в репрезентации потребительской, медийной и цифровой культуры 59
Анна Коршунова. Национально-культурное своеобразие пословиц и поговорок с зоонимическим компонентом в русском и английском языках 62
Мухлиса Саидова. Сравнительно-типологический аспект поэтики семейной памяти в прозе Уткира Хашимова И Людмилы Улицкой 64
Су Син. Корпусно-сопоставительный анализ деонтической модальности в гражданско-правовом дискурсе Китая и Узбекистана 66
Лола Туйлиева. Валентностная структура глаголов биологического состояния в современном русском языке 70
Аббос Кодиров. Концептуальные структуры в когнитивной лингвистике: теоретические основы взаимодействия концептологии и языковой картины мира 72
Nargizaxon Nurdinbayeva. Yoshlik kategoriyasining ayrim frazeologik birliklar orqali lisoniy voqelanishi 74
Ирина Морозова. Лингвокультурологический аспект как элемент формирования лексической компетенции 76
Жахонгир Улмасов. Лингвокультурологический анализ тематических групп паремий узбекского и русского языков 78
Mahliyoxon Umurzoqova. Zamonaviy sheriyatda folklor ananalarining badiiy transformatsiyasi 80
Sevinch Yusupova. O'tkir Hoshimov – mohir publitsist 82
Ro'zixon Xolmatova. Nazar Eshonqulning "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasida topoxronosning psixologik funksiyasi 84
Mahliyo Sattorova. Xalq kitoblarida mavzu rang-barangligi va badiiy g'oyaning ifodalanishi 86
Munisa Primova. Fransuz va o'zbek tillarida xarakterni ifodalovchi frazeologizmlarning konseptual tasnifi va milliy-madaniy xususiyatlari 88

Dilnoza Nishanova. Abdulla Oripov lirikasida madaniy konseptlarning pragmatik mohiyati va badiiy matnda moddiylashuvi 91
Gulnoza Abduraximova. Generativ sun'iy intellekt promptlarida auditoriyani belgilash va terminologik aniqlik.....93
Дилором Исломова. Национально-культурная специфика эргонимов города Намангана.....95
Светлана Им. Французский язык как одно из средств европеизации русской жизни.....97
Beg'ubor Abdullayeva. Oilada va jamiyatda xotin-qizlarning o'rni: tarbiya, ta'lim va oilaviy munosabatlar.....99
Nafisa Nazarova. O'tkir Hoshimovning "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasida qo'llangan iboralarning lingvistik talqini.....101
Gulnora Qosimova. Yapon bolalar adabiyotining shakllanishida Ivaya Sazanami ijodining ahamiyati 103
Iroda Utayeva. Technological Development and Practical Applications of Machine Translation 106
Surayyo Akramova. Jamol Kamol she'riyatida til shaxsiyati va muallif pozitsiyasining ifodalanishi.....109
Xurshida Batirova. Oliy ta'lim muassasalari rasmiy saytlaridagi qisqa yangiliklar institutsional media janri va tarjima obyekti sifatida.....111
Baxtiniso Ergasheva. Lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslikda transport terminologiyasining o'rni.....114
Oybarchin Mavlanova. Ingliz va o'zbek tillarida hissiyotlarning metaforik ifodalanishi: kognitiv-lingvistik tahlil.....116
Shahnoza Qarshiyeva. Globallashuv sharoitida o'zbek iqtisodiy diskursiga ingliz tilidan o'zlashgan birliklarning lingvistik adaptatsiya jarayonlari 118
Abdulazizbek Qodirov. Identitet inqirozining badiiy matnda ifodalanishi.....120
Madina Qodirova. Tabiat ramzlari va ularning jamiyat hayotini fodalashdagi estetik funksiyasi 122
Rizvon Saidova. "Lison ut-tayr" dostonining o'rganilishi: ilmiy tadqiqotlar tahlili 124
Maftuna Elmirzayeva. Ingliz va o'zbek tillarida ijtimoiy himoya terminlarining konseptual metaforizatsiyasi va obrazli nominatsiya modellari 127

13.00.00 – PEDAGOGIKA

To'lg'anoy Xo'jamurodova. Developing Interactive Vocabulary Materials With Wordwall for young English Learners.....129
Xudaybergan Kuchkinov. Texnik matnlarni o'qitish orqali talabalarning lug'at boyligini oshirish usullari.....133
Dilnoza Nazarova. Leksikologiyani o'qitishda zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish metodikasi.....135
Akmal Amanov. Bo'lajak tarjimonlarda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini autentik materiallar vositasida rivojlantirish texnologiyasi va uning bosqichlari.....140
Farangiz Sag'dullayeva. Enhancing Practical-Diagnostic Skills in Technical Higher Education Through the Integration of Interactive Methods and Swot Analysis 144
Ойнур Жаркинова. Рецептивная эстетика как методология анализа кинематографической интерпретации литературного текста (на примере романа Л.М.Олкотт «Маленькие женщины») 146
Валентина Хегай. Интерактивный семинар как инновационный подход к преподаванию русского языка в вузе.....148
Гулбахор Мамадалиева. Проектная деятельность как структурный элемент системы современного обучения русскому языку.....150
Oygul Sayfiyeva, Israildjon Umurzakov. Milliy maktablardagi rus tili darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usullari.....152
Nilufar Maxmudova. Bo'lajak o'qituvchilarga qo'yiladigan pedagogik talab va vazifalar 154
Ойгул Сайфиева. Побудительные предложения в учебных ситуациях на уроках русского языка в национальной школе.....156
Мехриноз Рахматова. Педагого-психологические направления совершенствования воспитательного процесса в общеобразовательных школах на основе технологического подхода.....158
Dilnoza Mamatova. Akademik o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishda sun'iy intellekt integratsiyasi.....160
Nilufar Oymatova. Jadid adabiyotini o'qitishda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishning metodik asoslari.....162
Munisa Sulaymonova. Bo'lajak o'qituvchilarda ijodkorlik faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish yo'llari 165
Dilnozaxon Karimjonova. Talabalarning gapirish ko'nikmasini rivojlantirishning zamonaviy usullari: dissertatsion tadqiqotlar tahlili.....167
Robiya Shamiyeva. Teaching English Idioms to Uzbek EFL Learners Through Conceptual Metaphor Awareness 169
Gavxar Qurbonova. Yosh, jins va kasbiy omillarning lisoniy shaxsga ta'siri 171
Sharifa Mo'minjonova. Arab va o'zbek tillaridagi ijtimoiy munosabatga oid paremiologik birliklarning lingvomadaniy lakunarligi 173

Charos YOQUBOVA,
Jizzax viloyat musiqali drama teatri adabiy bo'lim mudiri

FOLKLOR ERTAKLARINING TEATR SAHNASIDAGI KONSEPTUAL TRANSFORMATSIYASI ("Muqbil toshotar" ertagi talqinida)

Annotatsiya. Maqolada folklor ertaklarining sahnalashtirilish jarayonida yuz beradigan badiiy va konseptual o'zgarishlar "Muqbil toshotar" ertagining sahnaviy talqini misolida tadqiq etiladi. Folklor matnining dramatik asarga aylanishi syujetni qisqartirish yoki epik bayonni dialog shakliga o'tkazish bilangina chegaralanmasligi, balki konflikt markazi, obrazlarning funksional vazifasi, motivlarning semantik yuklamasi, vaqt-makon va qahramon obrazining qayta shakllanishi bilan kechishi tahlil qilinadi.
Kalit so'zlar: folklor, ertak, teatr, dramaturgiya, inssenirovka, adaptatsiya, konseptual transformatsiya, "Muqbil toshotar".
Annotation. The article examines the artistic and conceptual changes that occur in the process of staging and adapting folklore fairy tales, using the stage interpretation of the fairy tale "Muqbil Toshotar" as an example. It analyzes how the transformation of a folklore text into a dramatic work is not limited to shortening the plot or converting epic narration into dialogue, but also involves the transformation of the central conflict, the functional roles of characters, the semantic significance of motifs, time and space, and the representation of the protagonist.
Keywords: folklore, fairy tale, theatre, dramaturgy, dramatization, adaptation, conceptual transformation, "Muqbil Toshotar".
Аннотация. В статье исследуются художественные и концептуальные изменения, происходящие в процессе сценической адаптации фольклорных сказок, на примере сценической интерпретации сказки «Мукбил тошотар». Анализируется, что превращение фольклорного текста в драматическое произведение не ограничивается сокращением сюжета или переводом эпического повествования в форму диалога, а сопровождается трансформацией конфликтного центра, функциональных задач персонажей, семантической нагрузки мотивов, времени и пространства, а также образа героя.
Ключевые слова: фольклор, сказка, театр, драматургия, инсценировка, адаптация, концептуальная трансформация, «Мукбил тошотар».

Ertaklarning teatrda sahnalashtirilishi o'ziga xos murakkab jarayondir. Chunki ertakda voqea ko'pincha roviy bayoni orqali rivojlansa, dramatik asarda sahnaviy harakat, dialog, konflikt va aktyorlik ijrosi vositasida yuzaga chiqadi. Epik matndagi vaqt va makon imkoniyatlari teatrning cheklangan sahnaviy vaqti hamda konkret makoniga moslashtiriladi. Natijada ertakning syujet tizimi bilan bir qatorda uning personajlari, motivlari va g'oyaviy markazi ham qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Xalq ertaklarini sahnaga moslashtirishda ko'pincha "adaptatsiya", "inssenirovka", "talqin", "transformatsiya" kabi tushunchalardan foydalaniladi. Mazkur terminlar bir-biriga yaqin bo'lsa-da, ular ifodalaydigan jarayonlar o'rtasida muayyan farqlar mavjud. Adaptatsiyada badiiy manbaning asosiy mazmuni va syujet yo'nalishi boshqa san'at turining imkoniyatlariga muvofiqlashtiriladi [2]. Inssenirovka esa manbani dramatik shaklga o'tkazishning amaliy usuli sifatida namoyon bo'ladi [1: 537–538]. Transformatsiya tushunchasi esa manbaning tarkibiy qismlarida sodir bo'ladigan o'zgarishlarning ko'lamini anglatadi. Konseptual transformatsiya bundan kengroq jarayon bo'lib, unda folklor asarining nafaqat tashqi shakli, balki uning mazmuniy markazi ham yangi sahnaviy sharoitda qayta tashkil qilinadi. Konseptual transformatsiyani folklor matnining axloqiy yadrosini saqlagan holda uning konflikt, obraz, motiv, vaqt-makon va g'oyaviy asosini yangi sahnaviy kommunikatsiya sharoitiga mos ravishda qayta qurish jarayoni sifatida ta'riflash mumkin.

Ochiq manbalardan olingan ma'lumotlarga ko'ra 2026-yilning birinchi choragida O'zbek davlat teatrlarining repertuari bo'yicha ertak janriga mansub 330 ta sahna asari aniqlangan. Ular badiiy manbasi va kelib chiqishiga ko'ra to'rt guruhga ajratilgan: mualliflik va zamonaviy ertaklar – 229 ta (69,39 foiz), klassik adabiy ertaklar – 65 ta (19,70 foiz), o'zbek xalq ertaklari – 30 ta (9,09 foiz), boshqa xalqlar ertaklari – 6 ta (1,82 foiz).

Mazkur tasnif ertakning zamonaviy teatr repertuaridagi mavjudligini ko'rsatish bilan birga, xalq ertaklari asosida yaratilgan spektakllarni alohida tadqiq etish zaruratini ham ko'rsatadi. Chunki folklor manbasi sahnaga ko'chirilganida uning dastlabki poetik qurilishi bilan spektaklning yakuniy badiiy konsepsiyasi o'rtasida muayyan tafovut yuzaga keladi.

Aynan shu jihat "Muqbil toshotar" sahna talqinini tahlil qilishda yaqqol namoyon bo'ladi. "Muqbil toshotar" ertagi 2020-yilda Andijon viloyat qo'g'irchoq teatrida rejissyor D.Shayxov tomonidan sahnalashtirilgan. Inssenirovka muallifi M.Ro'ziyev. Mazkur sahna asarining folklor manbasiga munosabatini kuzatishda, avvalo, an'anaviy ertakdagi Muqbil obrazining semantik yuklamasiga e'tibor qaratish lozim.

Ertak variantida Muqbil uch asosiy fazilat – muhabbat, halollik va el-yurtga sadoqat bilan xarakterlanadi. U malikaga uylanish uchun shoh tomonidan qo'yilgan shartlarni bajaradi. Biroq Hotamtoyni o'ldirish topshirig'i qahramonni oddiy jismoniy sinovdan ko'ra murakkabroq axloqiy tanlov qarshisida qoldiradi [3: 41–51]. Muqbil uchun bu vaziyatda ikki qadriyat to'qnashadi: bir tomonda sevgi, ikkinchi tomonda begunoh inson hayotiga tajovuz qilmaslik mas'uliyati. Qahramon malikani chin dildan yaxshi ko'radi, uning uchun hamma narsaga tayyor, biroq Hotamtoyni o'ldirmaydi. Shu orqali uning xarakterida muhabbatdan ham ustun turuvchi axloqiy mezon – vijdon namoyon bo'ladi.

Sahna talqinida esa ayni konflikt markazi saqlanmaydi. Muqbilning qishlog'i va xalqini himoya qilish vazifasi asosiy dramaturgik harakatga chiqariladi. Bu o'zgarish oddiy qisqartirish emas. Chunki voqealarning kamayishi bilan birga, qahramonning dramatik vazifasi ham o'zgarmoqda. Sahna variantida shoh Muqbilning qishlog'ini yo'q qilib, uning o'rniga saroy qurishni maqsad qiladi. Qishloq aholisini qirish uchun esa qonxo'r yo'lbarslar yuboriladi [5: 2–11]. Natijada an'anaviy ertakdagi shaxsiy sinov motivi sahna asarida ommaviy xavf vaziyatiga aylanadi. Bu o'zgarish dramaturgik jihatdan muhim, chunki tomoshabin oldidagi savol ham o'zgaradi.

Ertakda: "Muqbil shohning topshirig'ini bajarib, begunoh Hotamtoyni o'ldiradimi?" degan savol ustuvor bo'lsa, sahna talqinida: "Muqbil o'z qishlog'i va xalqini yovuz kuchdan saqlab qola oladimi?" degan dramatik savol paydo bo'ladi. Demak, konfliktning obyekti ham, qahramonning unga munosabati ham o'zgaradi.

"Muqbil toshotar" nomining o'zi qahramonning tosh otish va ovchilik qobiliyati bilan bog'liq. Folklor variantida bu motiv Muqbilning jismoniy kuchi va mohirligini ko'rsatuvchi epik vazifani bajaradi. Sahna talqinida esa ushbu motivning funksional yuklamasi o'zgaradi. Muqbil tog'u toshlarda shunchaki ov qilmaydi; u o'z qishlog'ini yo'q qilish uchun yuborilgan yo'lbarslarga qarshi kurashadi.

Sahna talqiniga folklor manbasida mavjud bo'lmagan Jodugar obrazining kiritilishi ham konseptual transformatsiyaning muhim belgilaridan biridir. Jodugar shohning buyrug'i bilan dastlab qiz qiyofasida Muqbilni aldashga urinadi, keyinchalik esa o'zining asl qiyofasini namoyon qiladi. Uning dramaturgik vazifasi uch yo'nalishda namoyon bo'ladi: birinchidan, yovuzlikni konkret personaj shaklida ifodalaydi; ikkinchidan, bosh qahramonga bevosita qarama-qarshi kuch yaratadi; uchinchidan, voqealar rivojini tezlashtirib, konfliktning yangi bosqichga ko'tarilishini ta'minlaydi. Shunday qilib, folklor matnidagi yovuzlikning umumlashgan funksiyasi sahnada personifikatsiyalangan antagonist orqali ifodalanadi. Bu usul tomoshabinning, ayniqsa bolalar auditoriyasining konfliktni tez anglashiga ham xizmat qiladi.

Vazir obrazi ham sahna talqiniga kiritilgan bo'lib, folklor manbasida uchramaydi. U Muqbilga yordam beruvchi hamda spektaklga komik ruh bag'ishlovchi personaj sifatida shakllantirilgan. Shu jihatdan u spektaklning kompozitsion tuzilishi va janriy xususiyatlarini boyituvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Pyesaga ikki ertakchi obrazining kiritilishi ham epik manbaning dramatik shaklga o'tish mexanizmini ko'rsatadi. Ulardan biri voqealar rivojida faol ishtirok etib, dramaturgik harakatni boshqarishga xizmat qiladi. Ikkinchisi esa ekspozitsion va bog'lovchi funksiyani bajaradi. Bu holat epik bayonning teatrda butunlay yo'qolib ketmasligini ko'rsatadi. Aksincha, roviylik funksiyasi sahnaviy shaklga mos ravishda qayta taqsimlanadi.

Folklordagi roviy hikoya qilish, izohlash va voqealar aloqasini ta'minlash vazifasini bajaradi. D.Quronov roviylikni hikoya qilish funksiyasi bilan bog'laydi, dramatik shaklda esa voqelik sahnaviy harakat orqali ifodalanishini ta'kidlaydi [4: 212–213]. Shu jihatdan "Muqbil toshotar" pyesasidagi ertakchi obrazlarini narrativ funksiyaning sahnaviy qayta tashkil etilishi sifatida talqin qilish mumkin: ular voqealarni bog'laydi, izohlaydi va ayrim hollarda harakatda bevosita ishtirok etadi.

Ertakda voqea davomiyligi chegaralanmagan: qahramon bir necha kun, oy yoki yil davomida boshidan kechirgan voqealar bitta hikoya doirasida berilishi mumkin. Teatr sahnasida esa bunday vaqt kengligini saqlash ko'pincha dramaturgik ritmga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun sahnalashtirish jarayonida epik vaqt tanlab olinadi va voqealar orasidagi masofa qisqartiriladi. Bunda maqsad konfliktning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan voqealarni ajratishdan iborat. Shu jihatdan vaqtning qisqarishi mexanik jarayon emas, balki dramaturgik saralash vazifasini bajaradi [4: 205–206].

"Muqbil toshotar"ning qo'g'irchoq teatrida, kichik yoshdagi tomoshabinlarga mo'ljallangan shaklda sahnalashtirilgani transformatsiyaning yana bir muhim sababini yuzaga chiqaradi. Bolalar spektaklida voqealar tizimining ortiqcha murakkabligi, parallel konfliktlarning ko'pligi yoki funksional jihatdan ikkilamchi personajlarning haddan tashqari ko'payishi idrok markazining tarqalishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun sahnalashtirishda: ko'p yo'nalishli epik syujetdan markazlashgan dramatik harakat modeliga ehtiyoj tug'iladi. Bunda qisqartirishning mezoni faqat spektakl davomiyligi emas. Muhim mezon – har bir epizodning asosiy konflikt rivojiga qo'shayotgan hissasi. Demak, bolalar dramaturgiyasidagi transformatsiya "kamaytirish" emas, balki dramaturgik konsentratsiya jarayonidir.

Shunday qilib, konseptual transformatsiya folklor ertagining an'anaviy mazmunini bekor qilish emas, balki uning asosiy axloqiy-estetik yadrosini yangi sahnaviy sharoitda qayta mazmunlashtirish jarayonidir. "Muqbil toshotar" misolida bu jarayonning eng muhim belgisi an'anaviy qahramonlik modelining zamonaviy bolalar teatri uchun moslashtirilgan, konfliktga asoslangan va ijtimoiy mazmun bilan boyitilgan sahnaviy modelga aylanishida ko'rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бескин Э. Инсценировка / Литературная энциклопедия в 11 т.: т. 4. М.: Коммунистическая академия, 1930.
2. Hutcheon L. A Theory of Adaptation. – 2nd ed. – New York: Routledge, 2013.
3. Jumanov E. "Muqbil toshotar" / saralab nashrga tayyorlovchi: E.Jumanov // Jonon piyola: o'zbek xalq ertaklari. – Toshkent: Zabarjad Media, 2024. – B. 41–51.
4. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish: oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2004.
5. Ro'ziyev M. "Muqbil toshotar": o'zbek xalq ertagi asosida pyesa. – Qo'lyozma.
6. Sarimsoqov B. Folklorizmlar tipologiyasiga doir // O'zbek tili va adabiyoti, 1980, №4. – B. 39–42.

Gulruh AZAMOVA,
Navoiy davlat universiteti tillar fakulteti
ingliz tili amaliy fanlar kafedrasi 2-bosqich doktoranti

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SODDA GAPDA SUBYEKT VA PREDIKAT O'RTASIDAGI PARADIGMATIK MUNOSABATLAR TURLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligida sodda gapning sintaktik va semantik strukturasi, uning markaziy komponentlari hisoblangan subyekt va predikat o'rtasidagi paradigmatik munosabatlar tahlil qilinadi. An'anaviy sintaksisda subyekt-predikat munosabati ko'proq sintagmatik (nutqiy zanjirdagi chiziqli bog'lanish) nuqtai nazaridan o'rganilgan bo'lsa-da, til sathi (til tizimi) darajasida ularning o'zaro lisoniy modifikatsiyalari hamda paradigmatik turlari mavjud. Tadqiqotda subyekt va predikatning shaxs-son, zamon, mayl, tasdiq-inkor hamda strukturaviy transformatsiya paradigmalari modellar yordamida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: chiziqli bog`lanish, paradigmatik munosabat, sintagmatik zanjir, variant forma, invariant forma, shaxs-son paradigma, modal-zamon paradigma, tasdiq-inkor paradigma.

Annotation. This article analyzes the syntactic and semantic structure of the simple sentence in Uzbek linguistics, as well as the paradigmatic relations between the subject and predicate, which are its central components. Although in traditional syntax the subject-predicate relation has been studied predominantly from a syntagmatic point of view (linear connection within the speech chain), at the level of the language system there exist mutual linguistic modifications and paradigmatic types between them. The study reveals, with the aid of models, the paradigms of the subject and predicate according to person-number, tense, mood, and affirmation-negation, as well as structural transformation.

Keywords: linear connection, paradigmatic relation, syntagmatic chain, variant form, invariant form, person-number paradigm, modal-tense paradigm, affirmation-negation paradigm.

Аннотация. В статье анализируются синтаксическая и семантическая структура простого предложения в узбекском языкознании, а также парадигматические отношения между субъектом и предикатом, являющимися его центральными компонентами. Хотя в традиционном синтаксисе отношение субъект-предикат изучалось преимущественно с синтагматической точки зрения (линейная связь в речевой цепи), на уровне языковой системы существуют их взаимные языковые модификации и парадигматические типы. В исследовании с помощью моделей раскрыты парадигмы субъекта и предиката по лицу-числу, времени, наклонению, утверждению-отрицанию, а также структурной трансформации.

Ключевые слова: линейная связь, парадигматическое отношение, синтагматическая цепь, вариантная форма, инвариантная форма, лично-числовая парадигма, модально-временная парадигма, парадигма утверждения-отрицания.

Zamonaviy o'zbek tilshunosligida gapning lisoniy tabiati va uning strukturasini tizimli-strukturaviy hamda funksional-semantik aspektda o'rganish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, har qanday sodda gapning grammatik va mantiqiy yadrosini subyekt (ega yoki semantik harakat bajaruvchisi) va predikat (kesim yoki subyektning belgi-harakatini ifodalovchi yadro) tashkil etadi. A.G'ulomov va M.Asqarova "Hozirgi o'zbek adabiy tili" (sintaksis) asarida sodda gapdagi subyekt-predikat munosabatlarning tahlil qilgan holda ega va kesimni gapning asosiy, tashkil etuvchi negizi sifatida ko'rsatib, ularni gap konstruksiyasining asosi va markazi, gapdagi ikki uyushtiruvchi markaz deb ta'riflaydilar, shuningdek mualliflar ega/kesim (grammatik atamalar) bilan subyekt/predikat (mantiqiy-lisoniy atamalar) o'rtasidagi bog'liqlik va farq muammosini tahlil qilishgan [1].

Uzoq yillar davomida sintaktik birliklar faqat nutq hodisasi sifatida, ya'ni chiziqli munosabatga kirishuvchi **sintagmatik zanjir** sifatida baholangan. Biroq tilshunoslikda tizimli-struktur yo'nalishning shakllanishi, xususan, gap modellarining paradigmatik qatorlari haqidagi nazariyalarning rivojlanishi natijasida sodda gap yadrosida ham o'ziga xos paradigmatik munosabatlar mavjudligi isbotlandi [2]. Paradigmatik munosabatlar til tizimidagi birliklarning simmetrik, bir-birini taqozo etuvchi va ma'lum lisoniy o'zgarishlar asosida shakllanuvchi oppozitsion qatorlaridir.

Sodda gap yurituvchisi (subyekt) va uning asosi (predikat) o'rtasidagi munosabatlarning paradigmatik turlarini tadqiq etish o'zbek tili qurilishining invariant va variant formalarini aniqlashda alohida dolzarblik kasb etadi.

Tadqiqot jarayonida o'zbek tili sintaksisiga oid ilmiy adabiyotlar tahlil qilinib, mavzuni yoritishda quyidagi lingvistik metodlardan foydalanildi:

• **Tizimli-strukturaviy tahlil metodi:** Subyekt va predikatning til tizimidagi o'rni hamda ularning o'zaro aloqa modellari tahlil qilindi.

• **Paradigmatik va oppozitsion tahlil:** Sodda gap tarkibidagi o'zgarishlar, invariant (asosiy model) va variant (nutqiy ko'rinishlar) munosabatlar formalari ajratib ko'rsatildi.

• **Sintaktik transformatsiya metodi:** Faol va majhul nisbatdagi gaplar tarkibida subyekt va predikatning o'zaro o'rin almashishi hamda shakliy evrilishlari modellashtirildi.

Tadqiqotning material bazasini o'zbek tili akademik grammatikalari, A.G'ulomov, M.Asqarova, N.Mahmudov hamda A.Nurmonov kabi yetakchi o'zbek tilshunos olimlarining ilmiy konsepsiyalari tashkil etdi [3].

O'zbek tilshunosligida sodda gap strukturaviy asosini lisoniy va nutqiy sathlar oppozitsiyasi prizmasida tadqiq etish jarayonida subyekt (S) va predikat (P) o'rtasidagi paradigmatik munosabatlar shunchaki chiziqli-sintagmatik valentliklardan iborat emasligi, balki til tizimida chuqur va ko'p o'lchamli mikroparadigmalarni hosil qilishi aniqlandi. Mazkur lisoniy hodisa relyatsion (munosabat bildirish) tabiati jihatidan quyidagi tizimli modellar ostida tasniflandi:

1. Subyekt va predikatning shakliy-semantik (morfosintaktik) moslashuv paradigmasi. O'zbek tili agglutinativ tabiatga ega bo'lganligi sababli, subyektning shaxs-son xususiyatlari predikat sathi tarkibidagi maxsus shakllar tizimi (affiksatsiya) orqali boshqariladi. Tadqiqotimiz natijasida ushbu moslashuv to'liq binar oppozitsiyalardan iborat bo'lgan vertikal paradigmatik qatorni yuzaga keltirishi isbotlandi. Mazkur qator komponentlari lisoniy ontologiyada quyidagicha modellashtiriladi:

Paradigma (I)= {Sx + Px | x= {1, 2, 3}}

Son ko'rsatkichi (Yakka / Ko'plik) = {Sx(pl) + P(pl)}

Ushbu formula asosida quyidagi grammatik tizim variantlari shakllanadi:

- *Men tadqiqot olib bordim.* (S1sh. +Ø ↔ P1sh. +[-dim])
- *Sen tadqiqot olib bording.* (S2sh. +Ø ↔ P2sh. +[-ding])
- *U tadqiqot olib bordi.* (S3sh. +Ø ↔ P3sh. +[-di]).

Ushbu mikroparadigmadagi o'zgarish shunchaki nutqiy variatsiya emas, balki til sathi (Langue) darajasidagi semantik-sintaktik invariantning variantlashish qonuniyatidir. Agarda subyekt tarkibidagi Spl ko'rsatkichi o'zgarsa, u holda predikat tarkibidagi moslashuv paradigmasi ham qat'iy simmetriya qonuniyatiga ko'ra transformatsiyaga uchraydi (*Biz olib bordik / Siz olib bordingiz / Ular olib bordilar*). Ushbu qator til sathida yagona semantik o'zakning (Kelish harakati) subyekt xususiyatiga ko'ra paradigmatik o'zgarishini ko'rsatadi.

2. Funksional-modal va zamon paradigmasi. Sodda gap yurituvchisi va uning predikativ asosi o'rtasidagi paradigmatik izomorfizm dinamik xarakterga ega bo'lib, subyekt tomonidan bajarilayotgan harakat yoki belgi-xususiyatning borliqqa munosabati (reallik/irreallik gradatsiyasi) kesimida ko'p a'zoli paradigmaga ajraladi. Tadqiqotimizda aniqlangan invariant model ($S + P_{akt}$) asosida quyidagi temporal-modal paradigmalar tizimi hosil bo'lishi isbotlandi:

- *Olim kitob o'qiydi* (Hozirgi-kelgasi zamon, aniqlik mayli – real voqelik).
- *Olim kitob o'qisin* (Buyruq-istak mayli – potentsial voqelik).
- *Olim kitob o'qisa edi* (Shart mayli – irreal/armon voqelik) [4].

Mazkur uch a'zoli paradigma orqali subyekt va predikat o'rtasidagi predikativlik kategoriyasining mohiyati to'liq namoyon bo'ladi. Birinchi holatda aloqa real, ikkinchi holatda istak-xohish, uchinchi holatda esa gipotetik (shartli yoki armon) xarakterga egadir.

3. Tasdiq va inkor paradigmasi. Sodda gap prepozitsiyasida subyektga yuklanayotgan predikat belgisining tasdiqlanishi yoki inkor etilishi binar oppozitsiya shaklidagi qat'iy lisoniy paradigmaga asoslanadi:

Paradigma (II) = [$S + P_{tasdiq}$] ↔ [$S + P_{inkor}$]

Misol tariqasida: *Talaba vazifani bajardi* ↔ *Talaba vazifani bajarmadi*. Mazkur paradigmatik tizim o'zbek tilida nafaqat morfemik (-ma affiksi orqali), balki leksik-sintaktik (*emas*, *yo'q* so'zlari yordamida) ko'rinishlarda ham paradigmatik variantlarni yuzaga keltirishi aniqlandi.

Erishilgan natijalarni nazariy jihatdan baholash va ularni o'zbek tilshunosligida mavjud bo'lgan lisoniy kontseptsiya va maktablar qarashlari bilan qiyoslash, sodda gap paradigmatikasi muammosining tub mohiyatini ochishga xizmat qiladi.

An'anaviy grammatik yo'nalishlarda (xususan, akademik A.G'ulomov hamda professor M.Asqarova tadqiqotlarida) subyekt va predikat munosabati asosan "ega va kesim moslashuvi" sifatida, faqat chiziqli-sintagmatik aspektda baholab kelingan. Biroq, tizimli tilshunoslik asoschilari hisoblangan professor N.Mahmudov va A.Nurmonovlarning qarashlariga tayanib shuni ta'kidlashimiz joizki, gap sathidagi subyekt-predikat munosabati lisoniy ongda mavjud bo'lgan tayyor model – **sintaktik invariant (qolip)** shaklida yashaydi [4]. Nutq jarayonida esa ushbu invariant o'zining paradigmatik a'zolari (variantlari) orqali realizatsiya qilinadi.

Ushbu nuqtai nazardan, biz tomonimizdan taklif etilayotgan transformatsion-nisbat paradigmatikasini chuqur tahlil qilish lozim. Nisbat kategoriyasi o'zbek tilida faqatgina fe'lning morfologik ko'rsatkichi bo'lmay, balki gapning chuqur semantik strukturasini (Deep Structure) o'zgartiruvchi va subyekt-predikat munosabatini qayta quruvchi sintaktik omildir [5]. Mazkur holatni quyidagi qiyosiy-tahliliy jadval misolida ko'rib chiqamiz:

Faol (Aktiv) Paradigma	Majhul (Passiv) Paradigma	Strukturaviy O'zgarish
Ishchilar binoni qurdi.	Bino qurildi.	Haqiqiy subyekt (S) gap tarkibidan chiqib ketadi, obyekt mantiqiy subyektga aylanadi. Predikat majhul nisbat shaklini oladi.
Ota bolani chaqirdi.	Bola chaqirildi.	Subyekt o'zgarishi bilan predikat valentligi transformatsiyaga uchraydi.

Ushbu jadval tahlilidan ko'rinadiki, gapning lisoniy va semantik sathlarida qat'iy bir o'zgarish – **diateza o'zgarishi** yuz beradi. G.Zolotova o'zining kommunikativ sintaksis nazariyasida ta'kidlaganidek, subyekt va predikat munosabatlarining bunday transformatsion paradigmalari til tizimining funktsional potentsialini ko'rsatuvchi eng oliy mezondir [6].

O'zbek tili qurilishining o'ziga xosligi shundaki, predikat tarkibidagi shaxs-son ko'rsatkichlari potentsial subyektning semantikasini to'liq qamrab oladi. Masalan, rus yoki ingliz tillarida subyektning tushib qolishi ko'p hollarda gap strukturasining sintaktik defektiga (nomukammalligiga) olib kelsa, o'zbek tilida predikat relyativ shakli subyekt paradigmasini implitsit (yashirin) tarzda aktualizatsiya qila oladi. *"(Men) ushbu ilmiy xulosaga keldim"* tipidagi gaplarda subyektning eliziyasi (tushib qolishi) paradigma zanjirini uzib qo'ymaydi, balki uning variantlaridan biri sifatida til tizimi tejamkorligini ta'minlaydi.

Shunday qilib, o'zbek tilshunosligida sodda gap yadrosidagi paradigmatik munosabatlarni tadqiq etish, an'anaviy qarashlardagi bir tomonlama deskriptiv (tavsifiy) yondashuvlardan voz kechib, til birliklarini tizimli-funktsional invariantlar majmuasi sifatida baholash lozimligini ko'rsatadi. Subyekt-predikat mikrotizimi gap paradigmatikasining markaziy o'qi hisoblanadi.

O'zbek tilshunosligida sodda gap tarkibidagi subyekt va predikat o'rtasidagi munosabatlarni paradigmatik nuqtai nazardan tadqiq etish quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

1. Subyekt va predikat o'rtasidagi aloqa nafaqat chiziqli (sintagmatik), balki vertikal (paradigmatik) munosabatlar tizimiga ham egadir.
2. Sodda gap strukturasi shaxs-son, zamon-mayl, tasdiq-inkor hamda nisbat transformatsiyalari kesimida mukammal paradigmatik qatorlarni hosil qiladi.
3. O'zbek tilining ichki qonuniyatlaridan kelib chiqib, predikat tarkibidagi morfemalar subyekt bilan munosabatning paradigmatik invariantini saqlashda boshqaruvchi rolni bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili: Sintaksis. – Toshkent: O'qituvchi, 1987.
2. Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixo'jayeva S. O'zbek tilining funktsional sintaksisi. – Toshkent: Fan, 1992.
3. Sayfullayeva R., Mendeleyeva R., Boqiyeva G. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.
4. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi: Sintaksis. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
5. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. II jild. Tizimli tilshunoslik muammolari. – Toshkent: Akademnashr, 2012.

Shoxidaxon KURBANOVA
Kokand University Andijon filialida dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

INGLIZ VA O'ZBEK TILSHUNOSLIK DISKURSIDA TIL MODELINING EPISTEMOLOGIK POZITSIONALLIGI

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tilshunoslik diskursida til modelining epistemologik verballashuvi qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda metadiskursiv strategiyalar, muallif pozitsiyasining ifodalanishi hamda ilmiy legitimlashtirish mexanizmlari o'rganiladi. Ingliz diskursida model argumentativ va pozitsion konstrukt sifatida taqdim etilishi, o'zbek diskursida esa normativ-kollektiv shaklda institutsionallashuvi aniqlanadi. Natijada til modelining epistemologik maqomi diskursiv strategiyalar orqali shakllanishi asoslab beriladi.
Kalit so'zlar: metadiskurs, epistemologiya, til modeli, ilmiy diskurs, legitimlashtirish, pozitsionallik.
Annotation. This article presents a comparative analysis of the epistemological verbalization of the language model in English and Uzbek linguistic discourse. The study examines metadiscursive strategies, the expression of authorial stance, and mechanisms of scholarly legitimation. It demonstrates that, in English discourse, the model is presented as an argumentative and stance-oriented construct, whereas in Uzbek discourse, it is institutionalized through normative and collective forms of representation. The findings substantiate the view that the epistemological status of the language model is shaped through discursive strategies.
Keywords: metadiscourse, epistemology, language model, academic discourse, legitimation, positionality.
Аннотация. В статье проводится сравнительный анализ эпистемологической вербализации языковой модели в дискурсе английского и узбекского языкознания. В исследовании рассматриваются метадискурсивные стратегии, способы выражения авторской позиции, а также механизмы научной легитимации. Установлено, что в английском дискурсе модель представляется как аргументативный и позиционно ориентированный конструкт, тогда как в узбекском дискурсе она институционализируется посредством нормативных и коллективных форм репрезентации. В результате обосновывается положение о том, что эпистемологический статус языковой модели формируется посредством дискурсивных стратегий.
Ключевые слова: метадискурс, эпистемология, языковая модель, академический дискурс, легитимация, позициональность.

Zamonaviy tilshunoslikda til modeli lingvistik hodisani tavsiflash bilan birga ilmiy bilimni tashkil etish, umumlashtirish va konseptual shakllantirish vositasi hisoblanadi [1]. Har bir ilmiy paradigma tilni muayyan nazariy doirada talqin qilib, o'ziga xos epistemologik model yaratadi. Shu sababli modelning verballashuvi, diskursiv taqdimoti va legitimlashtirilishi uning ilmiy maqomini belgilovchi asosiy omillardandir.

Ilmiy diskursda modelning epistemologik maqomi metadiskursiv strategiyalar bilan chambarchas bog'liq. Metadiskurs muallif pozitsiyasi, dalillash usuli va o'quvchi bilan muloqotni tashkil etuvchi vositalar majmuyi sifatida talqin qilinadi [2]. Epistemik markerlar fikrning qat'iylik yoki ehtimollik darajasini ko'rsatib, muqobil qarashlarga munosabatni ifodalaydi va nazariy modelni ilmiy jihatdan maqomlashtiradi.

Ingliz tilshunoslik diskursida muallif pozitsiyasi ko'proq individuallashtiriladi. "I argue", "this model suggests", "it may be assumed" kabi birliklar modelni bahsli va argumentativ konstrukt sifatida taqdim etadi [3]. Bunda epistemologik maqom mantiqiy dalillash, analitik ehtiyotkorlik va nazariyaning qayta ko'rib chiqilishi mumkinligini tan olish orqali shakllanadi. O'zbek tilshunoslik diskursida esa kollektivlik va normativlik kuchliroq namoyon bo'ladi. "Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki", "ilmiy manbalarda qayd etilishicha" kabi formulalar modelni ilmiy hamjamiyat tomonidan tasdiqlangan bilim sifatida ko'rsatadi [4]. Natijada epistemik mas'uliyat ko'proq jamoaviy konsensusga tayanadi va modelning institutsional barqarorligi kuchayadi.

Demak, farq faqat stilistik emas, balki ilmiy tafakkur tipologiyasidagi epistemologik tafovutni ham aks ettiradi. Ingliz diskursida analitik shubha va argumentativlik, o'zbek diskursida esa konsensus va normativ mustahkamlash ustun turadi. Har ikki an'anada metadiskurs modelni legitimlashtiradi, biroq buning vositalari turlicha.

Globallashuv sharoitida turli milliy ilmiy an'analar o'zaro yaqinlashmoqda. Shu sababli til modelining verballashuvi, muallif pozitsiyasi va legitimlashtirish usullarini qiyosiy o'rganish ilmiy tafakkurning milliy hamda universal jihatlarini aniqlashda muhimdir [5]. Maqolaning maqsadi ingliz va o'zbek tilshunoslik diskursida til modelining epistemologik verballashuv mexanizmlarini qiyosiy tahlil qilish, metadiskursiv markerlar, baholovchi birliklar va epistemik ko'rsatkichlarning model maqomini shakllantirishdagi rolini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot qiyosiy-diskursiv va lingvopragmatik yondashuvga tayanadi. Muallif pozitsiyasi, ehtimollik va qat'iylik ko'rsatkichlari, umumlashtiruvchi formulalar hamda argumentativ konstruksiyalar tahlil qilinib, ularning modelni legitimlashtirishdagi funksiyasi izohlanadi.

Tahlil natijalari til modeli va metadiskurs o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib berish hamda ingliz va o'zbek ilmiy an'analaridagi epistemologik yo'nalishlarni qiyoslash imkonini beradi.

Tadqiqot qiyosiy-diskursiv va lingvopragmatik metodlar asosida amalga oshirildi. Metodologik negiz metadiskurs nazariyasi hamda ilmiy diskursning epistemologik talqiniga tayanadi [1]. Asosiy vazifa ingliz va o'zbek ilmiy matnlarida modelning verballashuvi va legitimlashtirilishiga xizmat qiluvchi vositalarni aniqlashdan iborat bo'ldi.

Empirik material sifatida ingliz va o'zbek tilshunosligiga oid ilmiy maqolalar, monografiyalar va dissertatsiya matnlaridan nazariy modelni taqdim etuvchi hamda metodologik asoslovchi fragmentlar tanlandi. Ulardagi metadiskursiv markerlar, baholovchi birliklar va epistemik ko'rsatkichlar ajratib olindi.

Tahlil to'rtta asosiy mezon asosida olib borildi: metadiskursiv markerlar, epistemik ko'rsatkichlar, baholovchi birliklar va argumentativ struktura. Ularning mazmuniy hamda diskursiv funksiyalari quyidagi jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval. Tahlil mezonlari va ularning funksional tavsifi

№	Mezon nomi	Mazmuniy tavsif	Diskursiv funksiyasi
1	Metadiskursiv markerlar	Muallif pozitsiyasini ochiq ifodalovchi yoki umumlashtiruvchi formulalar	Nazariy pozitsiyani belgilaydi va legitimlashtiradi.
2	Epistemik ko‘rsatkichlar	Ehtimollik, qat’iylik va ishonchlilik darajasini bildiruvchi birliklar	Modelning epistemologik maqomini aniqlashtiradi.
3	Baholovchi birliklar	Modelni normativ, innovatsion yoki bahsli sifatida tavsiflovchi konstruksiyalar	Nazariyaning aksiologik bahosini shakllantiradi.
4	Argumentativ struktura	Dalillash ketma-ketligi va mantiqiy asoslash mexanizmi	Modelning mantiqiy asoslanganini ta’minlaydi.

Ingliz diskursida individuallashtirilgan pozitsionallik va ehtimollik markerlarining modelni ochiq konstrukt sifatida taqdim etishdagi roli o‘rganildi. O‘zbek diskursida esa umumilmiy tasdiqlash va normativ umumlashtirish formulalari tahlil qilindi. Shunday qilib, har ikki diskursda epistemologik maqomning semantik-pragmatik vositalari qiyoslandi.

Tahlil bosqichma-bosqich bajarildi: avval metadiskursiv segmentlar ajratildi, so‘ng funksional guruhlarga tasniflandi va ularning epistemologik yuklamasi aniqlandi. Yakunda modelning ilmiy haqiqat yoki bahsli konstruksiya sifatida talqin qilinishiga ta’sir etuvchi birliklar qiyoslandi.

Tadqiqot interpretativ xarakterga ega bo‘lib, diskursiv birliklarning semantik va pragmatik kontekstdagi talqiniga asoslandi. Qiyosiy natijalarni umumlashtirishda tipologik yondashuv qo‘llanib, ingliz va o‘zbek ilmiy an’analari o‘rtasidagi epistemologik tafovutlar tizimlashtirildi.

Natijalar ingliz va o‘zbek tilshunoslik diskursida til modelining epistemologik maqomi metadiskursiv strategiyalar orqali shakllanishini ko‘rsatdi [1]. Biroq ushbu jarayon ikki ilmiy an’anada turlicha epistemologik orientatsiyaga ega bo‘lib, bu farqni oddiy uslubiy tafovut emas, ilmiy tafakkur tipologiyasidagi konseptual farq sifatida ko‘rish mumkin [2].

Ingliz diskursida modelning argumentativ va ehtimollikka asoslangan taqdimoti ilmiy bilimni qayta ko‘rib chiqilishi mumkin bo‘lgan ochiq tizim sifatida ifodalaydi. “This model suggests”, “it may be argued”, “the findings indicate” kabi konstruktsiyalar muallif pozitsiyasini individuallashtiradi [3]. Epistemik markerlar nazariyani qat’iy haqiqat emas, balki asoslangan taklif sifatida ko‘rsatadi va epistemologik maqomni shaxsiy javobgarlik hamda dalillash bilan bog‘laydi [4].


O‘zbek diskursida model ko‘proq normativ va jamoaviy asoslash orqali legitimlashtiriladi. “Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki”, “ilmiy manbalarda qayd etilishicha” kabi formulalar bilimni ilmiy hamjamiyat tomonidan tasdiqlangan holatda taqdim etadi [5]. Bu yondashuvda individual pozitsiyadan ko‘ra umumilmiy konsensus yetakchi bo‘lib, modelning institutsional barqarorligi kuchayadi.

Mazkur tafovut ilmiy bilimning konseptual tabiatini tushunishda muhim. Ingliz diskursidagi ochiqlik refleksivlik va tanqidiylikni, o‘zbek diskursidagi normativlik esa tizimlilik va izchillikni kuchaytiradi [6]. Shuning uchun ikki model bir-birini inkor etmaydi, balki bilimni legitimlashtirishning turli strategiyalarini namoyon etadi.Metadiskursni faqat lingvistik hodisa emas, epistemologik vosita sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq [1: 3]. U modelning mantiqiy asoslanganligini, muallif pozitsiyasining ochiqligini yoki jamoaviy tasdiq mexanizmini ifodalaydi. Demak, nazariy model ilmiy diskurs ichida shakllanib, aynan diskurs orqali epistemologik maqomga ega bo‘ladi.

Muhokama shuni ko‘rsatadiki, ingliz va o‘zbek an’analari o‘rtasidagi asosiy farq bilimni legitimlashtirish strategiyasida namoyon bo‘ladi. Bu tafovut ilmiy kommunikatsiyaning madaniy va institutsional determinantlari bilan bog‘liq bo‘lib, modelning verballashuv shaklida aks etadi [2].

Tadqiqot ingliz va o‘zbek tilshunoslik diskursida til modelining epistemologik verballashuvi metadiskursiv strategiyalar orqali amalga oshishini tasdiqladi [1]. Til modeli tayyor va o‘zgarmas birlik emas, balki diskursiv vositalar orqali maqomlashtiriladigan konstruktsiya sifatida namoyon bo‘ladi; metadiskurs esa uning epistemologik legitimlashtirish mexanizmi vazifasini bajaradi.Ingliz ilmiy diskursida model argumentativlik va individuallik asosida taqdim etiladi [2]. Ehtimollikni bildiruvchi epistemik birliklar nazariyani muhokamaga ochiq taklif sifatida ko‘rsatadi, muallif pozitsiyasini ochiq ifodalaydi va model maqomini analitik ehtiyotkorlik hamda dalillash orqali mustahkamlaydi.

O‘zbek diskursida esa model normativ va jamoaviy asoslash orqali legitimlashtiriladi [3]. Umumlashtiruvchi formulalar va konsensusga tayanadigan konstruktsiyalar bilimni ilmiy hamjamiyat tomonidan tasdiqlangan shaklda beradi. Natijada modelning barqaror va institutsionallashgan maqomi kuchayadi.



1-rasm. Til modeli va metadiskursning epistemologik bog‘liqligi

Qiyosiy tahlil har ikki diskursda metadiskurs modelning nazariy maqomini shakllantiruvchi markaziy mexanizm ekanini ko‘rsatdi [4]. Ingliz diskursida epistemologik ochiqlik va argumentativlik, o‘zbek diskursida normativlik va konsensus yetakchi. Tafovut ilmiy tafakkurning madaniy hamda institutsional determinantlari bilan bog‘liq.

Natijalar til modeli va metadiskursning uzviy bog‘liqligini nazariy jihatdan asoslaydi. Til modeli ilmiy kommunikatsiya jarayonida shakllanadigan konstruktsiya bo‘lib, metadiskurs uning mantiqiy asoslanganligi va epistemik maqomini ta’minlovchi markaziy vosita sifatida talqin qilinishi kerak.Kelgusida boshqa

tilshunoslik an'analari va ilmiy janrlar doirasida metadiskursiv strategiyalarni qiyosiy o'rganish ilmiy tafakkur tipologiyasini chuqurroq anglash hamda til modelining diskursiv-epistemologik tabiatini kengroq yoritish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ädel A. Metadiscourse in L1 and L2 English. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2006.
2. Fairclough N. Discourse and Social Change. – Cambridge: Polity Press, 1992.
3. Halliday M.A.K., Hasan R. Language, Context, and Text: Aspects of Language in a Social-Semiotic Perspective. – Oxford: Oxford University Press, 1989.
4. Hyland K. Metadiscourse: Exploring Interaction in Writing. – London: Continuum, 2005.
5. Hyland K. Disciplinary Discourses: Social Interactions in Academic Writing. – London: Longman, 2000.
6. Swales J.M. Genre Analysis: English in Academic and Research Settings. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
7. Vande Kopple W.J. Metadiscourse and the recall of modality // College Composition and Communication, 1985. Vol. 36 (1). – P. 82–93.
8. Widdowson H.G. Discourse Analysis. – Oxford: Oxford University Press, 2007.

Dilmurod SIROJIDINOV,
Andijon davlat chet tillari instituti
nemis tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasi o'qituvchisi

KOGNITIV LINGVISTIKADA ANTROPOTSENTRIK PARADIGMA VA LISONIY SHAXS KONSEPTI

Annotatsiya. Zamonaviy tilshunoslik taraqqiyotining hozirgi bosqichi tilni faqat lisoniy belgilar tizimi sifatida emas, inson tafakkuri, uning dunyoqarashi va kognitiv faoliyati bilan uzviy bog'liq holda o'rganishni taqozo etadi. Antropotsentrik paradigma doirasida "lisoniy shaxs" konsepti ilmiy tadqiqotlarning markaziga chiqdi. Mazkur maqolada lisoniy shaxsning konseptual bazasi, uning nutqiy faoliyatidagi namoyon bo'lish shakllari hamda kognitiv tuzilmalarning lisoniy birliklar vositasida voqelanishi masalalari tahlil qilinadi.
Kalit so'zlar: antropotsentrik paradigma, lisoniy shaxs, kognitiv lingvistika, konsept, diskurs, mental olam, lisoniy ong, konseptual makon.
Annotation. The current stage of development in modern linguistics requires studying language not merely as a system of linguistic signs, but in close connection with human cognition, worldview, and mental activity. Within the anthropocentric paradigm, the concept of the "linguistic personality" has taken center stage in scientific research. This article analyzes the conceptual framework of the linguistic personality, its manifestations in speech activity, and the realization of cognitive structures through linguistic units.
Keywords: anthropocentric paradigm, linguistic personality, cognitive linguistics, concept, discourse, mental world, linguistic consciousness, conceptual space.
Аннотация. Современный этап развития языкознания требует изучения языка не просто как системы знаков, а в тесной связи с человеческим мышлением, мировоззрением и познавательной деятельностью. В рамках антропоцентрического подхода концепт «языковая личность» занял центральное место в научных исследованиях. В статье анализируются концептуальная база языковой личности, формы её проявления в речевой деятельности, а также вопросы актуализации когнитивных структур посредством языковых единиц.
Ключевые слова: антропоцентрическая парадигма, языковая личность, когнитивная лингвистика, концепт, дискурс, ментальный мир, языковое сознание, концептуальное пространство.

XX asrning oxiri va XXI asr boshlariga kelib jahon tilshunosligida tub burilish yuz berdi. Tilni faqat immanent tizim, yopiq struktura sifatida o'rganishdan voz kechilib, uni inson omili bilan bog'liq holda tadqiq etish ustuvor vazifaga aylandi. Antropotsentrik yondashuv tilshunoslikning boshqa fanlar – psixologiya, sotsiologiya, kognitiv fanlar bilan integratsiyalashuvini ta'minladi. Natijada tilshunoslikda insonning lisoniy qobiliyati, uning tafakkur tarzi va olamning lisoniy manzarasini shakllantirishdagi roli asosiy o'rganish obyektiga aylandi.

Lisoniy shaxs konseptsiyasini ilmiy muomalaga kiritish va uning nazariy asoslarini ishlab chiqish tilshunoslik fanining yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qildi. Lisoniy shaxs deganda, muayyan tilda so'zlashuvchi, uning barcha imkoniyatlaridan foydalana oladigan, matnlar yaratish va tushunish qobiliyatiga ega bo'lgan individ tushuniladi.

Lisoniy shaxs strukturasini shakllantirish va uni tadqiq etish quyidagi tizimli ilmiy-metodik bosqichlar asosida amalga oshiriladi:

1. Kognitiv-mental sath: Individning ongida shakllangan konseptlar tizimi, dunyo haqidagi bilimlar bazasi hamda mantiqiy-falsafiy tasavvurlar majmuyi tahlil qilinadi.

2. Pragmatik sath: Til egasining kommunikativ maqsadlari, strategiyalari, nutqiy ta'sir ko'rsatish vositalari hamda muloqot sharoitiga moslashish qobiliyati o'rganiladi.

3. Lisoniy-verbal sath: Shaxsning o'z fikrini ifodalashda qo'llaydigan leksik-grammatik vositalari, uslubiy tanlovlari va individual nutqiy xususiyatlari baholanadi.

"Non" konsepti. *Lug'aviy ma'nosi:* un va suvdan tayyorlanib, pishiriladigan oziq-ovqat mahsuloti. *Konsept sifatida:* o'zbek madaniyatida "non" so'zi faqat yegulik emas. U *muqaddaslik, rizq-ro'z, hurmat, oila totuvligi* va *oqibat* konseptlari bilan uzviy bog'liq. Masalan, "nonni hurmat qilish", "non sindirish" (kelishuv belgisi), "yo'lga non tutqazish" kabi tushunchalar "non" konseptining milliy qatlamini tashkil etadi. Lisoniy shaxsning nutqiy faoliyatida har bir konseptual birlik muayyan mental soha doirasida semantik jihatdan klassifikatsiyalanadi. Mazkur jarayon ikki bosqichda amalga oshiriladi: 1. Tezisli-axborot sathi; 2. Assosiativ-emotsional sath.

Tezisli-axborot sathida matnning obyektiv mazmuni, faktologik ma'lumotlar aniqlansa, assosiativ-emotsional sathda esa so'zlovchining shaxsiy munosabati, uning madaniy-milliy xususiyatlari va emotsional bo'yoqdorligi yuzaga chiqadi. **Kognitiv modellashtirish va tahlil tamoyillari.** Zamonaviy kognitiv lingvistikada lisoniy shaxsning mental olamini ochib berish uning assosiativ maydonlarini va konseptual tarmoqlarini aniq belgilashni anglatadi. Ushbu maqsadlar uchun maxsus freym va stsenariy modellari ishlab chiqilib, matn korpuslari orqali tahlil qilinadi. Konseptual tahlilga misol: "konsept – Vatan", "kognitiv_belgi – muqaddas tuyg'u"

Lisoniy shaxsni o'rganishda qo'llaniladigan zamonaviy metodlar majmuasi til va tafakkur birligini ochib berishga xizmat qiladi. Ilmiy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, lisoniy shaxs nutqida madaniy kodlar va milliy-mental xususiyatlar dinamik o'zgarishlarga uchraydi. Globallashuv davrida insonning kognitiv bazasiga yangi axborot oqimlarining kirib kelishi uning lisoniy ongini boyitib, yangi konseptual qatlamlarni hosil qiladi. Lisoniy shaxsni o'rganish va uni raqamli bazalarga tatbiq etish – an'anaviy tasviriy lingvistikadan kognitiv semantikaga o'tishni ta'minlaydi. Bu kabi murakkab vazifalarni bajarish zamonaviy tadqiqotchidan filologik bilimlar bilan bir qatorda psixolingvistik va sotsiolingvistik yondashuvlarni ham mukammal egallashni talab etadi.

Zamonaviy kognitiv lingvistikaning nazariy asoslarini yoritishda yetakchi olimlarning ilmiy qarashlari muhim metodologik baza vazifasini bajaradi. Xususan, **Y.S.Kubryakova** yondashuviga ko'ra [1], kognitiv lingvistika inson ongida axborotni qayta ishlash jarayonlarini va ularning lisoniy shakllarda qanday aks etishini o'rganuvchi fundamental fan sifatida namoyon bo'ladi. Olimaning fikricha, til birliklari insonning dunyoni idrok etishidagi, uni konseptualashtirish va kategorizatsiya qilishdagi asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Misol uchun, ingliz yoki o'zbek tillaridagi fazoviy munosabatlarni bildiruvchi prepozitsiyalar va ko'makchilar

shunchaki grammatik ko'rsatkich emas, balki inson tafakkuridagi fazoviy yo'nalishni anglashning kognitiv modellari hisoblanadi.

V.A.Maslova lisoniy shaxs konsepsiyasi milliy madaniyat va tilning o'zaro munosabatlarini ochib beruvchi asosiy kalit ekanligini ta'kidlaydi [2]. Lisoniy shaxs har doim muayyan milliy-madaniy muhit mahsulidir. Masalan, o'zbek lisoniy shaxsi ongida "mehmonnoma", "ashula", "mahalliychilik" kabi tushunchalar o'ziga xos milliy-madaniy konseptual maydonni hosil qilsa, nemis lisoniy shaxsi uchun "Pünktlichkeit" (aniqlik/vaqtiga rioya qilish) yoki "Ordnung" (tartib) konseptlari ustuvor mental qadriyat sifatida namoyon bo'ladi.

A.N.Baranovning ta'kidlashicha [3], kognitiv modellashtirish jarayonida til birliklarining ma'nosini faqat tor lisoniy doirada emas, balki keng konseptual tizimlar bilan uzviy bog'liqlikda o'rganish maqsadga muvofiqdir. Masalan, "vaqt" konseptining o'zbek va rus tillaridagi lingvistik ifodasini tahlil qilganda, u faqat so'z ma'nosi bilan cheklanib qolmay, balki "vaqtni o'tkazish", "vaqtni tejash" yoki "время идет" kabi metaforik modellar orqali insonning kognitiv faoliyati bilan bog'lanadi.

Lisoniy shaxs va kognitiv tuzilmalarni o'rganish tilshunoslikning eng ustuvor va istiqbolli yo'nalishlaridan biridir. Bugungi kunda kognitiv tilshunoslik yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha yagona universal metodologiya to'liq shakllanmagan bo'lsa-da, uning poydevor tamoyillari qat'iy ilmiy yondashuvni talab etadi. Aks holda, lingvistik tadqiqotlarda yuzaki yondashuv va deskriptivizm (shunchaki tavsiflash bilan cheklanish) ko'zga tashlanishi mumkin.

Bu holat, ayniqsa, tarjimashunoslik va qiyosiy tilshunoslik yo'nalishlaridagi ilmiy ishlar sifatiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Masalan, badiiy matndagi milliy-madaniy konseptlarni tarjima qilishda kognitiv ekvivalentlik buzilsa, adresatda noto'g'ri mental obraz shakllanadi. Shu bois, konseptual va kognitiv tahlil bosqichida yo'l qo'yilgan har qanday metodologik xatolik yakunda ilmiy xulosalarning obyektivligiga va tadqiqotning amaliy qimmatiga putur yetkazadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кубрякова Е.С. Роль словообразования в формировании языковой картины мира // Роль человеческого фактора в языке: Язык и картина мира. М.: Наука, 1988.
2. Маслова В.А. Лингвокультурология: учебное пособие. М.: Академия, 2001.
3. Баранов А.Н. Введение в прикладную лингвистику: учебное пособие. М.: Эдиториал УРСС, 2001.
4. Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. М.: Наука, 1987.

Nafisa NAZAROVA

O'TKIR HOSHIMOVNING "URUSHNING SO'NGGI QURBONI" HIKOYASIDA QO'LLANGAN IBORALARNING LINGVISTIK TALQINI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'tkir Hoshimovning "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasida qo'llangan iboralar lingvistik jihatdan tahlil qilinadi.
Kalit so'zlar: "Urushning so'nggi qurboni", ibora, frazeologizm, frazeologik birlik, ko'chma ma'no, obrazlilik.
Annotation. This article examines the phraseological units used in the story "Urushning so'nggi qurboni" ("The Last Victim of the War") by the famous Uzbek writer O'tkir Hoshimov from a linguistic perspective.
Keywords: "Urushning so'nggi qurboni", phraseological unit, idiom, figurative meaning, imagery.
Аннотация. В статье рассматриваются фразеологические единицы, использованные в рассказе известного узбекского писателя Уткира Хашимова «Последняя жертва войны» ("Urushning so'nggi qurboni"), с лингвистической точки зрения.
Ключевые слова: «Последняя жертва войны», фразеологизм, фразеологическая единица, идиома, переносное значение, образность.

Badiiy asar tilining ta'sirchanligi va obrazliligi ko'p jihatdan unda xalq tiliga xos bo'lgan iboralarning qo'llanishi bilan bog'liq. Iboralar tilning tayyor, barqaror va ko'pincha ko'chma ma'noda qo'llanadigan birliklari bo'lib, ular oddiy so'z orqali ifodalash qiyin bo'lgan murakkab ruhiy holat, munosabat va kechinmalarni ixcham hamda ta'sirchan tarzda ifodalash imkonini beradi. O'tkir Hoshimov ijodida xalqona nutq, sodda va tabiiy ifoda, jonli dialoglar alohida o'rin tutadi. Adibning "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasida ham xalq tilining boy imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanilgan.

Hikoya voqealari urush davridagi og'ir hayot, oziq-ovqat tanqchiligi, qashshoqlik, o'g'rilik, oilaviy ziddiyatlar va insoniy munosabatlarning murakkablashuvi davrida kechadi. Bunday muhitni tasvirlashda iboralar muhim lingvistik vosita vazifasini bajaradi. Hikoyaning dastlabki sahifalaridayoq qahramonning ruhiy holatini ifodalovchi iboraga duch kelamiz: *"...u endi payqaganday g'ashi keldi"*. Bu yerda *"g'ashi kelmoq"* iborasi kishining biror holat yoki narsadan norozi bo'lishi, ko'ngliga yoqmaslik, bezovta bo'lishi ma'nosini anglatadi. Shoikromning oddiy ro'zg'or buyumlaridan ham noroziligi uning ichki bezovtaligini ko'rsatadi. Demak, ibora qahramonning tashqi harakatini emas, uning ichki ruhiy holatini ifodalashga xizmat qilgan.

Shuningdek, asarda: *"...yana o'sha tovoqqa, bandi kuygan qoshiqqa ko'zi tushib, tag'in g'ashlandi"*. *"Ko'zi tushmoq"* iborasi "ko'rib qolmoq", "nazariga tushmoq" ma'nolarida qo'llangan. Mazkur ibora takroriy tarzda kelib Shokiromning e'tiborini aynan o'sha ro'zg'or buyumlariga qaratadi. Hikoyadagi Shoikrom tilidan: *"O'zim itday charchaganman"*. degan jumla ham personajning holatini ta'sirchan ifodalashga xizmat qiladi. Bu o'rinda *"itday charchamoq"* o'ta kuchli charchoqni bildiruvchi obrazli ifodadir. "Juda charchadim" shaklidagi oddiy ifodaga nisbatan ushbu birlik personaj nutqiga xalqonalik va emotsional bo'yoq beradi.

Asarda urushning insonlar hayotiga ko'rsatgan ta'siri ham frazeologik birliklar orqali ifodalanadi. Masalan: *"Bir xil odamlar tirnoqqa zor"*. *"Tirnoqqa zor"* birikmasi orqali ma'no ko'chishining synekdoxa usulidan foydalanib farzand ko'rishga muhtoj bo'lgan kishilar holati bildiriladi. Ushbu ma'no ko'chishi hikoyada oila, farzand va nasl masalasining o'sha davrdagi ijtimoiy ahamiyatini ifodalash bilan birga, Shokromning oilaviy vaziyatiga nisbatan munosabatini ham ochib beradi.

Yana bir o'rinda: *"Uning xotini bo'lsa, yonidan o'tib ketsa ham boshqorong'i bo'lavergan"*. *"Boshqorong'i bo'lmoq"* homiladorlik bilan bog'liq holatni xalqona tarzda ifodalovchi frazeologik birlikdir. Muallif ushbu ibora orqali Xadichaning ketma-ket farzand ko'rishini oddiy tibbiy yoki ilmiy atama bilan emas, xalq tilidagi tabiiy ifoda orqali tasvirlaydi. Urushning davom etayotgan ta'siri esa quyidagicha ifodalanadi: *"...hamon uning soyasi odamlar boshiga ko'lanka tashlab turibdi"*. Bu o'rinda *"soya tashlamoq"* birikmasi o'zining to'g'ri ma'nosidan tashqari, ko'chma ma'noda qo'llangan. Urush tugash arafasida yoki uzoqlashayotgan bo'lsa ham, uning oqibatlari odamlar hayotidan ketmaganini anglatadi. Shunday qilib, ushbu ifoda urushni go'yo insonlar boshiga soya solib turgan hodisa sifatida obrazlashtiradi.

Hikoyada iboralar personajlarning xarakterini ochishda ham muhim vosita hisoblanadi. Masalan: *"...ikir-chikir gaplar chiqaverganidan keyin..."* *"Ikir-chikir gaplar"* arzimas, mayda-chuyda, keraksiz gap-so'zlarni anglatadi. Bu ibora Shokrom oilasidagi kelishmovchiliklarning sababini umumlashtirib beradi.

Shuningdek: *"...qovog'ini solib"*. Bu ibora Shokromning norozi va jiddiy holatini ifodalaydi. *"Qovog'ini solmoq"* kishining jahli, noroziligi yoki xafaligi yuz ifodasida namoyon bo'lishini bildiradi. Adib shu birlik orqali qahramonning ruhiy holatini batafsil tasvirlamasdan, qisqa va obrazli tarzda ifodalagan.

Quyidagi jumlada esa: *"Shokrom ... tishini g'ijirlatdi"*. *"Tishini g'ijirlatmoq"* iborasi kuchli g'azab, alam yoki o'zini zo'rg'a tiyish holatini anglatadi. Bu yerda Shokromning xotiniga nisbatan jahlini jismoniy harakat orqali ko'rsatish bilan birga, uning ichki ziddiyati ham ochiladi. U g'azablangan bo'lsa-da, xotinini urishdan o'zini tiyishga harakat qiladi.

Hikoyaning keyingi qismlarida iboralar qahramonlarning qo'rquvi va xavotirini tasvirlashda faol qo'llanadi. Xadicha: *"Men uchta jo'ja bilan jonimni hovuchlab o'tirganim yetmaydimi?!"* - deydi. *"Jonini hovuchlab o'tirmoq"* kuchli qo'rquv, xavotir va xavf ostida yashash holatini anglatadi. Bu ibora urush davrida yolg'iz ayolning oilasi xavfsizligidan xavotirda yashayotganini juda ta'sirchan ifodalaydi.

Shokrom ham o'g'ri tushishi ehtimolini o'ylarkan: *"...o'zining ham yuragi seskanib ketganini payqadi"*. Bu yerda *"yuragi seskanmoq"* kutilmagan qo'rquv yoki xavotirni bildiradi. Personaj tashqi tomondan o'zini xotirjam ko'rsatishga harakat qilsa-da, ibora uning ichki qo'rquvini fosh qiladi.

Yana kuchli psixologik holat quyidagicha tasvirlanadi: *"... yuragi orqasiga tortib ketdi"*. Mazkur ibora birdaniga kuchli qo'rqish, vahimaga tushish ma'nosini anglatadi. Shokrom devorning bir qismi o'pirilib tushganini ko'rib, u yerdan o'g'ri kirgan bo'lishi mumkinligini o'ylaydi. Demak, ibora syujetdagi keskinlikning kuchayishiga ham xizmat qiladi.

Hikoyada iboralarning yana bir muhim xususiyati – ular oddiy axborotni emotsional va obrazli axborotga aylantiradi. Masalan: *"...ko'ngli g'ash tortib, uyiga qaytdi"*. *"Ko'ngli g'ash tortmoq"* kishining biror noxush hodisani sezganday bezovta bo'lishini bildiradi. Shokrom uyiga kelishidan oldin nimadir yomon bo'lganini ich-ichidan sezadi. Keyinchalik sigirning o'g'irlangani ma'lum bo'ladi. Demak, ibora nafaqat qahramonning ruhiy holatiga ham xizmat qiladi.

Hikoyada: *"...qora qonga belanib yotganini..."* ifodasi ham uchraydi. *"Qonga belanmoq"* jiddiy jarohatlangan yoki qon

ichida qolgan holatni obrazli tarzda ifodalaydi. Bu birlik voqeaning fojeaviyligini kuchaytirib, o'quvchi tasavvurida keskin manzara hosil qiladi.

Asarning keyingi qismida Shokromning o'z sigirini qanday qadrlagani: *"Qora kunlari uchun, ne umidlar bilan tishida tishlab yurgan sigirini o'g'irlagani uchun..."* tarzida ifodalanadi. *"Tishida tishlab yurmoq"* birikmasi qiyinchilik bilan, avaylab-asrab, katta umid bilan biror narsani saqlab yurish ma'nosini anglatadi. Bu yerda sigir oddiy chorva sifatida emas, oilaning tirikchiligi va kelajak umidi sifatida tasvirlangan. Shuning uchun ushbu ibora asardagi ijtimoiy-maishiy mazmunni kuchaytiradi.

O'tkir Hoshimov hikoyasidagi iboralarning aksariyati xalq og'zaki nutqiga yaqin. Masalan, *"g'ashi kelmoq"*, *"qovog'ini solmoq"*, *"jonini hovuchlab o'tirmoq"*, *"ko'ngli g'ash tortmoq"*, *"yuragi orqasiga tortib ketmoq"*, *"tishini g'ijirlatmoq"* kabi birliklar kundalik so'zlashuv tilida ham faol qo'llanadi. Adib bunday birliklardan foydalanib, personajlar nutqini sun'iylashtirmaydi. Aksincha, qahramonlar xuddi real hayotdagi odamlar kabi tabiiy gapiradi. Bu esa hikoyaning xalqchilligi va hayotiyligini oshiradi.

Iboralar personajlarning individual nutqini yaratishda ham muhim ahamiyatga ega. Shokromning jahldorligi, Xadichaning qo'rquvi va xavotiri, Umri xolaning sabr-toqati kabi jihatlar ko'pincha aynan obrazli iboralar orqali ochib beriladi. O'tkir Hoshimovning "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasida qo'llangan iboralar asarning badiiy-estetik qimmatini ta'minlovchi muhim lingvistik vositalardan biridir. Ular orqali yozuvchi qahramonlarning ruhiy holati, qo'rquvi, g'azabi, xavotiri, noroziligi va umidlarini ixcham, obrazli hamda ta'sirchan tarzda ifodalagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hoshimov O'. Urushning so'nggi qurboni: hikoyalar. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2018.
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1978.
3. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1992.
4. Yo'ldoshev B. Frazeologik uslubiyat asoslari. – Samarqand: SamDU, 1999.

Gulshan RAHIM,
Mustaqil tadqiqotchi, fililologiya fanlari nomzodi

O'ZBEK MANBASHUNOSLIGI VA MATNSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI

Annotatsiya. O'zbek xalqi qo'lyozma merosining yaratilishida markazlashgan temuriylar davlatchiligi qanchalar sermahsul davr bo'lgan bo'lsa, keyinchalik – "turg'unlik davri" deb nom olgan XVI–XIX asrlar ham shu qadar hosildor davr bo'ldi. XVIII asr oxirlari – XIX asr boshlarida Buxoro amirligidagi madaniy-adabiy qarashlarni, asosan "Mujrim-Obid devoni" nusxalarining va boshqa shoirlar ijodini kengroq o'rganish orqali tadqiq etarkanmiz, o'zbek matnshunosligida tabdil masalasida ko'pgina tajribalar umumlashtirilishi zarurligiga ehtiyoj borligi sezildi. "Mujrim-Obid devoni" qo'lyozma nusxalari ustida olib borgan ishlarimiz, amaliy tajribalar kelajakdagi matniy tadqiqot ishlariga zamin bo'ladi deb o'ylaymiz.

Kalit so'zlar: qo'lyozma, meros, XVIII asr oxiri – XIX asr boshi, Mujrim-Obid, devon.

Annotation. Just as the period of centralized Timurid statehood was an exceptionally fruitful era in the creation of the Uzbek people's manuscript heritage, the subsequent 16th to 19th centuries – often labeled as a "period of stagnation" – proved to be equally productive. As we examine the cultural and literary discourse of the Emirate of Bukhara in the late 18th and early 19th centuries – primarily through the study of manuscript copies of "Mujrim-Obid's Diwan" alongside the works of other poets—it becomes evident that there is a critical need to synthesize accumulated experiences regarding text transcription and transliteration (tabdil) in Uzbek textual scholarship. We believe that our practical findings derived from working with the manuscript copies of "Mujrim-Obid's Diwan" will serve as a foundational basis for future textual studies.

Keywords: manuscripts, heritage, the late 18th and early 19th centuries, Mujrim-Obid, Diwan.

Аннотация. Насколько период централизованной тимуридской государственности был продуктивным этапом в создании рукописного наследия узбекского народа, настолько же плодотворными оказались и последующие XVI–XIX века, традиционно именуемые «периодом застоя». Исследуя культурно-литературные воззрения Бухарского эмирата конца XVIII – начала XIX века преимущественно на основе изучения списков дивана Муджрима-Обида и творчества других поэтов, мы пришли к выводу о необходимости обобщения имеющегося опыта в вопросах транскрибирования и текстологической адаптации (табдил) в узбекском текстоведении. Полагаем, что наш практический опыт, полученный в ходе работы над рукописными списками дивана Муджрима-Обида, послужит основой для будущих текстологических исследований.

Ключевые слова: рукопись, наследие, конец XVIII – начало XIX вв., Муджрим-Обид, диван.

O'rta Osiyo xalqlari mumtoz adabiyoti ko'p ming yillik yozma merosga ega bo'lib, bu meros nafaqat tarixiy-falsafiy, balki adabiy-badiiy, madaniy-ijtimoiy qimmatga egadir. O'zbek xalqining mazkur merosi xonliklar vatani bo'lgan hozirgi O'zbekiston hududidagina emas, balki butun dunyoga sochilib ketganiga tarix va tadqiqotchilar guvohdir. Bu merosning yaratilishida markazlashgan temuriylar davlatchiligi qanchalar sermahsul vaqt bo'lgan bo'lsa, keyinchalik, *"turg'unlik davri"* deb nom olgan XVI–XIX asrlar ham shu qadar hosildor davr bo'ldi.

Yuz yildan oshibdiki, bu meros zamonaviy matnshunoslik, manbashunoslik, sharqshunoslik, qolaversa, adabiyotshunoslik kabi ilmiy muassasalar tadqiqotchi olimlari tomonidan to shu kungacha o'rganib kelinmoqda. O'zbek adabiyotshunosligi uchun Hazrat Alisher Navoiydan keyingi adabiy-ijtimoiy tafakkurning qay tariqa davom etib uning bugungi kungacha yetib kelib xizmat qilayotgani, hatto, yangi qo'lyozma devonlarning (xususan, *"Mujrim-Obid qo'lyozma devoni"* nusxalarining) bugungi kun o'quvchilari qo'liga tegishi fikrimizning dalilidir. XVIII asr ikkinchi yarmi – XIX asr boshlari Buxoro amirligi davrida yashab ijod etgan zullisonayn shoir Mujrim Obidning dunyoqarashi, ma'naviy-estetik ijodini, deyarli, to'laqonli tarzda o'zida mujassam etgan qo'lyozma manbalarni bugungi innovatsion-media davr o'quvchisi bilan munosabatga kirishtirish o'zi katta muhim etik-ijtimoiy vazifa, deb hisoblash mumkin.

Asl qo'lyozma matnlarga murojaat qilingan tadqiqotlarda olingan natija va xulosalar ilmiy jihatdan baland avtoritet hamda tadqiqot umrining nisbatan uzunligiga hech kim shubha qilmasa kerak. Chunki matnni qo'lyozmadagi asl alifbodan kiril (lotin) yozuviga ko'chirishning o'zi barcha lisoniy xususiyatlarni saqlab qola bilish uchun katta mahorat, tajriba va bilim talab qiladi. *Tabdil* qilishning nozikligi shundaki, undagi hatto fonetik xato ham she'r vaznining o'zgarishiga, u esa, qisman bo'lsa-da mazmunga ta'sir etish holatlari uchrab turadi.

Mumtoz shoirlarimiz asarlarining qo'lyozmalar asosida tahlili mavzusi zamonaviy matnshunoslik, mumtoz adabiyotshunoslik fanida dolzarb va *aktual* masala hisoblanadi. Tadqiqot natijalari nafaqat Mujrim-Obid ijodining tarixiy va badiiy ahamiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi, balki keyingi asrlar o'zbek mumtoz adabiyoti va she'riyat an'analarini o'rganishdagi ilmiy manbalar tadqiqi, tadqiqot usullarini esa yangi bilim-ko'nikmalar hamda turli-tuman tajribalar bilan boyitadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son *"Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"*, shuningdek, 2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-son "Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, hamda 2022-yil 6-sentabrdagi 498-sonli "Qadimiy qo'lyozma manbalar davlat reyestri to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarorida belgilab berilgan vazifalar biz amalga oshirmoqchi bo'lgan ilmiy ishlarimizning dolzarbligini ko'rsatadi.

Mazkur yo'nalish bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar ko'plab yaratilgan. O'rta Osiyoda asrlar davomida ko'chirilgan qo'lyozmalar va ularning nusxalari dunyoning ko'plab shaharlaridagi Sharq qo'lyozmalari fondlarida saqlanib kelinmoqda. Shu sababdan mazkur shaharlarda xorijiy olimlar ham shu kungacha sharq qo'lyozmalari ustida manbashunoslik va matnshunoslikka oid yo'nalishlarda ish olib borgan va olib bormoqdalar. Jumladan, Y.Bertels [3], V.Bartold [4], A.Semyonov [5], Y.Yekman [6], D.Lixachev [7] kabi olimlarning matnshunoslik va manbashunoslik sohasiga oid, navoiyshunoslikka va umuman fan nazariyasiga oid tadqiqotlari biz uchun ham ilmiy dastur vazifasini o'taydi va inchunin,

ahamiyati ulug‘, deb hisoblaymiz. Dunyo *tekstologiyasi* va *kodikologiyasi* fanlari yutuqlarini o‘z adabiyotshunosligimiz va manbashunosligimizga izchil olib kirish lozimligini his etamiz.

Turkiyalik matnshunos O.S.Levendning *“Turkiya kitobxonalaridagi Navoiy qo‘lyozmalari”* nomida chop etilgan *fexristi* so‘zboshisida, Alisher Navoiyning barcha turkiy tillarning boshlang‘ich manbasi, deya olqishlanishi biz o‘zbek tadqiqotchilarini vatanimizdagi qo‘lyozma manbalarda saqlangan turkiy o‘zbek tili matnlarini davrlararo ishtiyoq bilan o‘rganishga chorlaydi.

E.Birnbaum o‘z tadqiqotlarida [8] XVI asr boshlariga oid bir qo‘lyozmani usmonli yozuvi jihatidan tahlil qiladi. U qo‘lyozmaning chag‘atoy adabiy tilida ekanligini aytib o‘tadi. Olimning tadqiqotlarida mumtoz matnning usmonli turkchaga moslashuvi, matn nusxalari tarixi va *kodikologiyasi* yuqori ilmiy darajada o‘rganilgan. Biz matnshunoslar ham arab alifbosidagi mumtoz chag‘atoycha qo‘lyozma matnni uyg‘ur o‘z lahjasiga, o‘g‘uz turklari o‘z shevasiga moslab o‘qib ketaverganligini anglaganmiz. Ammo E. Birnbaum bu matniy hodisani ilmiy asoslab bergan.

UnilibraryЕщё 2

Albatta, matnshunoslik va manbashunoslik sohalarida g‘arb va boshqa sharqshunoslar ancha ilg‘or zamonaviy ilmiy tajribalarga ega. Bizning matnshunoslik va manbashunoslikda hozircha amaliy tajribalar umumlashtirilib, uning yagona nazariy *aspektlarini* ishlab chiqishdek muhim vazifa turgani holda, to‘g‘risini aytganda, dastlabki matnni *original* matnga yaqin tanqidiy matnini yaratish kabi amaliy ishlarimiz to‘la oxiriga yetmaganini, mumtoz matn nashrlarida yuzlab, hatto bundan ko‘p matniy xatolarga yo‘l qo‘yayotganimizni oshkor tan olishimizga to‘g‘ri keladi.

Ayniqsa, XVIII asr oxirlari – XIX asr boshlaridagi Buxoro amirligidagi madaniy-adabiy qarashlar asosan, *“Mujrim-Obid devoni”* nusxalarining va boshqa shoirlar ijodini kengroq o‘rganish orqali tadqiq etishga kirisharkanmiz, bu davr Buxoro amirligidagi siyosiy-ijtimoiy hayotida muhim voqeliklar bo‘lib o‘tgani ma’lum. Xuddi shu asrlarda yashab ijod etgan shoir Mujrim-Obid she’riyatida mazkur ijtimoiy hodisalar ko‘zgudagi kabi ravshan bo‘lmasa-da, ammo ancha rostgo‘ylik bilan qalamga olingani “Mujrim-Obid devoni”dagi asarlar orqali ko‘zga tashlanadi.

O‘tgan asrning 50–60-yillarida XVI–XIX asrlarda yashab ijod etgan bir necha o‘nlab sharqning, O‘rta Osiyoning shoirlari, mutafakkir allomalari asarlari manbalardan zamonaviy alifboga (kiril yozuviga) *tabdil* qilinib nashrlarga ko‘chdi [11]. Yurtimiz olimlaridan P.Shamsiyev, H.Sulaymonov, A.Qayumov, S.G‘aniyeva, M.Hakimov, Q.Munirov, A.Nosirov, A.Erkinov, O.Jo‘raboyev kabi navoiyshunos-manbashunoslarning tadqiqotlari umuman o‘zbek adabiy matnshunosligi uchun dasturilamal, tajribali va muhim qo‘llanma sifatida ahamiyatlidir. Bundan tashqari, akademik Aziz Qayumovning [9], Y.Ishoqovning [16], Sh.Sirojiddinovning, SJo‘rayevaning [17] mazkur davrdagi shoirlar ijodi doirasida olib borgan tadqiqotlari biz uchun yonhamyon kitobi vazifasini o‘taydi.

Mujrim Obid, Xumuliy, Shukuriy kabi (balki yana topilishi mumkin) Buxoro amirligi hududlaridagi XVIII asr oxiri va XIX asr boshlari shoirlari hayoti va ijodi haqida to‘la ma’lumotga ega bo‘lish, ularning devonlarini nashrga tayyorlash (*“Mujrim-Obid devoni”* tayyorlandi) va xalqimizga taqdim etish, bu davr va ijodkorlar haqida faktlarga asoslangan tadqiqotlarni, dastavval, manbashunoslik, matnshunoslik *aspektida* ilmiy faol muomalaga kiritish asosiy maqsadimizdir. “Mujrim-Obid devoni”ning 3 ta nusxasi asosida shoirning nisbatan mukammal devonini tuzish amaliyoti bizga ko‘p manbaviy va matniy tajribalar berdi. Va biz kelajakdagi ishlarimizda bu haqda fikrlashamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-son “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. https://lex.uz/uz/docs/-4791086.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 6-sentabrdagi 498-son «Qadimiy yozma manbalar davlat reyestri to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. https://lex.uz/uz/docs/-6184034.
3. Бертельс Е.Э. Навои и Джами. М.: Наука, 1965.; Бертельс Е.Э. Навои. М.; Л.: Издательство АН СССР, 1948.
4. Бартольд В.В. Мир Али-шир и политическая жизнь. М.: Издательство восточной литературы, 1964.
5. Семенов А.А. Описание персидских, арабских и турецких рукописей. Т.: Издательство Среднеазиатского государственного университета, 1935.
6. Maqsudov B. “Navodir un-nihoya”ning yangi topilgan qo‘lyozma nusxasi // O‘zbek tili va adabiyoti, 2016, №6. – B. 49–52.
7. Лихачев Д.С. Текстология. М.: Наука, 1980.
8. Birnbaum E. Ottoman Turkish and Chaghatay literature: An Early 16th Century Manuscript of Nava’is Divan in Ottoman Orthography // Central Asiatic Journal, 1976. Vol. 20 (3). – P. 157–190.
9. Qayumov A. Qo‘qon adabiy muhiti. – Toshkent: Fan, 1960.
10. Hoziq. Devon. – Toshkent: Fan, 1961.
11. Maxmur. Devon. – Toshkent: Fan, 1964.
12. Pahlavonquli Ravnaq. She’rlar. – Samarqand: SamDU nashri, 1958.
13. Amiriy. Devon. – Toshkent: Fan, 1960.
14. Avaz. Devon. – Toshkent: Fan, 1958.
15. Turdi. She’rlar. – Toshkent: Fan, 1971.
16. Mualliflar jamoasi. O‘zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik. 4-jild. – Toshkent: Fan, 1978.
17. Shukuriy. Devon. – Toshkent: Akademnashr, 2020.

Shaxnoza SULTANOVA,
Zarmed universiteti qabul bo'limi mutaxassisi

BIZNES PR KONTENTIDA SINTETIK MEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada biznes strukturasining jamoatchilik bilan aloqalarida sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari va sintetik media vositalaridan foydalanishning kommunikativ xususiyatlari tahlil qilinadi. Raqamli kommunikatsiya muhitining rivojlanishi natijasida biznes subyektlari auditoriya bilan muloqot qilish, axborot tarqatish, brend imijini shakllantirish va media kontent ishlab chiqarishda sun'iy intellektga asoslangan texnologiyalardan tobora ko'proq foydalanmoqda. Ayniqsa, generativ SI yordamida matn, tasvir, audio va video materiallarning tezkor yaratilishi PR kommunikatsiyasining mazmuni, shakli va tarqatish mexanizmlarini o'zgartirmoqda. Tadqiqotda SI-kontent va sintetik medianing biznes PR kommunikatsiyasidagi o'rni, ularning auditoriya ishonchiga ta'sir qiluvchi omillari hamda kommunikativ samaradorlik va axborot shaffofligi o'rtasidagi munosabatlar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari SI texnologiyalaridan foydalanishda kontentning texnik sifatidan tashqari uning autentikligi, shaffofligi, insoniy nazorati va brend kommunikatsiyasi bilan uyg'unligi muhim ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, SI kontent, sintetik media, biznes PR, raqamli kommunikatsiya, auditoriya ishonchi, brend, generativ SI, kommunikativ samaradorlik, media shaffofligi, autentiklik.

Annotation. This article analyzes the communicative features of using artificial intelligence technologies and synthetic media tools in the public relations of a business structure. As a result of the development of the digital communication environment, business entities are increasingly using AI-based technologies in communicating with audiences, disseminating information, shaping brand image, and producing media content. In particular, the rapid creation of text, image, audio, and video materials with the help of generative AI is changing the content, form, and distribution mechanisms of PR communication. The study examines the role of AI content and synthetic media in business PR communication, the factors influencing audience trust, and the relationship between communicative effectiveness and information transparency. The results of the study show that when using AI technologies, along with the technical quality of content, its authenticity, transparency, human control, and compatibility with brand communication are important.

Keywords: artificial intelligence, AI content, synthetic media, business PR, digital communication, audience trust, brand, generative AI, communicative effectiveness, media transparency, authenticity.

Аннотация. В статье анализируются коммуникативные особенности использования технологий искусственного интеллекта и средств синтетических медиа в связях с общественностью бизнес-структуры. В результате развития среды цифровой коммуникации бизнес-субъекты всё чаще используют технологии на основе искусственного интеллекта для общения с аудиторией, распространения информации, формирования имиджа бренда и производства медиаконтента. Особенно стремительное создание текстовых, графических, аудио- и видеоматериалов с помощью генеративного ИИ меняет содержание, форму и механизмы распространения PR-коммуникации. В исследовании рассматриваются роль ИИ-контента и синтетических медиа в бизнес-PR-коммуникации, факторы их влияния на доверие аудитории, а также взаимосвязь между коммуникативной эффективностью и информационной прозрачностью. Результаты исследования показывают, что при использовании технологий ИИ, помимо технического качества контента, важны его аутентичность, прозрачность, человеческий контроль и согласованность с бренд-коммуникацией.

Ключевые слова: искусственный интеллект, ИИ-контент, синтетические медиа, бизнес-PR, цифровая коммуникация, доверие аудитории, бренд, генеративный ИИ, коммуникативная эффективность, прозрачность медиа, аутентичность.

So'nggi paytlarda tijoriy korxonalarning o'z mijozlarini yetarli darajada xabardor qilish istagi asta-sekin kuchayib bormoqda. Qusursiz xizmatni taqdim qilishga intilish manfaatdor tomonlar o'rtasida yaxshi munosabatlarni vujudga keltirishi sababli rentabellikni oshirishga qodir. Ommaviy axborot vositalarida moliyaviy-iqtisodiy faoliyatga bag'ishlangan maxsus sahifalar, ruknlar yoki nashrlarni taqdim etish, moliya institutlari tomonidan PR bilan shug'ullanish, shu jumladan tashkilot yo'nalishini tushuntirish va noto'g'ri tasurotlarni tuzatish uchun majburiy ehtiyoj mavjud. Ayniqsa, bugungi raqamli media muhitida biznes subyektlari uchun jamoatchilik bilan aloqalarni tashkil etish an'anaviy axborot tarqatish modelidan interaktiv, ko'p platformali va ma'lumotlarga asoslangan kommunikatsiya modeliga o'tmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar, korporativ media, bloglar, video platformalar va boshqa raqamli kanallar auditoriya bilan bevosita muloqot qilish imkoniyatini kengaytirgani holda, PR kontentining tezkorligi, vizualligi va individuallashtirilishiga bo'lgan talabni ham oshirmoqda. Mazkur sharoitda sun'iy intellekt texnologiyalari biznes PR faoliyatining muhim vositalaridan biriga aylanmoqda.

Generativ SI matn yaratish, tasvir va video ishlab chiqish, ovoz sintez qilish, ma'lumotlarni tahlil qilish, auditoriya segmentlarini aniqlash hamda kommunikatsiya strategiyasini optimallashtirish imkonini beradi. Sintetik media esa inson tomonidan bevosita qayd etilmagan yoki sun'iy texnologiyalar yordamida yaratilgan va o'zgartirilgan matn, tasvir, audio va video kontentni o'z ichiga oladi. Ingliz tilida "synthetic media" atamasi SI tomonidan yaratilgan kontent ma'nosida taxminan 2018-yildan boshlab qo'llanila boshlandi. "Synthetic" so'zi ko'pincha "artificial" (sun'iy) yoki hatto "fake" (soxta) deb talqin qilinmoqda. Biroq uning asl ma'nosi "inson tomonidan SI vositalari yordamida sintez qilingan" degan ma'noni anglatadi. PR kommunikatsiyasida mazkur texnologiyalarning kengayishi ikki tomonlama jarayonni yuzaga keltirmoqda.

Bir tomondan, SI biznes tashkilotlariga katta hajmdagi kontentni qisqa vaqt ichida ishlab chiqarish, turli auditoriyalar uchun moslashtirish va kommunikatsiya jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini beradi. Ikkinchi tomondan, sintetik kontentning real va sun'iy material o'rtasidagi chegarani murakkablashtirishi auditoriyaning axborotga bo'lgan ishonchi, kontentning autentikligi va kommunikatsiyaning etik jihatlari masalasini dolzarb qiladi. Shu nuqtayi nazardan, biznes PR kontentida SI va sintetik media vositalaridan foydalanishni faqat texnologik yangilik sifatida emas, balki kommunikativ munosabatlar tizimining transformatsiyasi sifatida o'rganish muhimdir.

Tadqiqotning maqsadi biznes PR kommunikatsiyasida SI va sintetik media vositalaridan foydalanishning asosiy kommunikativ xususiyatlarini aniqlash hamda ularning auditoriya ishonchi bilan bog'liq jihatlarini ilmiy asoslashdan iborat. Tadqiqotning ilmiy farazi shundan iboratki, SI texnologiyasidan ochiq foydalanishning o'zi auditoriya

ishonchini belgilamaydi. Ishonch darajasiga kontentning shaffofligi, autentikligi, insoniy nazorat darajasi va brendning kommunikativ obro'si birgalikda ta'sir ko'rsatadi.

G'arb mamlakatlaridagi muvaffaqiyatli savdo uchun "5 P" nazariyasiga ko'ra:

1) "product" – sifatli mahsulot,
2) "price" – arzon narx,
3) "promotion" – afzalliklarni ilgari surish,
4) "place" – qulay joylashuv,
5) "PR" – muvaffaqiyatli marketing majmuyining muhim komponentlari hisoblanadi. Biroq PR jamoatchilik ongiga mahsulotning o'zidan ko'ra ko'proq uning muallifi bo'lgan korxonani muhrlashga harakat qiladi. Mahsulotni bozorda ilgari surish asosan iste'molchilar bilan, korxonaning ijobiy imijini oshirish esa keng jamoatchilik bilan amalga oshiriladi. Bu strategik maqsadga firmaning ijtimoiy muhit, mijozlar, hukumat organlari, ommaviy axborot vositalari, firma xodimlari bilan kommunikatsiyalarisiz erishib bo'lmaydi. PR tizimi biron-bir mahsulot, tashkilot, korxona yoki hodisa borasida jamoatchilik fikrini shakllantirish, kuchaytirish yoki o'zgartirish maqsadida jamoatchilik fikriga ta'sir ko'rsatishi lozim.

Nazariyotchi V.Korolko shunday yozgan: "PR ni xo'jako'rsinga tashkil qilmaslik kerak. Har qanday yo'l bilan o'zlariga yaxshi sharoit yaratish uchun xalqni aldash va omma ishonchini suiste'mol qilish noxush oqibatlarga olib keladi. Jamiyatni qandaydir ma'lum bir muddat davomida aldash mumkin. Biron-bir qisminigina uzoqroq aldab yurish mumkin. Butun jamiyatni har doim aldab yurish esa hali hech kimga nasib qilmagan" [2: 14].

Tadqiqotning birinchi bosqichida ilmiy adabiyotlar va nazariy manbalarni tahlil qilish usulidan foydalanildi. SI bilan prompt asosidagi o'zaro hamkorlik generativ sintetik media yordamida jurnalistikada mazmun yaratish va ijodiy faoliyatni transformatsiya qiluvchi mexanizm hisoblanadi. Turli "prompting" texnikalari jurnalistga sun'iy intellekt natijalarini maqsadli boshqarish, takomillashtirish va jurnalistik me'yorlarga moslashtirish imkonini beradi [5: 30].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy PR faoliyatida storytelling, kontent-marketing, shuningdek, sun'iy intellekt va ma'lumotlarni tahlil qilish (big data analytics) kabi yangi texnologiyalarni qo'llash samaradorlikni oshiruvchi asosiy omillardan biri sifatida talqin qilinmoqda [4: 27].

Ikkinchi bosqichda kontent-tahlil usuli qo'llanildi. Biznes tashkilotlarining raqamli PR materiallari quyidagi mezonlar asosida tahlil qilinishi nazarda tutildi:

– AI texnologiyasidan foydalanish mavjudligi;
– kontent turi – matn, tasvir, audio yoki video;
– sintetik elementlarning mavjudligi;
– SI foydalanilganligi to'g'risidagi axborotning ochiqligi;
– inson tomonidan tahrirlash va nazorat darajasi;
– brend kommunikatsiyasi bilan uyg'unlik;
– auditoriyani jalb qilish shakllari;
– kommunikativ chaqiriqlarning mavjudligi.

Uchinchi bosqichda auditoriya so'rovi metodidan foydalanish mumkin bo'lib, unda respondentlarning SI yordamida yaratilgan kontentga munosabati, bunday kontentni aniqlash qobiliyati, shaffoflik haqidagi qarashlari va brendga bo'lgan ishonch darajasi o'rganiladi.

Tadqiqot natijalari SI texnologiyalarining biznes PRdagi rolini faqat avtomatlashtirish vositasi sifatida baholash yetarli emasligini ko'rsatadi. Albatta SI kommunikatsiya jarayonining ishlab chiqarish bosqichini o'zgartiradi, biroq halihanuz auditoriya ishonchi insoniy nazorat, shaffoflik va kommunikativ autentiklik bilan bog'liq bo'lib qoladi. Zamonaviy tadqiqotlar ham SI tomonidan yaratilgan kontentga auditoriya munosabati murakkab ekanini ko'rsatmoqda. Xususan, Kim va boshqa olimlar tomonidan 2026-yilda amalga oshirilgan meta-tahlil turli tadqiqotlarda SI tomonidan yaratilgan yangiliklarning ishonchliligi bo'yicha bir xil natija mavjud emasligini ko'rsatadi. Bu esa auditoriya ishonchiga SI texnologiyasining o'zi bilan bir qatorda kontent turi, kommunikativ kontekst, manba va auditoriya xususiyatlari ham ta'sir qilishini anglatadi [1:287]. Shuning uchun biznes PRda SI texnologiyalaridan foydalanishning asosiy mezoni "*qancha kontent yaratildi?*" degan savol emas, balki "*yaratilgan kontent auditoriya bilan qanday kommunikativ munosabat hosil qilmoqda?*" degan savol bo'lishi kerak.

SI va sintetik media biznes PR kommunikatsiyasining paradigma o'zgarishiga olib kelayotgan texnologiyalardan biridir. An'anaviy PR modelida kommunikatsiyaning asosiy subyekti inson – PR mutaxassisi, jurnalist yoki tashkilot vakili bo'lgan bo'lsa, generativ SI rivojlanishi natijasida kontent ishlab chiqarish jarayonida algoritmik vositalar ham faol ishtirok eta boshladi. Bu holat PR mutaxassisining rolini kamaytirishdan ko'ra, uning funksiyalarini o'zgartiradi. Endilikda mutaxassisning vazifasi faqat matn yoki vizual material tayyorlash emas, balki SI tomonidan yaratilgan kontentning kommunikativ maqsadga muvofiqligi, faktologik aniqligi, etikligi, brendga mosligi va auditoriya uchun tushunarliligini nazorat qilishdan iborat bo'ladi. Ayniqsa, sintetik media vositalari bilan ishlashda ishonch tushunchasi markaziy o'rin egallaydi.

Auditoriya kontentning texnik jihatdan mukammalligidan ko'ra uning qanchalik ochiq va ishonchli manbaga tegishli ekaniga e'tibor qaratishi mumkin. Shu sababli sintetik kontentdan foydalanishda yashirishga asoslangan kommunikativ strategiyadan ko'ra, tegishli holatlarda texnologiyadan foydalanish faktini ochiq ko'rsatish va insoniy tahrir mexanizmini ta'minlash muhim kommunikativ tamoyil sifatida qaralishi mumkin.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, SI va sintetik media vositalari biznes PR kommunikatsiyasining yangi texnologik infratuzilmasini shakllantirmoqda. Ular kontent yaratish tezligini oshirish, kommunikatsiyani individuallashtirish hamda multimedia imkoniyatlarini kengaytirish uchun katta imkoniyat beradi. Shu bilan birga, sintetik kontentning kengayishi auditoriya ishonchi, autentiklik va shaffoflik bilan bog'liq yangi kommunikativ muammolarni yuzaga keltiradi. Sun'iy intellekt yordamida yaratilgan kommunikatsiya inson tomonidan yaratilgan shaxslararo kommunikatsiyaga nisbatan kamroq ishonchli, kamroq autentik va bilimni o'zlashtirish nuqtayi nazaridan kamroq foydali deb qabul qilinishi mumkin. Olimlar ushbu holatni "AI penalty" (sun'iy intellekt jarimasi) deb atab, uning shakllanishi nafaqat texnologiyaning o'ziga beriladigan baho, balki mualliflik, autentiklik va sarflangan mehnatga oid ijtimoiy kutilmalar bilan ham bog'liqligini ta'kidlaydilar. Shuningdek, tadqiqotlarda "disclosure paradox", ya'ni foydalanuvchilar sun'iy intellektdan foydalanilganini oshkor qilishni talab qilishlari, biroq ayni paytda bunday

oshkor etish kommunikatsiyaga nisbatan salbiy munosabatni kuchaytirishi mumkinligi aniqlangan [3: 10].

Biznes PR kontentida sun'iy intellekt va sintetik media vositalaridan foydalanish raqamli kommunikatsiyaning mazmuni, shakli va ishlab chiqarish mexanizmlarini sezilarli darajada o'zgartirmoqda. SI texnologiyalari kontentni tezkor ishlab chiqarish, individuallashtirish va ko'p formatli kommunikatsiyani tashkil etish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, texnologik samaradorlik auditoriya ishonchining yagona determinanti emas. SI asosida yaratilgan kontentning kommunikativ qiymati uning autentikligi, shaffofligi, insoniy nazoratdan o'tishi va brendning kommunikativ kredibelligi bilan belgilanadi. Ushbu jihatlarni rivojlantirish uchun biznes PRda:

1) SI yordamida yaratilgan kontentni inson muharriri tomonidan tekshirish;

2) fakt va statistik ma'lumotlarni alohida verifikatsiya qilish;

3) zarur holatlarda sintetik kontentning SI yordamida yaratilganini ochiqlash;

4) real shaxslarning ovozi va tasviridan foydalanishda rozilik va etik me'yorlarni hisobga olish;

5) SI kontentining auditoriya ishonchiga ta'sirini muntazam o'rganish;

6) SI kommunikatsiyasini auditoriya bilan ikki tomonlama muloqot mexanizmlari bilan birlashtirishga ahamiyat qaratish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kim H.M., Lee E.-J., Park J.W., Walter N. Synthetic news, natural doubts? A meta-analysis of credibility perceptions of AI-generated news // Cyberpsychology, Behavior, and Social Networking, 2026. Vol. 29 (5). https://doi.org/10.1177/21522715261439452.
2. Королько В.Г. Основы паблик рилейшнз. М.: Рефл-бук, 2000.
3. Sahebi S., Formosa P., Bankins S. The AI penalty and disclosure paradox: Trust, authenticity and knowledge uptake in AI-mediated communication // Computers in Human Behavior: Artificial Humans, 2026. Vol. 8. – Art. 100304. https://doi.org/10.1016/j.chbah.2026.100304.
4. Urinbayeva S.K. PR da mediaga axborotni yetkazishda sun'iy intellektdan foydalanish // Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari, 2026. https://scientifcacademy.org/index.php/MSIIIAZM/article/download/376/368/732.
5. Urinova M. Prompt-based meaning formation and creative agency in generative systems within journalistic practice // International Scientific Journal of Media and Communications in Central Asia, 2026, № 13. https://doi.org/10.62499/ijmcc.vi13.300.

Mohim XUSANOVA

"SADDI ISKANDARIY" DOSTONINING TASAVVUFIY-IRFONIY TALQINLARI

Annotatsiya. Ushbu tezisda Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoni tasavvufiy-irfoniy nuqtayi nazardan tahlil qilindi. Iskandar obrazi, jahongirlik va adolat, podshohlik va darveshlik, himmat, safar, riyozat, ma'rifat, anglash va tafakkur kabi tushunchalarning tasavvufiy mazmuni Najmiddin Komilov talqinlari asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, "Saddi Iskandariy", Najmiddin Komilov, tasavvuf, irfon, Iskandar obrazi, ma'rifat, himmat, riyozat, darveshlik, adolat, tafakkur, hikmat.

Annotation. This thesis analyzes Alisher Navoi's epic poem "Saddi Iskandari" from a Sufi and irfan-oriented perspective. Particular attention is paid to the interpretations of the prominent Navoi scholar Najmiddin Komilov, who reveals the ideological and artistic essence of the work.

Keywords: Alisher Navoi, "Saddi Iskandari", Najmiddin Komilov, Sufism, irfan, image of Iskandar, knowledge, himmat, riyazat, dervishhood, justice, contemplation, wisdom.

Аннотация. В тезисе анализируется поэма Алишера Навои «Садди Искандари» с суфийско-ирфанской точки зрения. Особое внимание уделяется интерпретациям выдающегося ученого-навоиведа Наджмиддина Комилова, раскрывающим идейно-художественную сущность произведения.

Ключевые слова: Алишер Навои, «Садди Искандари», Наджмиддин Комилов, суфизм, ирфан, образ Искандара, познание, химмат, риёзат, дервишество, справедливость, мышление, мудрость.

Qadim Sharqning necha asrlik badiiy-estetik tajribalari-yu adabiy an'analarini o'zida jamlagan "Xamsa" – buyuk badiiy obida. Navoiy ijodiy qudrati va tafakkur ko'lamining mahsuli. Nizmoiy Ganjaviy tomonidan boshlab berilgan bu silsila o'zidan keyingi xalaflar uchun shunchaki bir xil sujetni o'zgacharoq uslubda tasvirlash emas, balki adabiyot maydonida yangicha ijodiy muloqot, ta'bir joiz bo'lsa, ma'naviy-badiiy musobaqani vujudga keltirdi. "Xamsa" – so'z san'atining bebaho ganjinasi. "Xamsa"dek ulug' san'at asarlarini targ'ib qilish, go'zallik dunyosini idrok qilish uchun yo'l izlash ezgu an'analardan biriga aylandi. Hatto Navoiyning o'zi ham xamsanavislikka faqat ijodkor sifatida yondashmadi, adabiy tanqidchilik faoliyatini ham namoyon qildi.

Alisher Navoiy o'zidan oldin o'tgan mualliflar ijodiyotining maqtovga sazovor tomonlari to'g'risida haqli ravishda samimiyat bilan so'z yuritgani holda ayrim nomutanosiblikni ham xushtakalluflik bilan asosli tarzda ko'rsatish va o'zining badiiy tajribasida, xususan, "Xamsa" yozishida, ularni tuzatishga katta e'tibor bergan [1: 272].

Navoiy "Xamsa" sining mukammal tabiati necha yuz yillardan buyon adabiy tanqidch-yu talqinchilarning e'tibor markazida. Mutafakkir ijodi mohiyatini bilishga intilish har bir davr tafakkur ahli xayolini band etganidek, yangi mutafakkirlarni ham insoniyatga taqdim etmoqda. "Valiytarosh" laqabini olgan Najmiddin Kubro singari Hazrat Navoiyning hikmatli va sirlarga boy merosi hamon ilm peshqadamlarini yuzaga chiqarmoqda, iste'dodlarni, allomalarni sayqallamoqda. Shunday allomai davrondan biri – ismlari ma'naviy dunyolariga, nurga yo'g'rilgan suratlari siyratlariga monand – Najmiddin Komilov edilar [7: 3]. Olim yaratgan kitoblarning Navoiy ijodini tushunishda, anglab yetishda qimmati juda katta. Oliy o'quv yurtlari uchun darsliklar yaratish muammosi turgan bir paytda "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor", ayniqsa, "Saddi Iskandariy" kabi dostonlarni Najmiddin Komilovning "Xizr chashmasi" kitobidagi talqinlari orqali o'rganish juda yaxshi natija berishi aniq [8: 5].

"Xamsa" dostonlarining barchasida o'ziga xos tili, bir-biriga o'xshamagan ritmi, obrazlar olami mavjud. Navoiy asarlarini islomdan ayri holda tushunib bo'lmaydi. Mutafakkirning shaxsiyati butkul islomdan iborat. Shu sababli ham Najmiddin Komilovning hikmat va ibrat dostoniga yozgan tahliliga e'tibor qaratsak, tasavvufning asosiy istilohlarini shu doston orqali o'quvchiga yetkazgandek tuyuladi. Dastlab, Iskandar obrazi orqali shohlik va darveshlik sifatlari tahlil qilinadi. Bundan tashqari salaflarning ham Iskandar tog'risidagi dostonlari bilan solishtiriladi, sayyor sujetlarning farqli tomonlari o'rganiladi. Keyingi o'rinda jahongirlik haqida gap ketar ekan, olim jahongirlikni quyidagicha ta'riflaydi: "Jahongirlik – o'zga yurtlarni bosib olib, xalqlarni mute' – qul qilish, boyliklarini talab ketishdir. Tarixda qaysi bir jahongir – imperatorni olib qaramang, har qancha bu niyatni turli "g'oyalar" pardasiga o'ramasin, asl muddaosi shu edi [3: 135]". Bunday salbiy fikrlar ortidan Iskandarga nisbatan olim jahongirlikni "xislat" va "qismat" lafzi bilan keltiradi. Bunga sabab esa Iskandarning: "Meni qo'ymadi ixtiyorimga Haq", deya ta'kidlashidir. Olim fikricha, "Ilhomi hotif", ya'ni g'aybdan kelgan ilhom Iskandar ko'nglini band etib, jonini xavf-u xatarlarga soladi. Demak, jahongirlik Iskandar uchun Alloh ma'rifatini his-idrok etib, dunyoda adolat o'rnatish vositasi. Ko'pchilik olimlar Jomiyning "Xiradnomayi Iskandariy" asari bilan Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonini qiyoslab o'rganganlar. Najmiddin Komilov ham bu ikki asar bosh qahramonlarining orifona sifatlarini solishtirib tahlil qiladi. Olim Jomiy Iskandarning jahongirligini quyidagi misralarga tayanib payg'ambarlik deb ataydi:

Maro Ezid in manzilat doda ast,
Bu xalqi jahonam firistoda ast.
Ki to dini o'ro kunam oshkor,
Baroram zi joni muxolif dimor.
Diham qadri butxonharo shikast,
Kunam har kiro hast yazdonparast.

(Xudo menga bu martabani berib, jahon xalqiga shuning uchun yubordiki, toki uning dinini oshkor qilayin, qarshilik ko'rsatganlarni yengib, butxonalarni vayron etib, hammani yagona Xudoga ishontirayin) [3: 139].

Olim bu g'oya Nizomiyda ham mavjudligini ta'kidlaydi. Aslida Iskandarning payg'ambar yoki valiyligi borasida ixtiloflar mavjud. Ali roziyallohu anhu: "U solih banda bo'lgan va Alloh unga yer podshohligini, ilm va hikmatni ato etgan", deya ta'kidlagan [6: 303].

Yana bir olim o'z tadqiqotida: "Xiradnoma" ni o'qir ekan o'quvchi Iskandarda jahongirdan ko'ra ko'proq ichki sayohatchi, odamiylikdan farishtalik tomon yo'l tutgan kishining timsolini ko'radi [4]" degan fikrlarni aytib o'tadi. Najmiddin Komilov Navoiyning Iskandariga ta'rif berar ekan, xalq ra'yi va Haq rizosi uchun dunyo bo'ylab adolatli hukmdorlikni o'rnatish, bilim va donish, xayr-u saxovat, kechirimlilik, mehr-shafqatni

odamlar orasida qaror topdirishdek ulug‘ ishga bel bog‘lagan podshoh sifatida talqin qiladi.

“Saddi Iskandariy” dostonidagi himmatga bag‘ishlangan bobni olim tahlil qilish jarayonida Iskandar qalbiga nisbatan: “Gado ma’naviyati bilan to‘lishgan”, deydi. Xo‘sh, gado ma’naviyati degani nima? Gado – faqr mulkining podshosi, ilohiy hikmat va ma’rifat sohibi, ma’naviy kamolot timsoli. Olim Iskandar va gado suhbatidan darveshlik, ya’ni xalqdan uzilish yo‘li bilan Naqshbandiylik tariqatini solishtiradi. Anglaydiki, Xudo kimga qanday taqdirni ravo ko‘rgan bo‘lsa-da, ezgu amallardan to‘xtamaslik kerak.

Olim Iskandar safar ramzlaridan uch ma’noni anglaydi: birinchidan, bilim to‘plash, ma’rifatli bo‘lish; ikkinchidan, Iloh qudratini his etish; uchinchidan, safar – bu riyozat. Najmiddin Komilov tahlillarida mutasavvif ijodkorlarni bir-biriga yoki bir ijodkorning mazmunan yaqin asarlarini qiyoslab, solishtirish ko‘p uchraydi. Olim “Saddi Iskandariy” dostonidagi baliqlar hikoyatini “Lison ut-tayr” ning kichraytirilgan variantiga o‘xshatadi. Darhaqiqat, “Lison ut-tayr” da qushlar Xudo izlab yo‘lga chiqadilar va ne mashaqqatlar bilan faqr-u fano vodiysiga yetganlarida o‘zlarida tajalliyot nuri aks etganliklarini fahmlaydilar.

“Saddi Iskandariy” dostonida anglash va tafakkur olami haqida ham so‘z boradi. Anglash, tafkkur qilish – borliq va hodisalarning ichki mohiyatini idrok qilish qobiliyati. Alloh ma’rifatini ham dunyo orqali bilish, ham Allohni bilishdir. Navoiy asarida insonning bilish qobiliyati baribir chegaralanganligi to‘g‘risida ham so‘z boradi. Olim esa ijodkorning bu jihatini agnostitsizmda ayblash noto‘g‘ri ekanligini ko‘rsatib beradi. Agnostitsizm – tabiat va jamiyat qonuniyatlari mohiyatini bilish imkoniyatlarini rad etib, bilimning voqelikka muvofiq ekanini isbotlash mumkin emas, deb hisoblaydigan falsafiy ta’limot [9].

“Saddi Iskandariy” da davlat va jamiyatning asoslari haqida ham tahlil qilsa arziydigan ko‘pgina jihatlar bor. Najmiddin Komilov tasavvufiy axloqqa ega jamiyat va hukmdor qanday bo‘lishi misolida tushuntiradi. Olim Nizomiy va Jomiydan farqli o‘laroq Navoiy dostonida shohsiz jamiyat haqidagi hikoyalarni keltirmaganini ta’kidlaydi. Olim Navoiyning bu holatni real hayotiy ifoda bilan tasvirlagani, qanchalik bu bir ideal ijtimoiy tenglik va adolat ramzi bo‘lib ko‘rinmasin, odamlarni bir qolipga solish, boshqaruv va siyosatga barham berish mumkin emasligini ma’qullaydi. Binobarin, jamiyat va davlat bir-biriga uzviy bog‘liqligini Imom G‘azzoliy “Kimyoyi saodat” asarida podshoh jamiyatning yuragi ekanligi [2: 57], Nizomulmulk “Siyosatnoma” sida markazlashgan kuchli saltanat g‘oyasi muhimligi [5: 231] bilan ko‘rsatadi.

Iskandar devori haqidagi hikoyatni olim “xaloskorlik missiyasi” deb ataydi. Olim fikricha, Iskandarning har bir yurishi bu xaloskorlik niyati bilan amalga oshirilgan. Najmiddin Komilov “Saddi Iskandariy” ning bosh g‘oyasi sifatida ibrat va ogohlikni aytadi. Olim asardagi ilohiylik va dunyoviylik, ratsionalizm va irratsionalizm, didaktiklik va tasviriylik, hikmat va hikoyatning qo‘shilib ketishidan hosil bo‘lgan mohiyatning barchasini alohida-alohida anglab, talqin qiladi.

Olimning Alisher Navoiy asarlari zamiridagi ustuvor g‘oyalarni anglash va anglatish, tagqatlamga kirish, tasavvufiy tahlil kabi talqinlari filologlar uchun nazariy qo‘llanma bo‘lib xizmat qildi. Shu ma’noda olimning tadqiqotlari yangilangan, tozalangan tafakkur uchun o‘z vaqtida yaratildi, desak yanglishmagan bo‘lamiz [8: 55].

“Navoiyni ommaga tushuntiraman deb, mutafakkirning darajasini tushirmanglar, balki insonlar tafkkurini ulug‘ shoir darajasiga ko‘taringlar”, deya ta’kidlagan edi Najmiddin Komilov. Nazdimda, olim bir umr shu ulug‘ ish uchun harakat qilgan. Bugungi media olamida, axborotlarning to‘xtov bilmasdan almashinuvi, turli g‘oya va fikrlarning toshqini, umuman olganda, butun bashariyat ongida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar juda katta betartiblikni vujudga keltiryapti. Qadriyatlar unutilmoqda, odamlar ma’naviy dunyosi bilan emas, faqat moddiy olam bilan ovora, hech kimning ko‘ngli hech narsadan to‘lmayotganga o‘xshaydi. Aynan shuning uchun ham bunday murakkab davrda dilga halovat, hayotning mohiyati nimada ekanligini tushunishga ehtiyoj tug‘ilmoqda. Xo‘sh, bu ehtiyojni qaysi yo‘lda qondirish mumkin? Hech shubha yo‘qki, Alisher Navoiy asarlari. Chunki shoir o‘z g‘oyalari poydevorini Qur’on va hadis bilan qo‘ygan. Aynan shu asosda so‘z so‘ylagani uchun ham biz, o‘zbek jamiyati uning asarlarida ilgari surilgan g‘oyalarni milliy ma’naviyatimizga singdiramiz va ularga amal qilib boraveramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva M. Mumtoz tarixiy poetika. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.
2. Abu Homid G‘azzoliy. Kimyoi saodat. – Toshkent: Adolat, 2005.
3. Komilov N. Xizr chashmasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2005.
4. Taunt M. So‘nggi Temuriylar davri madaniyati: nazira amaliyotini Alisher Navoiyning “Xamsa” asari misolida o‘rganish / ingliz tilidan Z. Mirzayeva tarjimasi. – Toshkent, 2021. – 180 b.
5. Nizomulmulk. Siyosatnoma. – Toshkent: Adolat, 1997.
6. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri / tarjima va tafsir muallifi: Shayx Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Movarounnahr, 2020.
7. Salohiy D. Mirni uqding – Haqqa yetding: monografiya. – Toshkent: Tafakkur tomchilari, 2021.
8. Tasavvuf adabiyotining o‘rganilishi va tarjimashunoslik muammolari: Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. – Toshkent: Muharrir, 2018.
9. Agnostitsizm. https://oyina.uz/uz/teahause/1202.

Yulduzxon QOSIMOVA,
"Ziyokor" international school ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA AYOL OBRAZINING POETIK TALQINI VA EVOLUTSIYASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek mumtoz adabiyotida ayol obrazining poetik talqini va tarixiy evolutsiyasi tahlil qilinadi. Alisher Navoiy dostonlaridagi Shirin, Layli, Mehinbonu va Dilorom obrazlari, tasavvufiy ayol timsollari hamda Uvaysiy va Nodira ijodi misolida ayol obrazining estetik-ramziy timsoldan ruhiy-ma'naviy va ijodiy subyekt darajasiga qadar rivojlanishi yoritiladi.
Kalit so'zlar: mumtoz adabiyot, ayol obrazi, poetik talqin, obraz evolutsiyasi, tasavvuf, lirik subyekt.
Annotation. This article examines the poetic interpretation and historical evolution of the female image in Uzbek classical literature. Drawing on the images of Shirin, Layli, Mehinbanu, and Dilorom in the works of Alisher Navoi, as well as Sufi female imagery and the poetry of Uvaysi and Nodira, the study traces the transformation of the female image from an aesthetic and symbolic representation into a spiritual, moral, and creative subject.
Keywords: classical literature, female image, poetic interpretation, evolution of the image, Sufism, lyrical subject.
Аннотация. В статье рассматриваются поэтическая интерпретация и историческая эволюция образа женщины в узбекской классической литературе. На материале образов Ширин, Лейли, Мехинбану и Дилором в произведениях Алишера Навои, суфийской образности, а также творчества Увайси и Нодиры прослеживается трансформация женского образа от эстетико-символического воплощения к духовно-нравственному и творческому субъекту.
Ключевые слова: классическая литература, женский образ, поэтическая интерпретация, эволюция образа, мистицизм, лирическая тематика.

O'zbek mumtoz adabiyotida ayol obrazi badiiy tafakkurning muhim va ko'p qatlamli hodisalaridan biri hisoblanadi. Mumtoz she'riyat hamda dostonchilikda ayol timsoli go'zallik va muhabbat obyekti sifatida tasvirlanishi bilan cheklanmay, vafo, sabr, aql-zakovat, ma'naviy yetuklik, iroda va insoniy komillik kabi tushunchalarning badiiy ifodasiga ham aylangan. Ayniqsa, Hazrat Alisher Navoiy "Xamsa"sidagi Shirin, Layli, Mehinbonu va Dilorom obrazlari ayol personajlarining asar syujeti hamda g'oyaviy-estetik tuzilishidagi mavqeyi bir xil emasligini ko'rsatadi. Navoiyshunoslikka oid tadqiqotlarda Shirin ilohiy mazhar va yuksak muhabbat timsoli, Dilorom iste'dodli san'atkor hamda vafodor yor sifatida talqin qilinadi; "Xamsa"dagi ayol obrazlari orasida Shirin, Layli, Dilorom va Mehinbonu mustaqil hamda mukammal ishlangan obrazlar qatorida qayd etiladi [1].

Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida ayol obrazining poetik imkoniyatlari ayniqsa keng namoyon bo'ladi. Doston muhabbat va sadoqat bilan bir qatorda insonparvarlik, mehnat, axloqiy tanlov va hukmdorlik masalalarini ham qamrab oluvchi murakkab badiiy tuzilishga ega. Shirin obrazi ana shu tuzilmaning faol komponenti bo'lib, uning poetik mohiyati faqat tashqi go'zallik belgilariga bog'lanmaydi. Shirin va Mehinbonu timsollarida ayolning aql, iroda, qaror qabul qilish va axloqiy pozitsiya bilan bog'liq xususiyatlari ham badiiylashtiriladi.

Mumtoz adabiyotda "ayol obrazi" bilan an'anaviy ma'shuqa timsolini aynanlashtirib yubormaslik muhim. Chunki mumtoz poetikada yor, mahbuba, dilbar singari obrazlar konkret insoniy munosabatni ifodalash bilan bir qatorda ramziy-irfoniy ma'nolarni ham tashishi mumkin. Shu jihatdan ayol obrazining poetik evolutsiyasi faqat uning tashqi qiyofasi yoki syujetdagi faolligi o'zgarishi bilan belgilanmaydi. Obrazning semantik ko'lami, muallif konsepsiyasidagi funksiyasi, ruhiy individuallashuvi va poetik nutqdagi subyektlik darajasi ham mazkur jarayonning muhim mezonlaridan hisoblanadi.

Navoiyshunoslik tadqiqotlarida "Farhod va Shirin" dostonida Shirin obrazining ramziy talqini hamda "Sab'ai sayyor"dagi Diloromning iste'dodli san'atkor sifatidagi xususiyatlari qayd etilishi bu masalani aynan poetik-funksional nuqtayi nazardan o'rganish zarurligini ko'rsatadi [1].

Ayol obrazining poetik taraqqiyotida XIX asr o'zbek adabiyoti alohida bosqichni tashkil qiladi. Mazkur davrda Uvaysiy, Nodira va Mahzuna kabi shoiralarning adabiy maydonga kirib kelishi natijasida ayol faqat badiiy tasvir obyekti emas, balki poetik nutqning bevosita egasi sifatida ham namoyon bo'la boshlaydi. I.Adizovaning "Uvaysiy she'riyatida poetik tafakkurning yangilanishi" mavzusidagi doktorlik tadqiqotida Uvaysiy ijodidagi mumtoz an'ana va individual ijodiy tafakkur munosabati, lirik qahramon tabiati, ramz va obrazlar tizimi maxsus o'rganilgan. Tadqiqotda Uvaysiyning mavjud mumtoz timsollarga individual ijodiy rakursdan yondashgani, an'anaviy obrazlarning semantik imkoniyatlarini kengaytirgani ilmiy asoslangan [3]. Bu xulosalar ayol muallif ijodida lirik "men"ning mustaqillashuvi va ayol ruhiy tajribasining poetik nutqqa bevosita kirib kelishini o'rganish uchun muhim nazariy asos yaratadi.

Nodira ijodida esa ayol lirik subyektining ruhiy olami muhabbat, hijron, sadoqat, tanholik va tarixiy voqelik bilan uzviy holda ifodalanadi. M.Nurutdinovaning Nodira lirikasiga bag'ishlangan tadqiqotida shoira she'rlarida ruhiy shikastalik, hijron, yor sog'inchi va tanholik motivlari yetakchi poetik holatlardan ekanligi ko'rsatilgan. Muallif Nodira lirikasini inson qalbining nozik kechinmalari, visol va ayriliq, ma'shuqa va oshiq munosabatlari bilan bog'liq holda tahlil qiladi [4: 67]. Bu jihat ayol obrazining klassik dostonchilikdagi personaj holatidan ayol ijodkorning ichki kechinmalarini bevosita ifodalovchi lirik subyekt darajasiga ko'tarilganini kuzatish imkonini beradi.

Nodira merosini tadqiq etishda matnshunoslik masalasi ham poetik tahlilning muhim sharti hisoblanadi. M.Rajabova Nodira "Devon"ining 1958, 1963, 1979 va 2001-yillardagi nashrlarini qiyoslab, so'z almashishi, baytlarning tushib qolishi yoki hatto bir harfning o'zgarishi she'riy obraz, lirik holat va asar mazmuniga ta'sir qilishini ko'rsatgan [5: 17–34]. Demak, Nodira ijodidagi ayol lirik subyekti yoki obraz semantikasiga oid xulosalar chiqarishda nashr variantlari va matn asliyatini hisobga olish akademik jihatdan zarurdir. Mavjud o'zbek adabiyotshunosligida Navoiy asarlaridagi ayol timsollari, Uvaysiy poetik tafakkurining o'ziga xosligi, Nodira lirikasining ruhiy-badiiy xususiyatlari va ayol konseptining aksiologik mazmuni alohida yo'nalishlarda o'rganilgan [1: 3–6]. Biroq mazkur ilmiy natijalarni bir tarixiy-poetik tizim doirasida o'zaro bog'lab, ayol obraziga yuklangan funksiyalarning mumtoz adabiyot taraqqiyoti davomida qanday kengayganini qiyosiy tahlil qilish ehtiyoji mavjud. Bunda evolutsiya tushunchasini bir obraz turining ikkinchisi bilan to'liq almashishi sifatida

emas, balki an'anaviy timsollarning yangi ruhiy, axloqiy, estetik va subyektiv mazmunlar bilan boyib borishi sifatida tushunish maqsadga muvofiq. Shundan kelib chiqib, tadqiqotning maqsadi o'zbek mumtoz adabiyotida ayol obrazining poetik funksiyalarini aniqlash, Alisher Navoiy dostonlari hamda Uvaysiy va Nodira ijodi asosida uning semantik va badiiy taraqqiyot xususiyatlarini ochib berish, shuningdek, ayolning estetik-ramziy timsol, badiiy personaj va lirik subyekt sifatidagi namoyon bo'lish shakllarini ilmiy jihatdan qiyoslashdan iborat.

Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida bu jarayon Shirin va Mehinbonu obrazlari orqali aniq kuzatiladi. Shirin obrazining poetik qurilishida husn va ishq motivlari muhim bo'lsa-da, uning badiiy funksiyasi ma'shuqa maqomi bilan chegaralanmaydi. Shirin Xusrav bilan bog'liq vaziyatlarda o'z taqdiriga nisbatan mustaqil pozitsiyani namoyon qiladi. Mehinbonu esa undan ham kengroq funksional maydonga ega: u hukmdor, ilm-ma'rifat homiysi va qaror qabul qiluvchi shaxs sifatida tasvirlanadi. Bu o'rinda muhim poetik jihat shundaki, Shirin go'zallik timsoli bo'lish bilan bir vaqtda tanlov subyekti hamdir. Demak, uning husni obrazning markaziy belgisi bo'lsa ham, xarakter mohiyatini to'liq belgilamaydi.

Shu asosda "Farhod va Shirin"da ayol obrazi uchun birinchi muhim poetik siljish aniqlanadi: ayol husn obyekti bo'lishdan tashqari voqelikni baholovchi va unga ta'sir ko'rsatuvchi xarakterga aylanadi. Bu holat maqolada taklif etilgan "syujet va konflikt rivojidagi faollik" mezoni bo'yicha Shirin hamda Mehinbonu obrazlarining yuqori funksional mavqega ega ekanini ko'rsatadi.

Navoiy dostonlaridan olinadigan umumiy natija shundan iboratki, Shirin, Layli va Dilorom bir xil "ma'shuqa tipi"ning takrorlari emas. Shirin – iroda va axloqiy tanlov; Layli – ichki ruhiy kechinma va sadoqat; Dilorom – go'zallik bilan birga san'atkorlik va kompozitsion harakat funksiyalarini mujassamlashtiradi. Mehinbonu esa muhabbat syujetidan tashqariga chiqib, ayolning siyosiy-ma'rifiy imkoniyatlarini namoyon etadi. Shu sabab Navoiy poetikasining o'zidayoq ayol obrazining bir nechta funksional modeli parallel mavjud bo'lgan, degan xulosaga kelish mumkin.

Ayol obrazidagi keyingi sifat o'zgarishi Uvaysiy ijodida obrazning poetik nutq egasiga aylanishi bilan bog'liq. Navoiy dostonlarida ayolning nutqi va ichki kechinmalari muallif yaratgan epik obraz doirasida ifodalansa, Uvaysiyda ayol ijodkor bevosita lirik "men"ni shakllantiradi. Bu hodisani oddiygina "ayol shoiraning paydo bo'lishi" deb baholash yetarli emas. Poetik nuqtayi nazardan, tasvir yo'nalishi o'zgaradi: ayol endi tashqaridan tavsiflanmaydi, balki dunyoni o'z lirik pozitsiyasi orqali anglatadi.

I.Adizovaning Uvaysiy poetik tafakkuriga bag'ishlangan doktorlik tadqiqotida shoiraning lirik merosidagi ishqni faqat insonlar o'rtasidagi munosabat sifatida tushunish uning dunyoqarashini toraytirishi ko'rsatiladi. Tadqiqotda Uvaysiy ijodidagi ishq "olam – odam – Alloh" munosabatlari bilan bog'langan ko'pqatlamli poetik hodisa sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, lirik qahramon tabiati va badiiy obrazlar tadriji poetik tafakkur yangilanishining muhim omillari sifatida ajratiladi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati ayol obrazini tarixiy-poetik jarayon, janriy xususiyat va mualliflik pozitsiyasi bilan bog'liq holda qiyosiy talqin qilishda namoyon bo'ladi. Bunday yondashuv mumtoz adabiyotdagi ayol timsollarini zamonaviy ijtimoiy mezonlarga bevosita ko'chirmasdan, ularni o'z davrining poetik tizimi doirasida baholash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Akademnashr, 2020.
2. Xudaykulova Sh. O'zbek badiiy matnlarida ayol konseptining aksiolingvistik talqini // O'zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika, 2025. J. 1, №1. – B. 57–64.
3. Adizova I.I. Uvaysiy she'riyatida poetik tafakkurning yangilanishi: Filol. fan. dok. diss... – Toshkent, 2020. – 280 b.
4. Nurutdinova M. Nodira lirikasidagi ayrim hodisalarning ifodasi // Filologiya va pedagogika, 2025, №10 (14). – B. 67–68.
5. Rajabova M.B. Matn va nashr muammolari (Nodira "Devon"i misolida) // Oltin bitiglar – Golden Scripts, 2025, №2. – B. 17–34.
6. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020.
7. Alisher Navoiy. Layli va Majnun. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020.
8. Uvaysiy. Devon. – Toshkent: Fan, 1959.
9. Nodira-Komila. Devon. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2001.

Gulxayyo PO'LATOVA,
Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

O'ZBEK TILIDAGI SAVOL-JAVOB TIZIMLARI UCHUN MORFOLOGIK SEGMENTATSIYA VA NORMALIZATSIYA MUAMMOLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada agglyutinativ tillar, xususan, o'zbek tili uchun intellektual savol-javob (QA) tizimlarini yaratishda yuzaga keladigan morfologik segmentatsiya va normalizatsiya muammolari tadqiq etiladi. O'zbek tilining boy affiksatsiya tizimi sababli bitta o'zakdan son-sanoqsiz so'z shakllarining hosil bo'lishi lug'at inflyatsiyasiga hamda tanib olinmaydigan so'z shakllari (Out-of-Vocabulary – OOV) darajasining oshib ketishiga olib kelishi ko'rsatilgan. Tadqiqotda ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida qoidalarga asoslangan (rule-based) lemmalash algoritmlari va chuqur o'rganishga asoslangan neyron tarmoq modellari (UzRoBERTa) integratsiyasiga tayangan 3 bosqichli gibrid arxitektura konsepsiyasi taklif etiladi.
Kalit so'zlar: savol-javob tizimi, morfologik segmentatsiya, normalizatsiya, agglyutinativ til, tabiiy tilni qayta ishlash, lemmalash, gibrid model.
Annotation. This article investigates the problems of morphological segmentation and normalization that arise when developing intelligent question answering (QA) systems for agglutinative languages, particularly Uzbek. It is demonstrated that the generation of countless word forms from a single root – due to the rich affixation system of the Uzbek language – leads to vocabulary inflation and an increased rate of out-of-vocabulary (OOV) word forms. To address these issues, the study proposes a 3-stage hybrid architecture concept based on the integration of rule-based lemmatization algorithms and deep learning-based neural network models (UzRoBERTa).
Keywords: question answering system, morphological segmentation, normalization, agglutinative language, natural language processing, lemmatization, hybrid model.
Аннотация. В статье исследуются проблемы морфологической сегментации и нормализации, возникающие при создании интеллектуальных вопросно-ответных (QA) систем для агглютинативных языков, в частности для узбекского языка. Показано, что образование бесчисленного количества словоформ от одного корня из-за богатой системы аффиксации узбекского языка приводит к инфляции словаря и увеличению доли несловарных слов (Out-of-Vocabulary – OOV). Для решения этих проблем в исследовании предлагается концепция 3-этапной гибридной архитектуры, основанная на интеграции алгоритмов лемматизации на основе правил (rule-based) и моделей нейронных сетей на основе глубокого обучения (UzRoBERTa).
Ключевые слова: вопросно-ответная система, морфологическая сегментация, нормализация, агглютинативный язык, обработка естественного языка, лемматизация, гибридная модель.

So'nggi yillarda sun'iy intellekt va tabiiy tilni qayta ishlash (*Natural Language Processing*) texnologiyalarining jadal rivojlanishi savol-javob tizimlarini ta'lim, tibbiyot, yuridik xizmatlar va davlat boshqaruvi kabi sohalarda keng qo'llanilishiga zamin yaratdi. Xususan, ta'lim muassasalarida talabalarga tezkor va aniq ma'lumot berish maqsadida ishlab chiqilgan intellektual savol-javob tizimlari o'quv jarayonini optimallashtirish vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon amaliyotida bunday tizimlar dastlab qoidalarga asoslangan (*rule-based*) yondashuvlar asosida, so'ngra statistik va neyron tarmoq modellari, hozirgi kunda esa *Retrieval-Augmented Generation* (RAG) kabi zamonaviy arxitekturalar yordamida yaratilmoqda. Biroq ushbu texnologiyalarning aksariyati ingliz, xitoy kabi flektiv tillar uchun ishlab chiqilgan bo'lib, ularning agglyutinativ tillar hisoblangan turk, qozoq, qirg'iz va o'zbek tillariga tatbiq etilishi bir qator o'ziga xos lingvistik muammolarni yuzaga keltiradi. Agglyutinativ tillarning morfologik tuzilishi, xususan, o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlari, savol-javob tizimlarini yaratishda alohida yondashuvni talab qiladi. Bunday tillarda so'z yasalishi qo'shimchalarning ketma-ket birikuvi asosida amalga oshiriladi, bu esa quyidagi bir qator nazariy va amaliy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi:

Birinchidan, o'zbek tilida bitta o'zakdan qo'shimchalarning ketma-ket birikuvi natijasida son jihatidan cheksizga yaqin so'z shakllari hosil bo'lishi mumkin. Masalan, "kel" fe'l o'zagidan *keldi, kelaman, kelmoqchiman, kelayotgan, kelganida* kabi o'nlab morfologik variantlar yasaladi. Ushbu hodisa til modelining lug'aviy hajmini sun'iy ravishda keskin oshirib yuboradi, natijada tizim har bir so'z shaklini alohida leksik birlik sifatida qabul qilishga majbur bo'ladi. Bu, o'z navbatida, savol-javob tizimida foydalanuvchi kiritgan so'z shaklining tizim tomonidan tanib olinmasligi yoki ular semantik jihatdan bir xil o'zakka mansub bo'lsa ham noto'g'ri talqin etilishi xavfini yuzaga keltiradi.

Ikkinchidan, so'z tarkibidagi qo'shimchalar chegarasini aniq belgilash, ya'ni morfologik segmentatsiya jarayoni nazariy jihatdan ancha murakkab masala hisoblanadi. Bu murakkablik, xususan, so'zlashuv uslubidagi shakllar, imlo xatolari yoki norasmiy yozuvda uchraydigan qisqartmalar mavjud bo'lganda yanada kuchayadi.

Uchinchidan, bir xil grammatik ma'noni ifodalovchi qo'shimcha fonetik moslashuv qonuniyatlari asosida turlicha shakllarda namoyon bo'ladi. Bu holat qo'shimchaning yagona kanonik shaklini belgilashni qiyinlashtiradi, natijada morfologik tahlildan so'ng olingan natijalarni yagona standart ko'rinishga keltiruvchi normalizatsiya bosqichini talab qiladi. Aks holda, semantik jihatdan bir xil bo'lgan so'z shakllari tizim tomonidan turli birliklar sifatida qabul qilinishi mumkin, bu esa qidiruv va javob tanlash bosqichlarining aniqligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan, mazkur tadqiqot o'zbek tilining agglyutinativ xususiyati keltirib chiqaradigan morfologik muammolarni tahlil qilish hamda ta'lim yo'nalishidagi savol-javob tizimlari uchun segmentatsiya va normalizatsiya jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan gibrid arxitekturani loyihalashni maqsad qilgan.

Turli til oilalariga mansub tillar, jumladan, agglyutinativ tillar misolida savol-javob tizimlarini yaratish borasida xorijlik tadqiqotchilar tomonidan qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Xususan, Wei Bi va uning hammualliflari [1:108] tomonidan xitoy an'anaviy tibbiyoti (TCM) ta'limi sohasida ishlab chiqilgan tadqiqotda, matn va tasvirni birgalikda tahlil qiluvchi savol-javob tizimi (*TCM-VQA IoTNet*) taqdim etilgan. Ushbu tizim *VisualBERT* [2: 190] modelini GRU tarmog'i va diqqat mexanizmi (*attention mechanism*) [3: 61] bilan uyg'unlashtirib, IoT sensorlaridan olingan ma'lumotlarni qayta ishlashga qodir. Ushbu tadqiqot savol-javob tizimlarini soha bo'yicha ixtisoslashtirilgan (*domain-specific*) ma'lumotlar bazasi asosida yaratish metodologiyasi jihatidan qimmatli tajriba hisoblanadi.

Yana bir muhim tajriba sifatida, arab tili uchun ishlab chiqilgan savol-javob tizimlarini keltirish mumkin. Souheyl Mallat [4: 29] tomonidan taqdim etilgan tadqiqotda arab tilida resurslarning cheklanganligi va morfologik murakkablik sababli avtomatik tahlil qiyinlashishi ta'kidlanadi. Muallif so'z chegaralarini aniqlash (segmentatsiya), keraksiz belgilarni olib tashlash (normalizatsiya) va so'zlarni asosiy shakliga keltirish (stemmatizatsiya) bosqichlarini o'z ichiga olgan uch bosqichli

arxitekturani taklif etgan. Ushbu yondashuv *Arabic Reading Comprehension Dataset* (ARCD) testida F1 ko'rsatkichini 73% ga yetkazib, bazaviy BERT modelidan (61.3%) seziarli darajada yuqori natija ko'rsatgan.

Kam resursli agglyutinativ tillar uchun savol-javob tizimlarini yaratish borasida Budur va uning hammualliflari [5: 123] tomonidan turk tili misolida olib borilgan tadqiqot alohida e'tiborga loyiqdir. Mualliflar SQuAD2.0 [6: 86] ma'lumotlar to'plamini mashina tarjimasi orqali turk tiliga o'girib, ColBERT-QA modelini moslashtirganlar. Tadqiqotda turk tilining boy affiksatsiya tizimi tufayli har bir so'z inglizchaga qaraganda o'rtacha 1.3 baravar ko'p token hosil qilishi aniqlangan, bu esa segmentatsiya jarayonida standart 100 so'zlik bo'lak o'rniga 75 so'zlik bo'lakdan foydalanish zaruriyatini ko'rsatgan.

O'zbek tili uchun NLP resurslarini yaratish bo'yicha ham bir qancha e'tiborga molik ishlar bajarilgan. O.O.Sobirov va A.Sh. Axrorov [8: 49] UzRoBERTa va BERTbek [7: 41] transformer modellarini qiyosiy tahlil qilib, UzRoBERTa matn tasnifi va savol-javob tizimlarida yuqoriroq samaradorlik namoyon etishini ko'rsatganlar. Bunga parallel ravishda, M.Sharipov va O.Sobirov [9: 115] qoidaga asoslangan (*rule-based*) 7 bosqichli lemmalash algoritmini ishlab chiqqanlar. Biroq, mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zbek tili NLP sohasida neyron tarmoq modellari (UzRoBERTa) [8: 47] va qoidaviy lemmalash algoritmlari [9] bir-biridan ayro holda o'rganilgan. Ikkala yondashuvning kuchli tomonlarini birlashtiruvchi gibrid arxitekturani loyihalash masalasi hali o'z yechimini topmagan.

O'zbek tilining agglyutinativ tabiatidan kelib chiqib, lug'at hajmining sun'iy ortishi va OOV (Out-of-Vocabulary) muammosini kamaytirish uchun 3 bosqichli gibrid arxitektura taklif etiladi. Taklif etilayotgan model lingvistik qoidalar hamda neyron tarmoq texnologiyalarining sinteziga asoslanadi. Tadqiqotda **qiyosiy-tahliliy, komponent tahlil va eksperimental-statistik metodlar**dan foydalanildi. Qiyosiy-tahliliy metod yordamida o'zbek tilining agglyutinativ xususiyatlari hamda boshqa turkiy tillardagi morfologik segmentatsiya yondashuvlari qiyoslandi. Komponent tahlil metodi asosida so'zlarning o'zak va affiksal qismlari tahlil qilindi. Eksperimental-statistik metod orqali taklif etilayotgan gibrid yondashuvning samaradorligi OOV ko'rsatkichi, EM va F1 mezonlari asosida baholanishi nazarda tutiladi.

Tadqiqot natijasida o'zbek tilining agglyutinativ xususiyatlarini hisobga olgan holda qiyosiy-tahliliy, komponent tahlil hamda eksperimental-statistik yondashuvlarni integratsiyalashga asoslangan uch bosqichli gibrid model taklif etildi. Mazkur yondashuv savol-javob tizimlarida tabiiy tilni qayta ishlash jarayonini morfologik va semantik jihatdan takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, matnni normalizatsiya qilish, morfologik segmentatsiya va lemmatizatsiya hamda neyron model asosida kontekstual-semantik qayta ishlash bosqichlarini o'z ichiga oladi. Taklif etilayotgan modelning asosiy afzalligi o'zbek tilidagi grammatik shakllarning xilma-xilligi va affiksal tuzilishini hisobga olgan holda savol hamda javob birliklarini izchil qayta ishlash imkoniyatining yaratilishidir.

Birinchi bosqichda **matnni normalizatsiya qilish** amalga oshiriladi. O'zbek tilidagi savol-javob ma'lumotlarida bir xil birliklarning turli grafik yoki ortografik ko'rinishlarda uchrashi keyingi qayta ishlash bosqichlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli matnni yagona yozuv me'yoriga keltirish, ortografik variantlarni standartlashtirish, keraksiz belgilar va texnik tokenlarni filtrlash mazkur bosqichning asosiy vazifalarini tashkil etadi. Normalizatsiya natijasida semantik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan birliklarning turli shakllarda qayta-qayta ifodalanishi kamayadi va keyingi morfologik tahlil uchun nisbatan barqaror kirish ma'lumotlari shakllanadi. Bu esa savol-javob korpusini avtomatik qayta ishlashda ma'lumotlarning izchilligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ikkinchi bosqichda **morfologik segmentatsiya va lemmatizatsiya** amalga oshiriladi. O'zbek tili agglyutinativ til bo'lgani sababli bitta leksema turli grammatik va derivatsion affikslar yordamida ko'plab shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Natijada yuzaki shakllar sonining ko'payishi lug'at hajmining sun'iy kengayishiga hamda model uchun ilgari uchramagan birliklar, ya'ni OOV (Out-of-Vocabulary) holatlarining yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Taklif etilayotgan yondashuvda so'z tarkibidagi o'zak va affiksal komponentlarni ajratish hamda morfologik jihatdan turlicha shakllangan birliklarni ularning asosiy lemmasi bilan bog'lash nazarda tutiladi. Bunday qayta ishlash bir xil semantik birlikning turli grammatik shakllarini umumlashtirish imkonini beradi.

O'tkazilgan nazariy-metodologik tadqiqot natijasida o'zbek tili kabi agglyutinativ tillarda intellektual savol-javob tizimlarini yaratishdagi morfologik segmentatsiya va normalizatsiya muammolarining ilmiy yechimlari tizimlashtirildi. Shunday qilib, tadqiqot doirasida taklif etilgan uch bosqichli gibrid yondashuv **lingvistik qoidalar va neyron texnologiyalarni birlashtirish** orqali o'zbek tilidagi savol-javob tizimlarini takomillashtirish uchun metodologik asos yaratadi.

Yondashuvning muhim jihati shundaki, unda o'zbek tilining agglyutinativ xususiyati modelning dastlabki qayta ishlash bosqichidan boshlab hisobga olinadi. Bu esa kelgusida o'zbek tilidagi ta'limiy savol-javob tizimlari, avtomatik baholash vositalari va intellektual ta'lim platformalarida qo'llash mumkin bo'lgan morfologik-semantik qayta ishlash modelini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bi W. et al. TCM-VQA IoTNet: A multimodal question answering model for traditional Chinese medicine education based on IoT sensors and attention mechanisms // Computers and Electrical Engineering, 2023. – P. 108.
2. Li L.H., Zhang M., Zhang X., Meng L., Liu X. VisualBERT: A simple and performant baseline for vision and language // arXiv preprint arXiv:1908.03557, 2019.
3. Vaswani A., Shazeer N., Parmar N., Uszkoreit J., Jones L., Gomez A.N., Kaiser Ł., Polosukhin I. Attention is all you need // Advances in Neural Information Processing Systems, 2017. Vol. 30. – P. 59–68.
4. Mallat S. Arabic question answering system using deep learning and semantic normalization for educational domain // Journal of King Saud University – Computer and Information Sciences, 2022. Vol. 34 (8). – P. 20–32.
5. Budur E., Ozcelik O., Koç A., Güngör T. Question answering and information retrieval for low-resource agglutinative languages: A case study on Turkish // IEEE Access, 2021. Vol. 9. – P. 123–134.
6. Rajpurkar P., Jia R., Liang P. Know what you don't know: Unanswerable questions for SQuAD // Proceedings of the 56th Annual Meeting of the Association for Computational Linguistics, 2018. – P. 784–789.
7. Devlin J., Chang M.W., Lee K., Toutanova K. BERT: Pre-training of deep bidirectional transformers for language understanding // Proceedings of NAACL-HLT, 2019. – P. 4171–4186.
8. Sobirov O.O., Axrorov A. O'zbek tili uchun transformer modellari (BERTbek va UzRoBERTa) samaradorligini qiyosiy tahlil qilish // AIP Conference Proceedings / Ilmiy axborotnoma, 2023. Vol. 4 (1). – B. 45–52.
9. Sharipov M., Sobirov O. Development of a rule-based lemmatization algorithm for the Uzbek language // International Conference on Computational Linguistics and Natural Language Processing, 2022. – P. 112–119.

Zarina NIZOMJONOVA,
Qarshi davlat universiteti magistranti

"MAVLIDI BARZANJIY" ASARINING POETIK O'ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya. Maqolada mavlidnavislik an'anasi va Imom Sayyid Ja'far ibn Hasan al-Barzanjiy ijodiy merosi, xususan, "Mavlid" asarining janriy-kompozitsion xususiyatlari tahlil qilinadi. Asardagi nasr va nazm uyg'unligi, saj' uslubi, badiiy tasvir vositalari hamda matnning hissiy-ta'sirchanlik xususiyatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: mavlidnavislik, Barzanjiy, "Mavlid", kompozitsiya, nasr, nazm, saj', badiiy tasvir, salovat, hissiy ta'sir.

Annotation. The article examines the tradition of Mawlid literature and the literary heritage of Imam Sayyid Ja'far ibn Hasan al-Barzanji, focusing on the genre and compositional features of his "Mawlid". The study analyzes the combination of prose and poetry, sa'j (rhymed prose), artistic devices, and the emotional expressiveness of the text.

Keywords: Mawlid literature, al-Barzanji, "Mawlid", composition, prose, poetry, saj', artistic imagery, salawat, emotional impact.

Аннотация. В статье рассматриваются традиция мавлидописания и литературное наследие Имама Сайййда Джафара ибн Хасана аль-Барзанджи, в частности, жанрово-композиционные особенности произведения «Мавлид». Анализируются сочетание прозы и поэзии, стиль садж, художественные средства и эмоциональная выразительность текста.

Ключевые слова: мавлидописание, аль-Барзанджи, «Мавлид», композиция, проза, поэзия, садж, художественная образность, салават, эмоциональное воздействие.

Mavludnavislik Sharq musulmon xalqlari adabiy-estetik tafakkurida shakllangan o'ziga xos diniy-ma'rifiy va badiiy an'analardan biridir. Mavlud asarlarida Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning tavalludi, nasabi, bolalik va yoshlik davri, payg'ambarlik faoliyati, yuksak axloqiy fazilatlari hamda insoniyat uchun ibrat bo'luvchi hayot yo'li badiiy ifoda etiladi. Shu jihatdan mavlud matnlari faqat diniy marosimlarda o'qiladigan manba sifatida emas, balki muayyan davr adabiy tafakkuri, xalqning ma'naviy-axloqiy qarashlari va estetik didini o'zida aks ettiruvchi adabiy hodisa sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Mavludnavislik an'anasining rivojlanishi natijasida arab, fors va turkiy adabiyotlarda Payg'ambar hayoti va fazilatlarini madh etishga bag'ishlangan ko'plab asarlar yuzaga kelgan. Ushbu asarlarda tarixiy-biografik ma'lumotlar badiiy tasvir, madh, salovat, duo, hikoya va she'riy parchalar bilan uyg'unlashib boradi. Natijada mavlud janri diniy mazmun bilan bir qatorda o'ziga xos poetik shakl va obrazlar tizimiga ega bo'lgan adabiy janr sifatida taraqqiy etgan. Tadqiqotlarda ham mavlud matnlarining Qur'on, hadis va siyrat manbalari bilan uzviy bog'liqligi, ularning diniy-ma'rifiy mazmunni badiiy shaklda ifodalashi ta'kidlanadi [1: 21].

Mavludnavislik tarixida Ja'far ibn Hasan al-Barzanjiyning ijodi alohida o'rin tutadi. Uning mashhur "Mavlid al-Barzanji", to'liq nomi "Iqd-ul-javhar fii mavlidi -n-Nabiyyyi-l-azhar" bo'lgan asari musulmon olamida keng tarqalgan mavlud matnlaridan biridir. Al-Barzanjiyning mazkur asari o'zining nasr va nazm uyg'unligi bilan ham e'tiborga molikdir. Nasriy qismlarda voqealar izchil bayon qilinsa, she'riy parchalar mazmunning hissiy-ta'sirchanligini kuchaytiradi. Bunday shakliy uyg'unlik o'quvchi yoki tinglovchining matnni nafaqat aqliy, balki hissiy jihatdan ham qabul qilishiga xizmat qiladi. Asarning asrlar davomida turli musulmon xalqlari orasida o'qilib, turli tillarga tarjima qilinishi va marosimlarda ijro etilishi uning kuchli kommunikativ hamda ma'naviy-psixologik ta'sir imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Mavlud matnlarining bunday keng ommalashuvida ularning inson ruhiyatiga ta'sir qiluvchi jihatlari ham muhimdir. Jumladan, madh, salovat, duo, ezgulik, mehr-muhabbat, sabr, saxovat va komillik kabi tushunchalarning takroriy hamda ta'sirchan ifodalanishi tinglovchida ijobiy hissiy holatlarni shakllantirish, diniy-ma'naviy qadriyatlarga hurmatni kuchaytirish va jamoaviy birlik tuyg'usini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu ma'noda mavlud matnlarini filologik tadqiq etish bilan bir qatorda, ularning inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsatish xususiyatlarini o'rganish ham dolzarb ilmiy masalalardan biridir.

Shu jihatdan Ja'far ibn Hasan al-Barzanjiyning "Mavlid" asari mavludnavislik an'anasining taraqqiyotini, diniy-ma'rifiy mazmunning badiiy ifodasini, nasr va nazm munosabatini, obrazlar tizimi hamda asarning hissiy-psixologik ta'sir xususiyatlarini o'rganish uchun muhim manba hisoblanadi. Mazkur maqolada Barzanjiyning hayoti va ilmiy-adabiy faoliyati, "Mavlid" asarining yaratilish tarixi va kompozitsiyasi, asardagi badiiy tasvir vositalari, Payg'ambar siymosining yaratilishi hamda matnning o'quvchi va tinglovchi ruhiyatiga ta'sir etuvchi jihatlari tahlil qilinadi.

"Va yana ul kechada bir necha g'ayridin podshohlarning taxti saltanatlari, topinmoq uchun yasagan ziynatli butlari yuzu og'izlariga sarnigun bo'lib, poymol bo'lmishdir. Mashriq va Mag'riblardagi jami vahshiy darrandalarning hamma turlari, bir-birlariga janob Rabbul olamiynning habibi va rasulining hamllari dunyoga anqarib kelurlaridin bashorat bermishlar va o'zaro bu xushxabarni tezlikda tarqatmishlar" [2: 52] tarzidagi tasvir keltiriladi.

Mazkur parchada tavallud hodisasining ta'sir doirasi insoniyat bilangina chegaralanmay, butun borliqni qamrab oluvchi hodisa sifatida tasvirlangan. G'ayridin podshohlar saltanatining zaiflashuvi, butlarning poymol bo'lishi hamda turli yovvoyi hayvonlarning bir-birlariga bu ulug' hodisadan xushxabar berishi kabi obrazli tasvirlar tavalludning buyukligini ta'kidlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, hayvonlarning o'zaro xushxabar tarqatishi haqidagi tasvir voqeaga jonli va harakatchan ruh bag'ishlab, tasavvur olamini kengaytiradi.

Parchada qo'llangan "bashorat bermishlar", "xushxabarni tezlikda tarqatishlari" kabi ifodalar tavallud hodisasining quvonch va intizorlik ruhini kuchaytiradi. Bunda muallif voqeani faqat bayon qilib qolmay, balki uning hissiy mazmunini ham o'quvchi va tinglovchiga yetkazishga intiladi. Natijada tavallud hodisasi matnda quvonch, hayrat, ehtirom va ruhiy ko'tarinkilik uyg'otuvchi badiiy manzaraga aylanadi. Shuningdek, ushbu parchadagi tasvirlar mubolag'a va jonlantirish kabi badiiy vositalar bilan boyitilgan. Ayniqsa, hayvonlarning insonlarga xos tarzda bir-birlariga xushxabar yetkazishi jonlantirishning yorqin ko'rinishi bo'lib, tavallud hodisasining butun mavjudotga daxldorligini obrazli ifodalash imkonini bergan. Shu jihatdan mazkur tasvir nafaqat voqeaning diniy mazmunini, balki asarning poetik va emotsional imkoniyatlarini ham namoyon etadi.

"Mavlid" asarining mazmun-mohiyatida insonni ezgulikka, go'zal axloqqa, mehr-muhabbatga va ma'naviy kamolotga

undash yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Shu jihatdan Barzanjiyning mavludi nafaqat diniy-ma'rifiy, balki badiiy-estetik va psixologik jihatdan ham tadqiq etishga arzigulik manba sanaladi. Ja'far ibn Hasan al-Barzanji 1764-yilda Madinai Munavvarada vafot etgan. Biroq uning adabiy merosi, xususan, "Mavlid" asari muallif vafotidan keyin ham keng tarqalib, musulmon xalqlari orasida o'qib kelinmoqda. Asarning uzoq vaqt davomida o'z ahamiyatini saqlab qolishi mavludnavislik an'anasining xalq ma'naviy hayotidagi mustahkam o'rnini ko'rsatadi.

Bunday ohangdorlikning psixologik ta'siri ham e'tiborga molik. Ritmik jihatdan uyushgan jumlalar, tovush takrorlari va obrazli ifodalar tinglovchining diqqatini matnga jalb etib, bayon qilinayotgan voqeani hissiy jihatdan qabul qilishni osonlashtiradi. Ayniqsa, mavlid marosimida bunday parchalar ohang bilan o'qilganda, matnning emotsional ta'siri yanada kuchayishi mumkin. Demak, saj' "Mavlidi Barzanjiy"da bir vaqtning o'zida badiiy-estetik, ritmik va emotsional-kommunikativ vazifa bajaradi.

"Mavlidi Barzanjiy"ning o'ziga xosligi uning faqat o'qiladigan asar emas, balki ijro etiladigan matn sifatida shakllanganidir. Saj'li nasr, nazmiy parchalar, takroriy salovotlar va ohangdor ifodalar matnning og'zaki ijroga mosligini ta'minlaydi. Shu jihatdan asarning poetik qurilishi uning mazmuni bilan bir qatorda, tinglovchiga yetkazilish shaklini ham belgilaydi. Matndagi ritm va takrorlar tinglovchining diqqatini ushlab turishga, muayyan obraz va g'oyalarni xotirada mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin.

Asarning psixologik-ta'sirchanlik jihati ham aynan mana shu poetik xususiyatlar bilan bog'liq. Payg'ambarimizning fazilatlarini madh etuvchi ifodalar, ohangdor nasr, nazmiy parchalar va takroriy salovotlar tinglovchida ehtirom, muhabbat va ruhiy yaqinlik kabi hissiyotlarni kuchaytirishga xizmat qiluvchi badiiy omillar sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, asarning jamoaviy tarzda o'qilishi va salovotlarning birgalikda takrorlanishi individual hissiy kechinmadan tashqari, umumiy ruhiy holatning shakllanishiga ham zamin yaratadi. Shunday qilib, "Mavlidi Barzanjiy"ning kompozitsion qurilishi, nasr va nazm uyg'unligi, saj'li bayon uslubi hamda salovotlarning takroriy tizimi bir-biridan ajralgan hodisalar emas. Shu bois Barzanjiy mavlidini diniy mazmundagi nasriy asar sifatida emas, balki badiiy, marosimiy va emotsional-kommunikativ xususiyatlari o'zaro uyg'unlashgan janriy hodisa sifatida tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Barzanjiy S.J. Mavlid / tarjima va sharh muallifi: H.Y. Abdulmajid. – Toshkent: Hilol-nashr, 2022.
2. Imom Ja'far Barzanjiy. Mavlid un-Nabiy. – Toshkent: Movarounnahr, 2018.
3. Mulla Yo'ldosh Xilvatiy. Mavludi Sharif. – Toshkent: Akademnashr, 2024.
4. Erkinov A. Matnshunoslik va manbashunoslik asoslari: o'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008.
5. Boltayeva O. Xilvatiy ijodini o'rganishda qiyosiy-tipologik tadqiq metodidan foydalanish // Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, 2023-yil 23-noyabr. – B. 2.
6. Hasaniy M., Habibullayev A. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslikning nazariy masalalari. – Toshkent: Toshkent davlat Sharqshunoslik instituti, 2012.

Xusniddin NARBUTAYEV,
Renessans ta'lim universiteti karyera markazi rahbari

POETIK OBRAZNING SEMANTIK TRANSFORMATSIYASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid she'riyatida metaforik tafakkurning namoyon bo'lish xususiyatlari hamda poetik obrazning semantik transformatsiyasi tadqiq etiladi. Tadqiqotning asosiy manbasi sifatida Sirojiddin Sayyidning "Bu kecha harflarim hazindan hazin" (1990), "Eski tashbeh" (2002), 2002- va 2005-yillarda e'lon qilingan ayrim she'riy matnlari tahlilga tortildi. Tahlil jarayonida "harf", "un", "jadval", "gul", "qon", "soch", "yong'in", "sel", "yomg'ir", "tor", "dunyo", "matal", "masal", "maysa", "g'azal", "bayt" kabi birliklarning she'riy nutqda o'z nominativ chegarasidan chiqib, yangi semantik munosabatlar hosil qilishi aniqlandi. Sirojiddin Sayyid poetik tafakkurining o'ziga xos jihati konkret predmet va hodisalarni insonning ruhiy holati, muhabbat, ayriliq, vaqt, hayot va mavjudlik haqidagi falsafiy mushohada bilan bog'lashida namoyon bo'ladi. Maqolada metafora oddiy badiiy bezak emas, balki poetik mazmunni shakllantiruvchi semantik mexanizm sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: Sirojiddin Sayyid, lingvopoetika, metafora, poetik tafakkur, poetik obraz, semantik transformatsiya, ko'chma ma'no, individual uslub, poetik semantika.

Annotation. This article examines the manifestations of metaphorical thinking and the semantic transformation of poetic images in the poetry of Sirojiddin Sayyid, People's Poet of Uzbekistan. As the primary sources, the study analyzes selected poetic texts by Sirojiddin Sayyid published in collections such as "Bu kecha harflarim hazindan hazin" (1990), "Eski tashbeh" (2002), as well as various poems published in 2002 and 2005. During the analysis, it was identified that units such as "harf" (letter), "un" (sound/voice), "jadval" (table/schedule), "gul" (flower), "qon" (blood), "soch" (hair), "yong'in" (fire), "sel" (torrent), "yomg'ir" (rain), "tor" (string), "dunyo" (world), "matal" (proverb), "masal" (fable/tale), "maysa" (grass/sprout), "g'azal" (ghazal), and "bayt" (couplet) transcend their nominative boundaries in poetic speech and generate new semantic relations. A distinct feature of Sirojiddin Sayyid's poetic thinking is manifested in his ability to connect concrete objects and phenomena with human psychological states, philosophical reflections on love, separation, time, life, and existence. The article evaluates metaphor not merely as a conventional artistic decoration, but as a semantic mechanism that shapes poetic content.

Keywords: Sirojiddin Sayyid, linguopoetics, metaphor, poetic thinking, poetic image, semantic transformation, figurative meaning, individual style, poetic semantics.

Аннотация. В статье исследуются особенности проявления метафорического мышления и семантическая трансформация поэтического образа в поэзии народного поэта Узбекистана Сирожиддина Саййида. В качестве основного источника исследования были проанализированы стихотворные тексты Сирожиддина Саййида из сборников «Бу кеча ҳарфларим ҳазиндан ҳазин» (1990), «Эски ташбеҳ» (2002), а также отдельные поэтические тексты, опубликованные в 2002 - 2005 годах. В ходе анализа было выявлено, что такие единицы, как «ҳарф» (буква), «ун» (звук/голос), «жадвал» (таблица/расписание), «гул» (цветок), «қон» (кровь), «соч» (волосы), «ёнғин» (пожар), «сел» (сель/поток), «ёмғир» (дождь), «тор» (струна), «дунё» (мир), «матал» (поговорка), «масал» (басня), «майса» (трава/росток), «ғазал» (газель) и «байт» (бейт), выходят за рамки своей номинативной границы в поэтической речи и образуют новые семантические отношения. Специфическая особенность поэтического мышления Сирожиддина Саййида проявляется в связывании конкретных предметов и явлений с душевным состоянием человека, а также с философскими размышлениями о любви, разлуке, времени, жизни и бытии. В статье метафора оценивается не просто как обычное художественное украшение, а как семантический механизм, формирующий поэтическое содержание.

Ключевые слова: Сирожиддин Саййид, лингвопоэтика, метафора, поэтическое мышление, поэтический образ, семантическая трансформация, переносное значение, индивидуальный стиль, поэтическая семантика.

Badiiy matnning lingvopoetik tabiatini belgilovchi muhim omillardan biri til birliklarining nominativ vazifadan tashqari estetik va obrazli ma'no kasb etishidir. Ayniqsa, she'riy matnda so'zning lug'aviy ma'nosi, kontekstual ma'nosi va poetik mazmuni o'rtasidagi munosabat nihoyatda murakkab xarakterga ega. Shoir borliqdagi predmet va hodisalarni shunchaki nomlamaydi, balki ularni o'zining individual badiiy tafakkuri orqali qayta idrok etadi.

Metafora ana shu qayta idrok jarayonining muhim til vositalaridan biridir. Zamonaviy tadqiqotlarda ham poetik nutqda metafora va uning individual uslubni shakllantirishdagi o'rni alohida tavsiflanadi. Xususan, metaforalar faqat badiiy san'at sifatida qayd qilinmaydi. Metaforik obrazning bir semantik holatdan ikkinchi semantik holatga o'tishi, ya'ni semantik transformatsiya jarayoni ham alohida diqqat qaratishni taqazo qiladi.

Sirojiddin Sayyidning turli yillarda yaratilgan qator she'rlarida shoirning poetik tafakkuridagi ayrim barqaror va takrorlanuvchi modellarni kuzatish mumkin.

"Bu kecha harflarim hazindan hazin" she'rining dastlabki misralari shoir metaforik tafakkurining muhim xususiyatini ko'rsatadi:

Bu kecha harflarim hazindan hazin,
Un cheksam unlarim uzundan uzun.
Men hech ne so'rmayin, o'zingdan o'zing
Judolik jadvalin tuzib ber menga.

Ushbu misrada **harf** va **un** odatiy nominativ ma'nosida qolmaydi. Harfning "hazin" bo'lishi mantiqan mumkin emas, chunki hazinlik inson ruhiy holatiga xosdir, bu yerda "harf" orqali lirik subyektning ichki kechinmasi moddiylashtirilgan.

Buni quyidagicha ifodalash mumkin:

ruhiy holat → til birligi → poetik obraz.

"Harflarim hazindan hazin" birikmasida shoir o'zining ruhiy holatini bevosita "men g'amginman" tarzida ifodalash o'rniga uni harflarga yuklaydi. Natijada grammatik jihatdan kesim vazifasidagi "hazin" so'zi semantik jihatdan "harf"ni emas, uning ortida turgan lirik kechinmani tavsiflaydi.

"Unlarim uzundan uzun" misrasida ham shunga yaqin mexanizm kuzatiladi. "Uzun" sifatining tovushga ko'chirilishi tovushning davomiyligi bilan bir qatorda "cho'zilgan iztirob" semantikasini ham yuzaga chiqaradi. Bundan ayonlashadiki, harf – iztirobning yozma shakli; un – iztirobning ovozli shakli. Shu tariqa bir ruhiy holat ikki xil moddiy vosita, yo'l – yozuv va tovush orqali poetiklashtiriladi.

Ushbu she'r matnidagi *Judolik jadvalin tuzib ber menga* misrasi ham alohida e'tiborga loyiq. "Jadval" odatda ma'lumotlarni tartiblash vositasi, "judolik" esa mavhum, hissiy holat. Shoir bu ikki semantik jihatdan uzoq birlikni biriktirib, mavhum hodisani predmetlashtirishga erishadi. Ushbu badiiy nutq davomida *jadval → tartib → hisob → vaqt → judolik* assotsiativ zanjiri shakllanadi.

Bunday kutilmagan semantik birikma poetik ekspressiyani kuchaytiradi. Shoir go'yo ayriliqning kunlari, muddatlari

yoki bosqichlarini hisobga olish mumkin bo'lgan "jadval"ga aylantiradi. Ushbu o'rinda qayd qilinayotgan ushbu metaforaning muhim belgisi – mavhum tushunchani konkret predmetning strukturasi orqali idrok etishdir.

Mazkur she'rning markaziy obrazlaridan biri "gul"dir:

Dilda shuncha yillar bir gul o'stirdim,
Uni yo'lga solib, yo'ldan ozdirdim,
So'ngra o'sha gulni o'zim to'zdirdim,
Shu gulning qonini ezib ber menga.

Ushbu she'riy parchada "gul"ni faqat o'simlik tushunchasi sifatida talqin qilish poetik mazmunni to'liq ochib bermaydi.

"Dilda gul o'stirmoq" – muhabbat, umid yoki orzuni qalbda asramoq; "gulni to'zdirish" – shu tuyg'uning barbod bo'lishi; "gulning qoni" esa uning hayotiy mohiyatini anglatadigan individual metaforik birlik sifatida namoyon bo'ladi.

Ushbu poetik nutq ichida quyidagi davomli halqani qayd qilish o'rinli deb hisoblaymiz: *gul → muhabbat → qalbda asralgan tuyg'u → yo'qotilgan tuyg'u → iztirob.*

Bunda metaforik obraz bir martalik ko'chim emas, balki butun band bo'ylab rivojlanadigan metaforik tizimni hosil qiladi. Ushbu holat Sirojiddin Sayyid she'riyatida metaforaning alohida so'z darajasidan yuqorilab, matnni tashkil etuvchi semantik mexanizmga aylanishini ko'rsatadi.

Soch obrazi ham o'ziga xos badiiy tasviri va tavsifiga ega:

Sochlaring tun ichra bir-bir sirlashib,
Oldilar jon-u jahonim birlashib.
Goh qaro yong'in bo'lib yoyildilar,
Gohi selu gohida yomg'irlashib.

Bu parchada bitta predmet, ya'ni **soch** ketma-ket uch xil tabiat hodisasi bilan bog'lanadi: *soch → yong'in → sel → yomg'ir.*

Qaro yong'in metaforasi sochning rangini va uning lirik subyektga ta'sir kuchini bir vaqtning o'zida ifodalaydi. *Sel* va *yomg'ir* esa sochning yoyilib, harakatlanish holatini boshqa tabiat hodisalari orqali qayta tasvirlaydi. Natijada soch obrazi shunchaki tashqi element emas, balki harakatlanuvchi poetik obrazga aylanadi.

Bu yerda metaforaning asosiy vazifasi – mahbuba jamolinini bezash emas, balki lirik subyektning bu qiyofadan ta'sirlanish darajasini ifodalashdir.

Quyidagi she'riy misraga ham diqqat qaratamiz:

Menda ko'ngil torlari-yu
senda zulfing torlari,
Zulfingning torlaridan
menga ko'ngil dorlari.

Tor leksemasi dastlab musiqa asbobining tarkibiy qismi sifatida anglashiladi. "Ko'ngil torlari" esa inson ruhiyatini musiqa asbobiga o'xshatish asosida yaratilgan metaforik birlikdir. Ushbu metafora keyingi bandda yanada rivojlanadi:

Serjarang yangrar umr ham
ikki tor birlashsa gar...

Bu yerda "ikki torning birlashuvi" ikki insonning yaqinligi bilan tenglashtiriladi.

Natijada *tor → ko'ngil → ikki inson → munosabat → umr → musiqa* semantik silsila hosil bo'ladi. Bu kabi badiiy chizgilar Sirojiddin Sayyid poetikasida metaforaning falsafiy mazmun hosil qilish imkoniyatini yorqin ko'rsatishga xizmat qiladi.

Shoirning quyidagi she'riy misralarida "dunyo" bir necha bor turli obrazlarga qiyoslanadi:

Sochlaringni maydalay,
Bu dunyo bir matalday.
Keyin:
Bu dunyo bir masalday.
va:
Bu dunyo bir maysaday.
nihoyat:
Bu dunyo bir g'azalday.

Bu ketma-ketlik oddiy tashbehlar yig'indisi emas. "Matal", "masal", "maysa", "g'azal" semantik jihatdan turli sohalarga mansub bo'lsa-da, ularning barchasi "dunyo" tushunchasini turli qirralardan ochadi.

Dunyo – matal: hayotning hikmatli va ibratli tabiati.
Dunyo – masal: majoz va yashirin ma'no.
Dunyo – maysa: tiriklik, yangilanish va noziklik.
Dunyo – g'azal: estetiklik, go'zallik va poetik mavjudlik.

Eng muhim jihat shundaki, shoir metaforik qatorni yakunlab, insonning dunyo ichidagi holatini "bayt" orqali ifodalaydi:

Bir baytida men xorman,
Bir baytida sen zorsan.

Yuqoridagi she'riy parchalardan ham anglashiladiki, Sirojiddin Sayyid metaforalarini alohida-alohida badiiy san'at sifatida emas, semantik transformatsiyaga ega bo'lgan poetik tizim sifatida talqin qilish mumkin.

Sirojiddin Sayyid she'riyatida metafora shoirning individual poetik tafakkurini namoyon etuvchi asosiy semantik mexanizmlardan biridir. Shoir konkret predmetlarni inson ruhiyati bilan bog'lash orqali ularning semantik imkoniyatlarini kengaytiradi. "Harf", "un", "jadval", "gul", "soch", "tor" kabi birliklar o'z lug'aviy ma'nolarini saqlagan holda yangi poetik mazmun kasb etadi.

Ayniqsa, "dunyo"ning "matal", "masal", "maysa", "g'azal" bilan ketma-ket bog'lanishi shoir metaforik tafakkurining tizimli xususiyatini betakror holda namoyon qiladi.

Ko'rinadiki, Sirojiddin Sayyid poetikasida metafora fikrni bezash vositasi → obraz yaratish vositasi → ruhiy holatni modellashtirish vositasi → falsafiy mazmunni shakllantirish mexanizmi darajasigacha rivojlanadi.

Bu esa shoirning individual uslubini o'rganishda metaforik modellarni alohida tadqiqot obyekti sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi. Bunday yondashuv asosida til birliklari imkoniyatlari va ularning badiiy tafakkurni samarali namoyon qilish vaziyatlari, o'rni va ahamiyati yanada yorqin ayonlashadi hamda xolis baholashga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sayyid S. Tanlangan asarlar. 1–2-jildlar. – Toshkent: Sharq, 2018.
2. Sayyid S. Vatanni o'rganish. – Toshkent: Ma'naviyat, 2013.
3. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.

4. Kilichev B., Rustamova M. Metaforaga xos ba'zi bir xususiyatlar (Sirojiddin Sayyid she'riyati misolida) // Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture, 2023. Vol. 3 (1). – B. 12–18.
5. Jiyanova S. Sirojiddin Sayyid she'riyati lingvopoetikasi // Obrazovaniye, nauka i innovatsionniye idei v mire, 2026. Vol. 87 (1). – C. 263–268.
6. Xurramova A.Sh. Sirojiddin Sayyid she'riyatida metaforaning kognitiv-semantik tabiati // Zamonaviy fan: innovatsion yondashuvlar va yosh tadqiqotchilarning dolzarb izlanishlari, 2026. – B. 345–347.
7. Cho'lpon. Asarlar. 4 jildlik. 1-jild: She'rlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994.
8. Yo'ldoshev B. Lingvopoetika asoslari. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
9. Rahimov A. O'zbek she'riyatida badiiy tasvir vositalari. – Toshkent: Fan, 1987.
10. Abdupattoyev M. O'zbek adabiyotida ramz va metafora. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2012.
11. Mirzayev S. O'zbek adabiyotida poetik tafakkur. – Toshkent: Akademnashr, 2015.

Diloram FATTAKHOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti
kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrasi katta o'qituvchisi

COMPARATIVE ANALYSIS OF SPEECH EXPRESSIVENESS TOOLS IN RUSSIAN AND UZBEK LANGUAGES FOR METHODOLOGICAL PURPOSES

Annotation. The means of speech expression have played an important role in the formation of the artistic style of speech as one of the varieties of the literary style to date. In modern Uzbek, they are also used in other language styles, including colloquial speech. Metaphor is one of the most common means of imagery in speech. Naturally, it is very often used in fiction, especially in poetry. This article examines the use of speech means in the Uzbek language and provides examples (fragments) from literary works.
Keywords: means of speech expression, tropes, figures, metaphor, expression, fiction.
Annotatsiya. Tilning tasviriy vositalari hozirgi kunga kelib badiiy uslubning bir turi sifatida badiiy nutq uslubining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Hozirgi o'zbek tilida ular tilning boshqa uslublarida, jumladan, so'zlashuv tilida ham ishlatiladi. Metafora nutqda eng keng tarqalgan tasviriy vositalardan biridir. Tabiiyki, u badiiy adabiyotda, ayniqsa, she'riyatda juda ko'p qo'llanadi. Ushbu maqolada o'zbek tili nutqiy ifoda vositalarining qo'llanilishi haqida so'z yuritiladi, badiiy asarlardan misollar (parchalar) keltiriladi.
Kalit so'zlar: nutqiy ifoda vositalari, ko'chimlar, figuralar, metafora, ekspressiya, badiiy adabiyot.
Аннотация. Средства речевой выразительности к настоящему времени сыграли важную роль в формировании художественного стиля речи как одной из разновидностей книжного стиля. В современном узбекском языке они также используются в других стилях языка, в том числе и в разговорном. Метафора - одно из самых распространенных средств изобразительности в речи. Естественно, она очень часто используется в художественной литературе, и особенно в поэзии. В статье рассматривается использование средств речевой выразительности узбекского языка, приводятся примеры (отрывки) из художественных произведений.
Ключевые слова: средства речевой выразительности, тропы, фигуры, метафора, экспрессия, художественная литература.

The Uzbek language, as one of the developed languages, is distinguished by the diversity and richness of linguistic units. This is also evidenced by the means of speech expression (tropes and figures), which attract many researchers and methodologists with their uniqueness and abundance. When teaching Russian-speaking students the means of speech expression in the Uzbek language, knowledge and use of the following groups of tropes acquire significant importance: metaphors, metonymy, epithets, paraphrases, and comparisons, as their frequency of use in texts, as statistical analysis shows, is very high. When clarifying the scope of meanings of a particular Uzbek word acting as an expressive tool in this context, and determining the main features underlying it, it is necessary to pay attention to the point of coincidence or discrepancy (in evaluation, in image) with its Russian equivalents.

It is the means of speech expression in fiction, as A.D.Boboniazov asserts, that help to reveal more fully the beauty of the language of the artistic work, and therefore the language to which it belongs [1: 81].

Metaphors, as is well known, can be nationwide (common-language) and authorial. General linguistic metaphors, which have lost their vividness, constitute a significant portion of terms and special expressions in official, journalistic, and artistic speech. For example:

Outside, the wind was even stronger than in the yard: it swirled, whirled, and screeched, dragging Hafiza off somewhere. (N.Otaxonov. "White House Evenings")

The figurative metaphors or epithets derived from the transition of descriptive meaning into characteristic and serving to develop the synonymous means of the language are the Golden Autumn – Oltinköz type combinations.

The wind was still howling and stirring in the darkness of the night. Hafiza's dresses fluttered in the wind, and her hair, as black as night, was thrown in all four directions. (N. Otaxonov. "White House Evenings")

Metaphor is one of the most common means of imagery in speech. Naturally, it is very often used in fiction, especially in poetry. The most common means of artistic depiction include, first and foremost, epithet, simile, allegory, metonymy, synecdoche, hyperbole, litotes, and some others. However, in metaphor, the compared phenomena are mutually integrated into a holistic image. Thus, for example, in metaphor, the comparison has already been carried out in the form of a figurative construction, while in comparison, the comparison is only given, but only the recipient has to carry it out. Therefore, the understanding of metaphor and simile is different due to the different construction of the image.

Metaphor, like other means of verbal imagery, has unequal functional activity in different spheres of communication. As is well known, the primary field of application for figurative means is fiction. Another area where they are used quite actively is journalism, as its inherent function is most effectively realized under conditions of expressive speech. However, getting carried away with figurative means and oversaturating the journalistic text with them is an undesirable phenomenon. Everything depends on the specific conditions of communication, primarily on the topic, idea, direction, and general stylistic atmosphere of the text, which is generally determined by the unity of form and content. For example:

Gentle winds are blowing.
Yelpib-yelpib anhor yuzini.
Canopy willows grow along the banks
He sees himself in the mirror.
The morning breezes playfully and softly,
It disappears into the larch grove.
The grass swayed softly,
He will watch him go. (Q.Hikmat "Bahor")

General linguistic imagery is widely used here. This is due to the rapid reactivity of oral speech, its spontaneity, unpreparedness, as well as the communication situation: like falling from a volume; like putting an eye on a long piece; like pulling a hair out of a dough. As the examples show, figurative metaphors are characteristic of both languages and differ in their similarity and expression.

In the mouths of the sparrows are twigs and twigs,
They put a nest on the mulberries.
The poplars embracing the sky never stop,

Gold gives a gray coat.
Clover field, lush green meadow,
Birds chirp on the plane trees,
Have you seen the beauty of the spring, comrade,
Flowers are everywhere, like a meadow. (Q.Hikmat "Bahor")

Metaphor in the Uzbek language is a transference based on similarities between objects [2: 69].

Metaphors always arise on the basis of similarity and comparison, but they differ from comparison by the following features: if two or more components are always involved in comparison and can also be supplemented, then only one component participates in metaphor, which carries a figurative meaning.For example:

A young man of about nineteen or twenty, wearing a thick, long, yellow-haired coat with raised collars, was wrinkling a leather glove in his hand and glancing around with large, falcon-like eyes, now restlessly at the ground, now searching for someone. The trolleybus quickly started moving. Cold, snowy air poured into the cabin through a small opening above the front seat. Everyone bumped into each other... Professor Abdulla Sayfiddinovich was sitting at a table by the window, looking through some papers with a sunken face. Her hair, white as cotton wool, shimmered in the dull sunlight streaming through the blue-curtained window. (M.Tillayev "Gulqop")

Key metaphors in both languages attach the image of one fragment of reality to another fragment of it. They ensure its conceptualization by analogy with the already established system of concepts. Varieties of metaphor include personification. For example:

Mountain view
As if a pillar to the sky,
He was wearing a white cap.
Peaked like a hump,
The stone body is wide and flat.
Her breast bears a crimson flower,
Kifti archa – to'nlari.
Sings cheerful songs
Shalola - fountains.
Every stone is worth a thousand bottoms,
There is no pool in the middle.
Under the bushes
A nesting goose, a peacock. (Q.Hikmat)

Thus, metaphor is a trope, the transfer of properties from one object to another based on a characteristic common or similar to both compared members. The semantic structure of a metaphor is a complex phenomenon, and background knowledge is involved in its formation.

At that moment, Hilala's imagination recalled Gairat, her ever-thinking, sincere, jet-black eyes, and her smoothly combed hair. He involuntarily recalled the golden autumn days when he first met her...

A crowd of people crowded at the trolleybus entrance. Suddenly... he turned as white as snow, his lips trembled, and he cried out in terror: "Grandmother, my dear grandmother!" He fell on his knees before the old woman and embraced her tightly. (M. Tillayev's "Gulqop")

The use of Uzbek figurative means in oral speech depends on the individuality of the learners, the topic of conversation, and the communication situation. For this sphere, the emotionality of expression is particularly characteristic, which affects the properties of imagery.

Any words or expressions that have a shifted meaning, standing in the background behind literal meaning, turn out to be tropes. The interaction and mutual enrichment of two meanings in them are precisely the sources of expressiveness, which to a certain extent contributes to the development of associative thinking. Mastering the vocabulary of a non-native language also involves mastering its visual and expressive means.

The mastery of Uzbek language vocabulary skills and abilities helps the philologist in various communication situations, in personal linguistic activity, and in the process of professional activity.

Literature

1. Boboniyozov A. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida tasviriy vositalar: Filol. fan. nomz. diss... – Toshkent, 1995.
2. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1979.
3. XX asr o'zbek hikoyasi antologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2009.
4. XX asr o'zbek she'riyati antologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007.
5. Граудина Л.К. Грамматическая правильность русской речи. М.: АСТ, 2004.
6. Выразительные средства современной русской речи. Тропы и фигуры. Терминологический словарь. М.: Феникс, 2007.
7. Begmatov E. Nutq madaniyati tushunchasi haqida // O'zbek tili va adabiyoti, T1975, №5. – B. 50–58.
8. Щукин А.Н. Лингводидактический энциклопедический словарь. М.: АСТ, 2007.
9. Asilova G.A. O'zbek tili: darslik. – Toshkent: Yosh kuch, 2024.
10. Iskandarova O.R. O'zbek tili. – Toshkent: Firdavs-Shoh, 2023.
11. Husanov N., Xo'jaqulova R., Dilmurodova N. O'zbek tili (darslik). – Toshkent: TMI, 2020.

Dilnora CHORAQULOVA,
Lecturer, Department of Russian Language and Literature,
Bukhara State University

LINGUISTIC ANALYSIS OF OIKONYMS IN THE SHORT STORIES OF VASILY SHUKSHIN

Annotation. The article is devoted to the linguistic analysis of oikonyms in the short stories of V.M.Shukshin. The aim of the study is to identify the semantic and functional features of settlement names and their role in organizing the literary space. The study examines the oikonyms Srostki, Biysk, Barnaul, Onguday, Chebrovka, Talitsa, and other toponymic units.
Keywords: oikonym, toponym, toponymic vocabulary, literary text, V.M.Shukshin, literary space, chronotope, semantics, regional identity.
Annotatsiya. Maqola V.M.Shukshin hikoyalaridagi oykonimlarning lingvistik tahliliga bag'ishlangan. Tadqiqotning maqsadi aholi punktlari nomlarining semantik va funksional xususiyatlarini hamda ularning badiiy makonni tashkil etishdagi rolini aniqlashdan iborat. Ishda Srostki, Biysk, Barnaul, Onguday, Chebrovka, Talitsa kabi oykonimlar va boshqa toponimik birliklar ko'rib chiqiladi.
Kalit so'zlar: oykonim, toponim, toponimik leksika, badiiy matn, V.M.Shukshin, badiiy makon, xronotop, semantika, mintaqaviy identifikatsiya.
Аннотация. Статья посвящена лингвистическому анализу ойконимов в рассказах В.М.Шукшина. Цель исследования – выявить семантические и функциональные особенности названий населённых пунктов и их роль в организации художественного пространства. Рассматриваются ойконимы Сростки, Бийск, Барнаул, Онгудай, Чебровка, Талица и другие топонимические единицы.
Ключевые слова: ойконим, топоним, топонимическая лексика, художественный текст, В.М.Шукшин, художественное пространство, хронотоп, семантика, региональная идентичность.

Modern linguistics and literary studies examine the relationship between language, culture, and artistic space. Toponymic vocabulary in literary texts not only designates geographical objects but also conveys historical, cultural, social, and emotional-evaluative information and contributes to the organization of literary space [10: 22].

Oikonyms, or names of settlements, perform nominative, localizing, chronotopic, characterological, cultural, emotionally evaluative, and symbolic functions [7: 20]. In context, they may acquire additional meanings associated with memory, identity, social environment, and attitudes toward space [1: 105].

Oikonymy is particularly important in V.M.Shukshin's prose because his works are closely connected with Altai and the Russian village. Altai and its loci play a significant role in the writer's spatial model of the world [3:158].

The study focuses on the semantics, contextual reinterpretation, and functions of oikonyms in Shukshin's short stories. The material includes the oikonyms Srostki, Biysk, Barnaul, Onguday, Chebrovka, Talitsa and related microtoponyms [14: 288].

The aim of the study is to identify the semantic, functional, and stylistic features of oikonyms and their role in shaping Shukshin's spatial and value-based worldview.

The study analyzes Shukshin's literary and autobiographical texts. The theoretical framework combines onomastics, the linguistics of literary texts, linguopoetics, and geopoetics.

Descriptive, contextual, semantic-stylistic, functional, and comparative methods were used to identify oikonyms, analyze their meanings and contexts, and determine their functions and role in the spatial organization of the literary world.

Particular attention was paid to contextual semantization, through which geographical names acquire additional semantic and stylistic meanings.

Oikonyms in Shukshin's prose form a functionally organized system and perform nominative, localizing, chronotopic, characterological, emotional-evaluative, cultural, and symbolic functions.

The central example is Srostki, Shukshin's native village. In "Ryzhiy," the phrase "from Onguday home, to Srostki" connects the oikonym with homeland, belonging, and return [9: 28]. Its semantic development can be represented as:

village → native space → home → homeland → memory.

Thus, Srostki becomes a cultural and semantic sign [7: 84]. Onguday, in contrast, represents temporary stay, forming the opposition "away from home – home."

Biysk, presented as "City B." in "First Encounter with the City," represents a new and unfamiliar urban space. Its description and the phrase "How bitter it was for me to leave!" reveal the protagonist's emotional attitude and mark the transition from rural to urban space [12: 35].

Barnaul acquires an emotional and evaluative meaning in contexts of conflict and psychological tension and is characterized as a kind of *locus non gratus* [11:78].

Chebrovka, Talitsa, Onguday, and other regional names form a spatial network that creates the geographical specificity of Shukshin's literary world. Local microtoponyms also contribute to spatial and socio-cultural detail.

The main functions of oikonyms are:

Function	Content	Examples
Nominative	Designation of a settlement	Srostki, Biysk, Barnaul
Localizing	Identification of the place of action	Onguday, Chebrovka, Talitsa
Chronotopic	Linking a place with a specific time and event	Biysk
Characterological	Conveying the character's attitude toward a particular space	Srostki, Biysk
Emotionally evaluative	Formation of a positive or negative connotation	Srostki, Barnaul
Cultural	Conveying regional and local specificity	Srostki, microtoponyms
Symbolic	Transformation of a geographical name into a sign of a broader concept	Srostki as the "small homeland"

The semantic dynamics of oikonyms may be represented as: **nominative meaning → contextual specification → emotional-evaluative actualization → cultural semantization → symbolization.**

The results show that oikonyms are significant elements of Shukshin's literary organization. Srostki represents homeland and memory; Biysk symbolizes the exploration of new urban space; Barnaul may express social and psychological distance. Regional oikonyms create a recognizable image of Altai, while microtoponyms reflect the internal socio-cultural organization of the native village.

Thus, the semantics of oikonyms depends on context, and a geographical name may develop from a simple designation of territory into a carrier of memory, belonging, social relations, and emotional meaning.

Oikonyms in V.M.Shukshin's short stories are not merely geographical names but significant elements of the literary text. They perform multiple functions and participate in the formation of the chronotope, characterization, regional identity, and the image of native space.

Srostki is associated with home, homeland, and memory; Biysk with new urban space; Barnaul with additional emotional-evaluative meanings. Onguday, Chebrovka, Talitsa, and microtoponyms contribute to the regional and socio-cultural specificity of the literary world.

Overall, Shukshin's oikonymic system demonstrates multifunctionality and semantic dynamism and contributes to the representation of the central opposition "village – city".

References

1. Аванесов Р.И., Суперанская А.В. Что такое топонимика? М.: Наука, 1989.
2. Богумил Т.А. Мифогеография В.М. Шукшина: Алтай и его отражения // Филологические науки. Вопросы теории и практики, 2018, №11-1.
3. Бондалетов В.Д. Русская ономастика. М.: Просвещение, 1983.
4. Chorakulova D. Theoretical prerequisites for the lexical and semantic classification of oikonyms // Science and Innovation, 2024. Vol.3, №C6. – P. 106–109.
5. Choraqulova D.Z. Problems of the Study of Oikonyms in Multi-System Languages // American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education, 2024. Vol.2, №12. – P. 146–148.
6. Марьин Д.В. О семиотическом потенциале некоторых алтайских топонимов в творчестве В.М. Шукшина // Вестник Санкт-Петербургского университета. Язык и литература, 2019, т.16, №2.
7. Никонов В.А. Введение в топонимику. М.: Наука, 1994.
8. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии / Под ред. А.В.Суперанской, 2-е изд., перераб. и доп. М.: Наука, 1988.
9. Шукшин В.М. Собрание сочинений в 6 томах. М.: Молодая гвардия, 1992.
10. Шукшин В.М. Первое знакомство с городом // Рассказы. М.: Эксмо, 2009.
11. Шукшин В.М. Из детских лет Ивана Попова // Рассказы. М.: Эксмо, 2009.
12. Шукшин В.М. Рассказы. М.: Эксмо, 2009.
13. Шукшин В.М. Рыжий // Рассказы. М.: Эксмо, 2009.
14. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного, 2-е изд., испр. М.: Издательство ЛКИ, 2007.
15. Суперанская А.В., Стальтмане В.Э., Подольская Н.В., Султанов А.Х. Теория и методология ономастических исследований. М.: Наука, 1986.

Dilbar MIRNOSIROVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

O'ZBEK ONTOLINGVISTIKASIDA NUTQIY IJOD TALQINI

Annotatsiya. Maqolada o'zbek ontolingvistikasida bolalar lingvokreativ tafakkuri, o'ziga xos jihatlari tadqiqiga bag'ishlangan ishlar tahlilga tortilgan. Shuningdek, o'zbek ontolingvistlarining bolalar nutqiy ijodiga xos yangi birliklarni nomlashga qaratilgan fikr-mulohazalari xususida so'z yuritilib, bu boradagi talqinlarga nisbatan munosabat bildirilgan.
Kalit so'zlar: nutqiy ijod, lingvokreativlik, okkazionalizm, neologizm, individual neologizm, nutqiy innovatsiya, bolalar nutqi, ontolingvistika.
Annotation. This article analyzes works dedicated to the study of children's linguo-creative thinking and its specific features within Uzbek ontolinguistics. Furthermore, it discusses the views of Uzbek ontolinguists regarding the naming of new units characteristic of children's speech creativity, and provides an assessment of the interpretations in this regard.
Keywords: speech creativity, linguocreativity, occasionalism, neologism, individual neologism, speech innovation, children's speech, ontolinguistics.
Аннотация. В статье анализируются работы в узбекской онтолингвистике, посвященные исследованию лингвокреативного мышления детей и его специфических особенностей. Также рассматриваются мнения узбекских онтолингвистов касательно наименования новых единиц, характерных для детского речевого творчества, и выражается отношение к существующим трактовкам в этой области.
Ключевые слова: речевое творчество, лингвокреативность, окказионализм, неологизм, индивидуальный неологизм, речевая инновация, детская речь, онтолингвистика.

Bugungi kunga qadar o'zbek tilshunosligida bolalar nutqi yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda sof lingvistik, sotsiopsixolingvistik, pragmalingvistik, psixolingvistik, genderologik va lingvokulturologik yondashuv ustunlik qilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda bolalar nutqining shakllanish va rivojlanish bosqichlari, ular nutqining fonetik, leksik, grammatik xususiyatlariga oid xulosalar bayon etilgan.

O'zbek ontolingvistikasida bolaning lingvokreativ faoliyati, bu jarayonning o'ziga xos jihatlari hamda mazkur faoliyat natijasini terminologik nomlashga nisbatan turli qarash va talqinlar mavjud. N.S.Sayidirahimova tomonidan bolalar nutqining lingvistik xususiyatlari borasida olib borilgan tadqiqotda ushbu jarayon so'z-ijod termini bilan nomlangan. Olima so'z-ijodni til grammatik qurilishini o'zlashtirishning dastlabki bosqichi sifatida baholaydi hamda mazkur jarayon bola lug'at boyligi o'sganda va ular nutqidagi so'zlar qiyoslanish imkoniyatiga ega bo'lgan vaqtdan paydo bo'la boshlashini ta'kidlaydi [6: 62]. N.S.Sayidirahimova bundan avvalgi tadqiqotlarda qayd etilgan tajribaviy kuzatishlarga asoslangan holda bolalar nutqida so'z-ijodning yuzaga kelishiga sabab sifatida mazmun va ifodani talab etuvchi jarayonda tayyor so'zning mavjud emasligi hamda yoddan chiqarilgan so'zlarning o'rnini neologizmlar to'ldirishini ko'rsatadi [9: 50].

Bundan xulosa qilish mumkinki, muallif so'z-ijod jarayoni mahsulini nomlashda neologizm terminini afzal ko'radi. Shuningdek, bu jarayon faqat nutqiy ehtiyoj natijasida yuzaga kelishi mumkinligi qayd etiladi. Bizningcha, so'z-ijod nomlash ehtiyoji bilan bir qatorda bola tomonidan muayyan obyektga nisbatan emotsional-ekspressiv yuk berish, nutqiy vaziyatda kulgi qo'zg'atish asosida ham yuzaga kelishi mumkin. Bu lingvokreativlikning ko'p funksiyaliligi bilan bog'liqdir.

O'zbek bolalari nutqining sotsiopsixolingvistik va pragmalingvistik xususiyatlarini o'rgangan olima M.A.Qurbonova esa rus tilshunosligidagi manbalarga tayangan holda P.A.Florenskiy va V.T.Kudryavtsevning bu jarayonga nisbatan "nutqiy ijod" terminini taklif qilganligi va uni nisbatan aniq, asosli hisoblaganligini qayd etadi [6: 9]. Bolalar nutqiga xos yasama so'zlar semantikasini o'rganishda olima so'z-ijod terminidan, uning mahsulini ifodalashda esa **nutqiy innovatsiya** va **individual neologizm** terminlaridan unumli foydalangan. M.A.Qurbonovaning fikricha, bolalar okkazionalizmlari juda xilma-xil bo'lib, ular o'ziga xos tushunish, anglash, so'zning yangi shakllarini izlash kabi xususiyatlar bilan xarakterlanadi. Bu turdagi birliklarning muayyan qismi analogiya asosida yuzaga keladi. Bu jarayonda so'z birikmasining lug'aviy birlikka aylanishi, narsa-buyum o'rtasida o'xshashlik, bog'liqlik qidirish asosida okkazionalizmlar voqelanishi kuzatiladi. Tadqiqotda misol sifatida Hojimurod Erkinovning 3 yoshu 2 oylik davridagi nutqida *qovurilgan chuchvara*ga nisbatan qo'llangan *savatcha* birligi hamda 4 yoshu 3 oylik davrida *ofitsiant* so'zining ifodasi sifatida yuzaga kelgan *oshxonachi* leksik birliklari bunga yorqin dalil bo'la oladi [6: 64].

Shuningdek, bolalar nutqida individual neologizmlarning yuzaga kelishiga yuqorida ta'kidlangan jihatlar bilan bir qatorda ularning yosh xususiyati va xotirasi bilan bog'liq psixik jarayonlar ham sabab bo'lishi [6: 65] hamda so'z yasash hodisasi bolalar lug'at zaxirasida mavjud nutq stereotiplaridan ijodiy foydalanishi asosida hosil bo'lishi, shunga ko'ra, ularga xos so'z-ijod jarayoni nutqiy nominatsiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qilinishi maqsadga muvofiqligi haqida xulosalar bayon etiladi [6: 66].

Darhaqiqat, bolalarda kuzatiladigan lingvokreativ tafakkur mahsulining verbal ifodasi nutqiy nomlanishlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Boisi, bola o'zini o'rab turgan olamdagi muayyan holat yoki predmetni nomlashga ehtiyoj sezar ekan, muayyan lisoniy qolip asosida yangi shakl yoki mazmunni ifodalashga harakat qiladi. Olima tomonidan o'zbek bolalari nutqining pragmatik xususiyatlari bo'yicha olib borilgan monografik tadqiqotda nutqiy innovatsiyalar bola tomonidan aniq pragmatik maqsad asosida qo'llanishi, ular o'zida propozitiv, perlokutiv axborotni aks ettirishi asoslangan [7].

N.S.Ahmedovaning bolalar obrazli tafakkurini o'rganish borasida olib borgan izlanishlari o'zbek tilshunosligida lingvokreativ tafakkurning bolalarga xos jihatlarini tadqiq etishda alohida ahamiyat kasb etadi. Muallif **so'zijod (словотворчество)** termini mohiyatini sinchiklab tahlil qilar ekan, uning keng ma'noda inson tafakkurining ijodiy mahsuli sifatida tushunilgani hamda "bolalar so'zlari" (K.I.Chukovskiy), "bolalar neologizmlari" (T.N.Ushakova), "neologizmlar" (N.I.Lepskaya), "bolalar so'zlari" (V.K.Xarchenko), "bolalar nutqiy innnovatsiyalari" (S.N.Seytlin) kabi ma'nodosh terminlar bilan yonma-yon qo'llangani, shuningdek, A.N.Gvozdev bola nutqiga xos bunday so'zlarni "analogiya asosida shakllanishlar", Y.N.Kononova "ontoneologizmlar", S.N.Seytlin

"nutqiy innovatsiya" tarzida nomlanganini qayd etadi [1: 89]. Bizningcha, yuqorida sanalgan terminlar va so'zijod termini o'rtasida funksional jihatdan biroz farqlanish mavjud. Boisi, so'zijod (словотворчества) yangi birlikni ijod qilish **jarayon**i, yuqorida zikr etilgan terminlar esa ushbu jarayonning **natijasi**ni nomlash uchun qo'llangan. Mazkur terminlar olimlar tomonidan jarayon mahsulini nomlashga qaratilgan muqobil birliklardir. Ularni yonma-yon qo'llanuvchi ma'nodosh termin sifatida baholash nisbiydir.

N.S.Ahmedova bolaning ijodiy tafakkur mahsulini nomlashga nisbatan **bolalarning ijodiy so'zi** terminini qo'llashni taklif qilgan. Uning bu boradagi tadqiqotida buning sababi hozirgacha bolalar nutqida yangi so'z ijod qilish jarayonini ifodalovchi so'zijod termini rus tilidagi словотворчество terminidan to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinib o'zlashtirilgani, garchand u rus tilida o'z mohiyatini ifodalay olsa-da, o'zbek tilida bu terminning ma'nosi unga yuklanadigan mohiyatdan biroz torroq tushunchani ifodalashi, **bolalarning ijodiy so'zlari (BIS)** termini doirasida esa bola tomonidan hosil qilingan va uning nutqida qo'llanadigan barcha turdagi ijodiy so'z namunalarini qamrab olish mumkinligi bilan izohlangan [1: 91].

Muallifning fikriga ko'ra, bolalarda so'z ijod etish jarayoni 2-4 yosh oralig'ida yaqqol namoyon bo'ladi hamda bu holat bolaning til mohiyatini o'zlashtira boshlaganidan dalolat beradi [1: 119]. Shuningdek, olima 3-7 yosh oralig'ida bolalarda matn ijodkorligi ko'zga tashlana boshlashini ta'kidlaydi. Bu jarayon natijasiga nisbatan **bolalarning ijodiy matni (BIM)** terminini qo'llashni taklif qilgan. Darhaqiqat, N.S.Ahmedovaning bu boradagi yondashuv va xulosalari nazariy jihatdan asoslidir.

N.J.Yarasheva bolalar adabiyoti tilining lingvopsixologik, lingvokognitiv xususiyatlarini o'rganar ekan, ular nutqining asosiy qismini nutqiy innovatsiyalar tashkil etishi, bu orqali bolalar ayrim leksemalarni ayta olmasliklari natijasida hosil qiladigan noodatiy leksemalarni vujudga keltirishlari, ba'zi o'rinlarda tinglovchiga nisbatan kulgi uyg'otishni ham nazarda tutishlarini ta'kidlaydi [10: 218]. Olima tomonidan tuzilgan "Bolalar nutqiy innovatsiyalarining izohli lug'ati"da bolalar spontan nutqida kuzatilgan, badiiy asarlarda uchragan ayrim leksemalar innovatsiya belgisiga ega deb baholanib, ularning lingvistik bazasi shakllantirilgan. Biroq lug'atga kiritilgan birliklar va ularning tahlilida ba'zi mulohazali nuqtalar ham uchraydi. Masalan, muallif tomonidan **nutqiy innovatsiya** sifatida talqin qilingan leksik birliklar qatoridan sheva elementlari (*bachala*, *kemopti*, *o'nakki*), ikki tillilik hodisasi ta'sirida aralash holatda qo'llangan leksik birliklar (*kataysa, kapot, no*) kattalar nutqida uchraydigan o'zbek tilidagi uzual so'z (*chakki*), rus tiliga oid me'yoriy holatda qo'llaniluvchi so'zlar (*do'm, shpion*), o'zbek tilidagi so'zlashuv nutqida kattalar tomonidan qo'llaniluvchi uzual so'zlarning fonetik o'zgarishga uchragan shakllari *(istakan-stakan*, *ishkalad-shokolad, pamildori-pomidor)* ham o'rin olgan. Yuqoridagi birliklar bolalar nutqida yangi ma'no ifodalash uchun xizmat qilmaganligi bois, ularni nutqiy innovatsiya tarzida talqin etish mavjud nazariyalarga zid holat hisoblanadi [5: 11].

Yangilik belgisi mavjud birliklarga nisbatan **nutqiy innovatsiya** terminidan foydalanish Sh.Rustamova tomonidan o'smir yoshdagi bolalar og'zaki nutqi psixolingvistik xususiyatlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotda ham uchraydi. Muallif o'zbek o'smir bolalar nutqi leksikasi va ularning qo'llanish xususiyati haqida so'z yuritar ekan, ular nutqida faol qo'llaniluvchi leksik birliklarning ba'zilari shaxsiy ijod namunasi ekanligini qayd etadi [8: 17]. Tadqiqotda muallif tomonidan I.Barisova va H.Zaviszovaning yapon o'smirlari nutqidagi leksik innovatsiyalarning hosil bo'lish usullari haqidagi fikri keltirilib, o'zbek o'smirlari nutqidagi leksik innovatsiyalar, asosan, so'zga yangi ma'no yuklash vositasida maydonga kelishi qayd etiladi. Bunga misol tariqasida

1) beshta kam (yetishmaydi) – odatda hamma uchun tushunarli bo'lgan narsani tushunmaydigan yoki boshqalar uchun noodatiy bo'lgan harakat qiladigan shaxs;

2) nol besh – bo'yi past inson;

3) qori aka – ikkiyuzlamachi, munofiq. Ko'rinishidan, o'zini tutishidan yaxshi insonga o'xshasa-da, aslida insonlar ko'zidan yiroqda noto'g'ri harakat qiladigan inson;

4) molxona – tartibsiz sinf. O'quvchilarini boshqarish, tartibga solish qiyin bo'lgan sinf,

5) kenayishka – yoshi katta ayol (bu yerda yosh kategoriyasi maktab o'quvchisi yoshiga nisbatan olingan) [8: 18] kabi birliklar keltirilib, ular individualligi bilan slenglardan farqlanishi ta'kidlanadi. Bizningcha, bu o'rinda yuqoridagi birliklarni nutqiy innovatsiya sifatida talqin qilish biroz munozaralidir. Boisi, *nol besh* yoki *kenayishka* kabi birliklar katta yoshli so'zlashuvchilar nutqida ham yuqorida keltirilgan ma'nolarni ifodalash uchun faol qo'llanishi kuzatiladi. Shu jihati bilan ushbu birliklar tadqiqotchi tomonidan ta'kidlangan individuallik xususiyatini yo'qotadi va ijtimoiy dialektga xos jihatni o'zida aks ettiradi.

G.T.Iskandarova esa bolalar nutqining antropotsentrik tadqiqini amalga oshirishda ularning kattalar bilan muloqotga kirishish xususiyatlarini tahlilga tortadi. Boshqa tadqiqotchilardan farqli ravishda muallif bolalar nutqi rivojlanishida muhim o'rin tutuvchi, ularning o'ziga xos so'zlarini **lisoniy "kashfiyotlar"** deb yuritadi [3: 113]. Tadqiqotda ushbu kashfiyotlar bola tafakkuri, ongining o'sishda va rivojlanishda ekanining dalili sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, bola ma'lum narsa-predmet va tevarak-atrofdagi hodisalarni o'zaro taqqoslashi, belgi-xususiyati, o'xshash tomoni hamda undan chiqqan ovozga taqlid qilish yo'li bilan o'zicha atashi qayd etiladi. Bunga misol sifatida *gol-gol, allaqo'zim, banka baliq* kabi birliklar keltiriladi [3: 114]. G.T.Iskandarovaning bolalar nutqiy ijodi mahsuli yuzaga kelishi bo'yicha yuqorida ko'rsatgan sabablari o'rinli va asoslidir. Ta'kidlash lozimki, ushbu xulosalar bolalar nutqini bevosita kuzatish va tahlil qilish asosida chiqarilgani bilan alohida ilmiy qiymatga ega.

A.A.Davlatova bolalar nutqiy ijodi masalasiga chog'ishtirma aspektda yondashadi. U ingliz va o'zbek bolalari nutqining lingvokulturologik xususiyatlariga oid tadqiqotida ularga xos so'z-ijod namunalarining lingvokulturologik jihatlariga to'xtalib o'tgan. Tadqiqotchi **bolalarning so'z-ijod namunalari** terminini "predmetlar, shaxslar, ularning ko'rinishi, harakatlari, vazifasiga ko'ra bolalarcha o'ziga xoslikda kattalardan farqli ravishda tasvirlash" [2: 21] deb ta'riflaydi. Shuningdek, tadqiqotda bolalar nutqida so'z-ijod namunalari 2 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan davrda yuzaga kelishi haqidagi fikr ilgari surilgan. Biroq bunda tadqiqotchining muayyan manba yoki mustaqil ravishda o'tkazilgan tajribaviy tadqiqot natijalariga ko'ra shunday xulosaga kelganligi ochiq bayon etilmagan. Muallif Kimmi Fink tomonidan uning o'qituvchilik faoliyati davomida to'plangan birliklarni jadval asosida tahlilga tortish jarayonida ularni ingliz bolalari nutqiga oid so'z-ijod namunalari sifatida baholagan. E'tiborli jihati shundaki, jadvalning ikkinchi ustunida xuddi shu birliklarning o'zbekcha tarjimasi kiritilib, ular o'zbek bolalari nutqidagi so'z-ijod namunalari deb nomlangan [2: 22].

1-jadvalA.A.Davlatova talqinida ingliz va o'zbek bolalari nutqiga xos so'z-ijod namunalari

Ingliz va o'zbek bolalar nutqida kuzatiladigan so'z-ijod namunalari

№	Ingliz bolalar nutqidagi so'z-ijod namunalari	O'zbek bolalar nutqidagi so'z-ijod namunalari	Izohi
1.	Snack holes – pockets[74]	Yegulik teshiklari – cho'ntaklar	Kichik turdagi narsa hamda yeguliklarni olib yurish hamda solishga mo'ljallangan kiyim qismini bolalar cho'ntaklarning vazifasidan kelib chiqib, bu so'zlarni o'z nutqlarida yangi so'z orqali ifodalaydilar.
2.	Recipes – food maps	Retseptlar – ovqat xaritasi	Ovqatlarni tayyorlashda ketma-ket bajariladigan bosqichlarini xaritaga o'xshashligi asosida yangidan nom berilmoqda.
3.	Airport – To the bird port!	Aeroport – qushlar qo'nadigan joy	Samolyot qo'nishi uchun mo'ljallangan maxsus maydonni samolyotlarni qushlarga o'xshashligi tomonidan "qushlar qo'nadigan joy" nomi orqali yangidan nomlanmoqda.
4.	Umbrella – rainbrella	Soyabon – yomg'ir yopinchiq (soyabon)	Yomg'irdan saqlovchi vosita sifatida soyabonga uning vazifasidan kelib chiqib, yangidan nom berilgan.
5.	Cough drop" – medicine beans[75]	Yo'tal tomchisi – tibbiyot loviyasi	Bolalar yo'tal kasalligiga chalinganda ularni davolashda qo'llaniladigan tomchi dorilarnining tomchisini loviyaga qiyoslab, bolalar tomonidan doriga berilgan yangi nom.
6.	Ambulance – boo-boo-bus	Tez yordam mashinasi – bu-bu avtobusi	Ingliz bolalari o'z nutqida tez yordam mashinasini ovozidan kelib chiqib, yangi nom "bu-bu" mashinasi deya ta'riflaydi.

Nazarimizda, mazkur yondashuv ilmiy jihatdan chalkashlik va noto'g'ri talqinni keltirib chiqaradi. Chunki qayd etilgan birliklar ingliz bolalari nutqiga xosdir. Ularning tarjimasida o'zbek bolalarining lingvokreativ tafakkuriga xos jihatlar aks etmagan. Bu o'rinda muallif tomonidan shaxsiy kuzatuv va maxsus tajribalar vositasida to'plangan birliklarning chog'ishtirma tahlili amalga oshirilsa, ikki til vakillarining so'z-ijodi jarayoniga xos umumiy va farqli xususiyatlar yaqqol namoyon bo'ladi.

Mazkur masalaga chog'ishtirma aspektda yondashish D.I.Qozoqboyevada ham kuzatiladi. Tadqiqotchi ingliz va o'zbek tillari misolida bolalar nutqining gender hamda psixolingvistik xususiyatlarini o'rgangan. Unga ko'ra, neologizm va ijodiy so'z yasashning yuzaga kelishi 2-3 yosh oralig'idagi o'g'il bolalarga xos asosiy psixolingvistik indikatorlardan biridir [4: 24]. Muallif xuddi shu yoshdagi o'zbek qizlari nutqida uchragan *uxlagich, chizgich* kabi birliklarni **ijodiy neologizmlar** sifatida talqin qiladi. Ishda bu yoshdagi o'zbek qizlari so'z yasash imkoniyatlarini intiutiv tarzda qo'llashi ta'kidlanadi [4: 25].

Xulosa qilib aytganda, rivojlanish bosqichida bo'lgan o'zbek ontolingvistikasida bolalar lingvokreativ tafakkuri, bu jarayonning o'ziga xos jihatlari xususida atroflicha fikr-mulohazalar bildirilgan. Bolalar nutqiy ijod mahsulini nomlashga nisbatan neologizm, nutqiy innovatsiya, lisoniy kashfiyot, ijodiy neologizm kabi terminlardan foydalanilgan. Biroq bolalar nutqiga xos okkazionalizmlar, ularning yuzaga kelish sabablari, okkazional birliklarning qanday usul va vositalar yordamida maydonga kelishi, ularning semantik va funksional xususiyatlarini ilmiy asosda izchil tadqiq qilish o'zbek tilshunosligidagi dolzarb masalalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmedova N.S. Obrazli tafakkur va o'zbek bolalar nutqi: Filol. fan. bo'y. fal. dok. (PhD) diss... – Toshkent, 2021. – 135 b.
2. Davlatova A.A. Ingliz va o'zbek bolalar nutqining lingvokulturologik tadqiqi: Filol. fan. bo'y. fal. dok. (PhD) diss. avtoref... – Nukus, 2026. – 60 b.
3. Iskandarova G.T. Bolalar nutqining antropotsentrik tadqiqi: Filol. fan. bo'y. fal. dok. (PhD) diss... – Toshkent, 2026. – 135 b.
4. Qozoqboyeva D.I. Bolalar nutqining gender va psixolingvistik xususiyatlari tadqiqi (ingliz va o'zbek tillari misolida): Filol. fan. d-ri. diss. avtoref... – Andijon, 2026. – 71 b.
5. Qurbonova M.A., Mirnosirova D.N. Bolalar nutqiy ijod mahsulining leksikografik talqiniga doir ba'zi mulohazalar // Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar, 2026, №5. – B. 4–16.
6. Qurbonova M.A. O'zbek bolalar nutqi leksikasining sotsiopsixolingvistik tadqiqi: Filol. fan. nomz. diss... – Toshkent, 2009. – 154 b.
7. Qurbonova M.A. O'zbek bolalar nutqining pragmatik xususiyatlari: Filol. fan. d-ri. diss... – Toshkent, 2018. – 240 b.
8. Rustamova Sh.N. O'smir yoshdagi bolalar og'zaki nutqining psixolingvistik tadqiqi: Filol. fan. bo'y. fal. dok. diss. avtoref... – Qarshi, 2026. – 53 b.
9. Sayidirahimova N.S. Bolalar nutqining psixolingvistik xususiyatlari. Monografiya. – Toshkent, 2012.
10. Yarasheva N.J. Bolalar adabiyoti tilining lingvokognitiv, lingvopsixologik tadqiqi: Filol. fan. d-ri. diss... – Samarqand, 2023. – 245 b.

Shahnoza MANSUROVA,
mustaqil izlanuvchi

IBN SINONING "SALOMON VA ABSOL" QISSASI HAQIDA NAZARIY QARASHLAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada Ibn Sinoning "Salomon va Absol" qissasi, uning janriy, badiiy-uslubiy va falsafiy jiohatlari tahlil qilinadi. Asardagi Salomon, Absol va boshqa obrazlarning sujet rivojidagi o'rni, aql, nafs va badan o'rtasidagi munosabatlarning allegorik ifodasi yoritiladi.
Kalit so'zlar: Ibn Sino, "Salomon va Absol", qissa, allegoriya, Yusuf qissasi, Bata va Anubis afsonasi, falsafiy nasr, obraz, etimologiya.
Annotation. This article analyzes Ibn Sina's tale "Salomon and Absol", examining its genre, artistic-stylistic, and philosophical characteristics. It highlights the roles of Salomon, Absol, and other characters in the development of the plot, as well as the allegorical representation of the relationships between the intellect, the soul, and the body.
Keywords: Ibn Sina, "Salomon and Absol", tale, allegory, the story of Yusuf, the myth of Bata and Anubis, philosophical prose, character, etymology.
Аннотация. В статье анализируется рассказ Ибн Сины «Соломон и Авессалом», его жанровые, художественно-стилистические и философские особенности. Выделяется роль Соломона, Авсола и других образов в развитии сюжета, аллегорическое выражение взаимосвязи разума, души и тела.
Ключевые слова: Ибн Сина, «Соломон и Авессалом», рассказ, аллегория, история Иосифа, легенда о Бате и Анубисе, философская проза, образ, этимология.

Ibn Sinoning "Salomon va Absol "qissasi bu nom bilan yozilgan asarlarning dastlabkisidir. Asarning shakli o'zidan keyingi ijodkorlanikiga qaraganda bir muncha sodda bo'lishi mumkin. Qissadagi aqliy ruh va nazariy aql, nafs va badan o'rtasidagi bog'liqlik allegoriya orqali asarga mohirona singdirilgan.

Asar qissa janriga oid bo'lib, arab tilida yozilgan. Hajman u qadar katta bo'lmagan bu asar voqealari uch qahramon asosida shakllantiriladi: Absol, Salomon va uning xotini. A.Irisov o'z tadiqotida Salomonning qayinsinglisini ham asosiy qahramonlardan biri sifatida sanaydi [1: 50]. Chuqur tahlil jarayonida xotinning singlisi ham asardagi yordamchi epizodlardan bir sifatida o'rtaga chiqadi. Bu qahramonning asarda tutgan o'rni Absolni zaharlagan qahramonlar bilan teng.

Asarning o'ziga xos jihatlaridan biri uning tilidir. Asarni mutolaa qilish jarayonida kishi o'zini go'yo Qur'on yoki undan parcha o'qiyotgandek his qiladi. Asarda Qur'on oyatlariga o'xshovchi parchalar mavjud. Bu jihat asarning ikki-uch o'rinlarida namoyon bo'ladi.

A.Irisovning tarjimasida asarning xulosasi sifatida keltirilgan misralar I shaxs, tangrining nomidan gapiriladi. "*Har bir jon egasi uchun ma'lum muddat bor. Dahrga qazo chiqarishdan oldin biz har bir jon uchun ma'lum bir muddat o'lchab berganmiz va buni qazo kitobida yozganmiz"* [2: 14].

Bu kabi parchalar va uslub asarning yaratilish sababi, voqeligi xususida turli xil farazlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Abbos Ahmadning fikricha, Ibn Sino bu qissasini Qur'ondagi "Yusuf qissasi"dan ilhomlanib yozgan. Asarning g'oyasi, obrazlari, sujetidan kelib chiqilsa, olimning mulohazasi mantiqqa yaqindek tuyuladi. Biroq Ibn Sino o'zi ham, aynan, "Yusuf qissasi" nomli nasriy qissa yozganini unutmaslik kerak. Boshqa bir qator olimlar, xususan, Tusiy Ibn Sinoning "Sharh ul-ishorat"ini sharhlar ekan, uning nasriy qissalari haqida ham mulohaza yuritadi. Unda "Salomon va Absol" misr xalqi orasida tarqalgan "Ikki birodar" qissasi bilan bog'lanadi. Unga ko'ra, Bata akasining pichoq o'qtalganidan qo'rqib daryoning narigi tomonida qolib ketgandan keyin o'z yuragini qarag'ay daraxtiga qo'yadi. Keyin shoh makkorlari daraxtni, Bata halok bo'ladi. Bundan akasi xabardor bo'lib, yurakni suvga solib qo'yib tiriltiradi.

Bata va u bog'liq afsona juda qadimiy bo'lib, miloddan avvalgi 1185-yilga, boshqa manbalarda esa mil.avv. 1200 to 1194-yillarda hukumronlik qilgan Seti II davriga oid deb qaraladi. U Papyrus D.Orbineyga yozilgan va bugungi kunda Britaniya muzeyida saqlanadi. Ushbu afsona boshqa manbalarda A.Irisovning tasviridan biroz farq qiladi. Bata bilan bog'liq afsona Bata va uning akasi Anbus atrofida aylanadi. Anbusning xotini o'z go'zalligi bilan Batani yo'ldan urmoqchi bo'ladi. Ish rejasidek ketmagach, Bataga tuhmat qiladi. Akasi tuhmatga chidayolmay ukasiga nayza o'qtaladi. Ukasi qochib qarag'ayzorga bekinadi. Keyinchalik akasi Anbus ukasining aybsizligini bilib uni qutqarishga otlanadi. Yetti yil davomida uning yuragini izlaydi.

Ibn Sinoning "Salomon va Absol" qissasi Bata va uning akasi Ansub bilan bog'liq afsonaga yaqin turadi. Muallifning o'zi "Sharh ul-ishorat" asarida Salomon va Absol obrazlar haqida so'z yuritsa-da, uning sujeti va tarixiy ildiz haqida fikr bildirmaydi. Shu tufayli ham Ibn Sinoning shogirdlari, izdoshlari va uning asarlari yuzasidan mulohaza yuritgan olimlarning har biri asarga tayangan holda o'z qarashlarini himoya qiladilar. Ba'zilar Qur'onga, ba'zilar Bata afsonasiga, boshqa bir guruh olimlar esa Hunayn Ibn Ishaqning tarjimasi bilan bog'lashga harakat qiladilar. Bizningcha, "Salomon va Absol"ni ham Qur'ondagi "Yusuf va Zulayho"ga, ham Bata afsonasiga qiyoslab o'rganish ma'qul ko'rinadi.

Hunayn Ibn Ishaqning yunon tilidan arab tiliga qilgan tarjimasining sujeti Ibn Sinoning ushbu asaridan tamoman farq qiladi. Tusiy asar bilan bog'liq munozalarida Salomon va Absol ismlari bilan bog'liq ikki xil voqelikni sanab o'tadi. Biri – Hunayn Ibn Ishaqning tarjima yo'li bilan qayta yozgan qissasi bo'lsa, ikkinchisi – Ibn Sinoning qissasiga aloqador voqelikdir. Hunayn Ibn Ishaq "Bayt ul-hikma"da

bosh tarjimon sifatida faoliyat yuritgan. Ma'mun ko'plab yunon adabiyoti namunalaridan nusxalar olib keladi va "Bayt ul-hikma" tarjimonlariga arab tiliga tarjima qilish topshirig'ini beradi. Keltirilgan adabiyotlar orasida Salomon va Absol bilan bog'liq bo'lgan asar ham bo'lgan bo'lishi mumkin. Boshqacha ismlar bilan, albatta. Tarjimon tarjima jarayonida ikki qahramon uchun arabcha nomlar tanlagan degan qarashlar ham mavjud. Tusiy va A.Irisovning mulohazalariga ko'ra, Salomon ismi daraxt ma'nosini anglatadi. Daraxt ma'nosini anglatuvchi Salomon ismini Bata afsonasiga bog'lasak, ushbu ma'no Ansub ismidan ko'ra, Bata bilan bog'liqdek ko'rinadi. Chunki Bata yuragini daraxtga qo'yadi. Daraxt bu – umr. Bataning yuragi qo'yilgan archa yoki qarag'ay daraxtlari ham uzoq umr ko'ruvchi, yashilligini yo'qotmaydigan daraxtlar sirasiga kiradi.

Yunon va boshqa xalq adabiyotlarida Salomon ismi Sulaymon hamda Bibliyadagi Abussalom ismiga bog'lanadi. Yunon tilshunosi Gabriel Cruzning Salomon ismining etimologiyasini yoritishga qaratilgan maqolasida Salomon ismining arab va fors adabiyotida Sulaymon shaklida qo'llanganini aytib o'tadi. I.Deghan esa bu ikki qahramon nomini Bibliyadagi Solomon va Absalom ismlariga bog'laydi. Sulaymon so'zi arab tilida "سِلْم" (silm) ildizidan kelib chiqqan bo'lib, bu "tinchlik", "osoyishtalik" degan ma'noni anglatadi. Salomon so'zning kelib chiqish genezesi ibroniy tilga borib taqaladi. "Shalom" (שלום) so'zidan olingan bo'lib, "tinchlik", "osoyishtalik" yoki "to'liq bo'lish" ma'nolarini ifodalaydi.

Ibn Sino qalamiga oid bo'lgan "Salomon va Absol" ilm-fan olamida turli faraz-u mulohazalarning o'rtaga tashlanishiga sabab bo'ldi. Uning yaratilishi, voqeligi, qahramonlarining taqdiridan tashqari, asarning saqlanib qolgan yoki qolmaganligi borasidagi qarashlar ham bahsli. 19402000-yillar oralig'ida Ibn Sino faoliyatini chuqur o'rgangan Iraj Deghan, Gohlman, Dimitri Gutas, N.Rahim, Peter Heat va yana bir qancha olimlar ushbu asarni yetib kelmagan, deb hisoblaydilar. Ularning nazdida, Ibn Sinoning mazkur qissasi bilan faqatgina Tusiyning sharhlari orqali tanishishimiz mumkin. Shu yillarda Ibn Sinoning ko'plab asarlarini arab va fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qilgan, asarlarini o'rgangan A.Irisov ularning fikriga qarshi chiqadi. Asarning nusxasi Toshkentda saqlanayotganini bildiradi.

Shuningdek, olim Bertels ham Toshkentdagi nusxa bilan tanishmasdan asarni mavud emas deb fikr bildiradi. Masalaning eng qiziq tomoni ilmi ahli hali-hanuz Ibn Sinoning "Salomon va Absol" asarini mavjud emas, deb hisoblaydilar. Ilm-fan va texnologiyalar rivojlangan bir davrda asarning noma'lum qolishi g'alati. 2000-yillardan so'ng olib borilgan tadqiqotlarda ham asarning saqlanib qolganligi haqida ma'lumot berilmaydi. Ilmiy faoliyatini "Salomon va Absol" asarlarini o'rganishga bag'ishlagan Chad G.Lingvood, E.Kala, T.Malikov kabi olimlar ham asar saqlanib qolmagan degan xulosaga keladilar. Ehtimol, A.Irisovning asarning mavjudligi xususida bergan ma'lumotlari yoki tarjimasi keng tarqalmagani uchun ham ko'plar asarning saqlanib qolganligidan bexabardirlar.

Ibn Sinoning "Salomon va Absol" qissasi falsafiy-axloqiy mazmunga ega bo'lib, inson va tabiat, ruh va jism o'rtasidagi munosabatlarni sharhlab beradi. Unda Salomon va Absol obrazlari orqali insonning ilohiy bilim sari intilishi, jamol va kamolni anglash yo'lidagi ma'naviy sayohati tasvirlanadi.

Abdurahmon Jomiy esa o'zining "Salomon va Absol" qissasida asarni yanada ma'rifiy va tasavvufiy ruhda talqin qiladi. Jomiy uchun sevgi nafaqat jismoniy, balki ruhiy poklanish, Allohga yetishish vositasi sifatida ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Irisov A. Ibn Sinoning «Salomon va Ibsol» qissasi. – Toshkent: Fan, 1973.
2. Abu Ali ibn Sino. Salomon va Ibsol: She'rlar, qissalar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980.
3. Lingwood C.G. Politics, Poetry, and Sufism in Medieval Iran: New Perspectives on Jāmī's Salāmān va Absāl. – Leiden; Boston: Brill, 2014.
4. Wettengel W. Die Erzählung von den beiden Brüdern: Der Papyrus d'Orbiney und die Königsideologie der Ramessiden. – Göttingen: Vandenhoeck & Ruprecht, 2003.
5. Fayyaz P. Jami's Rhetoric of Old Age and Aging in Salaman and Absal // Afghanistan, 2022. Vol. 5 (1). – P. 30–59.
6. Dadarkar M., Dokras U. Bayt al-Hikma: Knowledge and wisdom in the islamic world // Indo Nordic Author's Collective, 2022. – 186 p.

Aziza QARSHIYEVA,
Qarshi xalqaro universiteti o'qituvchisi

MA'DANLAR TIMSOLINING TASAVVUFIY RAMZLAR TIZIMIDAGI O'RNI

Annotatsiya. Maqolada Navoiyning "Xazoyinu-l-maoniy" kulliyotida qo'llangan ma'dan timsollari tizimida la'l obrazining badiiy-irfoniy va tasavvufiy semantikasi tadqiq etilgan. La'l timsolining lab, kalom, rahmoniy nafas, ma'rifat, ilohiy fayz, ishq, jonbaxshlik, fano va baqo tushunchalari bilan bog'liq ma'no qatlamlari poetik misollar asosida yoritilgan. Shuningdek, timsolning may, soqiy, obi hayot, Iso Masih, qon, olov va javohir obrazlari bilan semantik aloqalari tahlil qilinib, uning moddiy-estetik belgidan ko'p qatlamli irfoniy ramzga aylanish jarayoni ko'rsatilgan. "Xazoyinu-l-maoniy" devonlari va turli she'riy janrlar kesimida olib borilgan statistik hamda semantik tahlillar la'l timsolining Navoiy poetik tafakkurida barqaror, sermahsul va markaziy ramzlardan biri ekanini asoslashga xizmat qilgan.
Kalit so'zlar: Navoiy, la'l, tasavvuf, ramz, ma'rifat, kalom, irfon.
Annotation. The article examines the literary-irfanic and Sufi semantics of the image of la'l within the system of mineral symbols represented in Alisher Navoi's poetic collection Khazā'in al-Ma'ānī. Drawing on poetic examples, the study elucidates the semantic layers of the symbol associated with the lips, the word, the Divine Breath, spiritual knowledge, divine grace, love, life-giving power, and the Sufi concepts of fanā and baqā. It also analyzes the semantic interrelations of la'l with the images of wine, the cupbearer, the Water of Life, Jesus Christ, blood, fire, and precious stones, thereby demonstrating its transformation from a material-aesthetic image into a multilayered mystical and irfanic symbol. Statistical and semantic analyses conducted across the individual divans of Khazā'in al-Ma'ānī and various poetic genres substantiate the conclusion that la'l constitutes one of the most consistent, productive, and central symbols in Navoi's poetic thought.
Keywords: Navoi, la'l, Sufism, symbol, knowledge, word, irfan.
Аннотация. В статье исследуется художественно-ирфаническая и суфийская семантика образа рубина в системе минеральных символов, представленных в диванном своде Алишера Навои «Сокровищница мыслей». На основе поэтических примеров раскрываются смысловые пласты данного образа, связанные с устами, словом, Божественным дыханием, познанием, Божественной благодатью, любовью, животворящей силой, а также категориями бренности и вечности. Анализируются семантические связи образа рубина с мотивами вина, виночерпия, воды жизни, Иисуса Христа, крови, огня и драгоценных камней; прослеживается процесс превращения его из материально-эстетического образа в многослойный мистико-ирфанический символ. Статистический и семантический анализ, проведённый на материале диванов «Сокровищница мыслей» и различных поэтических жанров, позволяет определить образ рубина как один из устойчивых, продуктивных и центральных символов поэтического мышления Навои.
Ключевые слова: Навои, рубин, суфизм, символ, познание, слово, ирфан.

Mumtoz Sharq adabiyoti, xususan, Alisher Navoiy ijodi islomiy-irfoniy tafakkur, botiniy kamolot falsafasi va ramziy-badiiy ifodaning yuksak namunalarini mujassam etgan ulkan ma'naviy merosdir. Tasavvuf ta'limoti insonning ko'ngil tozaligi, fano va baqo maqomlari, Haqqa yetishish, botin ilmini idrok etish, ilohiy tajalliylarni anglash kabi murakkab ruhiy-ma'rifiy jarayonlarni bevosita nazariy bayon orqali emas, balki ramz va timsollar vositasida ifodalashni taqozo etadi. Tasavvufiy dunyoqarashda borliqdagi har bir narsa Haq qudrati, hikmati va jamolining bir tajalliysi sifatida talqin qilinadi. Shayx Ibrohim Afandining quyidagi misralari ayni haqiqatni ifodalaydi:

Tasavvuf jumla zarroti jahonda Haqni ko'rmoqdir,
Tasavvuf kun kibi kavnga namoyon o'lmoqqa derlar [4: 448].

Tasavvufiy ramz – bu muayyan so'zning mukammal iymon, botiniy idrok va irfoniy tajriba bilan bog'langan holda asar matnida qo'llanishidir. Shu bois mumtoz she'riyatda ko'plab so'z va tushunchalar o'zining zohiriy ma'nosi bilan cheklanmay, chuqur adabiy-irfoniy mazmun kasb etadi. "Xazoyinu-l-maoniy" kulliyotidagi ma'dan timsollari ham ana shu ramziy tafakkurning faol va sermahsul ko'rinishlaridan biridir. Bunday yondashuvda ma'danlar oddiy moddiy boylik emas, balki ilohiy sir, nur, fayz, poklik, qalb sayqali va botiniy kamolot ramziga aylanadi.

Abu Rayhon Beruniyning "al-Jamohir fi ma'rifat al-javohir" asari ma'danlar xususida muhim nazariy-manbaviy asoslardan biridir. Beruniy mazkur asarda tabiatda uchraydigan 40 ga yaqin qimmatbaho ma'danlar, ularning tabiiy xossalari, foydalari, inson salomatligiga ta'siri, shuningdek, arab she'riyatida obraz darajasiga ko'tarilgan jihatlari haqida ma'lumot beradi. Uning tasnifida eng qimmatli javohirlar sifatida *yoqut, zumrad* va *dur* ajratiladi. La'l esa rang, shaffoflik va joziba jihatidan yoqutga yaqin, hatto ayrim jihatlarda undan ham go'zal va ta'sirchan tosh sifatida talqin etiladi: "Eng qimmatli toshlar uch turlidir. Bular: Yoqut, zumrad va durdir. Xususiyatlari jihatidan shunday ajratilishi to'g'ridir. La'l yoqutga eng yaqin qarindoshdir. La'l – qirmizi, shaffof va toza bir tosh bo'lib, rang sifati jihatidan yoqutga o'xshaydi. Balki go'zallik va jozibalikda yoqutdan ustundir" [5: 99]. Bu qarash Sharq ilmiy-ma'daniy an'anasida javohirlarning estetik, ramziy va ruhiy qiymatga ham ega bo'lganini ko'rsatadi.

Zohiran qimmatbaho tosh ma'nosini anglatuvchi "la'l" so'zi Navoiy poetikasida *lab, kalom, jonbaxshlik, ilohiy fayz, pir so'zi, ma'rifat nuri, ruhni tiriltiruvchi rahmoniy nafas* kabi keng va ko'p qatlamli mazmunlarni o'zida mujassam etadi. La'l bir tomondan dudoq (lab) ma'nosida kelib, so'z, kalom va nafas bilan bog'lanadi, ikkinchi tomondan esa *darveshning ko'ngli*, ya'ni *ilohiy fayz va ma'rifat nurlarini qabul qiluvchi botiniy markaz* timsolini ifodalaydi [4: 171]. "La'l" obrazida modda va ma'no, zohir va botin, jism va ruh birlashadi. Bu timsolning ko'p qirrali semantik maydon hosil qilishi Navoiy tafakkurining tasavvufiy, falsafiy va estetik asoslari bilan uzviy bog'liqdir.

"Xazoyinu-l-maoniy" kulliyotini tashkil etuvchi to'rt devon kesimida olib borilgan statistik tahlil natijalari "la'l" timsolining Navoiy lirikasida naqadar markaziy o'rin tutishini yaqqol ko'rsatadi. Jumladan, "la'l" va u bilan bog'liq ramziy birliklar "G'aroyibu-s-sig'ar"da 177, "Navodiru-sh-shabob"da 191, "Badoye'u-l-vasat"da 179 hamda "Favoyidu-l-kibar"da 156 marta uchraydi. Ushbu raqamlar shoir ijodining barcha davrlarida la'l timsoli izchil va barqaror tarzda qo'llanganini, u yosh davr lirikasidan tortib keksalik davri poetikasigacha uzluksiz semantik ahamiyat kasb etganini ko'rsatadi. Ayniqsa, "Navodiru-sh-shabob" va "Badoye'u-l-vasat" devonlarida la'l timsolining nisbatan yuqori chastotada uchrashi ishq, nash'a va ma'rifat motivlarining faol bo'lgan ijodiy bosqichlarida mazkur obrazning irfoniy-poetik funksiyasi yanada kuchayganidan

dalolat. Shu jihatdan, statistik ko'rsatkichlar "la'l" timsolining Navoiy poetikasida butun kulliyot bo'ylab izchil rivojlangan markaziy tasavvufiy obrazlardan biri ekanini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

La'l timsolining eng faol semantik yo'nalishi uning lab bilan bog'lanishidir. "La'li lab", "labi la'l", "la'li shirin", "shirin la'li", "la'li shirinkor", "shakkari la'l", "la'li shakarborin", "shakarguftor la'l", "la'li shakkarxand", "nabot la'li", "chuchuk la'l" kabi istioralar zohiran ma'shuqa labining qizilligi, shirinligi va jozibasini ifodalagandek ko'rinsa-da, botiniy qatlamda ular *kalom, jonbaxsh so'z, ma'rifat nash'asi* va *ilohiy fayz* ramziga aylanadi. Mumtoz tasavvufiy poetikada lab oddiy somatik a'zo emas, kalom, rahmoniy nafas, ilohiy sir va ma'rifat namoyon bo'ladigan manba sifatida talqin qilinadi. Shu bois la'li lab orqali shoir ko'pincha ilohiy kalomning jon baxsh etuvchi qudratini tasvirlaydi:

La'li ruhafzosidin bir bo'sa payg'om ayladi,
Garchi yolg'on erdi, men jon toptim ul payg'omdin [3:472].

Tasavvufiy talqinda la'l ko'pincha jonbaxsh kalom, ilohiy nafas va tiriltiruvchi qudrat ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Navoiy poetikasida la'lning jonbaxshlik xususiyati alohida guruh istioralar orqali kengaytiriladi. "La'li jonbaxsh", "jonbaxsh la'l", "la'li jon", "jon la'li", "la'li jonparvar", "ravonbaxsh la'l", "jonfizo la'l", "la'li ruhafzo", "la'li ruhparvar", "la'li anfosi" kabi birikmalar la'lni ruhni tiriltiruvchi, qalbni uyg'otuvchi, ma'naviy hayot baxsh etuvchi kuch sifatida talqin qiladi. Bu obrazlarda la'l Hazrati Iso Masihning nafasiga, obi hayvonga, ilohiy kalomga va pirning ma'rifatli so'ziga yaqinlashadi. Demak, la'l shoir tasavvurida inson ruhini g'aflatdan uyg'otuvchi, unga ma'naviy hayot beruvchi ramzdir. Shoirning quyidagi baytida bu ma'no yanada teranlashadi:

La'li jonbaxshing takallum vaqti bir-bir sochti dur,
Alloh-Alloh, kim ko'ribtur bo'yla gavharbor la'l [2:375].

Tadqiqot jarayonida la'l bilan bog'liq 88 xil shakl aniqlanib, ular g'azal janrida 703 marta qo'llangani ma'lum bo'ldi. Mazkur shakllarning aksariyati istiora san'ati orqali vujudga kelgan bo'lib, la'lning majoziy-tasavvufiy qirralarini ochishga xizmat qiladi. Jumladan, *la'li jonbaxsh, la'li ruhafzo, la'li gavharbor, la'li shakkarxoy, la'li mahlul, la'li durfishon, la'li rummoniy* kabi birikmalar la'l timsolining ruhni tiriltiruvchi, qalbni nurlantiruvchi va ilohiy fayz manbai sifatidagi mazmunini yuzaga chiqaradi. Bu istioralarda la'l ma'naviy mohiyatga ko'tarilib, tasavvufiy tafakkur doirasida *hayot, ma'rifat* va *kalom* bilan bog'lanadi.

La'l bilan kelgan sifatlovchilarning semantik tahlili ularning ikki asosiy qatlamga ajralishini ko'rsatadi. Birinchi qatlam la'lning tabiiy va moddiy xususiyatlariga ishora qiladi (masalan, obdor la'l, la'li sufti, la'li rummoniy), ikkinchi qatlam esa o'rta asrlar Sharq tafakkurida la'lga berilgan ijtimoiy va ramziy qiymatni ifodalaydi (masalan, shahvor la'l, la'li Badaxshon, gavharbor la'l). Bu hol Navoiy poetikasida moddiy qadriyatning irfoniy mazmunga aylanish jarayonini yaqqol namoyon etadi.

"Xazoyinu-l-maoniy" kulliyotida "la'l" timsoli faqat g'azal janri doirasida emas, balki ruboiy, qit'a, fard, tuyuq, muxammas, musaddas, tarjiband, qasida, mustazod va soqiynoma kabi boshqa janrlarda ham faol qo'llanilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, g'azaldan tashqari janrlarda "la'l" va u bilan bog'liq istioralarning 22 xil shakli aniqlanib, ular jami 48 marotaba uchraydi. Bu hol la'l timsolining Navoiy poetikasida janrlararo universallikka ega ramz ekanini ko'rsatadi. Devonlar kesimida qaralganda, "G'aroyibu-s-sig'ar"da 12 marta, "Navodiru-sh-shabob"da 5 marta, "Badoye'u-l-vasat"da 12 marta, "Favoyidu-l-kibar"da esa 19 marta g'azaldan tashqari janrlarda qo'llanishi kuzatiladi. Ayniqsa, so'nggi devonda bu timsolning ko'proq uchrashi Navoiy tafakkurida la'l obrazining irfoniy yetuklik bosqichiga ko'tarilganini anglatadi.

Demak, Navoiy she'riyatida la'l timsoli bir necha asosiy tasavvufiy vazifani bajaradi. Birinchidan, u lab va kalom orqali ilohiy so'z, rahmoniy nafas va ma'rifat fayzini ifodalaydi. Ikkinchidan, jonbaxshlik semantikasi orqali Iso Masih timsoli, obi hayot va ruhiy tirilish g'oyalari bilan tutashadi. Uchinchidan, may va soqiy ramzlari bilan bog'lanib, ilohiy ishq, ma'rifat nash'asi va visol javharini bildiradi. To'rtinchidan, qizillik, qon, olov va bag'ir obrazlari orqali ishqiy iztirob, fano, fidoyilik va qalb yonishini ifodalaydi. Beshinchidan, qimmatbaho javohir sifatidagi tabiiy xususiyatlari orqali komillik, nodirlik, ma'naviy boylik va botiniy sir ramziga aylanadi. "Xazoyinu-l-maoniy" kulliyotida "la'l" va u bilan bog'liq shakllarning 751 marta qo'llanishi bu timsolning Navoiy estetik tizimidagi markaziy o'rnini yaqqol tasdiqlaydi. La'lning rang, hudud (Badaxshon la'li), ijtimoiy qiymat (shahvor la'l, obdor la'l) bilan bog'liq talqinlari o'rta asr ma'daniy-estetik qarashlarini ham aks ettirib, timsolning tarixiy-ijtimoiy qatlamini boyitadi. Natijada "la'l" obrazi Navoiy she'riyatida ishq, ma'rifat, pir va murid munosabatlari, ilohiy kalom va ruhiy kamolot g'oyalarini mujassamlashtirgan ko'p funksiyali ramz sifatida qaror topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. G'aroyib us-sig'ar: To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. 1-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2012.
2. Alisher Navoiy. Navodir ush-shabob: To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. 2-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2012.
3. Alisher Navoiy. Badoye' ul-vasat: To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. 3-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2012.
4. Avaznazarov O. Mumtoz adabiyot namunalari uchun tasavvuf lug'ati. – Toshkent: Tavfiqnashr, 2025.
5. El-Bîrûnî E.M.A. Kıymetli Taşlar ve Metaller Kitabı (Kitâbu'l-Cemâhir fî Ma'rifeti'l-Cevâhir). – Ankara: Türk Tarih Kurumu, 2023.

Ra'no BURONOVA,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tayanch doktoranti

NEOLOGIZMLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI: TARIXIY LINGVISTIK YONDASHUVDAN GLOBALLASHUV VA RAQAMLI MUHITGACHA

Annotatsiya. Mazkur maqolada "neologism" va "neologiya" tushunchalarining nazariy mohiyati, shakllanish tarixi hamda zamonaviy tilshunoslikdagi tadqiq yo'nalishlari tahlil qilinadi. Neologizmlarning yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy, ilmiy-texnik va madaniy omillar, ularni aniqlash mezonlari va hosil bo'lish usullari yoritiladi. Shuningdek, globallashuv va raqamli muhitning zamonaviy neologik jarayonlarga ta'siri ko'rsatib beriladi.
Kalit so'zlar: neologizm, neologiya, leksik innovatsiya, so'z yasalishi, leksikografiya, globallashuv, raqamli muhit.
Annotation. This article examines the theoretical essence of the concepts of "neologism" and "neology," the history of their formation, and contemporary research directions in linguistics. It highlights the social, scientific, technological, and cultural factors contributing to the emergence of neologisms, as well as the criteria for identifying them and the methods of their formation. Particular attention is paid to the impact of globalization and the digital environment on contemporary neological processes.
Keywords: neologism, neology, lexical innovation, word formation, lexicography, globalization, digital environment.
Аннотация. В статье рассматриваются теоретическая сущность понятий «неологизм» и «неология», история их формирования и современные направления исследований в языкознании. Освещаются социальные, научно-технические и культурные факторы возникновения неологизмов, критерии их выявления и способы образования. Особое внимание уделяется влиянию глобализации и цифровой среды на современные неологические процессы.
Ключевые слова: неологизм, неология, лексическая инновация, словообразование, лексикография, глобализация, цифровая среда.

Til jamiyat hayotidagi o'zgarishlarni aks ettiruvchi muhim ijtimoiy hodisadir. Jamiyat taraqqiyoti, fan va texnika rivoji, siyosiy-iqtisodiy hamda madaniy jarayonlar natijasida tilning lug'aviy tarkibi muntazam yangilanib boradi. Yangi predmet, tushuncha va hodisalarning yuzaga kelishi esa ularni ifodalovchi yangi leksik birliklarning shakllanishiga olib keladi.

Shu jihatdan neologizmlar til taraqqiyotining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Ularning paydo bo'lishi ijtimoiy ehtiyoj, ilmiy-texnik taraqqiyot va kommunikativ jarayonlar bilan chambarchas bog'liq. Neologizmni o'rganish faqat yangi so'zlarni aniqlash bilan cheklanmay, ularning shakllanishi, qo'llanishi, tarqalishi va til tizimida mustahkamlanish jarayonlarini ham qamrab oladi.

Bugungi globallashuv va raqamlashtirish sharoitida neologik jarayonlar yanada jadallashmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt bilan bog'liq yangi tushunchalar qisqa vaqt ichida yangi leksik birliklarning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois neologizm va neologiyani tarixiy hamda zamonaviy lingvistik nuqtayi nazardan o'rganish dolzarb ilmiy masalalardan biridir.

Yangi so'zlarning paydo bo'lishi insoniyat tillari tarixining barcha davrlariga xos hodisadir. Biroq neologizmlarni maxsus ilmiy obyekt sifatida o'rganish nisbatan keyingi davrlarda shakllangan. Neologizm atamasi yunoncha *neos* – "yangi" va *logos* – "so'z, tushuncha, ta'limot" birliklari asosida shakllangan bo'lib, tilda yangi paydo bo'lgan yoki yangi ma'no kasb etgan leksik birlikni anglatadi. Neologiya esa yangi leksik birliklarning yuzaga kelishi, qo'llanishi, tarqalishi va til tizimida mustahkamlanish jarayonlarini o'rganuvchi yo'nalish sifatida qaraladi.

Neologiya terminologiyasining rivojlanishida XVIII–XIX asrlar alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, fransuz tilshunoslik an'anasida yangi so'z va yangi nomlash hodisalariga qiziqish ancha erta shakllangan. L.S.Merciernning 1801-yilda nashr etilgan neologizm lug'ati neologiya tarixidagi muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. L.Guilbert mazkur davrdagi "néologie" va "néologisme" tushunchalarining tarixiy mazmunini tahlil qilib, ularga nisbatan dastlab turlicha, ba'zan salbiy baholovchi munosabat mavjud bo'lganini ko'rsatadi [2: 9].

XIX asr davomida sanoat inqilobi, ilmiy kashfiyotlar, texnik taraqqiyot va siyosiy jarayonlarning kuchayishi yangi predmet va hodisalarni ifodalovchi birliklarga bo'lgan ehtiyojni oshirdi. Keyinchalik neologizmga faqat "yangi so'z" sifatida emas, balki tilning rivojlanishi va jamiyatdagi o'zgarishlar bilan bog'liq dinamik hodisa sifatida qarash kuchaydi.

Zamonaviy tadqiqotlarda neologizmning faqat paydo bo'lishi emas, balki uning til tizimidagi keyingi rivojlanishi ham muhim hisoblanadi. A.Renouf yangi leksik birlikning dastlabki qo'llanishidan boshlab uning chastotasi, tarqalishi, umumtil birligiga aylanishi yoki qo'llanishdan chiqib ketishigacha bo'lgan jarayonni kuzatish mumkinligini ta'kidlaydi [3: 177]. Demak, neologizmni o'rganishda uning shakllanishi bilan bir qatorda "hayotiy sikli"ni ham hisobga olish zarur.

Fransuz tilshunosligida neologiya masalasi keyinchalik leksikografiya bilan ham chambarchas bog'landi. Yangi birliklarni aniqlash, ularni qayd etish, qo'llanish doirasini belgilash va til me'yorlariga munosabatini aniqlash neologik tadqiqotlarning muhim yo'nalishlariga aylandi. XX asrda L.Guilbertning ishlari ushbu yo'nalishning nazariy rivojlanishida muhim o'rin tutdi. Olim neologizmni tilning ijodiy imkoniyatlari va kommunikativ ehtiyojlari bilan bog'liq holda tahlil qildi.

Ingliz tilida ham neologik jarayonlar tilning ochiq va dinamik lug'aviy tizimi bilan bog'liq ravishda rivojlangan. Ingliz tilining boshqa tillardan o'zlashmalarni faol qabul qilishi, so'z yasalish imkoniyatlarining kengligi hamda yangi birliklarning ommaviy kommunikatsiya vositalari orqali tez tarqalishi neologizmlarning ko'payishiga xizmat qilgan.

Ingliz tilidagi yangi so'zlarni tarixiy jihatdan o'rganishda J.Algeoning tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega. Olim yangi so'zlarning paydo bo'lishini jamiyatdagi tarixiy, siyosiy, ilmiy va madaniy o'zgarishlar bilan bog'liq holda tahlil qiladi [5]. Zamonaviy ingliz tilida texnologik taraqqiyot va raqamli kommunikatsiya ta'sirida yangi birliklarning paydo bo'lish sur'ati yanada oshgan. Internet va ijtimoiy tarmoqlar yangi so'zlarning paydo bo'lishi bilan bir qatorda ularning tez ommalashishiga ham sharoit yaratmoqda.

Nemis tilida neologizmlarning shakllanishi, avvalo, tilning so'z yasash imkoniyatlari bilan bog'liq. Ayniqsa,

kompozitsiya, ya'ni ikki yoki undan ortiq asosning birikishi orqali yangi birlik hosil qilish mahsuldor usullardan biri hisoblanadi. Shuningdek, o'zlashmalar, qisqartmalar va mavjud birliklarning yangi ma'nolarda qo'llanishi ham nemis tilidagi neologik jarayonlarning muhim ko'rinishlarini tashkil etadi. Yangi birliklarning shakllanishida ijtimoiy ehtiyoj va kommunikativ vaziyat muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Rus tilshunosligida neologizmlarni o'rganish XX asrda alohida ilmiy yo'nalish sifatida rivojlandi. Tadqiqotlarda yangi so'zlarning paydo bo'lishi, ularning semantik xususiyatlari, qo'llanish doirasi, uslubiy qiymati va lug'atlarga kiritilishi masalalariga katta e'tibor qaratildi. N.Z.Kotelovaning tadqiqotlari rus neologiya maktabining muhim nazariy asoslaridan birini tashkil etadi. Tadqiqotchi neologizmni aniqlashda "yangilik" tushunchasini konkretlashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Bunda vaqt, til makoni va yangi birlikning aynan qaysi jihati yangilik kasb etayotgani hisobga olinishi lozim [1: 26].

Neologizmni aniqlash neologiya tadqiqotlarining murakkab nazariy masalalaridan biridir. Chunki har qanday yangi paydo bo'lgan birlik avtomatik ravishda neologizm sifatida qabul qilinmaydi. Birlikning yangiligi muayyan davr, til jamoasi va kommunikativ muhitga nisbatan belgilanadi. Shu sababli neologizmlarni aniqlashda **vaqt, yangilik, leksikografik, denotativ va uslubiy mezonlar**dan foydalanish maqsadga muvofiq.

Vaqt mezoni birlikning qaysi davrda paydo bo'lganini ko'rsatadi. Yangilik mezoni uning til jamoasi uchun qanchalik yangi ekanini belgilaydi. Leksikografik mezon birlikning lug'atlarda qayd etilganlik holatini hisobga oladi. Denotativ mezon yangi predmet, hodisa yoki tushunchaning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lsa, uslubiy mezon birlikning muayyan nutq uslubi yoki ijtimoiy guruh doirasida yangilik sifatida namoyon bo'lishini nazarda tutadi. Demak, neologizmni aniqlashda bitta mezondan foydalanish yetarli emas.

Neologizmlar turli lingvistik mexanizmlar asosida shakllanadi. Ularning asosiy turlarini **formal, semantik va o'zlashma neologizmlar** sifatida guruhlash mumkin [4: 54–67]. Formal neologizmlar tilning mavjud so'z yasash imkoniyatlari asosida hosil bo'ladi. Bunda affiksatsiya, kompozitsiya, qisqartirish va boshqa usullardan foydalaniladi. Semantik neologizmlarda mavjud so'zga yangi ma'no yuklanadi. O'zlashma neologizmlar esa boshqa tillardan yangi leksik birliklarning kirib kelishi natijasida yuzaga keladi.

XX–XXI asrlarda globallashuv jarayoni tillarning o'zaro ta'sirini sezilarli darajada kuchaytirdi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar, ilm-fan, texnologiya, siyosat, ommaviy madaniyat va axborot almashinuvi yangi tushunchalarning tez tarqalishiga olib kelmoqda. Bunday sharoitda yangi so'zlarning bir tildan ikkinchi tilga o'tishi va qisqa vaqt ichida xalqaro miqyosda ommalashishi kuzatiladi. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi esa yangi leksik birliklarning shakllanishi va tarqalishida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Internet, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, mobil ilovalar, elektron platformalar va sun'iy intellekt bilan bog'liq tushunchalar yangi so'z va atamalarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Raqamli muhitda qisqartmalar, gibrid birliklar, internet jargonlari, texnologik terminlar va yangi fe'l hamda ot shakllari faol shakllanmoqda. Raqamli kommunikatsiyaning muhim xususiyati yangi birliklarning juda qisqa vaqt ichida ommalashishidir. Bugungi kunda neologiyani o'rganish an'anaviy leksikologik yondashuv bilan cheklanib qolmay, korpus lingvistikasi, kompyuter lingvistikasi va raqamli lingvistika bilan ham bog'lanmoqda.

Neologizmlar til taraqqiyotining tabiiy jarayoni bo'lib, ularning shakllanishi jamiyatdagi ilmiy-texnik, ijtimoiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq. Neologiyani o'rganishda yangi birliklarning paydo bo'lishi bilan birga, ularning tarqalishi va til tizimida mustahkamlanish jarayonlarini ham hisobga olish muhimdir.

Tarixiy-lingvistik tahlil neologizmlarning turli tillarda o'ziga xos shakllanish mexanizmlariga ega ekanligini ko'rsatadi. Globallashuv va raqamli muhit esa yangi leksik birliklarning paydo bo'lishi va tez tarqalishini yanada jadallashtirmoqda. Shu bois zamonaviy neologiyani tadqiq etishda an'anaviy lingvistik yondashuvlar bilan bir qatorda korpus va raqamli lingvistika imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Котелова Н.З. Процессы неологизации в русском языке XX века // Новые слова и словари новых слов. Л.: Наука, 1978.
2. Guilbert L. Théorie du néologisme // Cahiers de l'Association internationale des études françaises, 1973, №25. – P. 9–29.
3. Renouf A. A finer definition of neology: The life-cycle of a word // Corpus Perspectives on Patterns of Lexis. – Amsterdam: John Benjamins, 2013.
4. Ribeiro de Jesus A.M. Typologies of neologisms: brief historical path // Revista GTLex, 2018. Vol. 4, №1. – P. 13–28.
5. Algeo J. Fifty Years Among the New Words: A Dictionary of Neologisms, 1941–1991. – Cambridge: Cambridge University Press, 1991.

Dilbar NIYAZOVA,
Qarshi davlat universiteti professori

JAHON TILSHUNOSLIGIDA ASSOTSIATIV-SOMATIK PORTRET KONSEPSIYASINING NAZARIY ASOSLARI VA UNI ISHLAB CHIQISH ZARURATI

Annotatsiya. Maqolada muayyan obyekt obrazini assotsiativ portretlarda modellashtirish insonning lisoniy ongi, assotsiativ tafakkuri, tashqi olamni idrok etishi va u haqda hosil bo'lgan bilimlari va tasavvurlari, xotirasi, leksikoni kabilarni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etishi bayon qilingan.
Kalit so'zlar: assotsiativ portret, nutqiy portret, kommunikativ portret, verbal portret, lisoniy portret, kognitiv portret, assotsiativ portret.
Annotation. The article discusses how modeling the image of a specific object through associative portraits plays a significant role in the study of various aspects of the human mind including linguistic consciousness, associative thinking, the perception of the external world, the knowledge and concepts formed about it, memory, and the lexicon.
Keywords: associative portrait, speech portrait, communicative portrait, verbal portrait, linguistic portrait, cognitive portrait, associative portrait.
Аннотация. В статье рассматривается значимость моделирования образа определённого объекта посредством ассоциативных портретов в исследовании различных аспектов человеческого сознания, включая языковое сознание, ассоциативное мышление, восприятие окружающего мира, знания и представления о нём, память, а также лексикон.
Ключевые слова: ассоциативный портрет, речевой портрет, коммуникативный портрет, вербальный портрет, языковой портрет, когнитивный портрет.

O'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab dunyo tilshunosligida insonda biror bir turtki so'zga nisbatan hosil bo'ladigan lisoniy assotsiatsiyalarni o'rganishga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida tilning assotsiativlik xususiyati ochib berildi, til birliklarining inson ongida bir-biri bilan assotsiativ bog'lanishi ilmiy jihatdan asoslandi. Lisoniy assotsiatsiyalarda tilga xos leksik, grammatik, uslubiy, pragmatik, kognitiv, ijtimoiy, milliy-madaniy xususiyatlar qatorida insonning olamni idrok etish tarzi, uni baholashi, ruhiyati, madaniy qarashlari, shuningdek, ijtimoiy belgilari namoyon bo'lishi asoslab berildi.

So'nggi yillarda assotsiativ tilshunoslikda tadqiqotchilarning e'tibori alohida olingan til birliklarining assotsiativ xususiyatini tavsiflashdan ko'ra, muayyan obyektning til egalari ongida shakllangan yaxlit obrazini tiklash va lisoniy assotsiatsiyalar vositasida tasvirlash masalasiga qaratilmoqda. Natijada tilshunoslikda *assotsiativ portret* tushunchasi yuzaga keldi.

Muayyan obyekt obrazini assotsiativ portretlarda modellashtirish insonning lisoniy ongi, assotsiativ tafakkuri, tashqi olamni idrok etishi va u haqida hosil bo'lgan bilimlari va tasavvurlari, xotirasi, leksikoni kabilarni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu muammoning nazariy asoslari dunyo tilshunosligida N.V. Krushevskiy, G.H.Kent, AJ.Rosanoff, Ch.N.Cofer, M.M.Pokrovskiy, J.Deese, A.A.Leontev, A.A.Zalevskaya, G.A.Martinovich, N.V.Ufimseva, Y.N.Karaulov, Y.I.Goroshko, R.M.Frumkina, N.O.Zolotovalarning [1: 148] inson g'oyalarining assotsiativ bog'lanishi, tildagi so'zlarning inson lisoniy ongi va xotirasi bilan aloqasi, insonda assotsiatsiyalarning hosil bo'lish mexanizmlari, tilning assotsiativlik xususiyati, lisoniy assotsiatsiyalarning tabiati, nutq yaratilishidagi roli kabi masalalar tahliliga bag'ishlangan asarlarida yoritilgan.

Jahon tilshunosligida bugungi kunga kelib assotsiativ portretning kognitiv mohiyati, shakllanish mexanizmlari, obyektni qay tarzda tasvirlashi, milliy-madaniy xususiyatlari turli darajada yoritilgan. Assotsiativ portret tadqiqiga oid nazariy qarashlar, keyingi yillarda, ayniqsa, rus tilshunoslari tomonidan izchil rivojlantirildi. Ularning tadqiqotlarida mashhur shaxslar, turli kasb egalarining assotsiativ portretlari shakllantirilib, shaxsga xos individual xususiyatlarni qay darajada tasvirlashi ochib berildi. Shuningdek, bunday assotsiativ portretlarda til jamoasining tasvir obyekti bo'lgan shaxs yoki millatga nisbatan subyektiv munosabati namoyon bo'lishi ham asoslandi. Bu haqida fikr yuritar ekan, D.Lutfullayeva quyidagilarni bayon qilgan: "Shunisi xarakterliki, assotsiativ lisoniy portretda kishilarning tasvir obyekti haqidagi subyektiv qarashlari ham namoyon bo'ladi. Masalan, shaxs (yoki millat)ga nisbatan til egalarida hosil bo'ladigan assotsiatsiyalarning subyektiv xarakterda bo'lishiga ko'pincha quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

1. Til egalarining muayyan shaxs (yoki millat)ga nisbatan o'zaro ijtimoiy, siyosiy, madaniy, huquqiy, diniy sohalardagi hamkorlik aloqalari asosida yuzaga kelgan ijobiy yoki salbiy qarashlari.

2. Til egalarining muayyan shaxs (yoki millat) haqida o'qigan, o'zgalardan eshitgan ijobiy yoki salbiy xarakterdagi ma'lumoti va ular asosida shakllangan tasavvurlari.

3. Til egalarining muayyan shaxs (yoki millat)ga nisbatan qo'shnichilik, yor-u birodarlik, qarindoshlik munosabati ta'sirida yuzaga kelgan subyektiv munosabati.

4. Til egalariga muayyan shaxs (yoki millat)ga nisbatan jamiyatda shakllangan salbiy yoki ijobiy xarakterdagi stereotiplarning ta'siri. Ko'rsatilgan tashqi omillar til egalarining lisoniy tasvir obyekti bo'lgan shaxs (yoki millat) haqidagi tasavvurlarining subyektiv xarakterda bo'lishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mazkur holat shaxs (yoki millat) ning til egalari ongida hosil bo'lgan obraz-qiyofasida ham aks etadi" [3: 150].

Bundan xulosa qilish mumkinki, assotsiativ portretlar nafaqat tasvirlayotgan obyekt haqida, balki ushbu obyektga tavsif berayotgan til egalari haqida ham ma'lumot bera oladi.Tilshunoslikda alohida shaxslar, muayyan kasb egalari yoki turli millatlarning va hatto ayrim predmetlarning assotsiativ portretini yaratish bo'yicha turli tadqiqotlar o'tkazilgan. Bunday tadqiqotlarda biror bir mashhur shaxs yoki kasb egasi, millat, predmet kabilarning til jamoasi ongida shakllangan obrazini assotsiativ tajriba natijalari asosida tiklash hamda assotsiativ portretini yaratish masalasi tahlil qilingan [4: 20]. Quyida dissertatsiyaning hajmini inobatga olgan holda, ulardan ayrimlarining tahlilini amalga oshiramiz.

Turli millatlarning assotsiativ portretini modellashtirishga bag'ishlangan dissertatsion ishlardan biri T.A.Yershovaning "Русско-немецкие ассоциативные портреты (опыт

интерпретации)" deb nomlangan tadqiqot ishidir. Mazkur tadqiqotda assotsiativ tajriba natijalari asosida rus va nemis xalqi jamoaviy ongida shakllangan rus-nemis millati assotsiativ portreti xususiyatlari ochib berilgan. Tadqiqotchi rus va nemis xalqini turli jihatdan tavsiflovchi 50 ta so'z bo'yicha bu ikki millat vakillari ustida assotsiativ tajriba o'tkazgan. Tajribada olingan materiallarni mavzu jihatdan tahlil qilib, ularni turli guruhlarga ajratgan. Masalan, rus va nemis xalqining tashqi qiyofasini tasvirlovchi ("ровесник" – tengqur, "зрелый" – yetuk; "старость" – qarilik; "толстый" – semiz, "худая" – ozg'in) vizual javob reaksiyalari; rus va nemis xalqining ichki holati, salbiy va ijobiy xususiyatlari, xulq-atvorini tasvirlovchi ("надёжный" – ishonchli, "верный" – sodiq, "сварливая" – janjalkash kabilar) aksiologik javob reaksiyalari; rus va nemis xalqining hissiy-emotsional holatini aks ettiruvchi ("верность" – sodiqlik, "доверие" – ishonch, "независимость" – mustaqillik kabilar) mental-funksional javob reaksiyalari; rus va nemis xalqining ijtimoiy holati, jamiyat va oiladagi rollarini aks ettiruvchi ("начальник" – boshliq, "пенсионерка" – pensioner ayol) javob reaksiyalari; rus va nemis xalqining ish faoliyati, mashg'ulotini aks ettiruvchi ("секретар" – kotiba) funksional javob reaksiyalari va hokazo. Ushbu javob reaksiyalari rus va nemis xalqi jamoaviy ongida shakllangan rus-nemis millati assotsiativ portretini yaratishga xizmat qilgan [4: 20].

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, muallif assotsiativ tajriba natijalarini tahlil qilish orqali rus va nemis xalqining jamoaviy ongda shakllangan milliy obrazini tiklay olgan. Dissertatsiyada assotsiativ reaksiyalarning ajratilgan mavzuviy guruhlari muayyan etnos haqidagi assotsiativ tasavvurlarni tartibga solish, ularning millatga xos qanday xususiyatlar asosida shakllanganligini ochib berishga xizmat qilgan. Shu bilan birga, rus va nemis xalqlari assotsiativ portretlarining tarkibiy tuzilishini aniqlashga imkon bergan.

Tadqiqotning metodologik ahamiyati shundaki, unda turli millatlar assotsiativ portretlarini shakllantirishda qo'llaniladigan amaliy vazifalar tizimli ravishda qayd etilgan, til egalari ustida o'tkaziladigan assotsiativ tajriba metodining mohiyati, assotsiativ portretni modellashtirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Mazkur tadqiqot, unda qo'llanilgan assotsiativ portret yaratish metodikasi turli millatlarning o'zga xalqlar nigohidagi assotsiativ portretlarini modellashtirishda ilmiy-nazariy manba vazifasini o'taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Крушевский Н.В. Очерк науки о языке. Казань: Типография Императорского Университета, 1883.
2. Kent G.H., Rosanoff A.J. A study of association in insanity // American Journal of Insanity, 1910. Vol. 67. – P. 317–390.
3. Lutfullayeva D. O'zbek millati haqidagi tasavvurlarning lisoniy assotsiatsiyalarda aks etishi // O'zbek tilining assotsiativ tadqiqi: jamoaviy monografiya / D. Lutfullayeva, F. Karimova, M. Saydaliyeva. – Toshkent: Fan, 2024. – B. 11–28.
4. Ершова Т.А. Русско-немецкие ассоциативные портреты (опыт интерпретации): автореф. дисс. … канд.филол.н. М., 1998.

Nigina IZAMOVA,
Buxoro davlat universiteti doktoranti

DETEKTIV ASARLARDA QAHRAMON RUHIYATINI IFODA ETISHDA TABIAT TASVIRINING BADIIY-ESTETIK VAZIFALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada detektiv asarlarda qahramon ruhiyatini ifoda etishda tabiat, atrofdagi olam tasvirining badiiy-estetik vazifalari tahlil qilinadi. Tatqiqot obyekti sifatida ingliz adabiyotidan Raymond Chandlerning "The big sleep" hamda o'zbek detektinavis yozuvchisi Komil Sindarovning "O'g'irlangan bolalik" asarlari qiyosiy tahlil uchun tanlab olindi. Tatqiqotda konseptual, struktual-semiotik, psixopoetik metodlar yordamida tabiat tasviri detektiv asarlarda nafaqat voqealar fonini yaratuvchi, balki qahramonning ichki kechinmalari, ruhiy zo'riqishlari, qo'rquvi, shubhalari hamda psixologik transformatsiyasini ifodalovchi muhim poetik vosita ekani ilmiy jihatdan asoslanadi.
Kalit so'zlar: detektiv, peyzaj, psixopoetika, ekokritika, emotsional fon, badiiy detal.
Annotation. This article examines the artistic and aesthetic functions of the depiction of nature and the surrounding environment in expressing the psychological state of protagonists in detective fiction. For the comparative analysis, Raymond Chandler's "The Big Sleep" from English literature and Komil Sindarov's "O'g'irlangan bolalik" from Uzbek detective literature were selected as the research materials. Employing conceptual, structural-semiotic, and psychopoetic methods, the study demonstrates that the depiction of nature in detective fiction serves not only as a narrative background but also as an important poetic device for conveying the protagonist's inner experiences, psychological tension, fear, doubts, and psychological transformation.
Keywords: detective fiction, landscape, psychopoetics, ecocriticism, emotional atmosphere, artistic detail.
Аннотация. В статье анализируются художественно-эстетические функции изображения природы и окружающего мира в раскрытии внутреннего мира героя в детективных произведениях. В качестве объекта исследования для сравнительного анализа выбраны роман английского писателя Рэймонда Чандлера «Глубокий сон» и произведение узбекского писателя-детективиста Комила Синдарова «Украденное детство». В исследовании с использованием концептуального, структурно-семиотического и психопоэтического методов научно обосновывается, что изображение природы в детективной прозе выполняет не только функцию создания фона повествования, но и выступает важным поэтическим средством выражения внутренних переживаний героя, его психологического напряжения, страха, сомнений и процессов психологической трансформации.
Ключевые слова: детектив, пейзаж, психопоэтика, экокритика, эмоциональный фон, художественная деталь.

XXI asrda eng ommabop adabiy yo'nalish hisoblangan detektiv asarlar adabiyot tanqidchilari tomonidan turli parametrlarda o'rganilmoqda. Dastavval, detektiv yo'nalishining sujet qurilishi, jinoyat motivi va detektiv obrazlari nuqtai nazaridan tadqiq etilgan bo'lsa, endi qahramon ruhiyati, uning ichki o'y-kechinmalarining asar badiiy qiymatidagi o'rni tatqiqot markaziga chiqib kelmoqda.

Qahramon ruhiyatini ochishda bir qancha poetik vositalar mavjud. Xususan, personajlarning nutqi, xatti-harakatlari, imo-ishoralari va hattoki uni o'rab turgan tabiat peyzaji ham personaj ruhiy holatida ahamiyatli hisoblanadi. Bir tomondan juda oddiy va tabiiy ko'ringan tabiat tasviri faqat asarning dekorativ unsuri emas, balki shuningdek, sujet dinamikasi hamda detektivga xos bo'lgan intrigani kuchaytiruvchi vosita hamdir. Shu sababdan qahramon ruhiyati va tabiat tasviri o'rtasidagi poetik bog'liqlikni, uning psixologik va poetik funksiyasini ilmiy asoslash mavjud ilmiy bo'shliqlarni to'ldirishda muhim.

Tabiat tasviri detektiv asarlarda voqealar fonini yaratadi, qahramonning ichki kechinmalari, ruhiy zo'riqishlari, qo'rquvi, shubhalari hamda psixologik transformatsiyasini ifodalovchi muhim poetik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, ingliz va o'zbek detektiv nasrini qiyosiy aspektda o'rganish tabiat tasvirining universal hamda milliy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Shu jihatdan mazkur tadqiqot detektiv poetikasi va psixopoetika yo'nalishidagi ilmiy izlanishlarni yangi nazariy xulosalar bilan boyitishga xizmat qiladi.

Detektiv adabiyot nazariyasi, shakllanish bosqichlari, kompozitsiya, tipologiya va badiiy xususiyatlari J.G.Cawelti, Stephen Knight, Martin Priestman, Charles J.Rzepka va Leroy Lad Panek kabi olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Ushbu tatqiqotlar detektiv yo'nalishi evolyutsiyasi, janr qonuniyatlarini nazariy jihatdan asoslab, boshqa tatqiqotlar uchun dasturulamal bo'lib kelmoqda. Qahramonlar psixologiyasini o'rganish so'nggi yillarda aktuallashgan bo'lsada, M.M.Baxtin, L.S.Vigotskiy, D.S.Lixachev, Wolfgang Iser va Dorrit Cohn kabi olimlarning ilmiy qarashlari badiiy matnda ichki nutq, psixologik portret, emotsional holat va muallif pozitsiyasini tahlil qilishning nazariy asoslarini yaratishga ulurishdi. O'zbek olimi D.Quronov, "badiiy asarda to'laqonli inson obrazini yaratishdagi muhim unsurlardan biri badiiy psixologism" ekanligini aytadi [1: 75].

A.B.Yesinning so'zlariga ko'ra, "psixologizm – bu san'atning ma'lum bir turi bo'lib, uning orqasida badiiy ma'no, g'oyaviy va hissiy mazmun turadi va ifodalanadi" [2: 176]. Badiiy psixologism orqali personaj ruhiyatining ochib berilishi, uning xatti-harakatlari, gap-so'zlarining psixologik jihatdan asoslanishi asardagi obrazni yanayam jonli va ishonchli qiladi. Ivan Strakhov psixologik tahlilni **"tashqaridan" tasvirlash** – personajning ruhiy holatini uning nutqi, nutqiy xulqi, mimikasi, tabiat tasviri va boshqa tashqi belgilarini sharhlash orqali ifodalash. mumkinligini aytadi. [3: 4]

Peyzajning badiiy matndagi poetik funksiyalari rus adabiyotshunosligida V.E.Xalizev, Yu. M.Lotman, B.A.Uspenskiy hamda D.S.Lixachev tadqiqotlarida yoritilgan. Mazkur ishlarda tabiat tasviri badiiy makonning tarkibiy qismi, ramziy tizim va personaj ruhiy holatini ifodalovchi estetik vosita sifatida talqin etiladi. So'nggi yillarda ekokritika yo'nalishida Cheryll Glotfelty, Lawrence Buell, Greg Garrard, Scott Slovic va Serpil Oppermann kabi olimlar tabiatning badiiy matndagi funksiyalarini ekologik va madaniy kontekstda tadqiq etdilar. Ularning ishlari tabiatni inson tafakkuri va jamiyat bilan o'zaro aloqador tizim sifatida baholashga xizmat qiladi. Ammo ushbu tadqiqotlarning asosiy e'tibori ekologik muammolar va tabiat konsepsiyasiga qaratilgan bo'lib, tabiat tasvirining detektiv qahramon ruhiyatini ifodalashdagi poetik vazifalari yetarli darajada yoritilmagan.

Shunday qilib, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, detektiv janr poetikasi, qahramon psixologiyasi, peyzaj poetikasi va ekokritika yo'nalishlarida salmoqli ilmiy natijalarga erishilgan bo'lsa-da, ingliz va o'zbek detektiv adabiyotida tabiat tasvirining qahramon ruhiyatini ifodalashdagi badiiy-estetik vazifalari kompleks va qiyosiy

tahlil asosida yetarli darajada o'rganilmagan. Mazkur tadqiqot aynan shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Raymond Chandlerning "The big sleep" asarini tahlil qilkar ekanmiz, asar sujetidagi tabiat tasviri aynan detektiv ruhiyatining, uning ichki olami tasviri bilan hamohang ekanligini payqash mumkin. Asar quyidagicha boshlanadi:

"It was about eleven o'clock in the morning, mid October, with the sun not shining and a look of hard wet rain in the clearness of the foothills." [5: 3].

Ushbu tasvirda "quyoshning charaqlamayotganligi" va "istalgan lahzada yomg'ir quyish ehtimoli "go'yoki bosh qahramonni kelajakdagi xavf, murakkab voqealar va ruhiy bosim ning yaqinlashayotganidan ogohlikka chaqirayotdek. Qahramon ushbu tasviri orqali tabiatning bu manzarasidan shikoyat qilmayapti, aksincha u o'zining bunday "qattiq yomg'ir alomatlariga" tayyor ekanligini namoyish etmoqda. Bunday kontrast qahramon ruhiy jihatdan murakkab shaxs ekanligini ko'rsatadi. Asarda Filip Marlou general Sternvud bilan uchrashuvi oldidagi tasvir esa bunday:

Then it was really hot. The air was thick, wet, steamy and larded with the cloying smell of tropical orchids in bloom. The glass walls and roof were heavily misted and big drops of moisture splashed down on the plants. The light had an unreal greenish colour, like light filtered through an aquarium tank. The plants filled the place, a forest of them, with nasty meaty leaves and stalks like the newly washed fingers of dead men. They smelled as overpowering as boiling alcohol under a blanket [5: 8].

Chandler issiqxona tasvirida grotesk tasviridan foydanalanadi. Grotesk – badiiy tasvir usuli bo'lib, unda real va noreal, hayot va o'lim, kulguli va daxshatli unsurlar birlashib, kuchli estetik va psixologik ta'sir uyg'otadi. Adabiyotda odatda hayot ramzi bo'lgan o'simliklarni yozuvchi murdaning barmoqlariga o'xshatishi, yoinki, barglarning badbashara sifatida keltirilishi qahramonning tashqi dunyoga bo'lgan munosabatini ko'rsatadi. U go'zallik ortida yashiringan xavf-xatardan ogoh ekanligini, dunyoga bo'lgan ishonchsizligini tasvirlaydi. Psixopoetik jihatdan, Marlou atrofdagi olamni oddiy kuzatuvchi emas, balki jinoyat va o'lim tajribalariga bog'lagan holda idrok etadi. Sujet rivoji bilan bir qatorda tabiat tasviri ham dinamik ravishda o'zgarib, qahramonning ruhiy holati va voqealar keskinligini parallel tarzda aks ettiradi. Filipp Marlou tergovni qabul qilib, jinoyat tafsilotlariga tobora chuqurroq kirib borar ekan, tabiat manzarasi ham keskin tus ola boshlaydi: osmonning binafsharang-qora rangga kirishi (*the sky above them was purple-black*) hamda havoda yomg'irning nam nafasi sezilishi (*The air had the damp foretaste of rain*) yaqinlashayotgan xavf va psixologik taranglikning badiiy belgisi sifatida namoyon bo'ladi.

Keyingi epizodlarda kuchli yomg'ir qahramonga go'yo hamroh bo'lib, uning jinoyatni fosh etish yo'lidagi murakkab va ziddiyatli ruhiy holatini tashqi tabiat manzarasi orqali ifodalaydi. Xususan, ariqlarni to'ldirib, yo'llarni suvga ko'mgan yomg'ir tasviri (*Rain filled the gutters and splashed knee-high off the pavement*) syujet dinamikasining jadallashuvi hamda voqealarning murakkablashib borishini ramziy tarzda aks ettiradi. Marlouning "kuz uchun bunday yomg'ir hali erta" (*It was too early in the fall for that kind of rain*) degan mulohazasi esa oddiy meteorologik kuzatuv emas, balki voqealar tabiiy rivojining izdan chiqqani, jinoyat olamidagi axloqiy muvozanat buzilgani va qahramon duch kelayotgan vaziyatlarning odatiy me'yorlardan chetga chiqqanini anglatuvchi psixopoetik detal sifatida talqin qilinadi.

Aksincha, izquvar Geigerning qotiliga oid muhim dalillarni qo'lga kiritgach, tabiat manzarasi ham o'zgaradi: "Ertasi kuni tong yorug', musaffo va quyoshli edi" (*The next morning was bright, clear and sunny*). Mazkur tabiat tasviri qahramon tafakkuridagi noaniqlikning asta-sekin barham topayotgani, haqiqatning oydinlashishi va tergov jarayonida ma'lum bir ruhiy barqarorlik tiklanayotganini ifodalaydi.

Demak, romanda tabiat tasviri statik fon emas, balki syujet rivoji va qahramon ruhiyati bilan uzviy bog'langan psixopoetik tizim sifatida amal qiladi. Tabiatdagi har bir o'zgarish qahramonning ichki kechinmalari, hissiy zo'riqishi va tergovning muayyan bosqichlari bilan semantik jihatdan uyg'unlashib, asarning psixologik ta'sirchanligini kuchaytiradi.

Sujet jinoyat yechimiga yaqinlashib borar ekan, tabiat tasviri ham shunga javoban o'zgaradi:

A moon half gone from the full glowed through a ring of mist among the high branches of the eucalyptus trees on Laverne Terrace. A radio sounded loudly from a house low down the hill. [5: 84]

Endi yomg'ir to'xtab, atrofni tuman xira qilyapti, demak, izquvarning ongida noaniqlik, gumon va yashirin haqiqatlar mavjud. Shuningdek, yorug'lik va ravshanlik ramzi bo'lgan oy to'liq bolishi (A moon half gone from the full glowed through a ring of mist) uchun, Marlou voqealarning asl mohiyatini anglab yetishiga, asosiy dalil hali topilmaganligiga ishora berilyapti. Asar sujeti jihatidan jinoyat siri hali tuman ortida qolgan oy kabi noaniq va qisman yashirin qolganligini ko'rsatadi.

Asardagi makkora ayol Vivian va antogonist Eddi Mars munosabatlari qahramonni tuman ichigaolib kiradi. (*The fog swallowed him.) [5: 110]*. Bu qahramon ruhiyatidagi shubhalar, noaniqliklarning kuchayganligini aks ettiradi. Sujet jihatdan voqealar kulminatsion nuqtaga yetganligini ko'rsatadi. Asar yakunidagi manzara esa quyidagicha:

"*I went quickly away from her down the room and out and down the tiled staircase to the front hall. I didn't see anybody when I left. I found my hat alone this time. Outside the bright gardens had a haunted look, as though small wild eyes were watching me from behind the bushes, as though the sunshine itself had a mysterious something in its light. I got into my car and drove off down the hill*" [5: 188].

Qahramon nazarida, porlab turgan quyosh ham sir sinoatga boy, butalar esa uni ta'qib qilayotgangao'xshab turibdi. Bu epizod asar boshidagi tabiat tasvirlaridan butunlay farq qiladi. Bu tasvirda tabiat keyingi voqealarni bashorat qilmaydi, aksincha qahramonning jinoyatni boshdan kechirgandan keyingi ruhiy holatini, postravmalarini aks ettiradi. Bunda o'quvchi psixologik proyeksiya orqali inson ichki-kechinmalarini tashqi olamda ko'rayotgandek idrok etadi. Yorug'lik ramzi bo'lgan quyosh ham qahramonga ishonch bermaydi, aksincha u ham sirli va ishonchsiz. Tergov yakunlangan bo'lsada, u ruhiy yengillikni his qilmaydi, u halihanuz yolg'iz va hali ham boshqalarga ishonmaydi.

O'zbek detektiv adabiyotining namunalaridan biri bo'lmish Komil Sindarovning "O'g'irlangan bolalik" asarini tahlil qilganda, uning ingliz detektiv asarlaridan ancha farq qilishini payqash qiyin emas. "The big Sleep" asaridan farqli ravishda, detektivni yaqinlashayotgan ko'ngilsizliklardan ogoh etishda yozuvchi tabiat tasviri emas, balki, tush elementidan foydalanadi. Sanjarbek ustozi Faxriddinning jarga qulaganini tushida ko'radi va bu tush syujet voqealarini boshlab beradi.

"Noxush tush ta'siridan qutulolmagan Sanjarbek naridan-beri, ishtahasiz tamaddi qilib, turishga shaylandi. Bir xayol tushini xotiniga aytib, ko'nglini bo'shatib ham olmoqchi bo'ldi. Ammo onasining: "Yomon tushni birovga gapirish bexosiyat bo'ladi, yaxshisi tushni suvga aytgan ma'qul", degan o'giti yodiga tushib, fikridan qaytdi." [8: 7].

Tush psixologik detal vazifasida bir qancha vazifalarni bajaradi: Sanjarbekni kelayotgan xavfdan ogohlantiradi; ruhiy holatini ko'rsatib beradi ("terlab-pishib, jon talvasasida"), milly madaniyatni aks ettiradi, ("yomon tushni birovga aytib bo'lmaydi"), ichki konfliktni kuchaytiradi. O'zbek detektiv asarida tabiat tasviriga juda ko'p ahamiyat berilmaydi. Qahramonning o'y-fikrlari, mulohazalari asosan muallif tilidan so'zlanadi va hatti-hakatlari orqali ochib beriladi. Filip Marloudan farqli ravishda, Sanjarbekning xavotir va shubhalari muallif tilidan so'zlanadi va asosan stilistik vositalar, psixologik metaforalar, ichki monologlar orqali bevosita ko'rsatib beriladi:

Bir zumda Sanjarbek xayolotning ming bir ko'chasiga kirib chiqdi. Uning miyasida "vahimalar qo'shini" bir taraf, ularni inkor etuvchi tasavvurlar qo'shini ikkinchi taraf ayovsiz "jang-u jadal"ga kirishgandi. Qanchalik adolatli bo'lishga, inkor etuvchi hislarga yon bosishga harakat qilmasin, "jang"da "vahimalar qo'shini" ustun kelayotganday edi... [8: 8].

Ushbu parchada, bosh qahramon ichidagi ziddiyatlar bevosita muallif tomonidan baholanadi. "Vahimalar qo'shini", jang-u jadal" kabi metaforlar orqali qahramon ruhiaytidagi konflikt lar bilvosita nutq elamentlari orqali tasvirlanadi. Yozuvchi Sanjarbekning o'y-xayollarni, shubha-gumonlarini bilvosita nutq orqali oshkor etib boradi.

"Intuitsiyam bu gal ham meni aldamagan ko'rinadi... Demak, qotil – Zamir!!! Bu o'lgur odammi, hayvonmi, shaytonmi? Maqsadi nima? Nimaga erishmoqchi? Uch begunoh bolani o'ldirish unga nimaga kerak? Yoki u ruhiy xastami? O'z xatti-harakatining oqibatini tushunmaydimi? Unday desa, soppa-sog', odamlar orasida ishlab, yashab yuribdi-ku! Hech kim undan shikoyat qilgani yo'q-ku! Yoki u odamxo'r – manyakmi?" [8: 232].

Ushbu ichki monologda qo'llangan ritorik savollar detektivning ichki ruhiyatidagi bezovtalik, iztirob va ruhiy zo'riqishni kuchaytiradi. Odam-hayvon-shayton shaklida berilgan gradatsiya orqali qahramon ruhiyatidagi zo'riqish kuchayib, insoniylikdan mutlaq yovuzlik timsoligacha yetib boradi. Filip Maloudan farqli, Sanjarbek o'z hissiyotlarini oshkor namoyon etadi. O'z vahima, shubha va gumonlarini bildirishdan qo'rqmaydi. Filip marlou esa juda yashirin, uning hissiy emotsional holatini faqatgina tashqi belgilar, tabiat yoki boshqa psixologik detallar orqaligini anglab olish mumkin. Jinoyat yechimidan keyingiqahramon holati tasviri ham butunlay boshqacha: *"Inshoolloh, omon-omon zamonlar yaqindir..." [8: 271].* Filipdan farqli, qahramonda kelajakka umid va ishonch bor. Demak, qahramon ruhiyatidagi taranglik, shubha-yu gumonlar diniy- madaniy qadriyat orqali susayadi. "O'g'irlangan bolalik" asarida tabiat tasviri ham yo'q emas:

"Yigitlar mehmonxonaga yaqinlashganda Sanjarbekning xayollarini tasdiqlaganday, olamga zarrin nurlarini taratib, tog' ortidan zarrin oftob mo'raladi." [8: 271].

Xuddi shunday tasvir ("*The next morning was bright, clear and sunny.*") Chandler tomonidan ham qo'llanilgan bo'lib, jinoyatning oshkor etilgandan keyingi tasvirda qahramonning ruhiy yengilligini ko'rsatish maqsadida beriladi. Komil Sindarovdagi farq shundaki, u avval Sanjarbekning ruhiyatini ichki monolog orqali ochadi, so'ngra quyosh chiqishini shu ruhiy holatning tasdig'i sifatida beradi.Chandler esa aksincha, ko'pincha qahramonning hissiyotini umuman aytmaydi; o'quvchi uni faqat tabiat tasviri orqali anglaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Raymond Chandlerning *The Big Sleep* romanida tabiat tasviri psixopoetik tizimning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u qahramon ruhiyatining dinamikasini syujet rivoji bilan parallel ravishda ifodalaydi.Asar davomida tabiat tasviri syujet rivoji bilan uzviy bog'liq holda o'zgarib, Filipp Marlouning ichki kechinmalari, ruhiy zo'riqishi va voqelikka munosabatini ramziy tarzda aks ettiradi.Roman boshida tabiat tasviri sujet rivojidagi keyingi voqealarga ishora berib turgan bo'lsa, asar o'rtasida qahramonning murakkab ruhiy holati bilan o'zaro uyg'unlik kasb etdi. Asar so'ngiga kelib esa bosh qahramonning tafakkur jarayonini kortish vositasiga aylandi. Roman kompozitsiyasida tabiat tasviri foreshadowing, grotesk, ramziy obraz va psixologik proyeksiya kabi poetik usullar orqali Filipp Marlouning ruhiy evolyutsiyasini bosqichma-bosqich ochib beradi. Natijada tabiat asarda nafaqat estetik fon, balki qahramonning ichki kechinmalari va detektiv voqealar mantig'ini yorituvchi mustaqil badiiy-psixologik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Komil Sindarov poetikasida qahramon ruhiyati asosan ichki monolog, muallif nutqi, tush motivi, ritorik so'roqlar va metaforik tasvirlar orqali ochib beriladi. Muallif qahramonning ichki kechinmalarini bevosita tasvirlashga intiladi, tabiat manzaralari esa ayrim epizodlarda ruhiy holatni ramziy jihatdan to'ldiruvchi va tasdiqlovchi psixopoetik vosita vazifasini bajaradi. Natijada qahramonning ruhiy ziddiyatlari, shubhalari va umidlari o'quvchiga bevosita va ta'sirchan tarzda yetkaziladi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, Raymond Chandler va Komil Sindarov qahramon ruhiyatini yoritishda turli poetik vositalardan foydalanadi. Chandler asarlarida tabiat tasviri qahramonning ichki kechinmalari, ruhiy zo'riqishi va syujet rivojini ifodalovchi asosiy psixopoetik vosita sifatida namoyon bo'lsa, Komil Sindarovda bu vazifani asosan ichki monolog, muallif nutqi, tush motivi, ritorik so'roqlar va metaforik obrazlar bajaradi. Tabiat tasviri esa ayrim epizodlarda qahramon ruhiyatini ramziy jihatdan tasdiqlovchi va kuchaytiruvchi vosita sifatida qo'llanadi. Demak, har ikki adib qahramon psixologiyasini ochishga intiladi, ammo Chandler bilvosita psixopoetik tasvirga, Sindarov esa bevosita psixonarrativ ifoda usuliga ustuvorlik beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
2. Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы: учебное пособие. М.: Флинта; Наука, 2011.
3. Страхов И.В. Психологический анализ в литературном творчестве: учебное пособие в 5 ч.: ч.1. Саратов: Издательство Саратовского университета, 1973.
4. Knight S. Crime Fiction, 1800–2000: Detection, Death, Diversity. – New York: Palgrave Macmillan, 2004.
5. Chandler R. The Big Sleep [Electronic resource]. – Canada: Faded Page, 2024.
6. Panek L. The Origin of the American Detective Story. – Jefferson, NC: McFarland, 2006.
7. Анцыферова О.Ю. Детективный жанр и романтическая художественная система // Национальная специфика произведений зарубежной литературы XIX–XX веков. Иваново, 1994.
8. Sindarov K. Qimmatga tushgan xato. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
9. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2004.
10. Лотман Ю.М. Структура художественного текста. М.: Искусство, 1970.

Nafisa NAZAROVA,
Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi

ALISHER NAVOIYNING "NAVODIR USH-SHABOB" DEVONIDA RAD SAN'ATINING QO'LLANISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotiga kiruvchi "Navodir ush-shabob" devonida uchraydigan rad san'ati tahlil qilinadi. Devonning biz ko'rib chiqqan sahifalaridan radning bir necha ko'rinishlari – so'zning bayt ichida takrorlanishi hamda matla' misrasining she'r oxirida qaytarilishi misollar asosida tahlil qilinadi

Kalit so'zlar: "Navodir ush-shabob", rad, radd ul-matla', radd ul-ajuz al-as-sadr, takror, g'azal, badiiy san'at, poetika.

Annotation. This article analyzes the poetic device rad, found on the opening pages of the Navodir ush-shabob divan, which is part of Alisher Navoi's "Khazoyin ul-maoniy" collection. The study examines, through textual examples, several forms of rad identified in the pages of the divan under consideration: the repetition of a word within a bayt and the repetition of the opening line of the matla' at the end of the poem.

Keywords: "Navodir ush-Shabob", rad, radd al-matla', radd al-ajuz al-as-sadr, repetition, ghazal, poetic device, poetics.

Аннотация. В статье анализируется искусство радд, встречающееся на первых страницах дивана «Редкости юности», входящего в состав сборника стихов Алишера Навои «Сокровищница мыслей». В исследовании на примерах рассматриваются несколько видов радда, выявленных и изученных нами на страницах дивана: повторение слова внутри бейта, а также повторение строки матлаъ в конце стихотворения.

Ключевые слова: «Редкости юности», радд, радд уль-матлаъ, радд уль-ажуз ал-ас-садр, повтор, газель, художественный приём, поэтика.

Alisher Navoiy o'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandasi sifatida badiiy so'zning imkoniyatlaridan nihoyatda mahorat bilan foydalangan. Uning she'riy merosida vazn, qofiya va radif bilan bir qatorda turli badiiy san'atlar ham muhim vazifa bajaradi. "Navodir ush-shabob" "Xazoyin ul-maoniy" tarkibidagi devonlardan biri bo'lib, unda shoirning yosh davriga oid lirik kechinmalari, ishqiy, falsafiy, axloqiy va ruhiy mazmundagi qarashlari badiiy jihatdan yuksak darajada ifodalangan. Mazkur devon g'azallarida shoir so'z takrorining turli shakllaridan foydalanadi. Masalan, g'azalning har bir misrasi oxirida bir xil so'zning kelishi ko'pincha radif hodisasidir. Rad san'atida esa takrorning muayyan poetik o'rni va vazifasi mavjud bo'ladi.

Rad san'ati mumtoz poetikada qaytarishga asoslangan badiiy vositalardan biridir. Navoiy ijodiga bag'ishlangan tadqiqotlarda ham radning turli ko'rinishlari, jumladan, radd ul-ajuz al-as-sadr va radd ul-matla' [2] alohida qayd etiladi

"Rad" tushunchasi arabcha "qaytarmoq", "orqaga qaytarmoq" [2] ma'nolarini anglatadi. Badiiy san'at sifatida u muayyan so'z, ibora yoki she'riy unsurning matn ichida maqsadli tarzda takrorlanishiga asoslanadi. Navoiyshunoslikka oid manbalarda radning turli ko'rinishlari qayd etilib, radd ul-ajuz al-as-sadr kabi san'atlarda so'zning she'r yoki baytning boshqa qismida qayta kelishi ta'kidlanadi. Rad san'atining muhim xususiyati shundaki, takror shunchaki shakliy hodisa bo'lib qolmaydi. U ma'noni ta'kidlaydi, fikrni kuchaytiradi, bayt qismlarini o'zaro bog'laydi va she'rning ohangdorligini oshiradi.

"Navodir ush-shabob"da rad san'atining qo'llanishi
"Zihe el nihoni sanga oshkoro,
Nihon dardima oshkor et mudoro" [1].

G'azalning oxirida esa birinchi misra aynan takrorlanadi: *"Zihe el nihoni sanga oshkoro"*.

Bu holat radd ul-matla' san'atining aniq ko'rinishidir. Radd ul-matla' g'azal matla'sidagi misra yoki uning muhim qismining she'rning keyingi qismida, ayniqsa maqta' yoki xotimada qaytarilishiga asoslangan san'atdir. Bunday takror tasodifiy emas: u she'rning boshida qo'yilgan fikrni yakunda yana bir bor ta'kidlaydi. Mazkur g'azalda "Zihe el nihoni sanga oshkoro" misrasining oxirida qaytarilishi kompozitsion jihatdan halqaviy yaxlitlik hosil qiladi. G'azal boshida oshkor va nihon tushunchalari o'rtasidagi ziddiyat yuzaga chiqariladi. Shoirning "el nihoni" va "sanga oshkoro" qarama-qarshiligi orqali lirik qahramonning ichki holati ifodalanadi. G'azal davomida bu ruhiy holat turli tasvirlar orqali rivojlantiriladi va oxirida boshlang'ich misraning aynan qaytarilishi bilan yana asosiy fikrga qaytiladi. Demak, bu yerda rad san'ati faqat takror yaratish uchun emas, balki g'azal mazmunini kompozitsion jihatdan yakunlash vazifasini ham bajaradi.

Rad san'atining yanada yaqqol namunasi 8-raqamli g'azalda uchraydi. G'azalning matla'i quyidagicha:

"Kimki, yetkay ishq dardu dog'din ofat anga,
Dog' mehri saltanatdur, dard erur sihhat anga" [1].

Ushbu baytda "dard" va "dog'" so'zlarining takroriy joylashuvi alohida e'tiborga loyiq. Birinchi misrada: dard-u dog' birikmasi keladi. Ikkinchi misra esa: *Dog' mehri... dard erur*...shaklida boshlanib, birinchi misradagi ikki muhim birlik yana qaytariladi. Bu yerda takrorning oddiy shakliy hodisa emasligi ko'rinadi. Shoir "dard" va "dog'" so'zlarini birinchi misrada ishqning oqibati sifatida keltirsa, ikkinchi misrada ularning ma'nosini rivojlantiradi. Natijada *dard – dard, dog' – dog'* tarzidagi qaytish baytning ikki misrasini semantik jihatdan bir-biriga bog'laydi."Dard" so'zi oshiqning ruhiy iztirobini, "dog'" esa ishqdan qolgan ruhiy izni bildiradi.

Ikkinchi misrada esa "dog'"ning "saltanat", "dard"ning "sihhat" bilan bog'lanishini hosil qilinadi. Ya'ni ishqdagi dard oddiy kasallik emas, balki oshiq uchun ma'naviy boylik va hatto "sihhat"ga teng hodisa sifatida talqin qilinadi. Shunday qilib, rad san'ati bu baytda ikki misra orasidagi mazmuniy ko'prik vazifasini bajargan. Takrorlangan so'zlar yangi kontekstda yangi ma'no qirralarini hosil qiladi.

Rad san'atining eng yorqin namunalaridan yana biri 18-g'azalning matla'sida uchraydi: "Tushkali qadding havosi boshima avbosh aro, Bosh aro kestim alif yozg'an alifdek bosh aro." [1]. Bu ikki misrada "bosh" so'zi bir necha o'rinda takrorlangan: boshima – Bosh aro – bosh aro. Bu takror ayniqsa diqqatga sazovor, chunki birgina bayt ichida bir so'z uch xil vaziyatda ishlatilmoqda.

Birinchi misradagi "boshima" lirik qahramonning jismoniy va ruhiy holatini ifodalaydi. Ikkinchi misraning boshida

kelgan "Bosh aro" esa takror orqali birinchi misradagi mazmunni davom ettiradi. Misraning oxiridagi "bosh aro" takrorni yakunlab, baytga o'ziga xos ritmik halqa beradi. Bu yerda rad san'atining ikki muhim vazifasini ko'rish mumkin. Birinchisi – ta'kid: "bosh" so'zining ketma-ket qaytarilishi o'quvchi e'tiborini aynan shu tushunchaga qaratadi. Ikkinchisi – ohangdorlik: "boshima – Bosh aro – bosh aro" ketma-ketligi tovush va ritm jihatidan baytning musiqiyligini kuchaytiradi.

Navoiy uchun takror shunchaki tashqi bezak emas. U ko'pincha oshiqning iztirobi, hayrati, ishqiy kechinmasi yoki ichki ruhiy holatini kuchaytiradi. Shu jihatdan rad san'ati shoirning psixologik tasvir vositalaridan biri sifatida ham namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Navodir ush-shabab. I qism [Elektron resurs]. – Kirish rejimi: www.ziyouz.com.
2. Is'hoqov Y. So'z san'ati so'zligi. – Toshkent: O'zbekiston, 2014.
3. Rahmonov N. Navoiyning ijodiy faoliyati: o'quv-uslubiy majmua. – Toshkent, 2017.
4. Atoulloh Husayniy. Badoyi' us-sanoyi' / Ma'sul muharrir: A. Rustamov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981.

Gulbaxor NABIYEVA,
Andijon davlat chet tillari instituti
nemis tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasi

ZAMONAVIY NEMIS TILIDA TO'SIQSIZ KOMMUNIKATSIYANING DISKURSIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy nemis tilida to'siqsiz kommunikatsiyaning diskursiv-pragmatik xususiyatlari tadqiq etiladi. To'siqsizlikning kommunikativ qiymati lisoniy birlikning formal soddaligi bilan emas, balki axborotning adresat tomonidan qabul qilinishi, to'g'ri anglanishi va kommunikativ maqsadga muvofiq qo'llanish imkoniyati bilan belgilanadi.
Kalit so'zlar: to'siqsiz kommunikatsiya, diskurs, pragmatika, adresat, kommunikativ to'siq, tushunarlilik, pragmatik samaradorlik.
Annotation. The article examines the discursive-pragmatic features of barrier-free communication in the modern German language. The communicative value of accessibility is determined not by the formal simplicity of the linguistic unit, but by the addressee's ability to receive and correctly understand information, and to apply it in accordance with the communicative goal.
Keywords: barrier-free communication, discourse, pragmatics, addressee, communicative barrier, comprehensibility, pragmatic efficiency.
Аннотация. В статье исследуются дискурсивно-прагматические особенности безбарьерной коммуникации в современном немецком языке. Коммуникативная ценность безбарьерности определяется не формальной простотой языковой единицы, а возможностью восприятия, правильного понимания информации адресатом и её использования в соответствии с коммуникативной целью.
Ключевые слова: безбарьерная коммуникация, дискурс, прагматика, адресат, коммуникативный барьер, понятность, прагматическая эффективность.

Zamonaviy kommunikativ makonda axborotning mavjudligi uning barcha adresatlar uchun bir xil darajada ochiq va tushunarli ekanini anglatmaydi. Matn leksik va grammatik jihatdan me'yoriy tuzilgan bo'lishi mumkin, biroq terminologik murakkablik, sintaktik zichlik, implisit axborotning ko'pligi yoki adresatning bilim darajasi hisobga olinmasligi kommunikativ to'siqni yuzaga keltiradi [1: 2]. Shu sababli to'siqsiz kommunikatsiyani faqat til birliklarini soddalashtirish bilan tenglashtirish uning funksional mohiyatini to'liq ochib bermaydi.

Maqolada to'siqsizlik axborotning turli kommunikativ guruhlar tomonidan teng darajada idrok etilishi, tushunilishi va samarali qo'llanishini ta'minlovchi ko'p komponentli kategoriya sifatida tavsiflangan. Mazkur masala diskursiv nuqtayi nazardan alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bir diskurs uchun maqbul bo'lgan lisoniy yechim boshqa kommunikativ muhitda aynan shu natijani bermasligi mumkin. Huquqiy diskurs aniqlik va normativ mazmunning saqlanishini, ma'muriy diskurs amaliy harakatlarning tushunarli ifodalanishini, ta'limiy diskurs bilimning bosqichma-bosqich o'zlashtirilishini, tibbiy kommunikatsiya axborotning aniq anglanishini, raqamli diskurs esa axborotga tezkor kirish va undan foydalanish imkoniyatini talab qiladi [2: 4]. Shu bois to'siqsizlikning pragmatik qiymati diskursning kommunikativ vazifasi bilan uzviy bog'liq.

Bu jihatdan *Vereinfachung* va *Barrierefreiheit* tushunchalarini farqlash muhimdir. Vereinfachung lisoniy murakkablikni kamaytirishga qaratilgan jarayonni anglatsa, Barrierefreiheit kommunikativ jarayonning funksional natijasini ifodalaydi [1: 3]. Shuning uchun soddalashtirilgan har qanday matn avtomatik ravishda to'siqsiz matnga aylanmaydi. Terminologiyaning haddan tashqari soddalashtirilishi, masalan, huquqiy yoki ilmiy mazmunning aniqligini pasaytirishi va adresatda noto'g'ri interpretatsiyani yuzaga keltirishi mumkin.

Tadqiqot materiali sifatida zamonaviy nemis tilidagi huquqiy, ma'muriy, ta'limiy, tibbiy hamda raqamli kommunikatsiyaga xos matnlarda qo'llanadigan to'siqsizlikni ta'minlovchi lisoniy vositalar olindi. Materialni tahlil qilishda diskursiv-pragmatik, kontekstual-semantik va funksional tahlil usullaridan foydalanildi. Asosiy e'tibor lisoniy birlikning alohida shakliga emas, balki uning muayyan kommunikativ vaziyatda adresat uchun qanday funksional natija hosil qilishiga qaratildi [1: 2].

Tahlil natijalari to'siqsiz kommunikatsiyaning pragmatik qiymati avvalo adresat omili bilan belgilanishini ko'rsatdi. Bir xil mazmun turli adresat guruhlariga yo'naltirilganda uning lisoniy shakllanishi ham o'zgaradi. Masalan, huquqiy matnda *Der Antrag ist innerhalb von vier Wochen einzureichen* shakli normativ aniqlikni ta'minlaydi. Biroq huquqiy terminologiyani yetarli darajada egallamagan adresat uchun *Sie müssen den Antrag innerhalb von vier Wochen einreichen* shakli kommunikativ jihatdan qulayroqdir. Ikkinchi variantda mazmun o'zgarmaydi, lekin adresat va bajarilishi lozim bo'lgan harakat o'rtasidagi munosabat eksplisitlashadi.

Bu holatda to'siqsizlik grammatik strukturaning oddiylashtirilishidangina kelib chiqmaydi. Birinchi konstruksiyadagi passiv xarakterli *ist ... einzureichen* shakli ikkinchi konstruksiyada adresatni bevosita ko'rsatuvchi *Sie müssen ... einreichen* strukturasiga o'tadi. Natijada institutsional talab → adresatga yo'naltirilgan ko'rsatma pragmatik siljishi yuz beradi. Axborotning normativ mazmuni saqlanadi, ammo uning kommunikativ bajaruvchisi aniq ifodalanadi [3: 4].

Ta'limiy diskursda mazmunni haddan tashqari qisqartirish emas, murakkab axborotni kognitiv jihatdan boshqariladigan qismlarga ajratish muhim. Masalan, *Photosynthese bezeichnet die Umwandlung von Lichtenergie in chemisch gebundene Energie durch photoautotrophe Organismen* shakli terminologik jihatdan aniq, ammo boshlang'ich adresat uchun yuqori kognitiv yuk hosil qilishi mumkin. *Pflanzen brauchen Licht. Mit Hilfe des Lichts stellen sie Stoffe her, die sie zum Leben brauchen. Dieser Vorgang heißt Photosynthese* shaklida esa tushuncha bosqichma-bosqich ochiladi. Bu yerda ilmiy tushuncha bekor qilinmaydi; aksincha, termin unga olib boruvchi semantik izchillik oxirida kiritiladi. Natijada, **ma'lum axborot → yangi belgi → termin** ketma-ketligi hosil bo'lib

Masalan, *Die Veranstaltung findet nicht statt, da der Referent erkrankt ist* jumlasini *Die Veranstaltung findet nicht statt. Der Referent ist krank* shaklida berish formal jihatdan soddaroqdir. Biroq birinchi variantdagi *da* konnektori sabab munosabatini eksplisit ko'rsatadi, ikkinchi variantda esa ushbu bog'lanishni adresatning o'zi tiklashi kerak. *Die Veranstaltung findet nicht statt. Der Grund ist: Der Referent ist krank* shakli esa sintaktik

soddalikni saqlagan holda sabab-natija munosabatini ham ochiq ifodalaydi. Demak, to'siqsizlikda **formal soddalik va semantik eksplisitlik bir-birini to'ldirishi** zarur.

Bu munosabatni turli diskurslarda quyidagicha umumlashtirish mumkin: huquqiy kommunikatsiyada **tushunish + normativ aniqlik + huquqiy harakat**, ma'muriy kommunikatsiyada **tushunish + ko'rsatmaning aniqligi + amaliy harakat**, ta'limiy kommunikatsiyada **tushunish + mantiqiy bog'lanish + bilimni o'zlashtirish**, tibbiy kommunikatsiyada **tushunish + terminologik aniqlik + axborotdan to'g'ri foydalanish**, raqamli kommunikatsiyada esa **tushunish + navigatsion aniqlik + funksional harakat** munosabati ustuvorlik qiladi.

Tahlil natijalari zamonaviy nemis tilida to'siqsiz kommunikatsiyaning diskursiv-pragmatik xususiyatlari adresat, kommunikativ maqsad va diskurs turining o'zaro munosabati asosida shakllanishini ko'rsatdi. To'siqsizlik matnni formal jihatdan soddalashtirish bilangina emas, balki tushunarlilik, mazmuniy aniqlik va pragmatik samaradorlikning uyg'unligi bilan belgilanadi [1: 2].

Huquqiy diskursda normativ aniqlik, ma'muriy diskursda amaliy harakatning tushunarliligi, ta'limiy diskursda bilimni izchil o'zlashtirish, tibbiy diskursda termin va uning izohi o'rtasidagi muvozanat, raqamli kommunikatsiyada esa axborotni topish va undan foydalanish imkoniyati to'siqsizlikning yetakchi funksional belgilarini tashkil etadi [2: 3].

Nemis tilidagi *Der Antrag ist innerhalb von vier Wochen einzureichen → Sie müssen den Antrag innerhalb von vier Wochen einreichen*, *Hypertonie → Hypertonie. Das bedeutet, dass Ihr Blutdruck dauerhaft zu hoch ist*, *Weiter → Weiter zur Anmeldung* kabi misollar kommunikativ g'ovni kamaytirishda turli lisoniy operatsiyalar talab qilinishini ko'rsatdi. Bunda adresatni eksplisitlashtirish, terminni izohlash, harakatni konkretlashtirish va kommunikativ natijani oldindan ko'rsatish asosiy pragmatik vositalar sifatida namoyon bo'ladi [3: 4].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maaß C. Leichte Sprache. Das Regelbuch. – Berlin: Dudenverlag, 2015.
2. Bredel U., Maaß C. Leichte Sprache. Theoretische Grundlagen. Orientierung für die Praxis. – Berlin: Dudenverlag, 2016.
3. Bock B.M. Leichte Sprache – Kein Regelwerk. – Leipzig: Frank & Timme, 2014.
4. Rink I. Rechtskommunikation und Barrierefreiheit. – Berlin: Frank & Timme, 2020.
5. Weinrich H. Textgrammatik der deutschen Sprache. – Hildesheim: Georg Olms Verlag, 2001.

Madina BOBOMURODOVA,
Qarshi davlat universiteti magistranti

LUTFIYSHUNOSLIKNING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada XV asr o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili Mavlono Lutfiy adabiy merosining o'rganilish tarixi, manbaviy asoslari hamda lutfiyshunoslikning shakllanish va taraqqiyot bosqichlari tahlil qilinadi. Lutfiy hayoti va ijodiga oid ma'lumotlarning Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari, tazkiralar va boshqa tarixiy-adabiy manbalarda aks etishi yoritiladi. Shuningdek, XIX–XX asrlardan boshlab o'zbek va xorijiy adabiyotshunoslikda shoir devoni va lirik merosining o'rganilishi, qo'lyozma nusxalarining qiyosiy-matniy tadqiqi hamda nashrlar tarixi umumlashtiriladi. Tadqiqotda Lutfiy devonining matniy tafovutlarini aniqlash, ilmiy-tanqidiy matnini yaratish va hali to'liq o'rganilmagan lirik namunalarni ilmiy muomalaga kiritish lutfiyshunoslikning dolzarb vazifalari sifatida ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: Lutfiy, lutfiyshunoslik, manbashunoslik, matnshunoslik, devon, qo'lyozma nusxalari.

Annotation. This article examines the history and source foundations of the study of the literary heritage of Mavlono Lutfi, a prominent representative of 15th-century Uzbek classical literature, as well as the stages of formation and development of Lutfi studies. It highlights information about Lutfi's life and literary activity preserved in the works of Alisher Navoi and Zahiriddin Muhammad Babur, biographical anthologies, and other historical and literary sources. The article also summarizes the study of the poet's divan and lyrical heritage in Uzbek and foreign scholarship from the 19th–20th centuries onward, with particular attention to the comparative textual study of manuscript copies and the history of their publication. The research identifies the textual differences among manuscripts of Lutfi's divan, the preparation of a critical scholarly text, and the introduction of previously understudied lyrical works into scholarly circulation as important tasks of contemporary Lutfi studies.

Keywords: Lutfi, Lutfi studies, source studies, textual criticism, divan, manuscript copies.

Аннотация. В статье рассматриваются история и источниковедческие основы изучения литературного наследия Мавлоно Лутфий, выдающегося представителя узбекской классической литературы XV века, а также этапы формирования и развития лутфиведения. Освещаются сведения о жизни и творчестве Лутфи, содержащиеся в произведениях Алишера Навои и Захириддина Мухаммада Бабура, тазкире и других историко-литературных источниках. Обобщаются результаты изучения дивана и лирического наследия поэта в узбекском и зарубежном литературоведении начиная с XIX–XX веков, особое внимание уделяется сравнительно-текстологическому исследованию рукописных списков и истории их публикации. В качестве актуальных задач современного лутфиведения определяются выявление текстовых разночтений рукописей дивана Лутфи, подготовка научно-критического текста и введение в научный оборот ранее недостаточно изученных образцов лирического наследия поэта.

Ключевые слова: Лутфи, лутфиведение, источниковедение, текстология, диван, рукописные списки.

Turkiy hamda fors-tojik adabiyotining zabardast vakillari qatoridan munosib o'rin olgan Maliku-l-kalom – Lutfiyi Shoshiy o'zbek mumtoz adabiyotining taniqli namoyondalaridan biridir. U XV asr o'zbek adabiy tilining shakllanish jarayonida muhim badiiy-estetik bosqichni ifodalab, keyingi adabiy taraqqiyot uchun mustahkam zamin yaratgan ijodkor sifatida e'tirof etiladi. Shoir adabiy merosining o'rganilishi adabiyotshunoslikda murakkab va uzluksiz jarayon bo'lib, bu jarayon tarixiy-manbaviy, matnshunoslik hamda poetik yo'nalishlarda olib borilgan tadqiqotlarni o'z ichiga oladi. Biz shoirning hayoti hamda ijod yo'li haqida zamondosh shoirlar, shogirdlari, u bilan suhbatda bo'lgan ijodkorlarning asarlari, qolaversa, tazkiralar orqali bilib olamiz. Lutfiy hayoti va ijodiga oid dastlabki ma'lumotlar o'rta asr tazkiralari hamda tarixiy-adabiy manbalarda uchraydi.

Lutfiyshunoslikka oid dastlabki va eng qimmatli manbalar mir Alisher Navoiyning asarlaridan o'rin olgan. Mavlono Lutfiyning "Malik ul-kalom" deya sifatlanganligi uning yuksak ma'naviy va badiiy ijodi orqali ko'rinadi. Navoiy o'zining asarlarida Lutfiyning nozik didini shunday ta'riflaydi: *"...o'z zamonining malik ul-kalomi erdi, forsiy va turkiyda naziri yo'q erdi, ammo turkiyda, shuhrati ko'prak erdi va turkcha devoni ham mashhurdur..."*

Navoiyning "Majolisu-n-nafois" asarida shoirning "Zafarnoma"ni tarjima qilganligi, asar hajmi o'n ming baytligi, shuningdek, to'qson to'qqiz yoshida "Oftob" radifli g'azalini yozgani aytib o'tilgan. Mazkur asarda Lutfiyni darvesh edilar deya e'tirof etib, Mavlono Shahobiddin Xiyoboniydan zohiriy ilmdan tahsil olgani, uning yonida yurib so'fiylik tariqatida darveshlik hayotini tutganligi hamda qabri Dehikanor shahrida, o'zining hovlisida ekanligi haqida muhim ma'lumotlar beriladi.

Yuqorida ko'rib o'tganlarimiz lutfiyshunoslikda muhim manba hisoblanadi. Bo'lajak tadqiqotlar uchun, bu ma'lumotlar orqali shoirning yana bir qirrasi ochib beriladi. Qolaversa, Alisher Navoiy Mavlononing zamondosh shoirlaridan hamda shogirdlari ham sanaladi. Bundan tashqari Navoiyning "Holoti Muhammad Pahlavon" asarida Lutfiyni tilga olib o'tgan. Asardagi mazmun shundan iboratki, kunlardan bir kuni Muhammad Pahlavon Alisher Navoiyning turkchada yaxshi she'r bitishini va nazmda tengi yo'qligini, bunga tan berishini aytib o'tadi-da undan so'raydi seningcha turkiygo'y shoirlardan kimning she'rlari yaxshi hamda Navoiy yoqtiradigan shoir kimligini so'raydi. Navoiy unga "Maliku-l-kalom" deya Lutfiyni ta'riflab, maqtaydilar.

Navoiyning yana bir asari "Nasoyimu-l-muhabbat" asarida Lutfiy haqida so'z yuritilgan bo'lib, shunday deyilgan: "shoirlikda mashhurlikka erishgan bo'lsa-da, darveshlik yo'lida ham sobit turdi". Bundan tashqari, shoir va hazrat Jomiy o'rtasida bo'lib o'tgan suhbat berilgan. Ul hazrat Jomiy Mavlononing bitgan tatabbu'siga javoban Lutfiyning sharafiga ham qasida bitaman deganlarida Mavlono Lutfiy Jomiyning egnidagi eski to'nini so'raydi. Hazrat Jomiy bo'lsa, shu zahoti ustidagi chakmonini yechib beradi. Mavlono shoir bo'lishiga qaramasdan, haq yo'lida sobitqadamligini, darveshlik xislatini ham o'zida mujassam etganligini guvohi bo'lishimiz mumkin.

Qolaversa, Lutfiy hamda Jomiy o'rtasidagi bahsga ham qoyil qolmaslikning iloji yo'q, negaki bu o'rinda Lutfiyning naqadar kamtarligini, Yoshi ulug' bo'lishiga qaramasdan Jomiyning eski choponini berishini so'raydi. Bu o'rinda Mavlononing yosh iste'dodli shoirlarga rahnamoligi yaqqol ko'rinadi. Mazkur asarlar asosida biz Lutfiy prototipini aksar qismini tiklashga sazovor bo'ldik. Uning shaxsiyati, adabiy merosi haqida deyarli bilimga ega bo'ldik. Navoiy asarlaridan tashqari, boshqa tarixiy-adabiy manbalarda ham shoir hayotiga doir qimmatli ma'lumotlar uchraydi.

Shoir va olim Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida ham Lutfiy to'g'risida bir qator ma'lumotlar berib o'tilgan. Bobur "Aruz risolasi" asarida Lutfiyning lirikasidagi ma'no

nozikliklariga hamda aruz vaznining turli bahrlaridan mukammal foydalanganligiga to'xtaladi. Mazkur risolada Lutfiyning g'azallaridan 30 bayt hamda bitta tuyug'idan namunalar keltiriladi. Ushbu baytlar aynan Lutfiy devonining Parij nusxasida mavjudligi e'tiborga molikdir. Bu baytlar Boburning fikrlariga dalil sifatida berib o'tiladi.

Shuningdek, bu o'rinda Lutfiy ijodida aruz vaznining bir qancha bahrlarida ijod qilganligi, aruzning naqadar mukammal she'riy tizimligini ham ko'rsatib o'tgan. Chunonchi, hazaj bahrining axrabi makfufi maqsur vazniga *"Ey menglari filfil, ko'zlari kofir, yuzi kofur, Asru dag'i bo'lma bu kechar husnugga mag'rur..."[1: 33]* baytini dalil sifatida berib o'tadi. Hazajning axrabi makfufi maxzuf vazniga bo'lsa, *"Ey qoshi qaro, bog'i visoling havasidin, Har kirpigimizning arosinda arosi bor..."* baytini keltirib o'tadi. *"Oy yuzung hijl, husn eli Rumu Chin aro, Valvala soladi ko'zlaring kofiru ahli din aro..."* ushbu misralarni rajaz bahrining bir rukni matviy, bir rukni maxbun vaznining tahlili uchun keltirib o'tadi.

Muzori' bahrining axrabi makfufi mahzuf vaznini izohlar ekan Lutfiydan "Nozukluk ichra yo'q tori gisuyi, O'z haddini bilib belidan o'lturur quyi..." baytini dalil uchun keltirib o'tadi. Shu kabi bir qancha baytlarni Boburning "Aruz risolasi" asarida ko'rishimiz mumkin. Bundan ko'rinadiki shoir bir qancha bahrlarda samarali ijod qilgan, uning ma'no nozikliklari bilan yo'g'rilgan lirik merosi o'rganilishi bugungi adabiyotshunoslikda dolzarb masalalaridan biri bo'lmoqda. Matnshunos hamda manbashunoslar o'ta sinchkovlik bilan o'rganishi, ilmiy-tanqidiy munozalar olib borishi juda muhim sanaladi.

Fors-tojik tilida yozilgan "Tazkirayi Muhammad Boqir" asarida ham Lutfiyga oid o'rinlar uchraydi. Mazkur tazkirada bitilgan fikrlar Navoiyning "Nasoyimu-l-muhabbat" hamda "Majolisu-n-nafois" asarlarida keltirilgan lavhalarga o'xshash. Shuningdek, Muhammad Boqir Lutfiy haqida so'z yuritar ekan, Mavlononi "Shoirlikda tanilgan bo'lsa-da, darveshlikda zamondoshlarining peshqadami edi" deya ta'kidlab o'tadi.

XIX–XX asrlardan e'tiboran Lutfiy merosi o'zbek adabiyotshunosligi doirasida kengroq ilmiy tahlil obyektiga aylandi. Lutfiy ijodini tizimli monografik planda o'rganish va qo'lyozma nusxalarini ilk bor qiyosiy-tekstologik tahlildan o'tkazish muammolari S.Erkinov nomi bilan bog'liq.

Mazkur maqolada Lutfiy adabiy merosining o'rganilishi va o'zbek lutfiyshunosligi tarixiy taraqqiyoti bir-biri bilan uzviy bog'liq jarayon ekani ko'rsatildi. Tadqiqotlar ko'lamiga qaramay, shoir turkiy "Devon"i nusxalarining matniy tafovutlari masalasi va devonning yagona ilmiy-tanqidiy matnini yaratish ishlari hali to'liq yakuniga yetmagan. O'zbek lutfiyshunosligi tarixida hali to'liq o'rganilmagan masalalar, jumladan, qo'lyozma nusxalarini keng miqyosda qiyosiy o'rganish, nashr qilingan devonlaridagi xato va kamchiliklarni bartaraf etish hamda fanga ma'lum qilinmagan lirik merosini keng jamoatchilikka e'lon qilish kelgusida alohida fundamental tadqiqotlarni talab etadi. Ushbu maqola mumtoz adabiyotimiz va adabiyotshunoslik nazariyasida Lutfiy merosining o'rganilmagan qirralarini tadqiq etishda tayanch manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmadxo'jayev E. Mavlono Lutfiy. – Toshkent: Fan, 1991.
2. Ahmadxo'jayev E. Turkiy nazmning sehrgari. – Toshkent: Fan, 1992.
3. Ahmadxo'jayev E. Lutfiy qo'lyozma devonining Parij nusxasidagi e'lon qilinmagan g'azallari // Adabiy meros, 1978, №12. – B. 73–88.
4. Lutfiy. Sensan sevarim... / nashrga tayyorlovchilar: S.Erkinov, E.Fozilov, E.Ahmadxo'jayev. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.

Fazliddin MAHMADRAJABOV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti

BADR CHOCHIY MEROSINING O'RGANILISH TARIXI VA ZAMONAVIY TADQIQOT ZARURATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Badr Chochiyning forsiy she'riyat taraqqiyotidagi o'rni, Hindiston yarimorolidagi adabiy muhitga ta'siri, she'rlarining ta'lim jarayonida qo'llanishi hamda devonining qo'lyozma nusxalari va toshbosma nashrlari tahlil qilinadi. Shoir ijodiga oid mavjud tadqiqotlar tanqidiy ko'rib chiqilib, o'zbek tilida uning hayoti va adabiy merosiga bag'ishlangan mustaqil hamda yaxlit tadqiqotning mavjud emasligi ilmiy asosda ko'rsatib beriladi. Tadqiqot doirasida forsiy tazkiralar, qo'lyozma nusxalar va shoir she'rlariga bitilgan sharhlarni kompleks o'rganish Badr Chochiyning hayoti, ijodiy faoliyati va adabiy merosini yanada aniqroq tiklash, ayrim ma'lumotlarni to'ldirish va tuzatish imkonini berishi asoslanadi. Maqolada, shuningdek, shoir devonini fors yozuvidan kirill yozuviga o'girish uning merosini tarixiy vatani – O'zbekistonda qayta tanishtirish va ilmiy muomalaga kiritishning muhim bosqichi sifatida asoslanadi.

Kalit so'zlar: Badr Chochiy, dolzarblik, zarurat, tazkira, qo'lyozma, sharh, matnshunoslik.

Annotation. This article analyzes Badr Chochiy's role in the development of Persian poetry, his influence on the literary environment of the Indian subcontinent, the use of his poetry in the educational process, as well as the manuscript copies and lithographic editions of his divan. Existing studies devoted to the poet's works are critically reviewed, and the absence of an independent and comprehensive study in the Uzbek language dedicated to his life and literary heritage is scientifically substantiated. Within the framework of the study, a comprehensive examination of Persian tazkiras, manuscript copies, and commentaries on the poet's poems demonstrates the possibility of reconstructing more accurately the information concerning Badr Chochiy's life, creative activity, and literary heritage, as well as supplementing and correcting certain data. The article also substantiates that the transcription of the poet's divan from the Persian script into Cyrillic is an important stage in reintroducing his heritage in his historical homeland, Uzbekistan, and bringing it into scholarly circulation.ыыKeywords: Badr Chochiy, Persian poetry, Indian style, tazkira, manuscript, commentary, textual criticism, codicology, literary heritage.

Аннотация. В статье анализируются место и роль Бадриддина Чачия в развитии персидской поэзии, его влияние на литературную среду Индийского субконтинента, использование его стихотворений в образовательном процессе, а также рукописные копии и литографические издания его дивана. На основе критического рассмотрения существующих исследований, посвящённых творчеству поэта, научно обосновывается отсутствие на узбекском языке самостоятельного и целостного исследования, посвящённого его жизни и литературному наследию. В рамках исследования комплексное изучение персидских тазкире, рукописных копий и комментариев к стихотворениям поэта обосновывает возможность более точного восстановления сведений о жизни, творческой деятельности и литературном наследии Бадриддина Чачия, а также дополнения и уточнения отдельных данных. В статье также обосновывается, что перевод дивана поэта с персидской графики на кириллицу является важным этапом в деле повторного представления его наследия на его исторической родине — в Узбекистане — и введения этого наследия в научный оборот.

Ключевые слова: Бадриддин Чачий, персидская поэзия, индийский стиль, тазкира, рукопись, комментарий, текстология, кодикология, литературное наследие.

Har qanday ilmiy tadqiqotning muvaffaqiyati, avvalo, unda tanlangan mavzuning dolzarbligi va ilmiy zaruratini asoslash bilan bog'liq. Ushbu maqola "Badr Chochiy lirik merosi: matn, uslub va poetika muammolari" nomli dissertatsiya tadqiqotining nazariy asoslarini, ya'ni aynan Badr Chochiy shaxsiyati va adabiy merosini tadqiq etish zaruratini yoritishga bag'ishlangan.

Badr Chochiy hijriy-qamariy VIII asr (milodiy XIV asr) shoirlaridan bo'lib, mavjud ma'lumotlarga ko'ra, Choch, ya'ni bugungi Toshkent shahrida tug'ilib, voyaga yetgan. Biroq u umrining katta qismini Hindiston yarim orolida, Tug'luqiy sultonlar saroyida o'tkazgan.

Badr Chochiy o'z davrining ko'zga ko'ringan shoirlaridan biri bo'lib, uning adabiyotdagi o'rni va merosini o'rganish fors she'riyatining Hindiston yarim orolidagi taraqqiyot yo'lini hamda keyinchalik "hind uslubi" nomi bilan aniq va o'ziga xos tarzda namoyon bo'lgan poetik yo'nalishning shakllanishi va yoyilishi zaminini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Uni keyinchalik "hind uslubi" nomi bilan tanilgan oqimning ilk vakillaridan biri sifatida ko'rish mumkin. Shu sababli uning she'riy xususiyatlari, bayon uslubi, mavzu doirasi va badiiy vositalarini o'rganish qadimgi qasidanavislik an'anasi bilan keyingi davr she'riyati taraqqiyoti o'rtasidagi bog'liqlikni yoritishda muhim ahamiyatga ega.

Badr Chochiyning ahamiyati faqat uning fors she'riyati tarixidagi yangiliklari va tutgan o'rni bilan cheklanmaydi, balki uning Hindiston yarim orolidagi adabiy muhitga ko'rsatgan keng ta'siri ham unga bo'lgan ilmiy e'tiborni yanada oshiradi. Uning she'rlari Hindistonda shu qadar qadrlangan va shuhrat qozonganki, Badr Chochiy yarim orolda fors tilida ijod qiluvchi shoirlar orasida adabiy namuna, shuningdek, shoirlarni baholash va o'qitish uchun mezon sifatida tan olingan. Bundan tashqari, uning devoni va she'rlari faqat adabiy-ilmiy davralardagina emas, balki Hindiston yarim orolida fors tilini o'rganish va o'qitish jarayonida ham qo'llanilgan. Bu holat shoir ijodining adabiy qadr-qimmati bilan bir qatorda, ta'limiy jihatdan ham muhim manba sifatida foydalanilganini ko'rsatadi.

Badr Chochiy devonining moddiy qoldiqlari ko'lamdorligi ham uning ushbu madaniy hududdagi ta'siri va mashhurligini tasdiqlaydi. Bugungi kunga qadar uning she'riyatiga oid 130 dan ortiq qo'lyozma nusxa aniqlangan, devoni esa Hindistonning turli shaharlarida kamida to'qqiz marta toshbosma usulida nashr etilgan. Qo'lyozma nusxalar va toshbosma nashrlarning bunday ko'pligi uning asarlariga bo'lgan e'tiborning uzoq vaqt davom etganidan dalolat beradi hamda Badr Chochiyning fors she'riyati tarixidagi o'rni va undan keyingi adabiy oqimlar bilan aloqadorligini qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

На занятиях по русскому языку знакомство с русской культурой чаще всего производится при помощи работы с текстом, в большинстве случаев адаптированным, содержащим информацию об истории Российской Федерации, достопримечательностях страны, отдельных исторических личностях или деятелях науки и искусства, либо художественного произведения русского/русскоязычного автора.

Бесспорно, данный вид работы способен заполнить существующий информационный пробел в знаниях студентов, но требует максимальной вовлеченности в процесс педагога, самостоятельная же работа обучающихся может сводиться в основном к поиску дополнительной информации по сюжету текстового материала либо выполнению заданий по тексту [2, с. 49]. Данный формат деятельности также способен повысить уровень знаний молодежи, однако продуктивность обучения и уровень роста лексической компетенции не будут ярко выражены.

Для повышения мотивации к изучению русского языка, формирования желания говорить на изучаемом языке, преодоления лингвистического барьера молодёжи педагогу желательно привлекать к работе в аудитории произведения искусства – скульптуру, живопись, музыку, танцы, фотографии и т.п. При внедрении в учебный процесс подобного материала у обучающихся складывается определенное видение и понимание русской культуры, учащиеся начинают проводить параллели с традициями и обычаями своей страны, выявлять сходства и отличия в культуре двух народов, и как результат у них рождается желание высказать свои умозаключения, поделиться тем, что их удивило или поразило.

Например, при просмотре русского народного танца-хоровода «Берёзка» в исполнении одноимённого Государственного академического хореографического ансамбля им. Н.С.Надеждиной обучающиеся были откровенно поражены специфическим шагом танцевавших девушек. Ребята даже выразили предположение, что на самом деле девушки не идут по сцене, а ездят на роликовых коньках.

Затем внимание студентов привлекла одежда танцующих девушек – традиционный русский сарафан красного цвета, белая вышитая блуза и головной убор с лентами. Конечно, данный сценический костюм является стилизованным, однако красный сарафан очень точно позволяет объяснить этимологическую связь понятий «красный = красивый» [2, с. 49]. Приходит осознание, почему центральная площадь Москвы называется Красная; проводятся параллели со словосочетаниями красна девица, князь Владимир Красно Солнышко (с ним студенты знакомы после просмотра цикла мультипликационных фильмов о трех богатырях); задаются вопросы о значении словосочетаний красная строка, Красная Шапочка, красные линии (в политических отношениях) [3, с. 336].

Для закрепления материала педагог может предложить обучающимся заполнить сравнительную таблицу с характерными для России и Узбекистана центральными культурологическими понятиями (табл. 1).

Таблица 1

Страна	РОССИЯ	УЗБЕКИСТАН
Столица		
Достопримечательность		
Климат/погода		
Животное		
Растение/дерево		
Цвет		
Традиционное блюдо		
Основатель литературного языка:		

Как показывает практика, обычно трудностей при выполнении данного задания у обучающихся не возникает. Во время презентации результатов работы они охотно комментируют заполненные ячейки (табл. 2). Так, например, могут сказать, что столица Узбекистана – Ташкент – является более древним городом, чем Москва; достопримечательности Узбекистана звучат в большем количестве, молодёжь при этом охотно делится своими впечатлениями от посещения данных мест, особое внимание уделяется метрополитену – так как данный вид транспорта есть только в столице и многие студенты совсем недавно стали им пользоваться. Или начать делиться семейными традициями приготовления плова и спорить друг с другом, плов какой области более вкусный; озвучивать рецепты других национальных блюд, договариваться о встречах в общежитии или на квартирах для совместного их приготовления.

Таблица 2

Страна	РОССИЯ	УЗБЕКИСТАН
Столица	Москва	Ташкент
Достопримечательность	Кремль, Красная площадь, Эрмитаж…	Метро, Площадь Независимости, музей истории Тимуридов, Регистан…
Климат/погода	холод, снег	жара, солнце
Животное	медведь	верблюд
Растение/дерево	берёза	хлопок
Цвет	красный	голубой
Традиционное блюдо	борщ, блины	плов, самса
Основатель литературного языка:	А.С.Пушкин	А.Навои

Некоторые обучающиеся начинают самостоятельно продолжать сравнительный ряд, включают сюда песни, которые ассоциируются у них с Россией и Узбекистаном: «Катюша», «Матушка-земля» / «Хечкимга бермаймиз сени, Узбекистон» в исполнении Ю.Усмановой, «Улугимсан Ватаним» Севары Назархан и, конечно же, гимн Республики Узбекистан; ребята называют писателей двух стран и пытаются декламировать отдельные стихотворения, говорят о национальных праздниках и т.д.

В завершении данного задания можно вернуться к его началу – русскому народному девичьему хороводу «Берёзка», попросить обучающихся выполнить самостоятельную работу: найти видео и показать национальные узбекские танцы, рассказать о национальном платье/головном уборе, музыкальном инструменте.

Также хорошим материалом лингвокультурологического характера являются пословицы и поговорки. Данный материал обладает многими преимуществами: обучающиеся знакомятся с менталитетом русского народа, проводят параллели со своими пословицами, сравнивают картины мира русскоязычного и узбекоговорящего человека – вся работа, проводимая на пословицах и поговорках, нацелена на формирование и совершенствование лексической компетенции, сравнение прямого и переносного значения, выделение сходства и различий в выражении. Кроме того, пословицы обладают и дидактической функцией: с их помощью мы можем чему-либо научить подрастающее поколение, дать им совет или оказать помощь в сложных ситуациях, указать на наиболее важные вещи и подсказать правильный путь в жизни, при этом не «читая им морали и не нарушая их личные границы», как говорит современная молодёжь, а мягко, через иносказание, направить их энергию и возможности в нужное русло.

В качестве задания ребятам можно предложить провести параллели между пословицами русского и родного языка на определённую тему, сделать перевод с одного языка на другой или при невозможности буквального перевода найти эквиваленты. Данная работа будет способствовать обогащению лексического запаса и расширению кругозора обучающихся.

Бесспорно, подобная работа весьма масштабна и требует от педагога много времени и усилий, однако именно внедрение в учебный процесс лингвокультурологического аспекта позволит повысить интерес к изучаемому языку, а следовательно, более продуктивно формировать и совершенствовать лексическую компетенцию обучающейся молодёжи.

Использованная литература

1. Морозова И.Г. Формирование лексической компетенции на занятиях РКН с помощью квест-технологии // Вестник науки, 2026, №3 (96), т.1 (Тольятти).
2. Морозова И.Г. Лингвокультурологический аспект в обучении русскому языку как иностранному // Til va adabiyot ta'limi, 2023, №12.
3. Морозова И.Г. Некоторые особенности преподавания русского языка в тюркоязычной аудитории / Материалы V Казанского международного лингвистического саммита, 2024.
4. Елькин Д.Ю. Обучение иностранным языкам через лингвокультурологический подход / Материалы республиканской научно-практической конференции «Актуальные проблемы теории языка, лингводидактики и методики», Ташкент, 2026, вып. 4.
5. Каримова И.Х., Худайкулова Ф.Х. Применение интерактивных способов на занятиях по русскому языку в школах // Образование и наука в XXI веке, 2025, № 62-1, т. 2.
6. Shakurbanova N.E. Pedagogical Conditions for the Development of Dialogical Speech when Teaching the Russian Language in a Higher Educational Institution // International Journal of Artificial Intelligence, 2024, №4, t. 3.

Жахонгир УЛМАСОВ,
независимый соискатель Ферганского государственного университета

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТЕМАТИЧЕСКИХ ГРУПП ПАРЕМИЙ УЗБЕКСКОГО И РУССКОГО ЯЗЫКОВ

Аннотация. В статье анализируются базовые тематические группы паремиологического фонда русского и узбекского языков («труд», «семья», «гостеприимство»). На основе данных сборников пословиц и поговорок, а также материалов лингвокультурологии выявляются понятийные, образные и аксиологические компоненты данных концептов. Показано, что паремии выступают не только как отражение бытового уклада, но и как ключевые когнитивно-этические маркеры, отражающие духовный опыт, национальную ментальность и жизненные ценности двух народов.

Ключевые слова: паремия, пословица, лингвокультурология, тематическая группа, картина мира, русский язык, узбекский язык.

Annotatsiya. Maqolada rus va o'zbek tillari paremiologik fondining asosiy tematik guruhlari ("mehnat", "oila", "mehmondo'stlik") tahlil qilinadi. Maqollar va matallar to'plamlari, shuningdek, lingvokulturologiyaga oid materiallar asosida mazkur konseptlarning tushunchaviy, obrazli va aksiologik tarkibiy qismlari aniqlanadi. Paremiya nafaqat kundalik turmush tarzining ifodasi, balki ikki xalqning ma'naviy tajribasi, milliy mentaliteti va hayotiy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim kognitiv-etik markerlar sifatida namoyon bo'lishi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: paremiya, maqol, lingvokulturologiya, tematik guruh, olam manzarasi, rus tili, o'zbek tili.

Annotation. The article analyzes the basic thematic groups of the paremiological fund of the Russian and Uzbek languages ("work," "family," and "hospitality"). Based on collections of proverbs and sayings, as well as materials from linguocultural studies, the conceptual, figurative, and axiological components of these concepts are identified. The study demonstrates that paremias function not only as reflections of everyday life but also as key cognitive and ethical markers that embody the spiritual experience, national mentality, and life values of the two peoples.

Keywords: paremia, proverb, linguoculturology, thematic group, worldview, Russian language, Uzbek language.

Понятийный компонент паремиологического фонда, отражающего тематические группы «труд», «семья» и «гостеприимство», включает в себя ряд ключевых смыслов, зафиксированных в лексикографических источниках. В классическом сборнике В.И.Даля русские паремии о труде определяются через семы «жизненная необходимость», «усилие» и «источник блага» [1, с. 415]. Согласно лингвокультурологической интерпретации, предложенной В.А.Масловой, пословицы наделяются особой ментальной функцией – осмыслением коллективного опыта и передачей этического знания последующим поколениям [2, с. 82]. Тем самым концепт *труд* вписывается в понятийное ядро обеих культур как практический и духовный эквивалент человеческого существования. В когнитивной перспективе паремии репрезентируют переход от бытового наблюдения к глубокому обобщению, что полностью соответствует функциональному содержанию ментальных категорий.

Понятийное пространство анализируемых тематических групп включает также производные значения: в узбекском языке труд неразрывно связан с земледелием, коллективной взаимопомощью (хашар) и уважением к ремеслу. Эта многоплановость показывает, что работа мыслится в языке не только как физическое действие, но и как практический социальный ресурс, обозначающий авторитет человека в социуме. Например, узбекские паремии часто опираются на метафоры земли и урожая: «Меҳнат, меҳнатнинг таги роҳат» («Труд, основа труда – наслаждение»), «Ер ҳайдасанг куз ҳайда, куз ҳайдамасанг юз ҳайда» («Вспашешь землю осенью – получишь урожай, не вспашешь – будешь сто раз пахать») [3, с. 112]. В понимании В.Н.Телии, подобные изречения относятся к базовым культурным константам, формирующим ценностно-смысловые ориентиры русской и узбекской традиций [4, с. 224]. Таким образом, данные группы в языковом сознании конкретизируют картину мира через идеализацию накопленного опыта.

Образный компонент тематической группы «Семья / Родство» выявляется на основе этнолингвистических данных и отражает культурные стереотипы, ментальные модели и эмоциональные оценки. В узбекской паремиологии семья вызывает такие устойчивые ассоциации, как «культ старших», «безусловное почитание родителей», «поколение» (авлод), что свидетельствует о строгой иерархичности восточного общества: «Ота рози – худо рози» («Доволен отец – доволен бог»), «Онанинг кўнгли болада, боланинг кўнгли далада» («Душа матери в ребенке, душа ребенка в степи»). Эти ассоциации демонстрируют, что семья визуализируется через образы безусловного наставничества. В отличие от узбекских паремий, в русской языковой картине мира субконцепт семьи представлен преобладающе через эмоционально-духовные атрибуты сплоченности и взаимной поддержки: «Где любовь да совет, там и горя нет», «В семье не без урода» (как признание неизбежной индивидуальности) [1, с. 314].

Аксиологический компонент тематических групп «Гостеприимство» и «Дружба» обладает ярко выраженной позитивной направленностью, выступая важнейшим этическим регулятором. С положительной стороны узбекское гостеприимство воспринимается как священный долг и проявление высшего благочестия: «Меҳмон отангдек улуғ» («Гость велик, как твой отец»), «Меҳмон келар эшикдан, ризқи келар тешикдан» («Гость входит в дверь, а его доля спускается свыше»). В русской лингвокультуре огромная аксиологическая ценность также придается хлебосольству («Гость в дом – Бог в дом») и верной, испытанной временем дружбе: «Старый друг лучше новых двух», «Не имей сто рублей, а имей сто друзей». В.А.Маслова подчеркивает, что аксиологическая оценка через призму паремиологии позволяет повысить социальный статус человека и придать высший смысл межличностной коммуникации [2, с. 116].

В структуре языковой картины мира проанализированные тематические группы занимают позицию ценностного центра, объединяя понятийный, образный и аксиологический уровни. Понятийный уровень представлен семами трудолюбия, родственного долга и щедрости. Образный уровень сосредоточен на ментально-визуальных реалиях повседневной жизни – земледелии, домашнем очаге, застолье. Аксиологический уровень формирует положительный спектр оценок (уважение, авторитет, верность), преодолевающий негативные пороки лени, эгоизма и скупости. Таким образом, паремии неразрывно

связаны с национальной ментальностью, конкретизируя ее духовно-нравственную сторону и структурируя пространство смыслов, связанных с социальным поведением.

Сравнительный анализ показывает, что в отличие от русских паремий, которые репрезентируют преимущественно преодоление суровых природных условий, эмоциональную общность и эгалитарную дружбу, узбекские пословицы отражают ментальную и ценностную сущность земледельческого уклада, строгой внутрисемейной иерархии и традиций сакрального почитания гостя. Паремии фиксируют результат многовекового духовного развития каждого народа. Если русские пословицы часто акцентируют внимание на духовной сплоченности как условии выживания, то узбекские – на иерархическом уважении и коллективном долге.

Использованная литература

1. Даль В.И. Пословицы русского народа. М.: Астрель, 2000.
2. Маслова В.А. Лингвокультурология. М.: Академия, 2001.
3. Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Хикматнома: Ўзбек мақолларининг изоҳли луғати. Тошкент: Ўзбек совет энциклопедияси, 1990.
4. Телия В.Н. Русская фразеология: Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. М.: Языки русской культуры, 1996.
5. Караматов Г.Х. Узбекские пословицы и поговорки. Т.: Фан, 1985.

Mahliyoxon UMURZOQOVA,
Uzbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi,
"Marifat" targ'ibotchilar jamiyati azosi

ZAMONAVIY SHERIYATDA FOLKLOR ANANALARINING BADIIY TRANSFORMATSIYASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatida folklor an'analarining badiiy transformasiyasi, xalq og'zaki ijodi motivlari va obrazlarining shoirlar ijodida tutgan o'rni tahlil qilingan. Xususan, shoir Yo'ldosh Eshbekning "Vatan ozodligi" va "Baliq" she'rlari misolida folklorizmning poetik xususiyatlari, ramzlar talqini hamda zamonaviy muammolarni ochib berishdagi ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan yoritib berilgan.
Kalit so'zlar: folklorizm, zamonaviy she'riyat, badiiy transformasiya, epik obraz, mifopoetik qarashlar, ramz, lirik qahramon, milliy o'zlik.
Annotation. This article analyzes the artistic transformation of folklore traditions in modern Uzbek poetry, focusing on the role of oral folk art motifs and imagery in the works of contemporary poets. Specifically, through the analysis of Yuldosh Eshbek's poems "Vatan ozodligi" (Freedom of the Motherland) and "Baliq" (The Fish), the study examines the poetic features of folklorism, the interpretation of symbols, and its significance in revealing modern socio-spiritual issues from a scientific and theoretical perspective.
Keywords: folklorism, modern poetry, artistic transformation, epic image, mythopoetic views, symbol, lyrical hero, national identity.
Аннотация. В статье анализируется художественная трансформация фольклорных традиций в современной узбекской поэзии, а также исследуется роль мотивов и образов устного народного творчества в лирике поэтов. На примере стихотворений Юлдаша Эшбека «Vatan ozodligi» («Свобода Родины») и «Baliq» («Рыба») в научно-теоретическом плане освещаются поэтические особенности фольклоризма, интерпретация символов и его значение в раскрытии актуальных проблем современности.
Ключевые слова: фольклоризм, современная поэзия, художественная трансформация, эпический образ, мифопоэтические воззрения, символ, лирический герой, национальное самосознание.

Folklorda xalqning hayoti, urf-odatlari, orzu-umidlari o'z aksini topadi. Folklorizm – xalq og'zaki ijodining adabiyotda obraz, g'oya, uslub, tarkibiy tuzilish kabi ko'rinishlarda qayta jonlanishi, zamonaviy shaklda taqdim etilishidir. Milliylik, xalqning ma'naviy merosi, qadimgi til va obrazlarga murojaat qilish adabiyotda yangicha usul va uslublarni namoyon qiladi.

Folklorizmda ishlatilgan obrazlar ko'pincha qiyoslash vositasi orqali tabiat yoki inson xislatlari bilan taqqoslanib, ularning ta'sir doirasi kuchaytiriladi. Adabiyotshunos Suvon Meli obraz botinidagi qiyosning rango-rang tovlanishlarini, nozikliklarini ilg'ash va mantiq tilida bayon qilish, shubhasiz, har qanday badiiy asarning ma'no-estetik ko'lamini kengaytirishini ta'kidlaydi. Demak, kechagi davr va bugungi hayotning taqqosi folklor an'analaridan foydalanishda teranroq ko'rinadi.

Filologiya fanlari doktori Laylo Sharipova folklorning bir davr yoki bir ijodkor ijodiga jiddiy ta'siri ular uslubida o'z ifodasini topishini aytadi. Shu ma'noda, o'zbek she'riyatida folklor elementlari turli davrlarda turlicha namoyon bo'lganini ko'rish mumkin. Masalan, Navoiy, Bobur kabi klassik shoirlar xalq afsonalari, epik syujetlar va rivoyatlarga murojaat qilgan bo'lsa, jadid adabiyotida folklor xalqning ruhini ko'tarish, milliy o'zlikni anglashning asosi sifatida talqin qilingan. Sovet davrida xalq og'zaki ijodidan ideologik maqsadlarda foydalanilgan va u qayta ishlangan. Mustaqillik davrida esa milliylik va xalqona ruh yanada jonlanib, she'riyatda folklorga murojaat kuchayib bordi.

O'zbek she'riyatida folklorizm xalqning boy ma'naviy merosini saqlash, rivojlantirish va zamonaviy she'riyatga tatbiq qilish vositasidir. Yo'ldosh Eshbek she'rlarida folklor sintezi, doston va klassik obrazlarning yangi shaklda ishlatilishi, mifopoetik qarashlarning ta'siri yaqqol ko'rinib turadi. L.Sharipova turli shoirlar ijodini folklor an'analariga murojaat qilish yuzasidan tadqiq qilar ekan, Yo'ldosh Eshbekni doimiy ravishda folklorga xos ohang, obraz, badiiy tasvir vositalaridan foydalanadigan shoirlar sirasiga kiritadi. Shoirning "Vatan ozodligi" she'rida ushbu jihatlarning isbotini ko'rishimiz mumkin. She'rdagi har bir misra folklor motivlari va obrazlari bilan boyitilgan:

Bir asr zindonda tutildim "erkin",
Uzga tilda suydim, Vatanim seni.
Zolim zamon zug'umidan qutuldim,
Nasimlar, sabolar uldirar meni.

"Bir asr" iborasi xalq og'zaki ijodidagi giperbolik vaqt ifodasiga xos. Eposlarda "etti kun", "qirq kechayu qirq kunduz", "bir asr", "ming yil" kabi vaqt birliklari ko'p ishlatiladi. Ammo bu yerda sovet istilosi nazarda tutilganini hisobga olsak, vaqtning yaxlitlanishiga ham guvoh bo'lamiz.

"Zindon" so'zi ham epik obrazdir. Bu yerda u ma'naviy asorat, mustamlakachilik zindoni ma'nosida kelyapti. U Alpomish yoki Go'ro'g'lining qamoqqa tushishi kabi epik syujetlarni eslatadi.

"O'zga til" jumlasi esa o'zbek xalqining tarixdagi ruslashtirish siyosatidan aziyat chekkanini bildiradi. Bu kabi og'riqli mavzu folklorda aksariyat hollarda ramzlar orqali ifoda etiladi. "Zolim zamon" iborasi bevosita xalq eposlaridagi zamonasi zulmat davri tasviriga ulanadi. Masalan, "qora kunlar" tushunchasi ham shunga yaqin.

Chohdan chiqqan Alpomish misol edim,
Sog'indim bag'ringda aslingni, seni.
G'ordan, ajdarlardan qutulib ketdim,
Go'zal lahzalaring o'ldirar meni.

Alpomish – epik qahramon, o'zbek xalq dostonlaridagi eng mashhur folklor obrazi. Alpomish chohdan chiqib, yurtini qutqaradi. Ushbu misrada shoir lirik qahramonni ham ana shunday xalq qahramoniga tenglashtirmoqda. Bu folklorizmning yaqqol ko'rinishidir.

"G'or" va "ajdar" obrazlari bevosita xalq eposlari va afsonalaridan olingani ko'rinib turibdi. Ajdarlar zulm, xavf, dushmanni ifoda etadi. Alpomish, Go'ro'g'li yoki boshqa epik qahramonlar ajdar, dev va maxluqotlar bilan kurashadi. Bu obrazlar va kurashlar jarayoni u yoki bu ko'rinishda ertak, she'r va dostonlarga ko'chib yuradi. Qutulish holati esa xalq eposlaridagi syujetlar singari kurash natijasidagi g'alabani bildiradi.

Qanchalar yashadim, qanday qaqshadim,
Bugun sof havolar ko'ksim to'ldirar.
Kecha dor ostida kulib yashadim,
Sevinchli yoshlaring bugun o'ldirar!

Qaqshash – xalq qo'shiqlaridagi ruhiy va jismoniy azob ramzi. "Yetim qaqshadi", "yuragim nimta bo'ldi" kabi iboralar bunga misol bo'la oladi.

Dor, dor osti obrazlari xalq dostonlarida, afsona va rivoyatlarda uchraydigan mag'rurlik, qurbonlik va jasorat timsollaridir. Bu obrazlar ham asardan asarga ko'chib yuradi. Dor – xalq ruhiyatida o'zligiga sodiq qolgan, buning uchun o'limga ham tayyor bo'lgan inson ramzi sifatida gavdalanadi, yashaydi.

Kulib yashash ham milliy qahramonlarga xos holat. Qiyinchilikda ham ruhini yo'qotmagan xalq tasviri aynan shu satrlarda yaqqolroq ko'rinadi. Bu yerda folklorizm qahramonlik, sabr va vatan uchun qurbonlik ruhi orqali ifoda etilgan.

Shoirning to'rt satrdan iborat "Baliq" she'rida folklor elementlari va motivlari yaqqol ko'zga tashlanadi:

Teskari dunyoning o'yiniga boq,
Bepoyon janggohda suzar edim toq.
Qancha yirtqichlardan qoldim-u omon,
O'z qavmim bug'zida bo'lyapman halok!

"Teskari dunyo" – xalq og'zaki ijodiyotida keng uchraydigan voqelik. Dunyo haqiqatlarining izdan chiqqanini shoir aynan shu satrlar bilan ifoda qilyapti. Rivoyatlarda "teskari dunyo" tasviri dunyo va hayotning mutlaq qarama-qarshiligi, jaholat va adolat, yovuzlik va ezgulik to'qnashuvini ko'rsatib turadi.

Keyingi satrda esa shoir o'zini baliq sifatida tasvirlab, xavfli, yirtqichlar bilan to'lgan janggohda tirik qolish uchun kurashayotgan epik qahramon kabi ko'rsatmoqda. Xalq og'zaki ijodida qahramonlar ko'pincha o'z yo'lini "janggoh" orqali topishadi. Qahramonning sinovli umri, turmush kurashi va har bir tirik jonning o'z o'rnini topishga intilishi g'oyasi xulosalanadi.

"Qancha yirtqichlardan qoldim-u omon" satrini qahramonning ichki kurashi ifodasi deyish mumkin. "Yirtqichlar" – xalq og'zaki ijodidagi ajdar, dev, zo'ravon dushmanlarni eslatadi. Ular doim qahramonning yo'lidagi to'siqlardir.

So'nggi satr esa folklor g'oyalarining zamonaviy muammolar orqali ifodalangan talqinidir: "O'z qavmim bug'zida bo'lyapman halok!" Folklorda qahramonlar ko'pincha yot dushmanlarga qarshi kurashadi, ammo bu yerda o'z qavmi, ya'ni yaqinlari, jamiyati, millatdoshlari uni halok qilmoqda.

Shoir "Baliq" she'rida folklor motivlari orqali zamonaviy hayotning murakkab va ziddiyatli voqeliklarini ifodalaydi. Teskari dunyo, janggoh va yirtqichlar kabi obrazlar xalq og'zaki ijodiyotiga tayangan holda, insoniy fojialar va ichki muammolarni ochib beradi.

Yo'ldosh Eshbekning "Vatan ozodligi" va "Baliq" nomli she'rlarida folklorizm ozodlik, erk va sadoqat g'oyasini yanada ta'sirli va chuqur ifoda etish uchun muhim poetik vosita sifatida xizmat qilgani ko'rinadi. She'rlardagi dramatizm xalq og'zaki ijodi an'analari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, erk va inson qadr-qimmati mavzusini markazga olib chiqadi.

Demak, folklor elementlarini zamonaviy she'riyatga uyg'unlashtirish yangi obrazlar va uslublarni yaratishga imkon beradi. Shu tariqa folklorizm o'zbek she'riyatida milliylikni asrab-avaylash, targ'ib qilish va xalqning ijodiy salohiyatini namoyon etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov B. O'zbek adabiyoti tarixi va zamonaviy talqinlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
2. Sharipova L. O'zbek she'riyatida folklor an'analari va badiiy psixologizm. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2020.
3. Meli S. Badiiy idrok jilosi. Adabiy-tanqidiy maqolalar. – Toshkent: Akademnashr, 2019.
4. Eshbek Yo'ldosh. Saylanma. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2021. (Muallifning "Vatan ozodligi", "Baliq" va boshqa she'rlari kiritilgan to'plam).
5. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: O'qituvchi, 1990.
6. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent: Fan, 2004.
7. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. – Toshkent: O'qituvchi, 2006.

Sevinch YUSUPOVA,
Mazmun xalqaro maktabi o'qituvchisi

O'TKIR HOSHIMOV – MOHIR PUBLITSIST

Annotatsiya. Maqolada O'tkir Hoshimovning publitsistik va jurnalistik faoliyati hamda o'zbek publitsistikasi taraqqiyotidagi o'rni tahlil qilinadi. "Sakson ota shahar kezadi", "Non – imon" turkumlari va "Bahs" teleko'rsatuvidagi faoliyati, shuningdek, ijtimoiy-ma'naviy masalalarni yoritishdagi mahorati ko'rib chiqiladi.
Kalit so'zlar: O'tkir Hoshimov, publitsistika, jurnalistika, "Sakson ota shahar kezadi", "Non – imon", "Bahs".
Annotation. The article analyzes O'tkir Hoshimov's journalistic and publicistic activity and his contribution to Uzbek publicism. It examines "Sakson Ota Walks Around the City", "Non – Iymon", and the television program "Bahs", focusing on social and moral issues.
Keywords: O'tkir Hoshimov, publicism, journalism, "Sakson Ota Walks Around the City", "Non – Iymon", "Bahs".
Аннотация. В статье анализируется публицистическая и журналистская деятельность Уткира Хашимова и его роль в развитии узбекской публицистики. Рассматриваются циклы «Саксон ота шаҳар кезади» («Старый старик, а всё учится»), «Нон – имон» («Сначала хлеб, а потом вера») и телевизионная передача «Баҳс» («Спор»), а также освещение социальных и нравственных проблем.
Ключевые слова: Уткир Хашимов, публицистика, журналистика, («Старый старик, а всё учится»), («Сначала хлеб, а потом вера»), («Спор»).

O'tkir Hoshimov o'zbek adabiyotida o'z asarlari bilan mustahkam o'ringa ega ijodkor. Yozuvchi jurnalistikada ham qalamining o'tkirligi bilan iz qoldirgan. Faol jurnalistik faoliyati davomida o'nlab gazeta va jurnallarda ishlagan, ularda bosh muharrir vazifasini o'tagan. Bundan tashqari, televideniyada ham O'tkir Hoshimov boshchiligidagi ko'rsatuvlar efirga uzatilgan. Dastlab yozuvchining gazeta va jurnallardagi mehnat faoliyatini xronologik ketma-ketlikda keltirsak:

1959–1960-yillar – "Temiryo'lchi" gazetasida yetkazib beruvchi;

1960-yilda "Qizil O'zbekiston" gazetasida yetkazib beruvchi;

1960–1962-yillar – "Транспортний рабочий" gazetasida tarjimon;

1963–yilda "Qizil O'zbekiston" gazetasida adabiy xodim;

1963–1966-yillar – "Toshkent haqiqati" gazetasida adabiy xodim;

1966–1982-yillar – "Toshkent oqshomi" gazetasida bo'lim mudiri;

1982–1985-yillar – G'afur G'ulom nomidagi nashriyotda bosh muharrir o'rinbosari;

1985–1995-yillar – "Sharq yulduzi" jurnalining bosh muharriri.

1995-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining Matbuot va axborot qo'mitasi raisi vazifasida ham ishlagan.

Faoliyatini ancha erta boshlagan adib 1959–1960-yillardanoq turli gazetalarga kichik lavha va maqolalarini bera boshlagan. Dastlab maktablardagi o'quvchilar hayoti, turli to'garaklar faoliyatini yoritishga qaratilgan bu xabarlar kelajakda yozilajak yetuk maqolalarga zamin hozirlagan. Umri davomida yozuvchining yuzlab maqolalari gazetxonlarga havola etilgan.

Arxiv materillarni o'rganish davomida O'tkir Hoshimovning 1967-yillarda "Toshkent oqshomi" gazetasida bosilib chiqqan "Sakson ota shahar kezadi" nomli turkum maqolalari e'tiborni tortdi. Bu turkum maqolalar ijtimoiy qusurlarni tanqid ostiga olgan bo'lib, markazda Saksonboy ota obrazi yotadi. Saksonboy ota – keksa otaxon. U goh farzandlarini ko'rib kelish, goh boshqa oilaviy yumushlar sabab shahar ko'chalarini kezar ekan, jamiyatdagi qator kamchilig-u qusurlarga duch keladi. Turkum maqolalarda e'tibor markaziga olingan mavzular garchi kichik masalalar bo'lib ko'rinsa-da, aslida odamlarni muntazam qiynab kelayotgan og'riqli nuqtalardir. O'tkir Hoshimov ushbu turkum maqolalari yordamida aholiga biroz bo'lsa ham yordam qo'lini cho'zishni maqsad qiladi. Zero, toma-toma ko'l bo'lur deganlaridek, kichik ko'mak ham katta madadga asos bo'la oladi.

Yozuvchining "Non – imon" maqolalar turkumi ham ma'naviy-axloqiy muammolarni keng miqyosda, rang-barang aspektlarda ko'rsatib bergani bilan yuqori baholangan. Ushbu turkum doirasidagi "Ishonish qiyin bo'lgan voqea", "Dadam aytib bergan dahshatli hodisa", "Non isi", "Arzon, ammo bebaho", "Non... aroq shishasidan arzonmi?" kabi qator maqolalar bayonning izchilligi, dalillarning ishonarliligi, uslubining ravonligi, dolzarbligi bilan ajralib turadi.

Adibning "Qalbning oppoq daftari", "Muqaddas qasamni buzganlar" singari pedagogika hamda tibbiyot sohasiga bag'ishlangan maqolalari jamoatchilik fikrini shakllantirish, omma ongiga ta'sir etish kabi xususiyatlari orqali publitsistikaning eng asosiy vazifalarini bajarganligi bilan o'z vaqtida ancha shov-shuv bo'lgan, xos vazirliklarda ham muhokama qilingan.

Yozuvchining jurnalistik faoliyatida eng ahamiyatli bosqichlardan birini o'tgan asrning 70-yillarida o'zbek televideniyasi orqali efirga uzatilgan "Bahs" ko'rsatuvi tashkil etadi. O'tkir Hoshimov bu ko'rsatuvga qariyb o'n yil mobaynida rahbarlik qilgan. "Bahs"da hayotimizdagi ham siyosiy, ham ijtimoiy mavzulardan tashqari, oila va muhabbat masalalari keng va qamrovli yoritildi. Hammani qiziqtirgan masalalar unda dadil va hozirjavoblik bilan aytildi. Bu yerda ham O'tkir Hoshimov kimgadir yoqmasligi mumkin degan andishaga bormay, millionlan teletomoshabinlar dilidan tiliga chiqolmay turgan, chirsillagan gaplarni dadil ayta oldi. Bu ko'rsatuvlar O'tkir Hoshimovga katta obro' keltirdi. Teleekran oldida o'tirgan millionlab kishi uni adolat uchun kurashuvchi jasur ijodkor deb baholadilar" [3: 87] deya ham shogirdi, ham do'stining ko'rsatuvini baholagan edi O'zbekiston Qahramoni Said Ahmad.

O'z davri uchun bu ko'rsatuv haqiqatda kutilmagan hamda o'ta diqqatga sazovor hodisa bo'lgan. Ko'pchilikning og'rib azob berayotgan yarasiga darmon-dori bo'lgan desak ham mubolag'a bo'lmaydi. "Bahs" ko'rsatuvi o'z nomidan anglashilganidek, fikrlar to'qnashuvi, turli qarashlarning ochiq ifodasi va muhokamasiga asoslangan edi. Ko'rsatuvning asosiy maqsadi tomoshabinni faqatgina tinglovchi yoki kuzatuvchi sifatida emas, balki faol fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishdan iborat bo'lgan. Unda ko'tarilgan masalalar jamiyatning eng dolzarb nuqtalariga – ma'naviy qadriyatlar, axloqiy mezonlar, yoshlar tarbiyasi, insoniylik va vijdon masalalariga qaratilgan. Shu jihatdan, "Bahs" nafaqat axborot beruvchi vosita, balki ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy minbar vazifasini ham bajargan.

Ko'rsatuvning muhim xususiyatlaridan biri – undagi ochiqlik va samimiyatdir. O'tkir Hoshimov ko'rsatuv davomida jamiyatdagi mavjud muammolarni yashirmasdan, balki ularni dadil va ochiq tarzda muhokamaga qo'ygan. Bu esa o'sha davr ijtimoiy-siyosiy sharoitini inobatga olganda, katta jasorat va fuqarolik pozitsiyasini talab qiladigan hodisa edi. Ko'rsatuvda ko'tarilgan masalalar ko'pincha hayotiy voqealar, real misollar orqali yoritilgani uning ta'sirchanligini oshirgan. Natijada tomoshabinlar o'z hayotida uchrayotgan muammolarni ekranda ko'rib, ularga nisbatan befarq bo'lmaslikka undalgan.

"Bahs" ko'rsatuvining yana bir muhim jihati – uning ijtimoiy rezonans uyg'otish qobiliyatidir. Ko'rsatuv efirga uzatilgan davrda keng jamoatchilik tomonidan faol muhokama qilingan, unda ko'tarilgan masalalar turli qatlam vakillari o'rtasida fikr almashinuviga sabab bo'lgan. Bu esa ko'rsatuvning jamiyat hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatganini anglatadi. Mazkur jihat uni oddiy teleloyiha emas, balki ijtimoiy ongni shakllantiruvchi muhim vosita sifatida baholash imkonini beradi.

Til va uslub nuqtayi nazaridan qaralganda, "Bahs" ko'rsatuvi sodda, ravon va xalqchil ifoda vositalariga boyligi bilan ajralib turadi. O'tkir Hoshimov murakkab ijtimoiy muammolarni ham oddiy va tushunarli tilda bayon eta olgan. Bu esa ko'rsatuvning keng auditoriya tomonidan qabul qilinishini ta'minlagan asosiy omillardan biridir. Adib nutqida obrazlilik, emotsional ta'sirchanlik va mantiqiy asoslanganlik uyg'unlashib, tomoshabinga kuchli ruhiy ta'sir o'tkazgan. Ayniqsa, savol-javob, ritorik savollar, taqqoslash va umumlashtirish kabi publitsistik vositalarning qo'llanishi ko'rsatuvning badiiy-estetik darajasini yanada oshirgan.

Shuningdek, "Bahs" ko'rsatuvini O'tkir Hoshimovning umumiy publitsistik faoliyati bilan uzviy bog'liq holda o'rganish muhimdir. Adibning matbuotdagi chiqishlari, publitsistik maqolalari ham xuddi shu ruhda - jamiyatdagi muammolarni ochib berish, insonni o'ylashga undash, ma'naviy qadriyatlarni himoya qilish g'oyalariga xizmat qilgan. Shu sababli "Bahs"ni yozuvchi ijodining mantiqiy davomi, uning publitsistik qarashlarining televizion ifodasi sifatida baholash mumkin.

Umuman olganda, "Bahs" ko'rsatuvi o'zbek telepublitsistikasida muhim o'rin tutgan, jamiyat hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy-madaniy hodisadir. U orqali O'tkir Hoshimovning nafaqat yozuvchi sifatidagi mahorati, balki uning jurnalistik pozitsiyasi, ijtimoiy mas'uliyati va ma'naviy qarashlari ham yorqin namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, O'tkir Hoshimov haqidagi xotiralarida Said Ahmad uning matbuotdagi chiqishlari haqida ham alohida to'xtaladi: "Totalitar tuzumning oqavasi bijg'ib, oqib turgan bir paytda "O'zbek ishi", "Davlat siri", "Do'stlik hurmatdan boshlanadi" kabi o'nlab maqolalarni yozish uchun katta jasorat kerak edi. O'tkir har qanday zarbadan, hujumlardan qo'rqmay, ba'zan hatto hayotini xavf ostida qoldirib, xalq dilida tug'yon urib turgan gaplarni ochiq oshkora ayta oldi" [3: 236].

Haqiqatan ham, siyosiy jihatdan o'ta murakkab bir davrda bunday mavzularni matbuot orqali ko'tarish ham kimning ham qo'lidan kelavermaydigan ishdir. Ayniqsa, adibning "Sharq yulduzi" jurnalida rahbarlik qilib turgan yillarida "Qur'oni Karim"ning o'zbekcha tarjimasini ikki yildan ortiq vaqt mobaynida bosib chiqarishi favqulodda kamyob jasorat hisoblanadi. Sobiq ittifoq hukumati davrida bunday ishni amalga oshirish uchun O'tkir Hoshimov anchagina kuchli zarbalarga yelkasini tutib berganligi tayin. Zero, u davrlarda Islomning "Kalomi Alloh"ini ommaviy axborot vositalarida nashr ettirish tugul u haqida og'iz ochish yoki parcha keltirish ham ko'pchilikning yostig'ini quritgani hech kimga sir emas. Murakkab tarixiy vaziyatda amalga oshirgan ushbu qahramonona ishi uchun ham O'tkir Hoshimovga bo'lgan muxlislarning samimiy mehri yanada ortib borgan. Negaki, ona xalqining dardiga hamdard, quvonchiga sherik bo'la oladigan, har qanday mushkul sharoitda ham uni himoya qila oladigan ijodkorgina mehrga, izzat-hurmatga sazovor bo'ladi [3: 237].

Yakuniy xulosa sifatida ta'kidlash joizki, O'tkir Hoshimovning jurnalistik faoliyati ijodiy merosining ajralmas va muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Unda adibning publitsistik pozitsiyasi, haqiqatparvarlik tamoyili, ijtimoiy adolatga intilishi hamda xalq manfaatlariga sodiqligi mujassamdir. Mazkur jihatlar esa yozuvchining o'zbek jurnalistikasi va umuman milliy madaniyat taraqqiyotidagi o'rnini yanada mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rasulov A. Ardoqli adib. – Toshkent: Sharq, 2001.
2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2018.
3. Said Ahmad. Yo'qotganlarim va topganlarim. – Toshkent: Sano-standart, 2019.
4. Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.
5. Go'zal Turkiston. Jadid.uz. https://jadid.uz.

Ro'zixon XOLMATOVA,
Oltiariq tumani 15-maktab Ona tili va adabiyot fani o'qtuvchisi

NAZAR ESHONQULNING "SHAMOLNI TUTIB BO'LMAYDI" HIKOYASIDA TOPOXRONOSNING PSIXOLOGIK FUNKSIYASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Nazar Eshonqulning "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasida topoxronosning qahramon ruhiyatini ochishdagi psixologik funksiyasi tadqiq etiladi. Asardagi Tersota qishlog'i, Bayna momoning uyi, uy ichidagi ayrim makoniy detallar hamda o'tmish va hozirgi zamonning tutashuvi qahramonning ellik yilga yaqin davom etgan yolg'izligi, iztirobi, g'azabi, xotirasi va qasos tuyg'ulari bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilinadi. Makonning oddiy geografik muhitdan psixologik makonga aylanishi, vaqtning esa qahramon ongida subyektiv kechishi ko'rsatiladi. Shuningdek, hikoya nomidagi "shamol" ramzining vaqt, taqdir va inson irodasi bilan aloqasi yoritiladi.

Kalit so'zlar: topoxronos, psixologik funksya, badiiy makon, badiiy zamon, Bayna momo, Tersota, ruhiyat, xotira, yolg'izlik, qasos, ramz, modernizm.

Annotation. This article examines the psychological function of chronotope in Nazar Eshonqul's story "Shamolni tutib bo'lmaydi". The village of Tersota, Bayna Momo's house, interior spatial details, and the connection between past and present are analyzed in relation to the heroine's loneliness, suffering, anger, memory, and desire for revenge. The study demonstrates how geographical space becomes psychological space and how literary time acquires a subjective character in the consciousness of the protagonist.

Keywords: chronotope, psychological function, literary space, literary time, Bayna Momo, Tersota, psychological state, memory, loneliness, revenge, symbol, modernism.

Аннотация. В статье исследуется психологическая функция хронотопа в рассказе Назара Эшонкула «Нельзя поймать ветер». Пространство кишлака Терсота, дом Байны-момо, интерьерные детали и соединение прошлого с настоящим рассматриваются в связи с одиночеством, страданием, гневом, памятью и чувством мести героини. Показано, как географическое пространство превращается в психологическое, а художественное время приобретает субъективный характер в сознании персонажа.

Ключевые слова: хронотоп, психологическая функция, художественное пространство, художественное время, Байна-момо, Терсота, душевное состояние, память, одиночество, месть, символ, модернизм.

Badiiy asarda makon va zamon qahramon mavjudligining tashqi shartlari bo'lishi bilan birga, uning ichki dunyosini ifodalovchi faol poetik vosita ham bo'la oladi. Shu jihatdan *topoxronos* tushunchasi adabiy obraz ruhiyatini anglash uchun muhim nazariy kategoriyalardan biridir. Makon va zamonning o'zaro birligi qahramonning hayot yo'li, xotirasi, ruhiy jarohati va ichki ziddiyatlarini badiiy jihatdan mujassamlashtiradi. Nazar Eshonqulning "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasi bunday tahlil uchun alohida imkoniyat beradi.

Hikoya markazida Bayna momo obrazi turadi. Asarning boshlanishidayoq uning uyi Tersota qishlog'ining tarixiy xotirasi bilan bog'langan makon sifatida tasvirlanadi. Uy buzilayotgan paytda qishloq ahli Bayna momoning uzoq va og'ir hayotini eslaydi. Demak, makonning buzilishi oddiy qurilish jarayoni emas, balki kollektiv xotiraning yemirilishi sifatida ham ma'no kasb etadi. Hikoya matnida uy va qahramon taqdiri bir-biridan ajralmas holga keladi.

Tadqiqotning maqsadi – "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasida topoxronosning Bayna momo ruhiyatini ochish, uning xotira va iztiroblarini ifodalash, o'tmish bilan hozirgi zamonni bog'lash hamda ramziy ma'no yaratishdagi funksiyalarini aniqlashdir. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, hikoya haqida ayol obrazi, modernistik psixologizm, folklor va detallar poetikasi nuqtayi nazaridan tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, topoxronosning psixologik funksiyasini alohida markazga qo'ygan yondashuv qahramon ruhiyati va makon munosabatini yangi rakursda ko'rsatish imkonini beradi.

Tadqiqotda psixologik tahlil, poetik tahlil, kontekstual tahlil va makon-zamon munosabatini o'rganuvchi narratologik yondashuvlardan foydalanildi. Topoxronosni tahlil qilishda uch jihat asos qilib olindi: birinchisi – makonning qahramon ruhiyatiga moslashuvi; ikkinchisi – vaqtning xotira orqali subyektivlashuvi; uchinchisi – makoniy va zamoniy belgilar ramziy mazmun kasb etishi.

Tahlilning asosiy materiali hikoyadagi Tersota qishlog'i, Bayna momoning uyi, ayvon, ustun, qorong'i hujra, bog', otxona va boshqa makoniy belgilar bilan bog'liq tasvirlardir. Ular qahramonning ellik yilga yaqin yolg'iz hayoti va o'tmish xotiralari bilan birgalikda ko'rib chiqildi. Hikoya matnida Bayna momo uyining qariyb bir asrlik tarixga ega ekani, u yerda qahramonning uzoq yillar yolg'iz yashagani va ayvondagi ustunlarga suyanib iztirob chekkanligi qayd etiladi.

Birinchi natija shundan iboratki, hikoyadagi uy Bayna momoning ruhiy portretini to'ldiruvchi makonga aylangan. Uy qahramon hayotining tashqi chegarasi emas, balki uning xotirasi va iztiroblari jamlangan psixologik makondir. Eri Rayim polvon va o'g'lidan ayrilgach, Bayna momo aynan shu makonda uzoq yillar yolg'izlikni boshdan kechiradi. Ayvondagi ustunlar esa uning ruhiy holatining moddiy timsoli vazifasini bajaradi: u ustunlarga suyanadi, quchoqlaydi va xotiraning parchalariga tikiladi.

Ikkinchi natija – Tersota makonining individual va kollektiv xotirani birlashtirishidir. Qishloq Bayna momo hayotining guvohi sifatida namoyon bo'ladi. Uy buzilayotgan paytda odamlarning jim kuzatishi va Bayna momoni eslashi makonning umumiy xotira tashuvchisiga aylanganini ko'rsatadi. Shu sababli uyning buzilishi faqat bir binoning yo'qolishi emas, balki qishloq tarixidagi og'riqli qatlamning yo'qolishidir. Hikoyaning boshlanishidagi ushbu manzara topoxronosning kollektiv psixologiyani ifodalash imkoniyatini kuchaytiradi.

Uchinchi natija – zamonning psixologik xarakteridir. Hikoyadagi hozirgi vaqt va Bayna momoning o'tmishi bir makonda tutashadi. Uy hozirgi paytda buzilmoqda, ammo u bilan bog'liq xotiralar o'tmishga olib boradi. Natijada xronologik vaqt bilan ruhiy vaqt bir-biriga qo'shiladi. Bayna momo uchun o'tmish tugagan hodisa emas; u xotirada qayta-qayta yashaydigan ruhiy mavjudlikdir.

To'rtinchi natija – makoniy detallar psixologik mazmunni kuchaytirishidir. Qorong'i hujra, tuynukning suvalishi, ayvon ustunlari, eski uy, sandiq va undagi buyumlar qahramon ruhiyatining turli qatlamlarini ochadi. Tadqiqotlarda ham sandiqdagi qamchi, xanjar va inson barmoqlari kabi detallar Bayna momoning yillar davomida ichida saqlagan nafrati va qasos tuyg'usining moddiy ifodasi sifatida izohlangan.

Beshinchi natija – "shamol"ning topoxronos doirasidagi ramziy vazifasidir. Shamolni ushlab qolib bo'lmasligi vaqt, hayot va taqdirning to'xtovsiz harakatini anglatadigan ramz

sifatida talqin qilinishi mumkin. Bayna momo esa aksincha, o'tmishni qo'yib yubormaslikka intiladi. Shunday qilib, harakatdagi shamol bilan o'tmishga mahkam yopishib qolgan qahramon o'rtasida ichki ziddiyat yuzaga keladi. Bu ziddiyat hikoyaning psixologik asoslaridan birini tashkil etadi.

Oltinchi natija – topoxronosning qahramon xarakterini bevosita emas, bilvosita ochishidir. Yozuvchi Bayna momoning barcha ruhiy holatlarini izohlab bermaydi; ularni makon, vaqt, harakat, buyum va xotira orqali ko'rsatadi. Natijada o'quvchi qahramonning ruhiy holatini tashqi belgilar orqali anglaydi. Bu usul modernistik psixologizmning muhim ko'rinishlaridan biri sifatida qaralishi mumkin. Zamonaviy tadqiqotlarda ham hikoyadagi ayol obrazi va modernistik psixologizm o'zaro bog'liq holda tahlil qilingan.

Hikoyadagi topoxronosni oddiy voqea sodir bo'ladigan joy va vaqt sifatida talqin qilish asarning psixologik qatlamini toraytirib qo'yadi. Tersota va Bayna momoning uyi qahramonning tashqi muhiti bo'lish bilan birga, uning ichki dunyosining badiiy xaritasidir. Uy qanchalik eski va yemirilgan bo'lsa, Bayna momoning ruhiy jarohatlari ham shunchalik chuqur qatlamli ko'rinadi.

Ayniqsa, uy va qahramon taqdiri o'rtasidagi parallellik muhim. Uy buziladi, ammo uning tarixi va u bilan bog'liq xotiralar odamlar ongida qoladi. Bayna momo ham hayotdan yolg'iz va izsiz o'tishga yaqinlashgan bo'lsa-da, uning taqdiri qishloq xotirasidan butunlay o'chmaydi. Demak, makonning fizik yemirilishi va xotiraning ma'naviy davomiyligi o'rtasida qarama-qarshilik mavjud.

Hikoyada zamonning ham ikki qatlami ko'zga tashlanadi: hozirgi zamon – uy buzilayotgan lahza; o'tmish – Bayna momoning eri, o'g'li, zulm va qasos bilan bog'liq hayot yo'li. Ushbu qatlamlar o'rtasidagi o'tish qahramon ruhiyatining uzluksizligini ta'minlaydi. Shu sababli asardagi vaqtni faqat ketma-ketlik sifatida emas, xotira orqali qayta tashkil etiladigan psixologik vaqt sifatida ko'rish maqsadga muvofiq.

Topoxronosning yana bir muhim xususiyati – individual ruhiyatni kollektiv xotira bilan bog'lashidir. Tersotalik ayollarning Bayna momoni eslashi, uy buzilishini kuzatishi va o'z xotiralariga berilishi qahramon taqdirining jamoaviy ongdagi aksini ko'rsatadi. Shu tariqa makon individual fojiadan ijtimoiy xotiraga o'tuvchi vositaga aylanadi.

Mavjud tadqiqotlarda hikoya qasoskor ayol obrazi, modernistik psixologizm, folklor elementlari va badiiy detallar nuqtayi nazaridan o'rganilgan. Ushbu maqoladagi yondashuv esa mazkur masalalarni inkor qilmagan holda, ularni makon va zamonning yagona poetik tizimi – topoxronos bilan bog'laydi. Shu jihatdan Bayna momoning ruhiyati makoniy va zamoniy belgilar birligi orqali yaxlitroq namoyon bo'ladi.

Nazar Eshonqulning "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasi topoxronosning psixologik imkoniyatlarini yorqin namoyon etuvchi asarlardan biridir. Tersota qishlog'i, Bayna momoning uyi, ayvon va ustunlar kabi makoniy belgilar qahramonning ichki dunyosi bilan bevosita aloqaga kirishadi. Ular yolg'izlik, xotira, iztirob, g'azab va qasos kabi ruhiy holatlarni bilvosita ifodalashga xizmat qiladi.

Hikoyada vaqt ham obyektiv ketma-ketlikdan ko'ra ruhiy xotira orqali namoyon bo'ladi. O'tmish va hozirgi zamonning bir makonda tutashishi Bayna momoning o'tmishdan uzila olmasligini ko'rsatadi. "Shamol" esa vaqt va taqdirning to'xtovsizligini ifodalovchi ramz sifatida qahramonning o'tmishga qarshi ichki kurashi bilan qarama-qarshi qo'yiladi.

Shunday qilib, topoxronos hikoyada uch asosiy psixologik vazifani bajaradi: birinchidan, qahramonning ruhiy holatini makon orqali bilvosita ochadi; ikkinchidan, xotira va o'tmishni hozirgi vaqt bilan bog'laydi; uchinchidan, individual fojiaga kollektiv xotira va ramziy ma'no beradi. Shu sababli "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasini topoxronos va psixologizm munosabati asosida o'rganish Nazar Eshonqul poetikasining muhim jihatlarini ochishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Eshonqul N. Shamolni tutib bo'lmaydi: hikoyalar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.
2. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. М.: Искусство, 1979.
3. Лотман Ю.М. Структура художественного текста. М.: Искусство, 1970.
4. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
5. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005.
6. Oripova N.O. Qasoskor ayol obrazi (Nazar Eshonqulning "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasi tahlili misolida) // O'zbekiston Milliy axborot agentligi, 2023.
7. Anvarjonova Sh., Norkulova Sh. Nazar Eshonqul nasrida ayol obrazi va modernistik psixologizm talqini ("Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasi misolida) // New Renaissance Journal, 2026. – B. 45–52.
8. Samadova G. Nazar Eshonqul asarlarida folklor elementlari: "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasi misolida // Adabiy meros scientific journal, 2026, №2. – B. 64–71.
9. Mustafayeva A. "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasida qahramonlar ruhiyati tasvirida detal va ismlar poetikasi // Filologiya masalalari, 2025, №1. – B. 88–94.

Mahliyo SATTOROVA,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

XALQ KITOBLARIDA MAVZU RANG-BARANGLIGI VA BADIIY G'OYANING IFODALANISHI

Annotatsiya. Maqolada o'zbek xalq kitoblarining mavzu doirasi, ularning folklor va yozma adabiyot oralig'ida shakllangan o'ziga xos tabiati hamda badiiy g'oyani ifodalash tamoyillari tahlil qilinadi. Xalq kitoblarida muhabbat va sadoqat, adolat va zulm, safar va sarguzasht, insoniy kamolot, mardlik, vafodorlik, yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi kurash kabi mavzularning yetakchi o'rin tutishi ko'rsatib beriladi. "Tohir va Zuhra", "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Sanobar", "Yusufbek va Ahmadbek" singari asarlar misolida an'anaviy sujetning xalq estetik qarashlari bilan qayta ishlanishi yoritiladi. Shuningdek, xalq kitoblarida nasr va nazmning qorishiq holda kelishi, romantik va fantastik motivlarning hayotiy mazmun bilan uyg'unlashishi badiiy g'oyaning ta'sirchanligini oshirishi asoslanadi. Tadqiqot xalq kitoblarining faqat ommabop o'qish namunasi emas, balki xalqning axloqiy, estetik va ijtimoiy ideallarini avloddan avlodga yetkazgan muhim badiiy hodisa ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: xalq kitoblari, folklor, yozma adabiyot, mavzu, badiiy g'oya, ishqiy-romantik sujet, qissaxonlik, variant, poetika, xalq estetikasi.

Annotation. The article examines the thematic diversity of Uzbek folk books, their distinctive position between oral folklore and written literature, and the ways in which artistic ideas are expressed. Particular attention is given to the themes of love and loyalty, justice and oppression, journey and adventure, moral perfection, courage, and the conflict between good and evil. Works such as "Tahir and Zuhra", "Ashiq Gharib and Shahsanam", "Sanobar", and "Yusufbek and Ahmadbek" demonstrate how traditional plots were reinterpreted in accordance with popular aesthetic ideals. The interaction of prose and verse, as well as the combination of romantic, fantastic and everyday elements, increases the emotional and ideological expressiveness of these narratives. The study argues that folk books should be regarded not merely as popular reading materials but as an important literary phenomenon through which the moral, aesthetic and social values of the people were transmitted across generations.

Keywords: folk books, folklore, written literature, theme, artistic idea, romantic plot, storytelling, variants, poetics, popular aesthetics.

Аннотация. В статье рассматриваются тематическое разнообразие узбекских народных книг, их своеобразное положение между устной и письменной литературой, а также способы выражения художественной идеи. Особое внимание уделяется таким темам, как любовь и верность, справедливость и насилие, путешествие и приключение, нравственное совершенствование, мужество и борьба добра со злом. На материале произведений «Тахир и Зухра», «Ашик-Гариб и Шахсанам», «Санобар», «Юсуфбек и Ахмадбек» анализируется переработка традиционных сюжетов в соответствии с народными эстетическими представлениями. Показывается, что сочетание прозы и стиха, романтических, фантастических и бытовых элементов расширяет художественно-смысловое пространство произведений. Народные книги рассматриваются не только как популярное чтение, но и как форма сохранения нравственных, эстетических и социальных идеалов народа.

Ключевые слова: народные книги, фольклор, письменная литература, тема, художественная идея, романтический сюжет, сказительство, вариантность, поэтика, народная эстетика.

O'zbek adabiy merosida shunday asarlar borki, ularni faqat xalq og'zaki ijodi yoki faqat yozma adabiyot doirasiga kiritish qiyin. Xalq kitoblari ana shunday murakkab badiiy hodisalardan biridir. Ularning sujeti ko'pincha xalq orasida og'zaki yashagan rivoyat, afsona, ertak yoki dostonlarga borib taqalsa, matni qissaxonlar, savodli ijodkorlar, kotiblar va qayta ishlovchilar faoliyati natijasida kitobiy shaklga kirgan. Shu sababdan xalq kitoblarida og'zaki ijodning erkinligi bilan yozma adabiyotning muayyan poetik tartibi yonma-yon yashaydi.

R.Orzibekov xalq kitoblarini folklor bilan yozma adabiyot o'rtasidagi oraliq hodisa sifatida izohlab, ular turli janr belgilarini o'zida birlashtirganini ta'kidlaydi [2]. Xalq kitoblari masalasi o'zbek folklorshunosligi va adabiyotshunosligida turli davrlarda o'rganilgan. K.Imomov, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov va O.Safarov hammuallifligidagi "O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi" darsligida folklor bilan yozma adabiyot o'rtasidagi tarixiy aloqalar, epik sujet va motivlarning yashash xususiyatlari yoritilgan [1]. Mazkur manbaning ahamiyati shundaki, xalq kitoblarini tushunish uchun zarur bo'lgan og'zaki ijod qonuniyatlari – variantlilik, an'anaviylik, ijro va qayta ijod masalalariga nazariy asos beradi. Kitob 1990-yilda "O'qituvchi" nashriyotida chop etilgan 304 sahifali darslik sifatida kataloglarda qayd etilgan.

R.Orzibekovning "O'zbek adabiyoti tarixi" asarida xalq kitoblari alohida tarixiy-adabiy hodisa sifatida ko'rib chiqiladi. Olim ularning qissaxonlik orqali ommalashgani, og'zaki va yozma shakllar bir-biriga ta'sir qilgani, turli qo'lyozma va variantlar paydo bo'lganiga e'tibor qaratadi [2]. Uning kuzatishlarida "Tohir va Zuhra" alohida o'rin egallaydi: tadqiqotchi asarning xalq ertaklariga yaqin fantaziya boyligi, voqealar tezligi, tasodiflarning ko'pligi hamda sodda bayon uslubini xalq kitoblariga moyillik belgisi sifatida ko'rsatadi.

Xalq kitoblarining mazmuniy boyligi, avvalo, ularning ikki katta manba – og'zaki ijod va yozma adabiyot imkoniyatlaridan bir vaqtda foydalanishi bilan bog'liq. Og'zaki an'ana ularga sodda va ravon hikoyalash, voqeani keskin rivojlantirish, takrorlar, sarguzashtlar va xalqona mubolag'ani olib kirgan. Yozma adabiyot esa she'riy parchalar, lirik chekinishlar, kitobiy iboralar, murakkabroq ruhiy tasvir va muallif munosabatini kuchaytirgan.

Buning natijasida xalq kitobi bir xil qolipga tushib qolmaydi. Bir variant qissaxon ijrosida xalq dostoniga yaqinlashishi, ikkinchisi qo'lyozma shaklida kitobiy til va adabiy an'anani ko'proq saqlashi mumkin. XIX asrning ikkinchi yarmida litografik nashrlarning ko'payishi xalq orasida mashhur qissalarning yanada keng tarqalishiga imkon yaratgan [2]. Bunday asarlar turli yig'inlar, suhbat va qissaxonlik muhitida tinglangan, qayta hikoya qilingan. Orzibekov bu jarayon natijasida bir asarning o'nlab nusxa, variant va versiyalari vujudga kelganini qayd etadi.

Shuning uchun xalq kitobida mavzu faqat muallifning individual tanlovi bilan belgilanmaydi. Uning shakllanishida tinglovchi va kitobxonning talabi ham bor. Xalq orasida nimaga ehtiyoj kuchli bo'lsa – pok muhabbatga, adolatga, qahramonlikka, mo'jizaviy sarguzashtga yoki ma'naviy tasalliga – shu mavzular asarlarda qayta-qayta jonlangan.

Xalq kitoblarining katta bir qatlamini ishqiy-romantik asarlar tashkil etadi. "Tohir va Zuhra", "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Layli va Majnun" bilan bog'liq xalqona qissalar bunga misol bo'la oladi. Bu asarlarda muhabbat shunchaki ikki

yoshning shaxsiy tuyg'usi emas. U insonning vafosi, qat'iyati va ma'naviy qadrini sinovdan o'tkazuvchi mezonga aylanadi.

"Tohir va Zuhra" sujeti bunga yaqqol misoldir. Tohir va Zuhraning sevgisi doimo to'siqqa uchraydi. Bu to'siq faqat tashqi voqea sifatida qiziqish uyg'otish uchun kiritilmaydi. U sevgi va vafo g'oyasini sinaydi. Qahramonlarning ayriliqdan chekkan iztirobi orqali muhabbatning chinligi ko'rsatiladi, zulm va xiyonat esa ma'naviy jihatdan qoralanadi. Orzibekov Sayyodiy talqinida samimiy ishq, ahdu vafo ulug'lanishi, bu tuyg'ularni oyoqosti qilgan shafqatsiz kuchlarga nisbatan norozilik ifodalanishini ta'kidlaydi [2].

"Oshiq G'arib va Shohsanam" tipidagi sujetlarda esa muhabbat safar va ayriliq bilan qo'shiladi. Oshiq maqsadiga birdan erishmaydi. U uzoq yo'l, moddiy yetishmovchilik, raqib, ijtimoiy tengsizlik yoki taqdir sinovidan o'tadi. Demak, badiiy g'oya "sevgan odamiga yetish"ning o'zidagina emas, insonning o'z tuyg'usiga qanchalik sodiq qolishida ochiladi.

Bu yerda xalqona axloqiy mezon sodda, ammo qat'iy: vafo – ijobiy, xiyonat – salbiy; pok sevgi – ulug', manfaatga asoslangan munosabat – tuban. Shuning uchun ishqiy xalq kitoblari ko'ngilochar sujetdan ko'ra kattaroq ma'naviy vazifani bajargan.

Xalq kitoblarida safar juda ko'p uchraydi. Qahramon o'z uyidan chiqib, noma'lum makonga boradi, g'aroyib voqealarga duch keladi, sinovlardan o'tadi. "Qissai Sanobar", "Sayfulmuluk", "Bahrom va Gulandom" kabi qissalarda romantik va fantastik sarguzashtlarning salmog'i katta. H. Oqbo'tayev tadqiqotlarida ana shunday xalq kitoblarining poetikasi va variantlari alohida o'rganilgan [5].

Safarning badiiy vazifasi faqat voqeani uzaytirish emas. Yo'l qahramonni o'zgartiradi. U boshida tajribasiz, orzusiga berilgan yoki oddiy oshiq sifatida ko'rinsa, sinovlar davomida sabr, jasorat, tadbirkorlik va iroda namoyish qiladi. Shunday qilib, makondagi harakat ichki o'sishga ham aylanadi.

Fantastik voqealarning ko'pligi ham xalq kitoblarini hayotdan uzoqlashtirib qo'ymaydi. Aksincha, dev, pari, sehrli makon, kutilmagan najot yoki g'ayritabiiy yordam xalqning adolat haqidagi orzusini badiiy jihatdan kuchaytiradi. Oddiy hayotda ojiz odam erisha olmaydigan g'alaba ertakona-fantastik makonda mumkin bo'ladi. Bu esa xalqning umidini, yaxshilik oxir-oqibat ustun kelishiga bo'lgan ishonchini ifodalaydi.

Xalq kitoblaridagi yana bir asosiy mavzu – adolat masalasidir. Ishqiy qissalarning o'zida ham ko'pincha muhabbatga qarshi turgan kuch hukmdor, boy, amaldor yoki oila kattasining irodasi tarzida gavdalanadi. Demak, shaxsiy tuyg'u bilan ijtimoiy kuch o'rtasida ziddiyat paydo bo'ladi.

Xalq kitobining qahramoni odatda kuch jihatidan teng bo'lmagan raqib bilan to'qnashadi. Lekin xalq estetikasi uning yonida turadi. O'quvchi yoki tinglovchi kim haq, kim nohaq ekanini murakkab falsafiy izohsiz ham anglaydi. Adolat badiiy hodisalarning yakuniy mezoniga aylanadi.

Xalq kitoblari o'zbek adabiy merosining mazmunan boy va tabiatan murakkab qatlamidir. Ularni bitta janrning qat'iy chegarasiga joylashtirish qiyin, chunki ular og'zaki ijod va yozma adabiyotning uzoq davom etgan o'zaro ta'siri natijasida shakllangan. Ana shu ikki manbaning tutashuvi xalq kitoblarining mavzu ko'lamini ham kengaytirgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, muhabbat va sadoqat xalq kitoblarining eng barqaror mavzularidan biridir. Biroq ular faqat ishqiy voqealarni hikoya qilish bilan chegaralanmaydi. Safar va sarguzasht, mardlik va sabr, adolat va zulm, do'stlik, insoniy kamolot, yaxshilik bilan yomonlikning kurashi kabi masalalar ishqiy sujetlar bilan qo'shilib ketadi. Shu bois xalq kitobi bir vaqtning o'zida ham qiziqarli voqea, ham axloqiy tanlov haqidagi asardir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi: darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 1990.
2. Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi. XVII–XIX (I yarmi) asrlar: o'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.
3. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi: darslik. – Toshkent: Musiqa, 2010.
4. Jo'rayev M., Eshonqulov J. Folklorshunoslikka kirish: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2017.

Munisa PRIMOVA,
Alfraganus universiteti farmatsevtika va kimyo kafedrasi o'qituvchisi

FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDA XARAKTERNI IFODALOVCHI FRAZEOLOGIZMLARNING KONSEPTUAL TASNIFI VA MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada fransuz va o'zbek tillarida inson xarakterini ifodalovchi frazeologik birliklar lingvokognitiv, lingvomadaniy va semantik jihatdan qiyosiy tahlil qilinadi. Xarakterni ifodalovchi frazeologizmlarning umumiy frazeologik tizimdagi o'rni belgilanib, ularning oltita konseptual guruhga (ijobiy, salbiy, irodaviy, intellektual, emotsional-psixologik va kommunikativ xususiyatlar) asoslangan tematik-semantik tasnifi taklif etiladi. Shuningdek, ot komponentli frazeologik birliklarning obrazli asosi va grammatik tuzilishi qiyoslanib, ularning universal hamda milliy-spesifik xususiyatlari aniqlanadi.

Kalit so'zlar: frazeologik birlik, inson xarakteri, konsept, lingvokognitiv tahlil, lingvomadaniyatshunoslik, pragmatika, qiyosiy tahlil, fransuz tili, o'zbek tili, ot komponentli frazeologizmlar.

Annotation. The article presents a comparative analysis of phraseological units denoting human character in French and Uzbek from linguocognitive, linguocultural and semantic perspectives. The place of character-related phraseological units within the general phraseological system is defined, and a thematic-semantic classification based on six conceptual groups (positive, negative, volitional, intellectual, emotional-psychological and communicative traits) is proposed. In addition, the figurative basis and grammatical structure of noun-component phraseological units are compared on the material of the two languages, and their universal and nationally specific features are identified.

Keywords: phraseological unit, human character, concept, linguocognitive analysis, linguoculturology, pragmatics, comparative analysis, French, Uzbek, noun-component phraseological units.

Аннотация. В статье проводится сопоставительный анализ фразеологических единиц, выражающих характер человека, во французском и узбекском языках в лингвокогнитивном, лингвокультурологическом и семантическом аспектах. Определяется место характерологических фразеологизмов в общей фразеологической системе, предлагается их тематико-семантическая классификация, основанная на шести концептуальных группах (положительные, отрицательные, волевые, интеллектуальные, эмоционально-психологические и коммуникативные качества). Кроме того, сопоставляются образная основа и грамматическая структура фразеологизмов с именным компонентом на материале двух языков, выявляются их универсальные и национально-специфические черты.

Ключевые слова: фразеологическая единица, характер человека, концепт, лингвокогнитивный анализ, лингвокультурология, прагматика, сопоставительный анализ, французский язык, узбекский язык, фразеологизмы с именным компонентом.

Frazeologik birliklar tilning milliy xususiyatini, xalqning hayotiy tajribasini, madaniy qadriyatlarini va olam haqidagi konseptual bilimlarini mujassamlashtiruvchi eng muhim lisoniy vositalardan biri bo'lib, ular nutqning obrazliligi, ekspressivligi va ta'sirchanligini ta'minlash bilan birga, insonning tashqi va ichki olamini, ijtimoiy munosabatlarini hamda psixologik holatini ifodalashda alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, inson xarakteriga oid frazeologik birliklar shaxsning barqaror psixologik xususiyatlari, axloqiy fazilatlari, emotsional holati va ijtimoiy baholarini milliy tafakkur nuqtai nazaridan aks ettirishi bilan frazeologik tizimning boshqa tematik qatlamlaridan ajralib turadi.

Zamonaviy antropotsentrik tilshunoslikda inson xarakteri psixologiyadagi kabi shaxsning barqaror individual xususiyatlari tizimi sifatidagina emas, balki inson ongida konseptuallashuvchi hamda til orqali verballashuvchi lingvokognitiv hodisa sifatida talqin qilinadi. Shu jihatdan xarakterni ifodalovchi frazeologizmlar nafaqat psixologik mazmunni, balki milliy tafakkur, ijtimoiy tajriba va madaniy qadriyatlarni ham ifoda etuvchi ko'p qatlamli til birliklari hisoblanadi. Fransuz va o'zbek tillari kabi tipologik jihatdan farqli, madaniy tajribasi turlicha bo'lgan tillarda mazkur birliklarni qiyosiy o'rganish inson xarakteri konseptining universal va milliy-spesifik jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

Frazeologik birliklarning nazariy mohiyati turli ilmiy maktablar tomonidan har xil yondashuvlar asosida izohlangan. Fransuz tilshunosligida Sh. Balli frazeologizmlarni tilning ekspressiv imkoniyatlarini ta'minlovchi barqaror birikmalar sifatida baholagan bo'lsa [1], A.Rey va S.Shantro ularni xalqning madaniy xotirasi, tarixiy tajribasi va milliy ongini saqlovchi lisoniy fenomen sifatida talqin qiladi [2]. Rus frazeologiya maktabida V.V.Vinogradov frazeologik birliklarning semantik yaxlitlik darajasiga ko'ra tasnifini ishlab chiqqan [3], A.V.Kunin ularning struktur-semantik va funksional xususiyatlarini atroflicha yoritgan [4], V.N.Teliya esa frazeologizmlarni semantik, pragmatik va lingvomadaniy aspektlarning uyg'unligida tadqiq etgan [5]. V.G.Gakning qiyosiy leksikologiyaga oid ishlari [6] hamda B.A.Larinning frazeologiya tarixiga bag'ishlangan tadqiqotlari [7] ham mazkur sohaning nazariy asoslarini boyitgan.

O'zbek tilshunosligida Sh. Rahmatullayev frazeologik birliklarning semantik tabiati va lug'aviy tavsifini ishlab chiqqan bo'lsa [8], B. Yo'ldoshev ularning uslubiy vazifalarini [9], A.Mamatov esa leksik va frazeologik norma muammolarini [10] tadqiq etgan. Kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan J.Lakoff va M.Jonson insonning olam haqidagi bilimlari konseptual tizimlar orqali tashkil topishini hamda til mazkur bilimlarni verballashtirish vazifasini bajarishini asoslab bergan [11]. Lingvomadaniy yondashuv doirasida V.A.Maslova [12] va N.Mahmudov [13] frazeologik birliklarda xalqning asrlar davomida shakllangan hayotiy tajribasi, axloqiy baholash mezonlari va milliy dunyoqarashi mujassamlashganligini ta'kidlaydi. Pragmatik tahlil nuqtai nazaridan O.Dyukro [14] va P.Sharodo [15] frazeologizmlarni nutqiy ta'sir, baholash va kommunikativ strategiyalarni amalga oshirishning muhim vositasi sifatida qaraydi.

Frazeologik birliklarning grammatik tuzilishi masalasida G.G.Sokolova o'zgaruvchan so'z birikmalari bilan frazeologizmlar o'rtasidagi munosabatni anglash uchun ularni tashkil etuvchi leksemalarning semantik tabiatini chuqur tadqiq qilish zarurligini ta'kidlaydi [16]. M.A.Sulaymonova nemis va o'zbek tillari materiali asosida inson xarakteriga oid frazeologizmlarning grammatik jihatdan erkin so'z birikmalari yoki gap konstruksiyalaridan prinsipial farq qilmasligini ko'rsatgan [17]. O.Nazarov ham frazeologizmlar uchun erkin sintaktik birikmalardan mutlaqo farq qiluvchi

alohida struktura mavjud emasligini, ular semantik yaxlitligi, obrazliligi, turg'unligi va tayyor holda qo'llanilishi bilan ajralib turishini qayd etadi [18].

Mazkur ilmiy manbalar tahlili inson xarakteriga oid frazeologik birliklarni o'rganish evolyutsiyasi struktur-semantik yondashuvdan kognitiv, lingvomadaniy, pragmatik va diskursiv yo'nalishlarga qarab rivojlanganligini ko'rsatadi. Biroq mavjud tasniflar xarakterni ifodalovchi frazeologizmlarning kognitiv, lingvomadaniy va pragmatik xususiyatlarini to'liq qamrab olmaydi, bu esa integrativ metodologik yondashuvdan foydalanish zarurligini asoslaydi.

Xarakterni ifodalovchi frazeologik birliklarning nazariy tavsifi. Nazariy qarashlarni umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, xarakterni ifodalovchi frazeologik birliklar umumiy frazeologik tizimning tarkibiy qismi bo'lsa-da, ularning semantik tuzilishi va kommunikativ vazifasi boshqa tematik guruhlarga mansub frazeologizmlardan muayyan darajada farq qiladi. Bu birliklar insonning tashqi belgilarini emas, balki uning shaxsiy xususiyatlari, axloqiy fazilatlari, irodaviy sifatlari, emotsional holati va ijtimoiy munosabatini baholashga xizmat qiladi.

Kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan inson xarakteriga oid frazeologizmlar muayyan konseptlarning verballashgan shakli hisoblanadi [11]. Inson xarakteri ham inson ongida shakllangan kognitiv model bo'lib, frazeologik birliklar orqali milliy-madaniy mazmun kasb etadi. Masalan, o'zbek tilidagi *ko'ngli keng, yuragi yumshoq, ichi qora, tili zahar, qo'li ochiq* kabi frazeologizmlar insonning psixologik xususiyatlarini milliy qadriyatlar asosida baholaydi. Fransuz tilidagi *avoir le cœur sur la main, avoir un cœur de pierre, être franc comme l'or, être têtu comme une mule, être une langue de vipère* kabi iboralar ham aynan shu vazifani bajaradi.

Lingvomadaniy yondashuvga ko'ra, mazkur frazeologizmlar muayyan xalqning axloqiy ideallari, milliy psixologiyasi va ijtimoiy qadriyatlarini aks ettiruvchi madaniy kod vazifasini bajaradi [5; 12; 13]. Shuning uchun bir xil psixologik xususiyat turli tillarda turlicha obrazlar orqali ifodalanadi. Masalan, o'zbek tilida saxiylik *ko'ngli keng, qo'li ochiq* kabi iboralar orqali ifodalansa, fransuz tilida *avoir le cœur sur la main* frazeologizmi orqali ifodalanadi, bu esa universal psixologik tushunchaning milliy-madaniy verballashuvidagi farqlarni ko'rsatadi.

Pragmatik nuqtai nazardan xarakterni ifodalovchi frazeologik birliklar faqat nomlash vazifasini bajarmaydi, balki nutqiy ta'sir, baholash va emotsional munosabat bildirish vositasi hisoblanadi [14: 15]. Masalan, o'zbek tilida *tili zahar* yoki fransuz tilida *être une langue de vipère* iboralari insonning salbiy xarakteri haqida axborot berish bilan birga, unga nisbatan salbiy bahoni ham ifodalaydi. Demak, mazkur frazeologizmlarda denotativ ma'no bilan bir qatorda kuchli konnotativ va pragmatik ma'no ham mavjud.

Yuqoridagi nazariy qarashlar asosida inson xarakteriga oid frazeologik birliklarning quyidagi asosiy xususiyatlarini ajratish mumkin: ular insonning barqaror psixologik xususiyatlarini nomlaydi; insonga nisbatan ijtimoiy va axloqiy bahoni ifodalaydi; milliy madaniyat va etnopsixologik qadriyatlarni saqlaydi; konseptual bilimlarning verballashgan shakli hisoblanadi; yuqori darajadagi emotsional-ekspressivlik va baholovchi semantikaga ega; muloqot jarayonida pragmatik ta'sir ko'rsatish vazifasini bajaradi; qiyosiy tadqiqotlarda universal va milliy xarakter modellarini aniqlash imkonini beradi.

Tematik-semantik tasnif. Ilmiy adabiyotlarda frazeologik birliklar semantik, strukturaviy, grammatik, funksional va uslubiy belgilarga ko'ra tasniflanadi [3; 4; 5; 8]. Biroq mazkur tasniflar inson xarakteriga oid frazeologizmlarning kognitiv va lingvomadaniy xususiyatlarini to'liq qamrab olmaganligi sababli tadqiqotda ularni oltita konseptual guruhga ajratish maqsadga muvofiq deb topildi.

Ijobiy xarakterni ifodalovchi frazeologik birliklar insonning axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy jihatdan ijobiy baholanuvchi xususiyatlarini – saxiylik, mehribonlik, samimiylik, halollik, kamtarlik, bag'rikenglik, mehnatsevarlikni ifodalaydi. O'zbek tilida: *ko'ngli keng, qo'li ochiq, yuragi yumshoq, ko'ngli toza, dili pok*; fransuz tilida: *avoir le cœur sur la main, être franc comme l'or, avoir bon cœur, être droit comme un I*. Bu birliklarda ijtimoiy ma'qullash va ijobiy baholash ustunlik qiladi.

Salbiy xarakterni ifodalovchi frazeologik birliklar insonning jamiyat tomonidan ma'qullanmaydigan xususiyatlarini – xasislik, yolg'onchilik, ikkiyuzlamachilik, takabburlik, shafqatsizlik, hasadgo'ylik, ayyorlikni ifoda etadi. O'zbek tilida: *ichi qora, tili zahar, yuragi tosh, ko'zi to'ymas, ikki yuzli*; fransuz tilida: *avoir un cœur de pierre, être une langue de vipère, être faux comme Judas*. Ushbu guruhda baholovchi va ekspressiv semalar yuqori darajada namoyon bo'ladi.

Irodaviy xususiyatlarni ifodalovchi frazeologik birliklar insonning irodasi, qat'iyati va sabr-toqati bilan bog'liq. O'zbek tilida: *toshday mustahkam, belini mahkam bog'lamoq, irodasi temir*; fransuz tilida: *être têtu comme une mule, avoir du caractère, tenir bon*. Bu guruhda ijobiy va salbiy baholar kontekstga ko'ra o'zgarishi mumkin.

Intellektual xususiyatlarni ifodalovchi frazeologizmlar insonning aqliy qobiliyati va fikrlash tarzini qamrab oladi. O'zbek tilida: *kallasi ishlaydi, yetti o'lchab bir kesadi, aqli raso*; fransuz tilida: *avoir la tête sur les épaules, avoir l'esprit vif, être une tête*.

Emotsional-psixologik xususiyatlarni ifodalovchi frazeologik birliklar insonning hissiy holati va temperamenti bilan bog'liq. O'zbek tilida: *jahli burnining uchida, yuragi og'ziga kelmoq, ko'ngli nozik*; fransuz tilida: *avoir le sang chaud, être à fleur de peau, avoir les nerfs à vif*. Bu birliklarda psixologik holat va xarakter xususiyatlari o'zaro uyg'unlashadi.

Kommunikativ xarakterni ifodalovchi frazeologik birliklar insonning muloqot madaniyati va nutqiy xulq-atvorini tavsiflaydi. O'zbek tilida: *og'ziga talqon solgan, tili burro, tilidan bol tomadi*; fransuz tilida: *avoir la langue bien pendue, avoir la langue d'argent, tourner autour du pot*.

Ot komponentli frazeologik birliklarning obrazli asosi va grammatik tuzilishi. Frazeologik birliklarning leksik-grammatik tuzilishi va komponent tarkibini o'rganish ularning semantik tabiati hamda yasalish mexanizmlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki frazeologizmlar ko'p hollarda erkin so'z birikmalari negizida shakllanib, vaqt o'tishi bilan semantik yaxlitlik kasb etadi [16]. Fransuz va o'zbek tillarida xarakterni ifodalovchi frazeologizmlar tarkibida ot komponentli birliklar alohida o'rin egallaydi. Bunday birliklarda asosiy semantik yuk ot turkumiga mansub komponent orqali ifodalanadi va insonning muayyan xarakter xususiyati metaforik obraz vositasida konseptuallashtiriladi. Ot komponentlari ko'pincha inson tanasi a'zolari (*tête, cœur, langue; bosh, yurak, til*), hayvon nomlari (*loup, ours, renard; bo'ri, ayiq, tulki*), tabiat hodisalari yoki maishiy predmetlar orqali insonning axloqiy va psixologik sifatlarini ifoda etadi.

Fransuz tilidagi otli frazeologizmlar semantik jihatdan yuqori darajada differensiallashgan bo'lib, insonning aqliy qobiliyati, irodaviy sifatlari, hissiy holati, muomala madaniyati, jasorati, qo'rqoqligi yoki sergapligi kabi xususiyatlarning turli qirralarini ifodalaydi. O'zbek tilida ham shunday frazeologik modellar mavjud bo'lsa-da, ularning obrazli asosi va milliy-madaniy motivlanishi ko'p hollarda fransuz tilidagidan farq qiladi.

Grammatik tuzilishi nuqtai nazaridan mazkur birliklar quyidagi mezonlar asosida tasniflanadi. Birinchidan, struktur tuzilishiga ko'ra ular sodda (ikki mustaqil ma'noli komponentdan tashkil topgan) va murakkab (uch va undan ortiq komponentli) turlarga ajratiladi; komponentlar sonining ortishi frazeologizmning obrazliligi va semantik hajmini kengaytiradi. Ikkinchidan, yetakchi komponentning morfologik xususiyatiga ko'ra ot, fe'l va sifat komponentli frazeologizmlar farqlanadi. Uchinchidan, komponentlar tartibiga ko'ra tobe komponentning yetakchi komponentga nisbatan prepozitiv yoki postpozitiv joylashuvi ajratiladi, bu esa ikki tilning sintaktik qurilishi bilan belgilanadi. To'rtinchidan, sintaktik vazifasiga ko'ra frazeologizmlar gapda ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi yoki hol vazifasida keladi. Beshinchidan, komponentlar o'rtasidagi sintaktik munosabatlar asosida egalik va noegalik munosabatli birliklar farqlanadi: o'zbek tilida egalik munosabati moslashuv, noegalik munosabatlari boshqaruv va bitishuv orqali shakllansa, fransuz tilida bunday munosabatlar artikl, predlog va sintaktik tartib kabi analitik vositalar orqali ifodalanadi.

Sintaktik modeliga ko'ra frazeologizmlar tuzilishi jihatidan so'z birikmasiga teng (gap tarkibida yagona sintaktik bo'lak vazifasini bajaruvchi, nominativ xususiyatli) hamda gapga teng (predikativ munosabatni ifoda etuvchi, mustaqil kommunikativ vazifaga ega) birliklarga ajratiladi [17: 18]. Xarakterni ifodalovchi ot komponentli frazeologizmlarning aksariyati birinchi turga mansub bo'lib, ular nutqda ko'proq kesim yoki aniqlovchi vazifasida qo'llanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, inson xarakteriga oid frazeologik birliklar tasodifiy to'plam emas, balki muayyan konseptual tizim asosida tashkil topgan tematik maydonni hosil qiladi. Fransuz va o'zbek tillari materiallari ularning semantik yadrosida insonning ijtimoiy va axloqiy baholanuvchi xususiyatlari mujassam ekanligini tasdiqlaydi. Har ikki tilda ham mazkur frazeologizmlar insonning ijobiy va salbiy xususiyatlarini aks ettirishda o'xshash funksional vazifani bajaradi, biroq ularning obrazli asosi, konseptual modeli va madaniy motivlari turlichadir.

Inson xarakteri konseptining universal jihatlari bilan bir qatorda milliy-madaniy xususiyatlarga ham ega ekanligini ko'rsatadi va xarakterni ifodalovchi frazeologizmlarni struktur-semantik, kognitiv, lingvomadaniy va pragmatik xususiyatlarning o'zaro integratsiyasi asosida shakllangan barqaror lisoniy birliklar sifatida tavsiflash zarurligini asoslaydi.

Fransuz va o'zbek tillarida inson xarakterini ifodalovchi frazeologik birliklarni qiyosiy tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, mazkur birliklar umumiy frazeologik tizimning alohida tematik-leksik qatlamini tashkil etib, insonning psixologik xususiyatlarini nomlash bilan cheklanmay, xalqning milliy tafakkuri, madaniyati, axloqiy qadriyatlari va kommunikativ tajribasini ham o'zida mujassamlashtiruvchi murakkab lingvokognitiv tuzilmalar hisoblanadi. Ikkinchidan, taklif etilgan oltita konseptual guruhga (ijobiy, salbiy, irodaviy, intellektual, emotsional-psixologik va kommunikativ xususiyatlar) asoslangan tematik-semantik tasnif mazkur birliklarning semantik tabiatini kompleks yoritish imkonini beradi hamda ikki tilda ularning qiyosiy tahlili uchun metodologik asos vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bally Ch. Traité de stylistique française. – Paris: Klincksieck, 1951.
2. Rey A., Chantreau S. Dictionnaire des expressions et locutions. – Paris: Le Robert, 2007.
3. Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке // Избранные труды. Лексикология и лексикография. М.: Наука, 1977.
4. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. М.: Высшая школа, 1996.
5. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. М.: Языки русской культуры, 1996.
6. Гак В.Г. Сопоставительная лексикология. М.: Международные отношения, 1977.
7. Ларин Б.А. Очерки по фразеологии // История русского языка и общее языкознание. М.: Просвещение, 1977.
8. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1978.
9. Yo'ldoshev B. Frazeologik uslubiyat asoslari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 1999.
10. Mamatov A.E. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari: Filol. fan. d-ri diss. avtoref... – Toshkent, 1991.
11. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
12. Маслова В.А. Лингвокультурология. М.: Академия, 2001.
13. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012, №5. – B. 3–16.
14. Ducrot O. Le dire et le dit. – Paris: Éditions de Minuit, 1984.
15. Charaudeau P. Grammaire du sens et de l'expression. – Paris: Hachette, 1992.
16. Соколова Г.Г. Фразообразование во французском языке. М.: Высшая школа, 1987.
17. Sulaymonova M.A. Nemis va o'zbek tillarida inson xarakterini ifodalovchi frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili: Filol. fan. nomz. diss... – Toshkent, 2005.
18. Назаров О. Сопоставительный анализ соматических фразеологизмов русского и туркменского языков: дисс. ... канд.филол. н. Ашхабад, 1973.

Dilnoza NISHANOVA,
Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti magistri

ABDULLA ORIPOV LIRIKASIDA MADANIY KONSEPTLARNING PRAGMATIK MOHIYATI VA BADIIY MATNDA MODDIYLASHUVI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Abdulla Oripov lirikasida madaniy konseptlarning pragmatik mohiyati va badiiy matnda moddiylashuv xususiyatlari tahlil qilinadi. Madaniy konseptlarning milliy qadriyat, tarixiy xotira va ma'naviy qarashlarni ifodalashdagi o'rni, poetik obraz, ramz, metafora va kontekst orqali yuzaga chiqish mexanizmlari ochib beriladi.
Kalit so'zlar: Abdulla Oripov, lirika, madaniy konsept, pragmatika, lingvomadaniyat, badiiy matn, milliy qadriyat, poetik obraz, ramz, metafora, konseptualizatsiya.
Annotation. This article examines the pragmatic significance and textual realization of cultural concepts in Abdulla Oripov's lyric poetry. It focuses on their role in representing national values, historical memory, and spiritual perceptions, as well as on the ways they are manifested through poetic images, symbols, metaphors, and contextual meanings.
Keywords: Abdulla Oripov, lyric poetry, cultural concept, pragmatics, linguoculturology, literary text, national values, poetic image, symbol, metaphor, conceptualization.
Аннотация. В статье анализируются прагматическая сущность культурных концептов и особенности и материализации в художественном тексте и в лирике Абдуллы Арипова. Раскрывается роль культурных консептов в выражении национальных ценностей, исторической памяти и духовных представлений,а также механизмы и реализации посредством ппоэтического образа, символа и метофоры и контекста.
Ключевые слова: Абдулла Арипов, лирика, культурный консепт, прогматика, лингвокультрология, художественный текст, национальные ценности, поэтический образ, символ, метафора, концептуализация.

Bugungi tilshunoslikda tilni faqat axborot uzatuvchi vosita sifatida emas, balki xalqning tarixiy tajribasi, milliy tafakkuri va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi murakkab hodisa sifatida tadqiq etish muhim yo'nalishlardan biriga aylandi. Shu nuqtayi nazardan, badiiy matnga til va madaniyat o'rtasidagi munosabatni namoyon etuvchi o'ziga xos lingvomadaniy makon sifatida qaraladi. Tilshunoslik ilmida *madaniy konsept* tushunchasi ham mavjud bo'lib, unga nisbatan muayyan xalq tafakkurida shakllangan bilim, tasavvur, qadriyat va assotsiativ ma'nolar majmuini ifodalovchi mental birlik sifatida qaraladi.

Madaniy konseptlarning pragmatik mohiyatini aniqlashda ularning badiiy matnda qanday qo'llangani, qanday obraz va ramzlar bilan bog'langani hamda muallif maqasadini ifodalashdagi vazifasini o'rganish muhimdir. Abdulla Oripov she'rlarida madaniy konseptlar ko'pincha metafora, ramz, poetik obraz va konsept orqali mazmunan kengayadi. Natijada muayyan so'z yoki birikma matn doirasida milliy-madaniy mazmun bilan boyiydi.

Mazkur tadqiqotda Abdulla Oripov lirikasida qo'llangan madaniy konseptlarning pragmatik mohiyati va ularning badiiy matnda moddiylashuvini aniqlash maqsadida bir necha tadqiqot usullaridan foydalanildi. Dastlab, lingvokulturologik metod asosida shoir she'rlarida xalqning milliy-madaniy qarashlarini ifodalovchi konseptlar aniqlandi. Shuningdek, kontekstual tahlil usuli yordamida madaniy konseptlarning she'r matnidagi ma'nosi o'rganildi. Chunki ayrim so'z va obrazlarning mazmuni faqat lug'aviy ma'no bilan cheklanmay, matnning umumiy mazmuni, shoirning munosabati va o'quvchiga ta'siri orqali yanada kengayadi.

Tadqiqotda pragmatik tahlil usulidan ham foydalanib, madaniy konseptlarning muallif fikri va munosabatini ifodalashdagi vazifasi belgilandi [1: 203]. Bunda konseptlarning o'quvchiga qanday ta'sir ko'rsatishi, qanday hissiy va ma'naviy mazmunni yuzaga chiqarishi tahlil qilindi.

Tadqiqot materially sifatida Abdulla Oripovning lirik asarlaridan foydalanildi. Tahlil jarayonida madaniy konseptlarning alohida so'z, so'z birikmasi, obraz, metafora va boshqa badiiy vositalar orqali matnda moddiylashuv kuzatildi. Natijada shoir lirikasida milliy-madaniy mazmunning til birliklari orqali qanday ifodalanishi va pragmatik jihatdan qanday vazifa bajarishi aniqlashtirildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Abdulla Oripov lirikasida madaniy konseptlar shoirning milliy dunyoqarashini va ma'naviy dunyosini ifodalashda muhim vosita hisoblanadi. Madaniy konsept badiiy matnda faqat oddiy tushuncha emas, balki muayyan milliy va ma'naviy mazmunni ifodalovchi birlik sifatida namoyon bo'ladi [2: 425].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mazkur konseptlar turli badiiy vositalar, jumladan, metafora, ramz, obraz va takrorlar orqali matnda moddiylashadi. Natijada bitta madaniy tushuncha bir necha ma'no qatlamini yuzaga keltirib, she'rning mazmuniy va hissiy ta'sirini kuchaytiradi [3:97].

Umuman olganda, tadqiqot natijalari Abdulla Oripov lirikasida madaniy konseptlar milliy mazmunni ifodalsh, muallif munosabatini yetkazish va o'quvchiga pragmatik ta'sir ko'rsatish vazifalarini bajarishini ko'rsatadi. Ularning badiiy matnda moddiylashuvi esa shoir lirikasining milliy va ma'naviy mazmunini yanada boyitadi.

Abdulla Oripov lirik merosini tahlil jarayoniga tortishdan avval "moddiylashish" tushunchasi mohiyatiga oydinlik kiritish lozim bo'ladi. "Moddiylashtirish" bu – ona tili qoidalari, lug'at boyligi va nutq o'stirish ko'nikmalarining badiiy matnlar tahlili, adabiy jarayonlar va yozma nutq shaklida amaliy ifoda topishidir [4: 92]. Bu jarayon nazariy bilimlarni amaliy tajribaga aylantiradi. Mazkur nazariya badiiy adabiyotda qo'llanganda kitobxon asarni tushunishi osonlashadi, tahlil qilish ko'nikmalari shakllanadi, o'z fikrini adabiy tilda bayon etish ko'nikmalarni shakllantiradi.

2015-yil 12-iyulda Abdulla Oripov "Ajab" nomli quyidagi to'rt misrali she'rini yozdi:

Tomosha ko'rmadim bundan ham ajab,
Kundan ham ajabdir, tundan ham ajab.
Internet osmondir havoga to'lgan,
Nafas olma derlar shundan ham ajab.

Mazkur to'rtlikda ajab so'zi izohtalab birlikdir. "Ajab" – "qiziq, hayron qolarli, ajablanarli" degan ma'noni bildiradi. Lekin qiziq, hayratlanarli leksemalaridan ko'ra ajab so'zida salbiylik bo'yog'i kuchli va ayni paytda hayratni ifodalash uchun ham xizmat qilmoqda. Internet havoga to'lgan osmonga o'xshatilmoqda. Ya'ni inson havosiz yashay olmagani kabi XXI asrda internetsiz yashay olmasligi ifodalangan. Lekin

ijodkor uchun olloh bergan osmon u yoqda tursin, shu havoga limmo-lim to'lgan internetdan foydalanish uchun ham imkon yo'q. Ya'ni mana shu yillarda ma'lum sabablarga ko'ra Abdulla Oripov ijodi uchun cheklovlar qo'yilgan, u uchun gazeta-jurnallar u yoqda tursin, ijtimoiy tarmoqlar uchun ham yo'l mavjud emas edi. Bu o'z navbatda Abdulla Oripovning xastaligini yanada kuchayishiga sabab bo'lgan.

2015-yilning 18-iyulida Abdulla Oripovning inson qusurlarini fosh etuvchi "Fe'l" nomli yana bir to'rtligi dunyo yuzini ko'rdi:

– Bir umr to'sding-a mening yo'limni,
Sira erinmading, qoyilman ko'ppak.
– Nega erinayin? Itlik fe'limni
Axir men namoyon etmog'im kerak.

Mazkur misralarning egasi bo'lgani tayin. U Abdulla Oripovni ta'qib etib charchamagan. Uning bu xatti-harakati ochiqdan ochiq ko'ppakka tenglashtirilmoqda. *Ko'ppak, it* leksemalari asil holatda uy hayvoni turini bildiradi. Ammo salbiy bo'yoqqa egaligi bilan disfemizm birlik ham hisoblanadi. Kontekst tarkibida bu so'z hayvonni emas, unga tenglashtirilgan insonni anglatmoqda. Biroq shuni unutmaslik kerakki, it va inson o'rtasida o'zaro aloqadorlik mavjud. It ham irillashini va ta'qib etishni qo'ymaydi. It kabi xarakterga ega bo'lgan inson ham mana shu xislatlardan holi emas. Lirik namunada savol-javob tarzidagi she'riy san'atdan mohirlik asosida foydalanilgan.

Navbatdagi lirik meros hali birorta nashriyotda e'lon qilinmagan, Abdulla Oripovning yon daftaridan topilgan xazina (2015-yilda yozilgan):

Yor-yorlik qildi demakkim, bizga ham dildor ekan,
Alloh, Alloh bizga ham bergan azobi bor ekan.
Kamsitib kelgandiku, topshirmayin hatto yumush,
Kecha tush ko'rsam kamina, senga xizmatkor ekan.
Orqa-yu oldingga sen, boqma g'alat hislar bilan,
Orqasi ummon qadarli, oldi buloqdek tor ekan.

Mazkur lirikada *yor, azob, tush* va *yo'l*, *ummon, buloq* birliklari pragmatik ma'no tashigan. Yor so'zini "vatan" yoki "mavjud tuzum" sifatida talqin etsak, tush bu – o'tmish, yo'l esa umr, ummon – cheksizlik, buloq kichik, ammo tor ma'noda qo'llangan. Birinchi misra va ikkinchi misralar o'zaro bir-biriga zid tarzida yozilgan. Vatan unga bir o'rinda hamroh bo'ldi, bir o'rinda undan tondi. Bu orqali Abdulla Oripov azoblandi. Ijodkor umri yakunida hamma narsdan mosuvo bo'lgan.

Mazkur jarayonni topshirmayin yumush deb atamoqda. Lekin Abdulla Oripov o'tmish (tush)ga nazar tashlasa, vatani uchun, xalqi uchun xizmatkordek harakat qilib yashaganligi ko'z oldida gavdalandi. Oxirgi ikki misraga kelib, ijodkor o'ziga murojaat qilib: "Orqaga, ya'ni o'tmishga boshqacha nigohda boqma! O'tmishing ummondek keng va sho'r; oldi, ya'ni kelajaging buloqdek tor, ammo sofdir",- deb aytmoqda. Ushbu satrlar ham Abdulla Oripovning umr yakunida kelgan xulosasi yanglig' yangramoqda.

Tadqiqot natijasida Abdulla Oripovning "Ajab" va "Fe'l" she'rlarida madaniy konseptlar insonning milliy xarakteri, dunyoqarashi va ma'naviy qadriyatlarini ifodalashda muhim vosita ekani aniqlandi. Har ikki she'rda xalqning hayotiy tajribasi, insoniy fazilatlar va xulq-atvorga oid qarashlar badiiy ifoda orqali yoritilgan. Abdulla Oripov lirikasidan olingan she'rlarni tahlil qilish jarayonida madaniy konseptlarning oddiy tushuncha sifatida emas, balki milliy tajriba, qadriyat va dunyoqarashni mujassamlashtirgan mazmuniy birlik sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Ularning pragmatik xususiyati esa o'quvchiga ma'lum fikr va munosabatni yetkazish, uni mulohaza yuritishga undash orqali yuzaga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sayitkulova Z. Konsept tushunchasi lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslikning tadqiq obyekti sifatida // Philology, Methodology, Translation Studies: Current Issues of Modern Science, 2024. – B. 203–207.
2. Marselova X. O'zbek tilining pragmalingvistik tadqiqi muammolari // Science and Education, 2022. Vol. 3 (4). – B. 420–425.
3. Maxmudjanova F. Pragmatik adabiyotshunoslik fan sohasi sifatida // Talqin va tadqiqot, 2024, № 1 (59). – B. 97–104.
4. Oripov A. Saylanma. – Toshkent: Ma'naviyat, 2007.
5. Oripov A. Birinchi muhabbatim. – Toshkent: O'zbekiston, 2006.
6. Oripov A. Surat va siyrat. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1981.
7. Abdulla Oripov ijodi: rasmiy Telegram kanali. https://t.me/abdullaorifijodi.
8. ResearchGate: ilmiy va tadqiqot tarmog'i portal. https://www.researchgate.net.

Gulnoza ABDURAXIMOVA,
Qo'qon universiteti Andijon filiali,
tibbiyotda tillarni o'qitish kafedrasi o'qituvchisi

GENERATIV SUN'IY INTELLEKT PROMPTLARIDA AUDITORIYANI BELGILASH VA TERMINOLOGIK ANIQLIK

Annotatsiya. Tezisda generativ sun'iy intellektga beriladigan ko'rsatmalarda auditoriyaning bilim darajasini ifodalash va ilmiy terminlarni tushuntirish munosabati o'rganiladi. Inglizcha hamda o'zbekcha tahliliy misollar orqali mavzuga oid tayyorgarlik bilan tilni bilish darajasi farqlanadi. Matnni tushunarli qilish terminlarni olib tashlash bilan teng emasligi asoslanib, auditoriyaga moslashtirishni baholash uchun tushunchaviy aniqlik, izohning yetarliligi va bilimni yangi misolga tatbiq etish mezonlari taklif qilinadi.
Kalit so'zlar: prompt, auditoriya, adresat bilimi, terminologik aniqlik, ilmiy tushuntirish, matnni soddalashtirish.
Annotation. This thesis examines the relationship between expressing the audience's level of knowledge and explaining scientific terms in prompts given to generative artificial intelligence. Using analytical examples in English and Uzbek, the study differentiates between background preparation and language proficiency levels. Based on the premise that making text understandable is not equivalent to omitting terms, criteria such as conceptual clarity, sufficiency of explanation, and the application of knowledge to new examples are proposed to evaluate audience adaptation.
Keywords: prompt, audience, addressee knowledge, terminological precision, scientific explanation, text simplification.
Аннотация. В тезисах исследуется взаимосвязь между отражением уровня знаний аудитории и объяснением научных терминов в промптах, задаваемых генеративному искусственному интеллекту. На основе аналитических примеров на английском и узбекском языках разграничиваются предварительная подготовка и уровень владения языком. Исходя из того, что сделать текст понятным не означает исключить термины, для оценки адаптации к аудитории предлагаются такие критерии, как понятийная точность, достаточность объяснения и применение знаний к новому примеру.
Ключевые слова: промпт, аудитория, знания адресата, терминологическая точность, научное объяснение, упрощение текста.

Generativ sun'iy intellektga *"**talabaga tushunarli qilib yozing**"* tarzida murojaat qilish tabiiy kommunikativ ehtiyojni ifodalaydi. Biroq *talaba* belgisi o'quvchining aynan qaysi tushunchalarni bilishini ko'rsatmaydi. Bir xil bosqichda tahsil olayotgan ikki talabaning til tayyorgarligi va sohaga oid bilimi turlicha bo'lishi mumkin. Shuning uchun auditoriyani belgilovchi birlikni tayyor uslubiy ko'rsatma sifatida qabul qilish o'rniga, uning qanday bilim holatini nazarda tutayotganini aniqlash zarur.

Allan Bellning auditoriyaga moslashuv haqidagi yondashuvida uslubiy tanlov adresat bilan bog'liq holda tushuntiriladi. Mazkur qarash prompt tahlilida javob kimga mo'ljallanganini o'rganishga nazariy asos beradi. Bunda inson nutqiga oid tushuntirish sun'iy intellektning ichki mexanizmi haqidagi da'voga aylantirilmaydi; tahlil ko'rsatmada berilgan auditoriya tavsifi va kutilayotgan matn xususiyatlari o'rtasidagi munosabatga qaratiladi [1].

Masalan, *"**Bu mavzuni birinchi kurs talabasi uchun tushuntiring**"* ko'rsatmasi auditoriyani ta'lim bosqichi orqali belgilaydi. *"Talaba ega va kesimni biladi, lekin tema va rema tushunchalarini hali o'rganmagan. Farqini bitta gap orqali tushuntiring"* shaklida esa izoh uchun zarur boshlang'ich bilim ko'rsatilgan. Ushbu misollar qiyosiy tahlil uchun tuzilgan bo'lib, tabiiy suhbatdan olingan kuzatuvlar sifatida taqdim etilmaydi.

Ikkinchi ko'rsatma tushuntirishni ma'lum bilimdan yangi tushunchaga olib borish imkonini beradi. Biroq bu jarayonda tanish grammatik kategoriyalar yangi kategoriyalarning aynan o'zi sifatida ko'rsatilmasligi kerak. Xususan, temani barcha vaziyatlarda egaga, remani esa kesimga tenglashtirish tushuntirishni soddalashtiradi, ammo sintaktik tuzilish bilan axborot tuzilishi o'rtasidagi farqni yo'qotadi.

Buni *"**Hisobotni kim tayyorladi?"*** savoliga berilgan *"**Hisobotni Dilnoza tayyorladi**"* javobi orqali ko'rsatish mumkin. Ushbu savol-javob kontekstida yangi axborot *Dilnoza* birligi bilan bog'langan. Demak, yangi ma'lumotni faqat kesimdan izlash yetarli emas. Misolning vazifasi talabaga tayyor tenglikni yodlatish emas, bir gapni grammatik va axborot tuzilishi jihatidan turlicha tekshirish mumkinligini ko'rsatishdir.

Auditoriyaning til darajasi ham sohaga oid bilimidan alohida tavsiflanishi lozim. Ingliz tilidagi *"**Explain this to a B2-level English learner**"* ko'rsatmasi til murakkabligini boshqarishga yo'naltirilgan. *"**Explain this to a reader unfamiliar with linguistics**"* esa sohaga oid tayyorgarlikni belgilaydi. Ularni mos ravishda *"B2 darajasida ingliz tilini biladigan o'quvchiga tushuntiring"* va *"**Tilshunoslik bilan tanish bo'lmagan o'quvchiga tushuntiring**"* shaklida berish mumkin. Birinchi tavsif ikkinchisini avtomatik anglatmaydi: ingliz tilini o'rganayotgan kishi tilshunoslik mutaxassisi bo'lishi ham mumkin.

Terminlarni saqlash masalasi shu farq bilan bog'liq. *"**Terminlarsiz yozing"*** talabi ayrim tushuntirishlarda qulay bo'lsa-da, o'quv maqsadi terminning o'zini o'zlashtirishdan iborat bo'lganda yetarli emas. Masalan, *"**Tema va rema terminlarini saqlang, ularni sodda misol bilan tushuntiring**"* ko'rsatmasi nom bilan tushunchaning birgalikda o'rganilishini nazarda tutadi. Bu yerda soddalashtirish terminni yo'qotish hisobiga emas, uning mazmunini ochish orqali amalga oshiriladi.

Teo Gidroz va hammualliflarning matnni til modellari yordamida soddalashtirishga oid tadqiqotida tushunish va kognitiv yuk o'quvchilar ishtirokida baholangan. Bu metodologik jihatdan muhim: matnning tashqi soddaligi uning haqiqatan tushunilganini o'z-o'zidan isbotlamaydi [2]. Shunga ko'ra, auditoriyaga mos javobni baholashda gap uzunligini hisoblash bilan cheklanmasdan, o'quvchi tushunchani yangi misolda ajrata olishini tekshirish maqsadga muvofiq.

Mazkur tahlilda auditoriyaga moslashtirishning uch jihati farqlandi: o'quvchining boshlang'ich bilimini belgilash, yangi terminni tushunchaviy tafovutlarni saqlagan holda izohlash va tushunishni amaliy topshiriq orqali tekshirish. Taklif etilgan promptlarning model javobiga ta'siri tajribada o'lchanmagan. Shunga qaramay, ushbu farqlash *"**sodda yozing"*** kabi umumiy talabni ta'lim maqsadi bilan bog'lashga xizmat qiladi. Auditoriyaga mos ilmiy matnning asosiy belgisi terminlarning kamligi emas, zarur tushunchalar o'rtasidagi munosabatning o'quvchiga ochiq bo'lishidir.

Auditoriyani hisobga olishda o'quvchining bilim darajasi bilan birga matndan foydalanish maqsadi ham

ahamiyatlidir. Bir tushunchani imtihonga tayyorlanish uchun o'rganayotgan talaba bilan uni tadqiqot materialiga tatbiq etayotgan izlanuvchiga bir xil tushuntirish yetarli bo'lmasligi mumkin. Birinchi vaziyatda asosiy belgilarni ajratish zarur bo'lsa, ikkinchisida chegaraviy holatlar va tasnif mezonlari muhimlashadi. Shuning uchun promptdagi auditoriya tavsifi o'quvchi kimligini bildirish bilan cheklanmay, izohdan keyin qanday vazifani bajarishi kerakligini ham ko'rsatishi maqsadga muvofiq.

Masalan, tahliliy taklif sifatida "**Metonimiyani tushuntiring, keyin talabaga uni metaforadan ajratishga yordam beradigan savol bering"** ko'rsatmasini olish mumkin. Uning ingliz tilidagi shakli "**Explain metonymy, then ask a question that helps the student distinguish it from metaphor**" tarzida ifodalanadi. Bu topshiriqda izohning maqsadi ta'rifni takrorlash bilan tugamaydi. O'quvchi tushunchalar orasidagi farqni mustaqil qo'llashi kerak. Biroq savolning mavjudligi o'zlashtirishni isbotlamaydi; buning uchun berilgan javob va uning asoslanishi tekshiriladi.

Tushuntirishdagi o'xshatishlar ham alohida nazoratni talab qiladi. Tanish hodisa orqali yangi tushunchani yoritish mazmunni ochishi mumkin, ammo o'xshatilayotgan obyektlarning barcha xususiyatlari mos kelavermaydi. Masalan, fe'l valentligini uning boshqa birliklarni biriktirish imkoniyati orqali izohlash mumkin. Uni shunchaki gapdagi so'zlar soniga tenglashtirish esa tushunchani noto'g'ri chegaralaydi. O'xshatish ishlatilganda uning qaysi belgi uchun keltirilgani va qayerda amal qilmasligi qisqacha ko'rsatilishi lozim. Shunda yordamchi tasvir ilmiy ta'rifning o'rnini egallab qolmaydi.

Auditoriyaga moslashtirishning yana bir jihati izohdagi axborot tartibidir. Mutaxassis uchun terminning nazariy ta'rifi boshlang'ich nuqta bo'lishi mumkin. Mavzuga endi kirishayotgan o'quvchi uchun esa avval kuzatiladigan hodisani ko'rsatib, keyin uning nomini berish qulayroq bo'lishi ehtimol. Bu ikki usuldan birini barcha vaziyatlar uchun ustun deb belgilash asosli emas. Prompt muayyan dars vazifasiga qarab *"avval misolni ko'rsating, keyin terminni izohlang"* kabi tabiiy ko'rsatma bilan tartibni belgilashi mumkin.

Bellning auditoriyaga moslashuv haqidagi qarashidan kelib chiqib, adresat tavsifini o'zgarmas ijtimoiy yorliq sifatida tushunmaslik kerak. *Birinchi kurs talabasi* yoki *mutaxassis bo'lmagan o'quvchi* kabi nomlar izohni rejalashtirish uchun boshlang'ich ma'lumot beradi, biroq shaxsning haqiqiy bilimini to'liq ifodalamaydi [1]. Shuning uchun tayyor javobga nisbatan bildirilgan savollar keyingi tushuntirish uchun muhim dalildir. O'quvchining bitta terminni so'rashi butun matnni keskin soddalashtirish zarurligini o'z-o'zidan anglatmaydi. Moslashtirish aniqlangan qiyinchilikka qaratilishi kerak.

Bu yondashuv ikki tilli ta'limda ayniqsa muhim. Talaba tushunchani o'zbek tilida bilishi, ammo uning inglizcha nomini tanimasligi mumkin. Bunday vaziyatda mazmunni boshidan tushuntirish o'rniga terminlar o'rtasidagi muvofiqlikni ko'rsatish yetarli bo'lishi ehtimol. Aksincha, inglizcha terminni yoddan ayta olish uning mazmuni o'zlashtirilganini bildirmaydi. Demak, terminni tanish, ta'rifni tushunish va tushunchani misolda aniqlash uch xil ko'rsatkich sifatida qaralishi lozim. Prompt ularning qaysi birini rivojlantirishga yo'naltirilganini aniqlashtirishi mumkin.

Moslashtirilgan matnni baholashda o'quvchining **"tushunarli bo'ldi"** degan munosabati foydali, lekin yagona mezon emas. O'quvchi ravon bayonni yoqtirishi va ayni paytda tushunchalar orasidagi farqni noto'g'ri anglagan bo'lishi mumkin. Gidroz va hammualliflar tadqiqotidagi tushunishni alohida baholash tamoyili shu masalaga metodologik jihatdan aloqadordir [2]. Mazkur tezis doirasida esa o'quvchiga yangi misolni tasniflash va tanlovini izohlash topshirig'ini berish taklif etiladi. Bu taklifning samarasi mustaqil tajribada tekshirilishi zarur.

Bunday tekshiruv uchun bir xil tushunchaga oid ikki izoh tayyorlanishi mumkin. Birida auditoriya umumiy nom bilan, ikkinchisida boshlang'ich bilim va kutilayotgan faoliyat orqali belgilanadi. Ishtirokchilarning dastlabki tayyorgarligi hisobga olinib, javoblar tushunchani ajratish, asoslash va yangi vaziyatga tatbiq etish bo'yicha baholanadi. Natijalarni sharhlashda matn uzunligi, misollar soni va topshiriq murakkabligi ham nazorat qilinishi kerak. Aks holda kuzatilgan farqni auditoriya tavsifining ta'siri deb izohlash uchun yetarli asos bo'lmaydi.

Shu tariqa, auditoriya haqidagi ma'lumot promptda shunchaki uslubiy bezak bo'lib qolmasligi kerak. Uning vazifasi izohning boshlanish nuqtasi, tushuntirish chuqurligi va tekshiriladigan o'quv natijasini bog'lashdir. Bu bog'lanish ochiq berilganda javobni baholash mezoni ham aniqlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bell A. Language style as audience design // Language in Society, 1984. Vol. 13 (2). – P. 145–204. https://doi.org/10.1017/S004740450001037X.
2. Guidroz T. et al. LLM-based text simplification and its effect on user comprehension and cognitive load // arXiv preprint, 2025. – arXiv:2505.01980. https://arxiv.org/abs/2505.01980.

Дилором ИСЛОМОВА,
доктор философии по филологическим наукам (PhD), старший преподаватель кафедры русского языка и литературы Наманганского государственного университета

НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНАЯ СПЕЦИФИКА ЭРГОНИМОВ ГОРОДА НАМАНГАНА

Аннотация. В статье исследуется эргонимия Намангана как фактор туристической привлекательности и отражение культурно-исторической специфики региона. На материале коммерческих наименований проанализированы две ключевые группы: эргонимы, мотивированные традиционными восточными титулами (бек, хан, эмир, султан), и названия, транслирующие исламские ценности (Умра, Ихлос, Зам-зам, Халал). Показано, что безэквивалентная лексика в нейминге является визитной карточкой города и формирует его этнокультурный облик.

Ключевые слова: эргонимия, нейминг, титул, мусульманские ценности, экзотизмы, туризм.

Annotatsiya. Maqolada Namangan shahri ergonimiyasi hududning madaniy-tarixiy o'ziga xos ko'rinishi hamda turistik jozibadorlik omili sifatida tadqiq etiladi. Tijorat obyektlari nomlari asosida ikki asosiy guruh tahlil qilingan: an'anaviy sharqona unvonlar (bek, xon, amir, sulton) bilan asoslangan ergonimlar va islomiy qadriyatlarni aks ettiruvchi nomlar (Umra, Ixlos, Zam-zam, Halol). Muallif neymingdagi muqobilsiz leksika shaharning tashrif qog'ozi bo'lib xizmat qilishini va uning etnomadaniy qiyofasini shakllantirishini ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: ergonimiya, neyming, unvon, islomiy qadriyatlar, ekzotizmlar, turizm.

Annotation. The article explores the ergonymy of Namangan as a factor of tourist attractiveness and a reflection of the region's cultural and historical specifics. Based on commercial names, two key groups are analyzed: ergonyms motivated by traditional Eastern titles (bek, khan, emir, sultan) and names conveying Islamic values (Umra, Ikhlos, Zam-zam, Halal). The author demonstrates that non-equivalent vocabulary in naming serves as a visiting card of the city and shapes its ethnocultural identity.

Keywords: ergonymy, naming, title, Islamic values, exotisms, tourism.

В эргонимии города Намангана, как и любого мегаполиса, отражена информация о жизнедеятельности народа, его культурной специфике, общественном укладе и историческом прошлом народа. «Топонимы являются языковым сокровищем, дающим ценную историческую информацию о языке, истории, этническом развитии, обычаях, традициях, экономических, общественно-политических отношениях узбекского народа, а также о природе, географии, древнем и современном градостроительстве Узбекистана» [1]. Реализация топонимической политики отражается в наименованиях коммерческих городских объектов, несущих информацию об особенностях менталитета. Называть коммерческие предприятия лексическими единицами, отражающими культурно-исторические особенности коренного народа, – один из способов привлечения туристов. В настоящее время туристическая привлекательность города как социально-экономический фактор выходит на первый план, одним из её факторов являются инфраструктурные показатели: транспортное обеспечение, коммунальные системы, торговля и бытовое обслуживание, места размещения и питания и др. [2]. Большая роль в этом процессе отводится неймингу (нейминг – разработка названия компании или продукта). С развитием нейминга расширились информационно-коммуникационные ресурсы городских территорий [3].

Эргонимы, обозначающие национально-культурную специфику Намангана, можно разделить на несколько основных групп: 1) герои произведений, фольклора, исторические личности; 2) национальные блюда; 3) географические объекты (топонимы); 4) национальные праздники; 5) растительный мир (фитонимы); 6) этнографизмы и экзотизмы; 7) титулы коренных народов; 8) мусульманские ценности.

В статье подробно проанализируем эргонимы, мотивированные титулами коренных народов и мусульманскими ценностями.

Эргонимы, отражающие титулы у коренных народов вызывают особый интерес. Титул является своеобразным символом статуса и достоинства, отражающим общественное признание человека, его успехов. У восточных народов титулованные лица сосредоточивали в своих руках не только светскую, но и духовную власть, некоторые из них популярны в эргонимии изучаемого региона. К таким лексическим единицам относятся слова *хан/хон, шох/шах, бек, аль, амир/эмир, султан*. Например, рестораны «Шох», «Emir», частная школа «Bek – School Future Education», мужской салон «Bek-style», кафе «Bek», туристические агентства «Sultan travel», «Al-Ex Travel», «Al-Amir Travel», «Al Hafiz Travel» и др.

Бек (в зависимости от акцента того или иного народа также бей, бег, бий, бай и т.д.) – титул, возникший в период, когда тюрки ещё не имели собственного государства и жили в условиях родоплеменного строя. Первоначально беком называли военного вождя племени, после возникновения государственных образований этот титул стали использовать в отношении представителей высшей аристократии, занимавших положение ниже хана и великого хана. Впоследствии титул «бек» продолжал употребляться и после образования государств у тюркских кочевников. Соответствующую приставку к имени могли носить даже правители, имевшие титул падишаха или великого хана, то есть императора. В таких случаях титул «бек» сохранялся как напоминание о том времени, когда его носитель являлся лидером определённого рода. Например, правитель Золотой Орды Узбек-хан, государь Тимуридов Улуг-бек, да и все ранние монархи Османской империи – Осман-бей, Орхан-бей, Мурад-бей. Ныне во многих тюркских странах этот титул используется в качестве вежливого обращения к человеку. Используется это понятие и в женской форме. В прошлом знатную даму, а сейчас любую женщину в тюркских странах могут назвать бегим, бегоим, бегюм или бейим [4].

Хан /хон (каан, хакан, каган и т.д.) – изначально так называли вождей племени, позднее это слово стало использоваться как титул-приставка к именам людей, принадлежавших к потомкам мусульманских святых, которых относили к привилегированной социальной группе «белой кости» [5].

Эмир – обозначает «повелитель». В Средней Азии титул хана мог иметь только чингизид, т.е. потомок Чингисхана, поэтому великий завоеватель Тамерлан

имел титул эмира, основавший собственную империю. Титул «эмир» имеет арабское происхождение и является полным аналогом тюркского титула «бек». Долгое время так называли племенных лидеров, а позднее – губернаторов и полководцев, находившихся на службе у Арабского халифата. После его распада этот титул распространился по всему исламскому миру и стал использоваться для обозначения правителей независимых государств, которые не обладали достаточной властью или знатностью, чтобы носить титул султана [6].

Султан / салтан – так звали независимых исламских государей, которые правили крупными и могущественными державами – Османским, Газневидским, Мамлюкским султанатами и т.д. Титул султана произошел от арабских слов, означавших нечто среднее между понятиями «сила», «авторитет» и «власть». После распада Арабского халифата так стали величать наиболее могущественных монархов, создавших независимые государства на его территории. В исламской политической традиции султан занимал положение ниже халифа, но мог выступать не только как светский, но и как духовный правитель. Наиболее известны османские султаны, они также использовали титул «падишах», а титул «хан» сохраняли в память о своём кочевом прошлом. Позднее османские правители присвоили себе и титул халифа [7].

Аль – артикль в арабском языке, указывающее на род [8].

Эргонимы, отражающие мусульманские ценности. С приобретением независимости и провозглашением свободы вероисповедания в республике был проведён ряд реформ, направленных на развитие религиозных организаций. Особое место в эргонимии города Намангана занимают наименования туристических фирм и агентств. Значительная часть населения города исповедует ислам, поэтому в регионе действует множество туристических компаний, специализирующихся на организации паломнических поездок в Мекку.

Совершение хаджа – один из пяти столпов ислама, совершаемый в определённый месяц исламского календаря. В другое время года мусульмане могут совершить умру, которую часто называют «малым паломничеством». Слово «умра» буквально означает «посещение», в религиозной терминологии обозначает посещение Заповедной мечети в Мекке с соблюдением установленных обрядов в период, не относящийся к сезону хаджа.

Священный Коран также поощряет совершение хаджа и умры в аяте: «И совершайте хадж и умру ради Аллаха» (сура «Аль-Бакара», аят 196). В последнее время был принят ряд нормативно-правовых актов, регулирующих организацию и проведение мероприятий, связанных с совершением умры, а также лицензирование соответствующей деятельности, что способствовало росту количества туристических коммерческих компаний, специализирующихся на организации паломнических поездок. Не только в Ташкенте, но и по всему Узбекистану появилось множество эргонимов, отражающих религиозную тематику и связанные с ней понятия. К таким эргонимам относятся в основном названия туристических агентств: «Umra markazi / Умра маркази» («Центр Умры»), «Umra ziyorati / Умра зиёрати» («Паломничество Умра»), «Ravnaq Travel / Равнак Трэвел» (равнак – блеск, сияние, процветание), «Halal Tour / Халал Тур» (халял/халал/халол – дозволенный, разрешенный, честный, добросовестный), «Ihlos Tour / Ихлос тур» (ихлос – преданность, привязанность, искреннее чувство), «Makka United / Макка Юнайтед» (Мекка – город в Саудовской Аравии, в котором находится Кааба), «Al Hafiz Travel / Аль Хафиз Трэвел», «Imaam Travel / Имаам Травел» (имам/имом – духовный наставник, духовное лицо у мусульман), «Ehrom Tour / Эхром Тур» (эхром/ихрам – особое состояние мусульман во время больших и малых паломничеств (хаджа и умры), «Zam-zam Travel» (колодец в Мекке, его вода считается священной, омовение в Замзаме и питьё воды – важный элемент хаджа и умры) и др. Как видно из анализа указанных наименований, в основном это лексика религиозной тематики.

Таким образом, можно отметить, что эргонимия Намангана, отражающая национально-культурную специфику региона, наряду с этнокультурной лексикой содержит экзотизмы – лингвострановедческие реалии, которые, как правило, трудно передать на другом языке одним словом или понятием. Они относятся к безэквивалентной лексике, то есть к словам, обозначающим понятия, отсутствующие в иной культуре и не имеющие прямых эквивалентов за пределами языка, к которому они принадлежат.

Проанализированные в статье эргонимы города Намангана в основном отражают обычаи, обряды, традиции и ценности, выражающие особенности национального менталитета. В современном мире туристической индустрии такие наименования становятся своеобразными визитными карточками региона и выполняют значимую функцию в его социально-экономическом развитии.

Литература

1. Титулы знати [Электронный ресурс]. Режим доступа: https://uzbloknot.com/2020/09/04/tituly-znat
2. Першина Н.В. К вопросу о туристской привлекательности территории // Молодой ученый, 2016, №16 (120).
3. Голомидова М.В. Имидж города // Вопросы ономастики, 2017, №3.
4. Бай, бек, султан, ага, ата, мурза, эмир: кто такие? [Электронный ресурс]. Режим доступа: https://dzen.ru
5. Абашин С.Н. Потомки святых в современной Средней Азии [Электронный ресурс]. Режим доступа: https://kozhalar.kz/20162384-potomki-svyatyh-v-sovre
6. Uluqov N. Onomastik birliklarning sotsiolingvistik, etnolingvistik, lingvopoetik, lingvokulturologik tadqiqi masalalari. Toshkent: Bookmany print, 2024.
7. Хан, султан, шах, халиф, эмир, малик, падишах, эмир – кто такие? [Электронный ресурс]. Режим доступа: https://dzen.ru/a/Z4fKueHJD0JGuEl8
8. Загадочное Аль в арабском языке [Электронный ресурс]. Режим доступа: https://telegra.ph

Светлана ИМ,
доктор филологических наук, профессор
Узбекского государственного университета мировых языков

ФРАНЦУЗСКИЙ ЯЗЫК КАК ОДНО ИЗ СРЕДСТВ ЕВРОПЕИЗАЦИИ РУССКОЙ ЖИЗНИ

Аннотация. В статье рассматривается вопрос о роли французского языка в жизни русского дворянского общества, раскрываются причины галломании екатерининской эпохи, имевшей глубокие социально-психологические корни, владение французским языком становилось своеобразным пропуском в европейское культурное пространство, маркером принадлежности к образованному, привилегированному обществу.
Ключевые слова: французский язык, галлицизм, билингвальная личность, ассимиляция.
Annotatsiya. Maqolada fransuz tilining rus zodagonlar jamiyati hayotidagi o'rni ko'rib chiqiladi. Yekaterina davridagi gallomaniyaning chuqur ijtimoiy-psixologik ildizlarga ega bo'lgan sabablari ochib beriladi. Fransuz tili Pyotrdan oldingi Rusning "varvarligi"ga qarama-qarshi qo'yilgan Yevropa sivilizatsiyasining ramzi sifatida qabul qilingan. Fransuz tilini bilish Yevropa madaniy makoniga o'ziga xos kirish vositasiga, ma'rifatli va imtiyozli jamiyatga mansublik belgisiga aylangan.
Kalit so'zlar: fransuz tili, gallitsizm, bilingval shaxs, assimilyatsiya.
Annotation. The article examines the role of the French language in the life of Russian noble society. It explores the reasons for the Gallicomania of the Catherine the Great era, which had deep socio-psychological roots. French was perceived as a symbol of European civilization, contrasted with the "barbarism" of pre-Petrine Russia. Knowledge of French became a kind of gateway to the European cultural space and a marker of belonging to educated and privileged society.
Keywords: French language, Gallicism, bilingual personality, assimilation.

Век Екатерины II можно характеризовать как время беспрецедентного французского влияния на все сферы русской жизни. Как пишет М.Ю.Федосюк, «статус французского языка в России в XVIII в. (с середины века) был так высок, что он фактически занял место латыни в средневековой Европе: он был языком светской жизни, дипломатии, науки, образования и переписки» [1, с. 85]. Французский язык стал языком политики и дипломатии, светского общения, философских размышлений и литературного творчества.

Цель работы – показать роль французского языка как средства приобщения русского общества к европейской культуре.

В эпоху Екатерины II дворянское общество было пропитано французским духом. Французский язык был принят как язык общения: он стал «la langue de salon» – языком салона. Русское дворянство принимает французскую образовательную систему, оно хорошо знакомо с французской литературой в лице Жана де ла Фонтена, Жорж Санд, Эжена Сю. Дети дворян воспитывались французскими гувернантками и гувернёрами, что создало причудливую смесь двух языков, так называемый «макаронический» стиль [2, с. 60].

Большую роль в распространении французского языка сыграла переводческая деятельность. Так, В.П.Семенников пишет, что было создано особое учреждение, получившее название «Собрание, старающееся о переводе иностранных книг», главной целью которого было знакомство русского читателя с новыми писателями, с научной литературой по истории, географии, физике, математике и естествознанию. Переводы должны были печататься и распространяться среди публики и содействовать успехам просвещения и расширению умственного кругозора общества [3, с. 9]. Эта деятельность способствовала не только распространению просветительских идей, но и массовому проникновению французской лексики в русский язык. Галломания екатерининской эпохи имела глубокие социально-психологические корни: французский язык воспринимался как символ европейской цивилизации, противопоставленной «варварству» допетровской Руси, владение им становилось своеобразным пропуском в европейское культурное пространство, маркером принадлежности к образованному, привилегированному обществу.

Н.М.Карамзин в «Письмах русского путешественника» живо описывает языковую ситуацию своего времени: «Мы говорим французским языком, думаем французским языком и даже мечтаем языком французским» [4, с. 256]. Это свидетельство современника отражает глубину французского влияния на русское языковое сознание.

Галлицизмы употребляли даже убеждённые славянофилы. Так, А.С.Шишков, выступавший против их распространения, использовал синтаксические галлицизмы в своих работах [5, с. 94].

Важным каналом проникновения галлицизмов стала система образования. Французские пансионы, домашние учителя из Франции, чтение французских книг – всё это способствовало формированию билингвальной, то есть двуязычной, языковой личности русского дворянина XVIII века. В результате в русскую речь проникали не только отдельные слова, но и целые фразеологические обороты, синтаксические конструкции французского языка [2, с. 61].

Литературные салоны екатерининской эпохи представляли собой особую среду функционирования галлицизмов. В доме княгини Е.Р.Дашковой, салоне А.К.Воронцовой, литературных собраниях у Н.И.Новикова галлицизмы органично вплетаются в русскую речь, создавая особый макаронистический стиль – стиль образованного дворянского общества.

Театральная деятельность также способствовала распространению галлицизмов. Переводы французских пьес, постановки комедий Мольера и трагедий Расина требовали адаптации французской лексики к русским реальностям. Актеры и переводчики становились невольными пропагандистами французской культуры и языка [6, с. 45].

Как писали Т.В.Камышанова и Л.М.Соболева в книге «Русский язык: История и современность», вошедшие в русский язык в период правления Екатерины II галлицизмы можно разделить на несколько тематических групп:

1) общественно-политическая лексика: революция (révolution), конституция (constitution), либертинаж (libertinage), деспотизм (despotisme), отражавшие новые

политические реалии и философские концепции эпохи Просвещения;

2) светская лексика: галантность (galanterie), этикет (étiquette), туалет (toilette), менуэт (menuet), визит (visite), связанные с формированием новой культуры повседневности, ориентированной на французские образцы;

3) философско-эстетическая терминология: сентимент (sentiment), меланхолия (mélancolie), энтузиазм (enthousiasme), натура (nature), необходимые для выражения новых идей о человеке и обществе;

4) бытовая лексика: суп (soupe), компот (compote), салат (salade), пальто (paletot, свидетельствующие об изменениях в материальной культуре дворянства [2, с. 61].

По степени ассимиляции галлицизмы екатерининской эпохи можно разделить на полностью адаптированные, например, натура, характер, публика; частично ассимилированные с сохранением французской фонетики – этикет, туалет. Можно выделить неассимилированные галлицизмы, сохранявшие французское написание и произношение, например, rendez-vous, tête-à-tête. В поэме «Граф Нулин» А.С.Пушкина встречаются такие написания:

«Цветных платков, чулков à jour,
С ужасной книжкою Гизота,
С тетрадью злых карикатур…»

Галломания екатерининской эпохи имела сложную психологическую мотивацию. С одной стороны, она отражала искреннее стремление русского общества к европейскому просвещению. Французский язык воспринимался как инструмент приобщения к передовым идеям века, средство интеллектуального совершенствования. С другой стороны, галломания подчас носила показной характер, становясь способом общественного позиционирования. Употребление французских слов и выражений служило показателем принадлежности к высшим слоям общества, отделяя «просвещенное дворянство» от «непросвещенного народа».

Екатерина II сознательно поощряла французское влияние, видя в нём средство европеизации России. В своих «Наставлениях» она писала: «Россия есть европейская держава», подразумевая необходимость культурной имплементации с Западной Европой. Французский язык и французская культура рассматривались как инструменты этой интеграции.

Интенсивное проникновение галлицизмов в русский язык XVIII века привело к серьёзным изменениям в его лексико-семантической системе. Прежде всего значительно расширился словарный состав языка: появилось множество новых понятий для обозначения социальных, политических, эстетических реалий.

Французское влияние затронуло и синтаксический строй русского языка. В речь образованного общества проникли французские синтаксические обороты, конструкции, способы выражения эмоций и оценок, что создало условия для образования «нового слога» Н.М.Карамзина.

Литература

1. Федосюк М.Ю. Лексика русского дворянства XVIII века. М.: Наука, 2006.
2. Камышанова Т.В., Соболева Л. М. Русский язык: история и современность. М.: МГУП, 2011.
3. Семенников В.П. Собрание, старающееся о переводе иностранных книг, учрежденное Екатериною II. 1768–1783 гг. СПб.: Сириус, 1913.
4. Карамзин Н.М. Письма русского путешественника. М.: Наука, 1987.
5. Семенов П.А. Литературно-языковые взгляды шишковцев и карамзинистов в контексте пушкинских воззрений на русский литературный язык и закономерности его развития // Вестник Новгородского государственного университета, 2000, №15.
6. Расин Ж. Федра (и трагедии). М.: Искусство, 1975.

Beg'ubor ABDULLAYEVA,
Buxoro viloyati Olot tumani 19-sonli maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

OILADA VA JAMIYATDA XOTIN-QIZLARNING O'RNI: TARBIYA, TA'LIM VA OILAVIY MUNOSABATLAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada oilada va jamiyatda xotin-qizlarning tutgan o'rni, ularning tarbiya jarayonidagi roli, ta'lim olish huquqi va imkoniyatlari hamda oilaviy munosabatlardagi ishtiroki yoritiladi. Ayollarning ijtimoiy faolligini oshirish yo'llari, gender tengligi va oiladagi mas'uliyati haqida tahliliy fikrlar bayon etiladi. Shuningdek, oilaviy munosabatlarda o'zaro hurmat, ishonch va ayolning ruhiy-ma'naviy holati muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: xotin-qizlar, oila, tarbiya, ta'lim, jamiyat, gender tengligi, ijtimoiy faollik, oilaviy munosabatlar, ayol huquqlari, ma'naviy qadriyatlar.

Annotation. This article highlights the role of women in the family and society, their contribution to the upbringing process, their right to education and opportunities, as well as their participation in family relations. Analytical views on ways to increase women's social activity, gender equality, and family responsibilities are presented. Furthermore, mutual respect, trust, and the psychological-spiritual state of women in family relationships are examined as essential factors.

Keywords: women, family, upbringing, education, society, gender equality, social activity, family relations, women's rights, spiritual values.

Аннотация. В статье освещаются место женщин в семье и обществе, их роль в процессе воспитания, право и возможности получения образования, а также участие в семейных отношениях. Излагаются аналитические соображения о путях повышения социальной активности женщин, гендерном равенстве и семейной ответственности. Также в качестве важных факторов в семейных отношениях рассматриваются взаимное уважение, доверие и духовно-нравственное состояние женщины.

Ключевые слова: женщины, семья, воспитание, образование, общество, гендерное равенство, социальная активность, семейные отношения, права женщин, духовные ценности.

Xotin-qizlar har qanday jamiyatda asosiy tayanch, ma'naviy tarbiya beruvchi, avlodlar orasida bog'lovchi kuch sifatida alohida o'rin tutadi. Oila – jamiyatning kichik modeli bo'lib, unda ayolning roli nafaqat farzand tarbiyasida, balki oilaning ma'naviy, ruhiy muhitini shakllantirishda ham beqiyosdir. Ayol o'z tabiati, sabr-toqati, mehribonligi, hushyorligi bilan jamiyatdagi ko'plab ijtimoiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli xotin-qizlarning tarbiya, ta'lim va oilaviy munosabatlardagi o'rni doimo dolzarb masala bo'lib kelmoqda.

Bugungi kunda respublikamizda gender tengligini ta'minlash, ayollarni ilm-fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, iqtisodiyot, madaniyat va boshqaruv tizimlariga keng jalb etish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayollarning jamiyatda faolligini oshirish, ularni ijtimoiy va oilaviy hayotda faol ishtirokchi sifatida ko'rish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Shunday ekan, xotin-qizlarning oila va jamiyatdagi o'rni, ularning ta'lim va tarbiyadagi vazifalari, hamda oilaviy munosabatlardagi roli atroflicha o'rganilishi lozim bo'lgan muhim mavzulardandir [1].

O'zbekiston yangi rivojlanish bosqichiga qadam qo'yar ekan, xotin-qizlarni ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarga faol jalb etish dolzarb ehtiyojga aylandi. Bugungi kunda jamiyatdagi muammolarni hal etish, kelajagi buyuk davlat barpo etish vazifasi ham ayollarsiz amalga oshishi qiyin. Kelajak avlodni tarbiyalash esa, eng avvalo, to'g'ri yo'lga qo'yilgan oilaviy tarbiyaga tayanadi. Farzandning qanday inson bo'lib voyaga yetishi ko'proq onaning mas'uliyatiga bog'liq. Shu boisdan ham, davlatimiz xotin-qizlarga alohida e'tibor qaratib, ularning turli sohalarda faol ishtirok etishi uchun zarur sharoitlar yaratmoqda [2].

Ayollar, ayniqsa, jamiyatda ma'rifatni yoyishda beqiyos rol o'ynaydi, zero ular millat tarbiyachisidir. Har qanday xalqning taraqqiyoti esa ta'lim va tarbiyaga borib taqaladi. O'zbek xalqida esa qizlarga ta'lim-tarbiya berish, ularni ardoqlash qadimdan ustuvor qadriyat sanaladi.

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, professor X.O.Shayxova o'z tadqiqotlarida ayollarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi o'rni, zamonaviy va milliy fazilatlari masalalarini markaziy o'ringa qo'yadi. Unga ko'ra, ayollar tengligini ta'minlash, ularning fikrlash madaniyatini rivojlantirish, jamiyatdagi mavqeini oshirish va ularga xos qadriyatlarni chuqurroq rivojlantirish mustaqil davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biridir. Xotin-qizlarning madaniy, axloqiy va intellektual salohiyatini oshirish, ularning onalik vazifasiga jiddiy qarashga o'rgatish mustaqillikning asosiy tamoyillaridan hisoblanadi.

O'zbek oilasida qizlarning go'zal xulqli bo'lishi doimiy talab sifatida qo'yilgan. Axloq-odob nafaqat nazariy bilim, balki kundalik hayotda qo'llanishi bilan ahamiyatli bo'ladi. Bu esa ota-onaning mas'uliyatiga bog'liq. Ayniqsa, qizlar tarbiyasida asosiy rol onalarga to'g'ri keladi. Tarixan ota oilaning moddiy ehtiyojlarini qondirish bilan shug'ullansa, onalar bolalarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. "Sut bilan kirgan, jon bilan chiqadi" degan xalq naqli bejiz aytilmagan.

So'nggi yillarda ba'zi oilalarda farzand tarbiyasida salbiy holatlar kuzatilmoqda. Bu holat ota-onalarning e'tiborsizligi, beparvoligi natijasida yuzaga kelmoqda. Ko'p hollarda ota-onalar farzandining xatti-harakatidan norozilik bildiradilar. Ayrim hollarda esa, farzandlar "Mehribonlik uylari"ga topshirilmoqda. Bu esa milliy qadriyatlarimizga zid holat sanaladi.

Xususan, qizlar tarbiyasining izdan chiqishi jamiyatga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Agar bilim, tajriba va qadriyatlar qizlarga yetkazilmasa, bu oila va jamiyatning inqirozga yuz tutishiga olib keladi. Shuning uchun onalarning tarbiyaviy roli muhim sanaladi. Agar qizlar yoshligidan ijtimoiy faol, ongli shaxs sifatida shakllansa, ular kelajakda barkamol onalarga aylanishadi. Xulosa shuki, har bir jamiyatning taraqqiyoti ijtimoiy faol qizlarning tarbiyasiga chambarchas bog'liqdir [3].

Qizlar tarbiyasining etnopedagogik jihatlarini tabaqalashtirib o'rganish, masalaning turli qirralarini yoritishga imkon beradi. Uzoq vaqt davomida pedagogika milliy ildizlardan uzilgan holda neytral tusda bo'lib qoldi. Bu esa ta'lim-tarbiya sifatining pasayishiga sabab bo'ldi.

Talaba xotin-qizlarda ijtimoiy faol shaxs sifatlarini shakllantirish qadim zamonlardan psixologik-pedagogik muammo sifatida qaralgan. Tarixda odatda o'g'il bolalar tarbiyasiga katta e'tibor qaratilgan. Qizlarga esa tikuvchilik,

kashta tikish kabi an'anaviy hunarlar o'rgatilgan. Ammo tarixiy manbalar qizlar faqat bu bilan cheklanmaganini ko'rsatadi.

Islom dini ham yosh avlod tarbiyasiga katta urg'u beradi. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) "Farzandni go'zal odob bilan tarbiyalash ko'p sadaqadan afzal" deganlar. Shuningdek, farzandlarga foydali kasblarni o'rgatish ham buyurilgan.[4]

Ijodiy va ijtimoiy faollik bo'yicha tarixda Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari namunadir. Bobur va uning farzandlari adabiyot, tarix, san'atga chuqur qiziqish bildirgan. Jumladan, Gulbadan begim "Humoyunnoma" asarini yozgan. Boburiylar davrida ta'lim va tarbiya masalalariga katta e'tibor qaratilgan.

Sharq allomalari Abu Rayhon Beruniy, Forobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy va boshqalar o'z asarlarida ta'lim-tarbiya masalalariga chuqur yondashib, ijtimoiy tarbiya asoslarini belgilab berganlar. Jadid pedagoglari – Behbudiy, Munavvarqori, Avloniy, Hamza Hakimzoda singari ma'rifatchilar esa o'sib kelayotgan avlodni jamiyat hayotiga tayyorlashni ta'kidlaganlar.

Zamonaviy olimlar ham bu boradagi tadqiqotlarni davom ettirmoqda. Masalan, psixolog V.M.Karimova o'zbek yoshlarining oila haqidagi tasavvurlarini o'rgangan. Pedagog A.Q.Munavarov oilaning ijtimoiy tarbiyada tutgan o'rnini tahlil qilgan. O.Musurmonova esa oilada ma'naviy madaniyatni shakllantirishga e'tibor qaratadi. U oilaviy tarbiyani nihol parvarishiga o'xshatib, undagi tarbiya turlari – axloq, vatanparvarlik, estetik, jismoniy tarbiya kabi jihatlarning oilada shakllanishini ta'kidlaydi [5].

Shuningdek, M.Inomova, Sh.Atadjanova, Sh.Shodmonova kabi olimalar bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash masalasini yosh davrlari asosida tadqiq etganlar. Oila nafaqat dam olish joyi, balki tarbiyaning muhim manbai sifatida qaraladi.

Xotin-qizlarning oiladagi va jamiyatdagi o'rni tobora muhim ahamiyat kasb etib borayotgan ijtimoiy-psixologik jarayonlardan biridir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ayol nafaqat farzand tarbiyachisi, balki jamiyat taraqqiyotining faol ishtirokchisidir. Ayollar oiladagi axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda, yosh avlodga milliy an'analar, odob-axloq me'yorlarini singdirishda muhim rol o'ynaydi. Oila muhitining sog'lomligi bevosita onaning ma'naviy va ruhiy yetukligiga bog'liq.[6]

So'nggi yillarda o'tkazilgan ijtimoiy so'rovlar natijasiga ko'ra, xotin-qizlar o'zining ijtimoiy faolligi, ta'lim olishga bo'lgan intilishi va jamiyatda o'z o'rnini topishga bo'lgan ishtiyoqi bilan ajralib turmoqda. Jumladan, oliy ta'lim muassasalarida o'qiyotgan talabalarning katta qismini ayollar tashkil etmoqda, bu esa ularning kelajakda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda yetakchi bo'lib borayotganini ko'rsatadi.

Oilaviy munosabatlarda esa ayolning mehr-oqibatli, fidokor va bag'rikeng bo'lishi oilaning mustahkamligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. Ayol – oila tayanchi, uning mustahkamligi, tinchligi va barqarorligining kafolati. Erkak va ayol o'rtasidagi o'zaro hurmat va mas'uliyatli munosabat oilaviy muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida quyidagi natijalarga erishildi [7]:

- O'zbek oilasida ayolning axloqiy-ruhiy ta'siri yuqori baholandi;
- Ta'lim olayotgan xotin-qizlarning aksariyati o'z kasbiy va ijtimoiy o'rnini anglab yetgan;
- Oilaviy qadriyatlar va farzand tarbiyasida ayolning roli barqarorlik va ma'naviyatni ta'minlaydi;
- Ayollarning ijtimoiy faoliyatga jalb etilishi ularning oilaviy ahvoliga salbiy emas, aksincha, ijobiy ta'sir ko'rsatayotgani aniqlandi.

Xotin-qizlarning oilada va jamiyatdagi o'rni tobora kuchayib borayotgan bugungi globallashuv davrida ularning ta'lim, tarbiya va oilaviy munosabatlardagi ishtiroki o'ta muhim ijtimoiy hodisa sifatida qaralmoqda. Ayolning farzand tarbiyasidagi mas'uliyati, jamiyatdagi faol pozitsiyasi, ma'naviyati va intellektual salohiyati oilaning barqarorligi va jamiyatning ma'naviy yuksalishida hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ayollar faqatgina oilaviy doirada emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda ham faol ishtirok etayotganlari jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta'sir qilmoqda. Ayniqsa, ta'lim olgan, kasb-hunar egallagan, o'z huquq va majburiyatlarini yaxshi anglagan xotin-qizlar sog'lom avlodni tarbiyalashda, sog'lom muhitni shakllantirishda katta hissa qo'shmoqda.

Shuningdek, oilaviy munosabatlarda ayollarning mehribonlik, sabr-toqat va bag'rikenglik fazilatlari orqali oilaviy barqarorlik, totuvlik va o'zaro hurmatga asoslangan munosabatlar qaror topayotgani aniqlandi. Bu esa farzandlarning sog'lom ruhiy rivojlanishi, jamiyatda barkamol inson sifatida shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova D.X. Ayol va jamiyat: ijtimoiy-huquqiy yondashuv. – Toshkent: Adolat, 2019.
2. Xudoyberganov Q. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
3. Yusupova M. Oila institutida ayollarning ijtimoiy roli va ta'siri // Jamiyatshunoslik, 2021, № 4. – B. 45–50.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
5. Azizxo'jayeva N.N. Ta'lim-tarbiya nazariyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2023.
7. O'zbekiston Respublikasining «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – Toshkent, 2022.

Nafisa NAZAROVA

O'TKIR HOSHIMOVNING "URUSHNING SO'NGGI QURBONI" HIKOYASIDA QO'LLANGAN IBORALARNING LINGVISTIK TALQINI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'tkir Hoshimovning "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasida qo'llangan iboralar lingvistik va badiiy-estetik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda urush davri og'ir ijtimoiy-maishiy muhiti, qahramonlarning ichki ruhiy kechinmalari, qo'rquvi, xavotiri va xarakter xususiyatlarini ochib berishda frazeologik birliklarning tutgan o'rni yoritilgan. Shuningdek, xalqona iboralarning matn ta'sirchanligini oshirishdagi hamda personajlar nutqini individuallashtirishdagi xizmatlari ilmiy misollar asosida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: "Urushning so'nggi qurboni", ibora, frazeologizm, frazeologik birlik, ko'chma ma'no, obrazlilik.

Annotation. This article provides a linguistic and artistic-aesthetic analysis of the phraseological units used in Otkir Hoshimov's story "The Last Victim of the War" ("Urushning so'nggi qurboni") The study highlights the role of phrase idioms in depicting the harsh socio-economic environment of the wartime period, as well as the inner psychological experiences, fears, anxieties, and character traits of the protagonists. Furthermore, based on scientific examples, the paper demonstrates the function of folk phraseological units in enhancing the emotional expressiveness of the text and individualizing the characters' speech.

Keywords: "Urushning so'nggi qurboni", phraseological unit, idiom, figurative meaning, imagery.

Аннотация. В статье проводится лингвистический и художественно-эстетический анализ фразеологических единиц, использованных в рассказе Уткира Хашимова «Последняя жертва войны» («Urushning so'nggi qurboni»). В исследовании освещается роль фразеологизмов в раскрытии тяжелой социально-бытовой обстановки военного времени, а также внутренних психологических переживаний, страхов, тревог и характера персонажей. Кроме того, на основе научных примеров раскрывается функция народных фразеологизмов в усилении эмоциональной выразительности текста и индивидуализации речи персонажей.

Ключевые слова: "Urushning so'nggi qurboni", фразеологизм, фразеологическая единица, идиома, переносное значение, образность.

Badiiy asar tilining ta'sirchanligi va obrazliligi ko'p jihatdan unda xalq tiliga xos bo'lgan iboralarning qo'llanishi bilan bog'liq. Iboralar tilning tayyor, barqaror va ko'chma ma'noda qo'llanadigan birliklari bo'lib, ular oddiy so'z orqali ifodalash qiyin bo'lgan murakkab ruhiy holat, munosabat va kechinmalarni ixcham hamda ta'sirchan tarzda ifodalash imkonini beradi. O'tkir Hoshimov ijodida xalqona nutq, sodda va tabiiy ifoda, jonli dialoglar alohida o'rin tutadi. Adibning "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasida ham xalq tilining boy imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanilgan.

Hikoya voqealari urush davridagi og'ir hayot, oziq-ovqat tanqchiligi, qashshoqlik, o'g'rilik, oilaviy ziddiyatlar va insoniy munosabatlarning murakkablashuvi davrida kechadi. Bunday muhitni tasvirlashda iboralar muhim lingvistik vosita vazifasini bajaradi. Hikoyaning dastlabki sahifalaridayoq qahramonning ruhiy holatini ifodalovchi iboraga duch kelamiz: *"...u endi payqaganday g'ashi keldi"*. Bu yerda *"g'ashi kelmoq"* iborasi kishining biror holat yoki narsadan norozi bo'lishi, ko'ngliga yoqmaslik, bezovta bo'lishi ma'nosini anglatadi. Shoikromning oddiy ro'zg'or buyumlaridan ham noroziligi uning ichki bezovtaligini ko'rsatadi. Demak, ibora qahramonning tashqi harakatini emas, uning ichki ruhiy holatini ifodalashga xizmat qilgan.

Shuningdek, asarda: *"...yana o'sha tovoqqa, bandi kuygan qoshiqqa ko'zi tushib, tag'in g'ashlandi"*. *"Ko'zi tushmoq"* iborasi "ko'rib qolmoq", "nazariga tushmoq" ma'nolarida qo'llangan. Mazkur ibora takroriy tarzda kelib Shokiromning e'tiborini aynan o'sha ro'zg'or buyumlariga qaratadi. Hikoyadagi Shoikrom tilidan: *"O'zim itday charchaganman"*. degan jumla ham personajning holatini ta'sirchan ifodalashga xizmat qiladi. Bu o'rinda *"itday charchamoq"* o'ta kuchli charchoqni bildiruvchi obrazli ifodadir. "Juda charchadim" shaklidagi oddiy ifodaga nisbatan ushbu birlik personaj nutqiga xalqonalik va emotsional bo'yoq beradi.

Asarda urushning insonlar hayotiga ko'rsatgan ta'siri ham frazeologik birliklar orqali ifodalanadi. Masalan: *"Bir xil odamlar tirnoqqa zor"*. *"Tirnoqqa zor"* birikmasi orqali ma'no ko'chishining synekdoxa usulidan foydalanib farzand ko'rishga muhtoj bo'lgan kishilar holati bildiriladi. Ushbu ma'no ko'chishi hikoyada oila, farzand va nasl masalasining o'sha davrdagi ijtimoiy ahamiyatini ifodalash bilan birga, Shokromning oilaviy vaziyatiga nisbatan munosabatini ham ochib beradi.

Yana bir o'rinda: *"Uning xotini bo'lsa, yonidan o'tib ketsa ham boshqorong'i bo'lavergan"*. *"Boshqorong'i bo'lmoq"* homiladorlik bilan bog'liq holatni xalqona tarzda ifodalovchi frazeologik birlikdir. Muallif ushbu ibora orqali Xadichaning ketma-ket farzand ko'rishini oddiy tibbiy yoki ilmiy atama bilan emas, xalq tilidagi tabiiy ifoda orqali tasvirlaydi. Urushning davom etayotgan ta'siri esa quyidagicha ifodalanadi: *"...hamon uning soyasi odamlar boshiga ko'lanka tashlab turibdi"*. Bu o'rinda *"soya tashlamoq"* birikmasi o'zining to'g'ri ma'nosidan tashqari, ko'chma ma'noda qo'llangan. Urush tugash arafasida yoki uzoqlashayotgan bo'lsa ham, uning oqibatlari odamlar hayotidan ketmaganini anglatadi. Shunday qilib, ushbu ifoda urushni go'yo insonlar boshiga soya solib turgan hodisa sifatida obrazlashtiradi.

Hikoyada iboralar personajlarning xarakterini ochishda ham muhim vosita hisoblanadi. Masalan: *"...ikir-chikir gaplar chiqaverganidan keyin..."* *"Ikir-chikir gaplar"* arzimas, mayda-chuyda, keraksiz gap-so'zlarni anglatadi. Bu ibora Shokrom oilasidagi kelishmovchiliklarning sababini umumlashtirib beradi.

Shuningdek: *"...qovog'ini solib"*. Bu ibora Shokromning norozi va jiddiy holatini ifodalaydi. *"Qovog'ini solmoq"* kishining jahli, noroziligi yoki xafaligi yuz ifodasida namoyon bo'lishini bildiradi. Adib shu birlik orqali qahramonning ruhiy holatini batafsil tasvirlamasdan, qisqa va obrazli tarzda ifodalagan.

Quyidagi jumlada esa: *"Shokrom ... tishini g'ijirlatdi"*. *"Tishini g'ijirlatmoq"* iborasi kuchli g'azab, alam yoki o'zini zo'rg'a tiyish holatini anglatadi. Bu yerda Shokromning xotiniga nisbatan jahlini jismoniy harakat orqali ko'rsatish bilan birga, uning ichki ziddiyati ham ochiladi. U g'azablangan bo'lsa-da, xotinini urishdan o'zini tiyishga harakat qiladi.

Hikoyaning keyingi qismlarida iboralar qahramonlarning qo'rquvi va xavotirini tasvirlashda faol qo'llanadi. Xadicha: *"Men uchta jo'ja bilan jonimni hovuchlab o'tirganim yetmaydimi?!"* – deydi. *"Jonini hovuchlab o'tirmoq"* kuchli qo'rquv, xavotir va xavf ostida yashash holatini anglatadi. Bu ibora urush davrida yolg'iz ayolning oilasi xavfsizligidan xavotirda yashayotganini juda ta'sirchan ifodalaydi.

Shokrom ham o'g'ri tushishi ehtimolini o'ylarkan: *"...o'zining ham yuragi seskanib ketganini payqadi"*. Bu yerda *"yuragi seskanmoq"* kutilmagan qo'rquv yoki xavotirni bildiradi. Personaj tashqi tomondan o'zini xotirjam ko'rsatishga harakat qilsa-da, ibora uning ichki qo'rquvini fosh qiladi.

Yana kuchli psixologik holat quyidagicha tasvirlanadi: *"... yuragi orqasiga tortib ketdi"*. Mazkur ibora birdaniga kuchli

qo'rqish, vahimaga tushish ma'nosini anglatadi. Shokrom devorning bir qismi o'pirilib tushganini ko'rib, u yerdan o'g'ri kirgan bo'lishi mumkinligini o'ylaydi. Demak, ibora syujetdagi keskinlikning kuchayishiga ham xizmat qiladi.

Hikoyada iboralarning yana bir muhim xususiyati – ular oddiy axborotni emotsional va obrazli axborotga aylantiradi. Masalan: *"...ko'ngli g'ash tortib, uyiga qaytdi"*. *"Ko'ngli g'ash tortmoq"* kishining biror noxush hodisani sezganday bezovta bo'lishini bildiradi. Shokrom uyiga kelishidan oldin nimadir yomon bo'lganini ich-ichidan sezadi. Keyinchalik sigirning o'g'irlangani ma'lum bo'ladi. Demak, ibora nafaqat qahramonning ruhiy holatiga ham xizmat qiladi.

Hikoyada: *"...qora qonga belanib yotganini..."* ifodasi ham uchraydi. *"Qonga belanmoq"* jiddiy jarohatlangan yoki qon ichida qolgan holatni obrazli tarzda ifodalaydi. Bu birlik voqeaning fojeaviyligini kuchaytirib, o'quvchi tasavvurida keskin manzara hosil qiladi.

Asarning keyingi qismida Shokromning o'z sigirini qanday qadrlagani: *"Qora kunlari uchun, ne umidlar bilan tishida tishlab yurgan sigirini o'g'irlagani uchun..."* tarzida ifodalanadi. *"Tishida tishlab yurmoq"* birikmasi qiyinchilik bilan, avaylab-asrab, katta umid bilan biror narsani saqlab yurish ma'nosini anglatadi. Bu yerda sigir oddiy chorva sifatida emas, oilaning tirikchiligi va kelajak umidi sifatida tasvirlangan. Shuning uchun ushbu ibora asardagi ijtimoiy-maishiy mazmunni kuchaytiradi.

O'tkir Hoshimov hikoyasidagi iboralarning aksariyati xalq og'zaki nutqiga yaqin. Masalan, *"g'ashi kelmoq"*, *"qovog'ini solmoq"*, *"jonini hovuchlab o'tirmoq"*, *"ko'ngli g'ash tortmoq"*, *"yuragi orqasiga tortib ketmoq"*, *"tishini g'ijirlatmoq"* kabi birliklar kundalik so'zlashuv tilida ham faol qo'llanadi. Adib bunday birliklardan foydalanib, personajlar nutqini sun'iylashtirmaydi. Aksincha, qahramonlar xuddi real hayotdagi odamlar kabi tabiiy gapiradi. Bu esa hikoyaning xalqchilligi va hayotiyligini oshiradi.

Iboralar personajlarning individual nutqini yaratishda ham muhim ahamiyatga ega. Shokromning jahldorligi, Xadichaning qo'rquvi va xavotiri, Umri xolaning sabr-toqati kabi jihatlar ko'pincha aynan obrazli iboralar orqali ochib beriladi. O'tkir Hoshimovning "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasida qo'llangan iboralar asarning badiiy-estetik qimmatini ta'minlovchi muhim lingvistik vositalardan biridir. Ular orqali yozuvchi qahramonlarning ruhiy holati, qo'rquvi, g'azabi, xavotiri, noroziligi va umidlarini ixcham, obrazli hamda ta'sirchan tarzda ifodalagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hoshimov O'. Urushning so'nggi qurboni: hikoyalar. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2018.
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1978.
3. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1992.
4. Yo'ldoshev B. Frazeologik uslubiyat asoslari. – Samarqand: SamDU, 1999.

Gulnora QOSIMOVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti yaponshunoslik oliy maktabi dotsenti

YAPON BOLALAR ADABIYOTINING SHAKLLANISHIDA IVAYA SAZANAMI IJODINING AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Meiji davri (1868–1912) yapon madaniyati va adabiyotining jadal modernizatsiyalashuvi sharoitida milliy bolalar adabiyotining shaklanishi hamda uning institutsional poydevorini yaratishda taniqli adib, folklorshunos va jamoat arbobi Ivaya Sazanamining tutgan o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda yapon bolalar nasrining ilk original mualliflik namunasi – "Koganemaru" (1891) qissasining janriy-uslubiy xususiyatlari, adibning "genbun-itchi" (so'zlashuv va adabiy til birligi) islohotini bolalar adabiyotiga tatbiq etishdagi xizmatlari hamda yapon va jahon folklorini tizimlashtirishga qaratilgan fundamental antologiyalari yoritiladi. Shuningdek, Sazanamining "Shonen sekai" jurnali, "danvakai" (ertak aytish kechalari) harakati hamda rasmli kitoblar seriyasi orqali bolalar adabiyotini mustaqil sohaga aylantirishdagi tashkiliy faoliyati, shuningdek, uning merosiga Taishyo davri adabiy harakatlarida berilgan tanqidiy baholar ilmiy asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Ivaya Sazanami, yapon bolalar adabiyoti, Meiji davri, Koganemaru, genbun-itchi, dova, otogi-banashi, Shonen sekai, danvakai, yapon folklori.

Annotation. This article examines the establishment of modern Japanese children's literature amidst the modernization of the Meiji period (1868–1912) and analyzes the pivotal role of writer, folklorist, and editor Iwaya Sazanami in building its institutional and genre foundations. The study explores the genre characteristics of "Koganemaru" (1891), recognized as the first original piece of modern Japanese children's fiction, along with Sazanami's application of the genbun-itchi (unification of spoken and written language) reform. It investigates his monumental anthologies systematizing folklore, and highlights his organizational initiatives—such as "Shonen sekai" magazine, the danwakai (storytelling gatherings) movement, and illustrated book series—which elevated children's literature to an autonomous domain, while providing a critical evaluation of his legacy within Taisho-era literary movements.

Keywords: Iwaya Sazanami, Japanese children's literature, Meiji period, Koganemaru, genbun-itchi, dōwa, otogi-banashi, Shōnen sekai, danwakai, Japanese folklore.

Аннотация. В статье анализируется процесс формирования японской детской литературы в контексте модернизации эпохи Мэйдзи (1868–1912), а также определяющая роль выдающегося писателя, фольклориста и общественного деятеля Ивая Садзанами в создании её институциональных и жанровых основ. В исследовании рассматриваются жанрово-стилистические особенности повести «Коганэмару» (1891) – первого оригинального произведения японской детской прозы, заслуги автора во внедрении реформы «гэнбун-итти» (единство устной и письменной речи) в детскую литературу, а также его фундаментальные антологии, направленные на систематизацию фольклора. Кроме того, освещается организаторская деятельность Садзанами по утверждению детской литературы как самостоятельной сферы посредством журнала «Сёнэн сэкай», движения «данвакай» (вечера сказительства) и иллюстративных изданий, а также приводится критическая оценка его наследия в контексте литературных движений эпохи Тайсё.

Ключевые слова: Ивая Садзанами, японская детская литература, эпоха Мэйдзи, Коганэмару, гэнбун-итти, дова, отоги-банаси, Сёнэн сэкай, данвакай, японский фольклор.

Meiji islohotidan (1868) so'ng Yaponiyada kechgan jadal modernizatsiya va g'arblashtirish jarayonlari milliy madaniyat hamda adabiyot oldiga to'laqonli yangi va murakkab vazifalarni qo'ydi [10: 11]. XIX asrning oxirgi choragiga qadar Yaponiyada bolalar mutolaasi va ma'naviy tarbiyasi asosan utilitar-didaktik xususiyatga ega bo'lib, konfutsiylik hamda buddaviylik axloq qoidalarini singdirishga xizmat qiluvchi tor ma'rifiy vosita hisoblangan [8: 7]. Biroq Meiji davrining ikkinchi yarmiga kelib, mamlakatda zamonaviy ta'lim tizimining yo'lga qo'yilishi va jamiyatning jadal dunyoviylashuvi natijasida bolalar uchun mo'ljallangan mustaqil, avtonom va badiiy jihatdan mukammal adabiyot yaratish zarurati yuzaga keldi.

Yapon adabiyotshunosligida bolalar adabiyotining (日本児童文学) shakllanishi uzoq va boy tarixiy ildizlarga ega. O'rta asrlardagi "otogi-zoshi" (御伽草子, "ko'ngilochar qissalar") namunalari hamda Edo davrining (1603-1867) ommaviy ksilografik kitoblari ("kusa-zoshi" (草双紙, "ommabop illyustratsiyali kitoblar", "akahon" (赤本, "qizil kitobchalar")) bolalar mutolaa materiallarining dastlabki ko'rgazmali shakllarini yuzaga keltirgan edi. Biroq ushbu an'anaviy matnlar tijoriy va maishiy xususiyatga ega bo'lib, zamonaviy adabiy-pedagogik talablarga to'liq javob bera olmas edi.

Ushbu tarixiy va adabiy ehtiyojni birinchi bo'lib teran anglab yetgan hamda yapon bolalar nasrini professional san'at darajasiga ko'targan markaziy shaxs Ivaya Sazanami (1870–1933) bo'ldi [2: 4]. U adabiyotshunos, tanqidchi, folklor to'plovchisi, muharrir va jamoat arbobi sifatida yapon bolalar adabiyotining institutsional hamda janriy poydevorini yaratdi [10]. Sazanamigacha bo'lgan davrda bolalar kitoblari arzon va yuzaki nashrlardan iborat bo'lgan bo'lsa, uning sa'y-harakatlari va tashkiliy faoliyati evaziga bolalar adabiyoti yapon jamiyatida rasmiy, yuksak va kattalar adabiyoti bilan teng darajadagi adabiyot maqomiga sazovar bo'ldi [5: 9].

Yapon adabiyotshunosligida va tarixiy manbalarda 1891-yilning yanvar oyida Hakubunkan (博文館) nashriyotining "Soshyo" (叢書, "Mumtoz kutubxona") turkumida e'lon qilingan Ivaya Sazanami mualliffigidagi 「こがね丸」/「黄金丸」 ("Koganemaru" yoki "Zarhal it") qissasi Yangi davr yapon adabiyotining birinchi original mualliflik badiiy ertagi hamda zamonaviy bolalar nasrining tamal toshi sifatida e'tirof etiladi [2: 10]. Asar fabulasi o'z otasining o'limi uchun qasos olish yo'lida og'ir mashaqqat va sinovlarni yengib o'tgan sadoqatli it Koganemaruning dramatik sarguzashtlariga bag'ishlangan.

Asar o'zining tashqi tuzilishi va motivlar tizimiga ko'ra an'anaviy samuraylik axloqiy kodeksida uchraydigan "katakiuchi" (敵討ち, qat'iy qasos olish odati) an'anasiga, shuningdek, Edo davri "yomihon" (読本, "mutolaa qilishga mo'ljallangan kitoblar") va "kusa-zoshi" (草双紙) adabiy qoliplariga tayangan edi [2]. Biroq tuzilish va estetik nuqtai nazardan Sazanami tamomila yangicha matn turini yaratdi. Asar qat'iy va zerikarli rasmiy didaktikadan, quruq ma'rifatparvarlik o'gitlaridan to'liq xoli bo'lib, unda axloqiy qadriyatlar – ota-onaga hurmat (孝行), minnatdorlik (報恩), burch (義理), insoniy hamdardlik (人情) va sadoqatli do'stlik tushunchalari qahramonlarning harakatlari hamda xarakter mantig'i orqali jonli tarzda singdirilgan edi [3; 5].

Asar syujeti dinamik, psixologik jihatdan asoslangan va bolaning mustaqil idrok etish imkoniyatiga moslab qurilgan edi [2]. Diqqatga sazovor jihati shundaki, Sazanami "Koganemaru" qissasining so'zboshisida bolalar uchun o'qish oson bo'lishi maqsadida ataylab "genbun-itchi" (言文一致, "so'zlashuv va adabiy til birligi") uslubidan voz kechib, an'anaviy ritmik mumtoz yozuv uslubini (文芸体, "badiiy-mumtoz uslub") qo'llaganini ta'kidlaydi.

Mazkur holat o'sha davr adabiy muhitida qizg'in bahslarga sabab bo'ldi. Xususan, mashhur adabiyotshunos va ma'rifatparvar Tsubouchi Shoyo"Yomiuri Shinbun" (読売新聞, "Yomiuri gazetasi") gazetasida chop etilgan maqolasida Sazanamining ushbu pozitsiyasini tanqid qilib, ilgari so'zlashuv tilida romanlar yozgan adibning bolalar uchun asar yaratishda yana eski mumtoz tilga qaytishini uslubiy chekinish deb atadi. Shunga qaramay, "Koganemaru" kitobxonlar, yosh o'quvchilar va hatto kattalar o'rtasida mislsiz ommaviylik va muvaffaqiyat qozondi hamda adibning yapon bolalar adabiyoti olamida birinchi darajali yulduz va yetakchi namoyandaga aylanishiga olib keldi [10].

Ivaya Sazanami yapon bolalar adabiyoti tilini isloh qilishda va unga ravon hamda jonli xususiyat bag'ishlashda hal qiluvchi rol o'ynadi [2; 10]. U Ozaki Koyo rahbarlik qilgan mashhur "Ken'yusha" (硯友社, "Siyohdon do'stlari jamiyati") adabiy to'garagining faol va yetakchi a'zolaridan biri edi [2]. Sazanami "Ken'yusha" birlashmasining markaziy lingvistik va estetik tamoyili bo'lmish "genbun-itchi" (言文一致, "yozma va og'zaki tilning birligi") islohotini bolalar adabiyoti sohasiga izchil va dadil olib kirdi [2: 10].

Ushbu til islohotining mohiyati va yapon adabiyotida tutgan inqilobiy ahamiyati shundan iborat bo'ldiki, Sazanami bolalar uchun mo'ljallangan matnlarda asrlar davomida hukmronlik qilgan murakkab, sun'iy va og'ir xitoylashgan mumtoz yozuv uslubidan – "kanbun" (漢文, "xitoycha mumtoz yozuv") va an'anaviy qat'iy grammatik shakllardan butunlay voz kechdi. Uning o'rniga bolaning jonli so'zlashuv nutqiga yaqin, o'qish uchun yengil, ravon va intonatsion jihatdan boy *dearu* hamda *deimasu* so'zlashuv-adabiy uslublarini shakllantirdi [2: 5]. Matn va bola o'rtasidagi ko'p asrlik til g'ovini olib tashlash orqali Sazanami yapon "dova", ya'ni mualliflik ertagi (童話) janri va zamonaviy bolalar nasrining lingvistik poydevorini yaratdi [2].

"Koganemaru" erishgan ulkan zafardan so'ng, Ivaya Sazanami yapon va jahon folklorini tizimlashtirish hamda modernizatsiyalashga qaratilgan keng ko'lamli va fundamental noshirlik loyihasiga qo'l urdi [2: 8]. 1894–1896-yillarda u 24 jilddan iborat 「日本昔噺」 ("Yapon qadimgi ertaklari") antologiyasini e'lon qildi [2: 10]. So'ngra 1899-1903-yillarda ushbu loyihaning mantiqiy va xalqaro davomi sifatida 24 jildlik「世界昔噺」("Jahon xalqlari qadimgi ertaklari") to'plamini kitobxonlarga taqdim etdi [2: 5].

Sazanami ushbu antologiyalarni tuzishda xalq og'zaki ijodidagi qadimiy syujetlarni (「桃太郎」("Momotaro" yoki "Shaftolizoda"), 「カチカチ山」 ("Qirs-qirs tog'i"),「舌切り雀」 ("Tili kesilgan chumchuq") va boshqalar) shunchaki ko'chirmadi, balki ularni zamonaviy pedagogik va estetik talablarga mos ravishda qayta ishladi. Matnlar mahalliy og'ir dialektizmlar va dag'al iboralardan tozalandi, o'rta asrlarga xos bo'lgan ortiqcha shafqatsizlik hamda qo'pol unsurlar yumshatildi, folklor matnlariga umummilliy va axloqiy-estetik mezonlar berilib, ular zamonaviy mualliflik ertagi – "dova" (童話) janrining poydevoriga aylantirildi [2: 8].

Ivaya Sazanami yapon bolalar matbuotini tabaqalashtirish va uning institutsional infratuzilmasini yaratishda faol va tashabbuskor tashkilotchi bo'ldi [6; 10]. 1895-yilda Hakubunkan (博文館) nashriyotida Sazanami bosh muharrirligi ostida tashkil etilgan "Shonen sekai" (少年世界, "O'smir o'gil bolalar olami") jurnali Yaponiyada bolalar davriy matbuotining eng yirik va yetakchi markaziga aylandi [2: 10].

Jurnal ensiklopedik va ma'rifiy xususiyatga ega bo'lib, unda faol, jasur, jismonan va ma'nan barkamol hamda davlatga xizmat qilishga tayyor bo'lgan vatanparvar yoshlar obrazini shakllantirish yetakchi g'oya edi [2]. Bundan tashqari, 1900-yillarda Sazanami yapon bolalar dramaturgiyasi va teatri shakllanishiga kuchli turtki bergan "danvakai" (談話会, "ertak aytish kechalari") harakatini boshlab berdi [5: 6].

Mazkur ommaviy tadbirlarda Sazanami va uning safdoshlari ertaklarni shunchaki o'qib bermay, balki qahramonlar liboslarini kiygan holda kostyumlashtirilgan sahna ko'rinishlarini ijro etish, sehrli fonar (幻燈, "gento") qurilmasi yordamida devor va ekranga rangli tasvirlarni tushirish, jonli musiqiy jo'rlik hamda teatrlashtirilgan intermediyalardan unumli foydalandilar [5]. "Ertak aytish kechalari" tadbirlarining erishgan mislsiz muvaffaqiyati yapon jamiyatida bolalar uchun professional sahna repertuariga bo'lgan ehtiyojni namoyon etdi hamda yapon professional bolalar teatrining (児童劇, "jido geki") tashkiliy va dramaturgik poydevorini yaratdi [6]. Shuningdek, Sazanami 1908-yilda yapon noshirlik faoliyati tarixida birinchi marotaba 24 jildlik 「お伽画帖」 ("Ertaklar albomi") rasmli kitoblar seriyasini nashr ettirib, bolalar kitobida matniy va tasviriy qatlamning uyg'unligini yangi bosqichga olib chiqdi [9; 11].

Ivaya Sazanami yapon bolalar adabiyoti tarixida "otogi-banashi" (お伽話, "ko'ngilochar ertaklar") davrining yetakchi namoyandasi va kashshofi sifatida e'tirof etiladi [10; 4]. Shunga qaramay, Taishyo davri (1912-1926) hamda urushdan keyingi yapon adabiyotshunosligida, xususan, Suzuki Miekichi, Ogava Mimei hamda 1960-yilgi 「子どもと文学」("Bolalar va adabiyot") manifesti vakillari tomonidan Sazanami ijodiy uslubi tanqidiy baholarga ham munosib ko'rilgan: Sazanami ertaklarida samuraylik feodal axloqi (敵討ち, qasos olish odati) hamda ommaviy ko'ngilochar xususiyat saqlanib qolganligi, shuningdek, asarlarda bolaning individual va chuqur ichki psixologik dunyosini aks ettirishdan ko'ra, tashqi sarguzasht va voqealar rivojiga (物語性, "voqeiylik / syujetdorlik") ko'proq urg'u berilganligi tanqid ostiga olingan edi [6: 10]. Shunday bo'lsa-da, keyingi davr tanqidchilari ham Ivaya Sazanami yapon bolalar adabiyotini alohida adabiy va ijtimoiy soha sifatida shakllantirgan, unga til va janr bergan birinchi buyuk adib ekanligini bir ovozdan tasdiqlaydilar [4].

Xulosa qilib aytganda, Ivaya Sazanami yapon zamonaviy bolalar adabiyotining tamal toshini qo'ygan buyuk ma'rifatparvar va adibdir. Uning "Koganemaru" qissasi yapon adabiyotida mualliflik badiiy ertagi janriga asos solgan bo'lsa, "Genbun-itchi" (so'zlashuv va adabiy til birligi) til islohoti va xalq folklorini tizimlashtirish faoliyati bolalar adabiyotining lingvistik hamda poetik poydevorini yaratdi. "O'smir o'g'il bolalar olami" jurnali hamda "ertak aytish kechalari" kabi teatrlashtirilgan harakati orqali Sazanami yapon bolalar madaniyatini institutsional jihatdan yuksak darajaga ko'tardi va Suzuki Miekichi, Ogava Mimei, Niimi Nankichi kabi Taishyo davri bolalar adabiyotining "oltin asri" vakillari uchun mustahkam zamin hozirlab berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Collins V.O. Japanese children's historical fiction up to 1983: a critical assessment of its place within Japanese children's literature: Doctoral dissertation. – Loughborough: Loughborough University, 2014.
2. Inukai K. 文体からみた日本児童文学の誕生 [The birth of Japanese children's literature from the perspective of literary style] // 社会労働研究 [Shakai Rōdō Kenkyū], 1989. Vol. 35 (3/4). – P. 7–25.
3. Jingu T. (神宮輝夫) 『世界児童文学案内』 [Guide to World Children's Literature]. – Tokyo: Rironsha (理論社), 1963.
4. Nihon Jido Bungakusha Kyokai (日本児童文学者協会) 『日本児童文学概論』 [Outline of Japanese Children's Literature]. – Tokyo: Tokyo Shoseki (東京書籍), 1976.
5. Okada J. (岡田純也) 『児童文学への誘い』 [Invitation to Children's Literature]. – Tokyo: Soseiki (創世記), 1983.
6. Shingu T. (新宮晋) 『現代日本の児童文学』 [Contemporary Children's Literature of Japan]. – Tokyo: Hyoronsha (評論社), 1974.
7. Smith N.H. 『児童文学論』 [Theory of Children's Literature]. – Tokyo: Iwanami Shoten (岩波書店), 1964.
8. Suga T. (須賀忠芳) 『須賀忠芳著作集 第1巻：日本の児童文学』 [Collected Works of Tadamichi Suga, Vol. 1: Japanese Children's Literature]. – Tokyo: Ayumi Shoten (あゆみ出版), 1983.
9. Suzuki T., Kimura Y. (鈴木庭一, 木村八重子) 『近世子ども絵本集』 [Collection of Early Modern Children's Picture Books]. – Tokyo: Iwanami Shoten (岩波書店), 1985.
10. Torigoe S. (鳥越信) 『児童文学』 [Children's Literature]. – Tokyo: Kadokawa Shoten (角川書店), 1982.
11. Williams K.H. Visualizing the Child: Japanese Children's Literature in the Age of Woodblock Print, 1678–1888: Doctoral dissertation. – Cambridge: Harvard University, 2013.

Iroda UTAYEVA,
Samarqand davlat pedagogika instituti tillar fakulteti dekani, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

TECHNOLOGICAL DEVELOPMENT AND PRACTICAL APPLICATIONS OF MACHINE TRANSLATION

Annotation. The article examines the technological evolution of machine translation (MT) and its practical applications in multilingual professional communication. The study traces the transition from early code-based and word-for-word methods to hybrid systems combining linguistic rules, machine-readable dictionaries, morphological and syntactic analysis, corpus resources, and computational techniques. Special emphasis is placed on the formative milestones of the Weaver memorandum, the Georgetown-IBM experiment, interlingua concepts, and the commercialization of MT during the personal computer era. Furthermore, the paper evaluates the practical value and limitations of automated translation for technical and professional texts, concluding that MT achieves optimal effectiveness when computational efficiency is integrated with linguistic knowledge and human quality control.

Keywords: machine translation, automated translation, computational linguistics, technical translation, machine-readable dictionary, morphological analysis, syntactic parsing, interlingua, professional communication, multilingual information processing.

Annotatsiya. Maqolada mashinali tarjimaning (MT) texnologik evolutsiyasi va ko'p tilli professional muloqotda amaliy qo'llanishi tadqiq etilgan. Dastlabki kodga asoslangan va so'zma-so'z tarjima usullaridan lingvistik qoidalar, mashinada o'qiladigan lug'atlar, morfologik va sintaktik tahlil, korpus resurslari hamda hisoblash texnikasini o'zida birlashtiruvchi gibrid tizimlarga o'tish bosqichlari yoritilgan. Uiver memorandumi, Jorjtaun-IBM tajribasi, interlingva konsepsiyalari va shaxsiy kompyuterlar davrida mashinali tarjimaning tijoratlashuvi kabi shakllantiruvchi muhim bosqichlarga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, texnik va professional matnlar uchun avtomatlashtirilgan tarjimaning amaliy qiymati va cheklovlari baholanib, hisoblash samaradorligi lingvistik bilimlar hamda inson sifat nazorati bilan uyg'unlashtirilganda mashinali tarjima eng yuqori samaradorlikka erishishi haqida xulosa qilinagan.

Kalit so'zlar: mashinali tarjima, avtomatlashtirilgan tarjima, kompyuter lingvistikasi, texnik tarjima, mashinada o'qiladigan lug'at, morfologik tahlil, sintaktik tahlil, interlingva, professional muloqot, ko'p tilli axborotni qayta ishlash.

Аннотация. В статье исследуется технологическая эволюция машинного перевода (МП) и его практическое применение в многоязычной профессиональной коммуникации. В исследовании прослеживается переход от ранних кодовых и пословных методов к гибридным системам, объединяющим лингвистические правила, машиночитаемые словари, морфологический и синтаксический анализ, корпусные ресурсы и вычислительные методы. Особый акцент делается на таких ключевых вехах формирования, как меморандум Уивера, эксперимент Джорджтаун-IBM, концепции интерлингвы и коммерциализация МП в эпоху персональных компьютеров. Кроме того, в работе оцениваются практическая ценность и ограничения автоматизированного перевода для технических и профессиональных текстов, на основе чего делается вывод о том, что МП достигает оптимальной эффективности при интеграции вычислительной производительности с лингвистическими знаниями и контролем качества со стороны человека.

Ключевые слова: машинный перевод, автоматический перевод, компьютерная лингвистика, технический перевод, машиночитаемый словарь, морфологический анализ, синтаксический разбор, интерлингва, профессиональная коммуникация, многоязычная обработка информации.

Translation is an essential mechanism of intercultural and professional communication because it enables specialists to exchange scientific, technical, economic, and organizational information across linguistic boundaries. The growth of international cooperation has substantially increased the volume of correspondence, contracts, technical documentation, research materials, and other specialized texts that must be processed quickly and accurately. Traditional human translation remains indispensable, but the scale and speed of contemporary information exchange have created a persistent need for technological support. Machine translation therefore emerged not simply as an attempt to replace the translator, but as a means of accelerating multilingual information processing and supporting professional communication.

In higher education, especially in technical universities, translation competence has traditionally been developed through language instruction and professional terminology work. Yet training alone cannot fully address the expanding flow of multilingual information. MT systems provide an additional instrument by automating recurrent linguistic operations, offering rapid draft translation, and facilitating access to foreign-language materials. Their usefulness is particularly evident when the technology is integrated with electronic dictionaries, domain-specific terminology, and human post-editing. At the same time, the quality of automatic output depends on the linguistic complexity of the text, the availability of reliable lexical resources, and the degree to which contextual meaning can be represented computationally [1; 5; 10].

The theoretical development of machine translation has historically followed two broad methodological tendencies. The first seeks a highly abstract semantic representation that can mediate between languages. Within this perspective, translation is treated as a transformation of meaning rather than as simple substitution of words. Semantic models, thesaurus-based procedures, analysis-by-synthesis, and related approaches attempt to represent information at a level sufficiently general to permit transfer between structurally different languages. The second tendency developed from more operational and engineering-oriented research. It proceeds from observable linguistic units, establishes translation equivalents, models their behavior in context, and gradually formalizes increasingly complex morphological, syntactic, and lexical phenomena [5: 8].

Both tendencies contributed to the formation of computational linguistics. Translation theory demonstrated that equivalence cannot be reduced to isolated lexical correspondence, while early computational research showed that linguistic regularities could be partially formalized. The central challenge was therefore to connect linguistic interpretation with procedures that a computer could execute. Research on machine-readable dictionaries, morphology, syntax, semantic representation, and intermediary languages became fundamental to this task. The history of MT shows that

progress depended on the interaction of translation studies, mathematics, information theory, cybernetics, and computer engineering rather than on any single discipline.

Technological Development of Machine Translation

The technological prehistory of MT includes P.P.Smirnov-Troyansky's 1933 patent for a mechanized translation device. A decisive conceptual milestone came in 1947, when Warren Weaver discussed the possibility of using computing machinery for translation, later developing the idea in his 1949 memorandum [11]. Influenced by information theory and cryptanalysis, Weaver treated linguistic messages as structures containing statistically recurrent properties that might be identified computationally. Claude Shannon's work on communication theory further encouraged researchers to examine language in terms of information, coding, probability, and formal regularities [12].

During the late 1940s and early 1950s, researchers began constructing concrete procedures for automatic translation. A.D.Booth and D.G.W.Britten worked on coding schemes for word-for-word translation, while R.H.Richens proposed decomposing word forms into stems and inflectional endings. These developments demonstrated that lexical replacement alone was insufficient and that morphology had to be incorporated into computational processing. The first major conference on MT, organized by Yehoshua Bar-Hillel in 1952, focused attention on syntactic rules, semantic representation, morphology, and machine-readable dictionaries.

The Georgetown–IBM experiment of 1954 became the most visible early demonstration of the technology. Although the system used a very small dictionary and only a limited set of grammatical rules, it successfully translated a prepared group of Russian sentences into English. The demonstration stimulated major investment and strengthened expectations that fully automatic high-quality translation could soon be achieved. Subsequent research, however, revealed that natural language was substantially more complex than early demonstrations suggested. Ambiguity, contextual dependence, idiomaticity, structural variation, and semantic interpretation proved difficult to formalize consistently.

The period from the late 1950s to the late 1960s was therefore both productive and corrective. Researchers developed parsing algorithms, formal models of syntactic structure, intermediary representations, and the concept of an interlingua. In the Soviet Union, MT research was conducted at VINITI and in applied mathematics centers, where experimental systems were implemented on early computers. These projects also helped institutionalize applied linguistics as an interdisciplinary field. Yet by the end of the 1960s, doubts about cost-effectiveness and translation quality reduced support for fully automatic MT, especially in the United States.

From the 1970s onward, the field gradually shifted toward integrated information-processing systems. The spread of personal computers in the 1980s, followed by scanners, optical character recognition, the Internet, and intranet technologies in the 1990s, created a more favorable environment for practical MT. Translation software became commercially viable because users increasingly needed fast access to multilingual technical information. Systems such as Power Translator, Language Assistant, Transend, Stylus, and PROMT reflected this transition from experimental research to deployable software. PROMT, first released in 1991 for English-to-Russian software-related texts, illustrates how domain orientation and computational adaptability could support the practical expansion of MT even when lexical resources were initially limited.

Practical Applications and Limitations

The practical value of MT is most visible in tasks where speed, volume, and access to information are more important than immediate publication-quality output. Automated translation can support the initial processing of technical documents, professional correspondence, instructions, and informational materials. It can also assist specialists who need to identify the general content of a foreign-language text before deciding whether full professional translation is required. Electronic dictionaries and terminology resources further improve this workflow by making lexical choices more consistent and reducing repetitive search operations [3: 6].

Nevertheless, machine translation should not be treated as a universally autonomous solution. Specialized texts contain terminology, abbreviations, polysemy, syntactic compression, and context-dependent meanings that may require expert interpretation. Early MT research already demonstrated that formal procedures alone cannot easily reproduce the full range of human linguistic competence. For this reason, practical effectiveness is highest when automation is combined with domain-specific linguistic resources and human revision. Post-editing is therefore not merely a temporary compromise; it is a rational component of a workflow in which machines handle repetitive processing while specialists evaluate accuracy, terminology, communicative purpose, and stylistic appropriateness.

The historical development of MT also shows that improvements in hardware alone do not guarantee high-quality translation. Progress depends on the interaction of computational capacity with linguistic modeling. Morphological analysis, syntactic parsing, lexical databases, semantic representation, and corpus-based resources each address a different layer of the translation problem. Their integration makes MT more useful for professional communication and explains why multifunctional systems have gradually replaced narrow word-substitution models.

Machine translation has evolved from early mechanized and code-based concepts into a complex interdisciplinary technology. Its history demonstrates a gradual movement from lexical substitution and small machine-readable dictionaries toward morphological analysis, syntactic parsing, intermediary representations, integrated linguistic resources, and commercially deployable information-processing systems. The Weaver memorandum, the Georgetown–IBM experiment, the development of interlingua concepts, and the personal-computer revolution were important milestones in this process. The most sustainable model of MT is one in which computational speed is combined with linguistic knowledge and human quality control. In professional and technical communication, machine translation is therefore best understood as a technology for supporting multilingual information processing rather than as a complete substitute for expert translation.

References

1. Бархударов Л.С. Язык и перевод: вопросы общей и частной теории перевода. М.: Международные отношения, 2010.
2. Бреус Е.В. Основы теории и практики перевода с русского языка на английский. М.: УРАО, 2000.
3. Ветухова Л.М., Жовтяк В.Д., Плохих Е.В. Применение программ машинного перевода в информационном обеспечении международных космических программ // Библиотеки и информационные ресурсы в современном мире науки, культуры, образования и бизнеса, Судак, 2009.
4. Катфорд Дж.К. Лингвистическая теория перевода. М.: Едиториал УРСС, 2004.
5. Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. М.: ЭТС, 2002.
6. Моуд Дж. Машинный перевод: новое поколение технологий [Электронный ресурс]. Режим доступа: http://www.pcweek.ru/business/article/detail.php?ID=47418.
7. Раренко Н.Б. и др. Основные понятия переводоведения (отечественный опыт). М.: Центр гуманитарных научно-информационных исследований, 2010.
8. Тагушева Н.Ю. Машинный перевод // Ломоносов 2015: материалы научно-практической конференции. М.: МГУ, 2015.
9. Тараскин А.А. Машинный перевод. М., 2015.
10. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. М.: Слово, 2012.
11. Weaver W. Memorandum // Rockefeller Foundation. – New York, 1949. http://www.mt-archive.info/Weaver-1949.pdf.
12. Weaver W., Shannon C.E. The Mathematical Theory of Communication. – Urbana: University of Illinois Press, 1963.

Surayyo AKRAMOVA,
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti

JAMOL KAMOL SHE'RIYATIDA TIL SHAXSIYATI VA MUALLIF POZITSIYASINING IFODALANISHI

Annotatsiya. Mazkur tezisda zamonaviy o'zbek she'riyatining yirik namoyandalaridan biri Jamol Kamol ijodida til shaxsiyati va muallif pozitsiyasining ifodalanish xususiyatlari lingvopragmatik nuqtayi nazardan tadqiq etiladi. Badiiy matnda ijodkorning individual nutqiy qiyofasi, dunyoqarashi, axloqiy-estetik qarashlari hamda voqelikka munosabati turli til vositalari orqali namoyon bo'ladi. Tadqiqotda shoirning "Anvarmirzo hikoyatlari" turkumiga kiruvchi "Bo'lmagil" she'ri misolida muallif nutqining pragmatik xususiyatlari, xususan, direktiv va ekspressiv nutqiy aktlarning badiiy vazifasi tahlil qilinadi. She'riy matnda qo'llangan murojaat shakllari, buyruq-istak maylidagi birliklar va baholovchi vositalar orqali Jamol Kamolning insoniy kamolot, kamtarlik va ma'naviy yetuklik haqidagi muallif konsepti ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Jamol Kamol, til shaxsiyati, muallif pozitsiyasi, muallif konsepti, nutqiy akt, lingvopragmatika, she'riy nutq, direktiv akt, ekspressiv akt, badiiy matn.

Annotation. This thesis investigates the features of the linguistic personality and the expression of the author's position in the works of Jamol Kamol, one of the prominent representatives of modern Uzbek poetry, from a linguopragmatic perspective. In a literary text, the creator's individual speech profile, worldview, moral-aesthetic views, and attitude toward reality are manifested through various linguistic means. The study analyzes the pragmatic features of the author's speech – specifically, the artistic function of directive and expressive speech acts – using the example of the poet's poem "Bo'lmagil" (Do Not Be), which belongs to the series "Anvarmirzo hikoyatlari" (The Tales of Anvarmirzo). Through forms of address, units in the imperative-desire mood, and evaluative means used in the poetic text, Jamol Kamol's authorial concept regarding human perfection, modesty, and spiritual maturity is revealed.

Keywords: Jamol Kamol, linguistic personality, author's position, authorial concept, speech act, linguopragmatics, poetic speech, directive act, expressive act, literary text.

Аннотация. В статье с лингвопрагматической точки зрения исследуются особенности проявления языковой личности и авторской позиции в творчестве одного из видных представителей современной узбекской поэзии Джамола Камола. В художественном тексте индивидуальный речевой облик творца, его мировоззрение, морально-эстетические взгляды и отношение к действительности проявляются через различные языковые средства. В исследовании анализируются прагматические особенности речи автора, в частности художественная функция директивных и экспрессивных речевых актов, на примере стихотворения поэта «Bo'lmagil» («Не будь») из цикла «Anvarmirzo hikoyatlari» («Притчи Анвармирзо»). Через формы обращения, единицы в повелительно-желательном наклонении и оценочные средства, использованные в поэтическом тексте, раскрывается авторская концепция Джамола Камола о человеческом совершенстве, скромности и духовной зрелости.

Ключевые слова: Джамол Камол, языковая личность, позиция автора, авторская концепция, речевой акт, лингвопрагматика, поэтическая речь, директивный акт, экспрессивный акт, художественный текст.

Bugungi kun tilshunosligida tilni inson omili bilan bog'liq holda o'rganishga asoslangan antropotsentrik yondashuv muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida shakllandi. Mazkur yondashuv doirasida til shaxsiyati tushunchasi alohida ahamiyat kasb etib, u insonning lisoniy imkoniyatlari, tafakkur tarzi, kommunikativ tajribasi va milliy-madaniy qarashlarining nutq orqali namoyon bo'lishini ifodalaydi. Ayniqsa, badiiy matnda ijodkorning til shaxsiyati uning individual uslubi, estetik qarashlari hamda voqelikka munosabatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Badiiy asarda muallif pozitsiyasi nafaqat mazmun orqali, balki tanlangan til birliklari, uslubiy vositalar va nutqiy strategiyalar yordamida ham yuzaga chiqadi. Muallifning o'quvchiga munosabati, uni ma'lum fikrga yo'naltirishi yoki muayyan qadriyatlarni targ'ib qilishi nutqiy aktlar vositasida amalga oshadi. Shu jihatdan nutqiy aktlar badiiy matnda faqat aloqa vositasi bo'lib qolmay, balki ijodkorning kommunikativ niyati va individual poetik tafakkurini namoyon etuvchi pragmatik birlik sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbek she'riyatida o'ziga xos poetik tafakkuri va falsafiy mushohadalari bilan ajralib turuvchi Jamol Kamol ijodini lingvopragmatik jihatdan o'rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega. Shoir she'riy nutqida inson ma'naviyati, kamtarlik, axloqiy barkamollik kabi umuminsoniy qadriyatlar muhim o'rin tutadi. Ushbu g'oyalar ijodkorning individual til tanlovi, baholovchi birliklari va kitobxonga yo'naltirilgan murojaat shakllari orqali ifodalanadi.

Jamol Kamolning "Anvarmirzo hikoyatlari" turkumidagi "Bo'lmagil" she'ri shoirning ma'naviy-axloqiy qarashlarini aks ettiruvchi badiiy namunalardan biridir. Mazkur she'rda takroriy qo'llangan "bo'lmagil" shakli, baholovchi leksemalar va nasihat ohangidagi murojaatlar muallif pozitsiyasini ochib beruvchi muhim lingvopragmatik vositalar sifatida namoyon bo'ladi. She'riy matndagi bunday birliklarni tahlil qilish orqali Jamol Kamolning til shaxsiyati va individual poetik uslubiga xos jihatlarni aniqlash mumkin.

Badiiy matnda ijodkorning til shaxsiyati uning individual nutqiy qiyofasi, voqelikka munosabat bildirish usuli va ma'naviy-estetik qarashlarini ifodalovchi murakkab hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Shoir tanlagan har bir so'z, murojaat shakli, tasvir vositasi va sintaktik qurilma uning badiiy tafakkuri hamda muallif pozitsiyasini yuzaga chiqaradi. Shu jihatdan she'riy nutq oddiy axborot uzatish vositasi emas, balki ijodkorning ichki dunyosi, qadriyatlar tizimi va kitobxon bilan muloqot shaklini aks ettiruvchi estetik hodisadir.

Jamol Kamol she'riyatida insonning ma'naviy kamoloti, axloqiy pokligi, kamtarligi va ruhiy erkinligi kabi masalalar alohida o'rin tutadi. Shoir poetik nutqida nasihat, murojaat va falsafiy mushohada ohangi uyg'unlashib, muallif pozitsiyasini aniq ifodalovchi vositalarga aylanadi. Bunday holatda til birliklari faqat tasviriy vazifa bajarmaydi, balki o'quvchiga ma'lum ma'naviy ta'sir ko'rsatishga xizmat qiladi. Jamol Kamolning "Anvarmirzo hikoyatlari" turkumidagi **"Bo'lmagil"** she'ri ana shunday pragmatik va poetik xususiyatlarni mujassam etgan asarlardan biridir.

"Bo'lmagil" she'rining asosiy qurilishi takroriy inkor shakli – "bo'lmagil" fe'li atrofida shakllangan. Mazkur birlik grammatik jihatdan taqiq ma'nosini bildirsa-da, badiiy matn doirasida u oddiy man etish emas, balki insonni ma'naviy komillikka chorlovchi axloqiy murojaat vazifasini bajaradi. She'rning boshlanishidagi: *"Har balo bo'l, mayli, lekin, tor-u mahdud bo'lmagil..."* misrasida muallif nutqining o'ziga xos jihati ko'rinadi. Bir qarashda "har balo bo'l" shakli keskin ohangni yuzaga keltiradi, biroq undan keyingi "lekin"

bog'lovchisi orqali asosiy fikr ajratiladi. Shoir insonning tashqi holatidan ko'ra uning ichki dunyosi va tafakkur kengligiga e'tibor qaratadi. *"Tor-u mahdud"* birliklari orqali esa fikriy cheklanganlik, dunyoqarashning torligi salbiy baholanadi. Bu o'rinda muallif pozitsiyasi baholovchi til vositalari orqali ifodalanadi.

Keyingi: *"O'zgalarga masxara, nodon-u chulchit bo'lmagil"* misrasida shoir insoniy munosabatlar masalasiga murojaat qiladi. "Masxara", "nodon", "chulchit" kabi birliklar salbiy semantik yukka ega bo'lib, ular orqali muallif rad etayotgan xususiyatlar ko'rsatiladi. Ushbu birliklarning tanlanishi shoirning axloqiy mezonlarini ochib beradi: inson boshqalarni kamsituvchi emas, balki hurmat qiluvchi va ma'naviy mas'uliyatli bo'lishi kerak. Bu jihat Jamol Kamolning til shaxsiyatida insonparvarlik tamoyili yetakchi ekanini ko'rsatadi.

She'rning *"Kamtarinlik bobida tuproq bo'lishni qil havas..."* misrasida esa muallif idealining ijobiy qirrasi namoyon bo'ladi. *"Tuproq bo'lish"* obrazli ifodasi kamtarlik, soddalik va insoniylik timsoli sifatida qo'llangan. Shoir bu metafora orqali tashqi mavqe yoki shuhratdan ustun bo'lgan ichki poklik g'oyasini ilgari suradi. Mazkur birlik poetik matnda kuchli ekspressiv ta'sir hosil qilib, o'quvchini muallif qadriyatlariga yaqinlashtiradi.

So'nggi misradagi *"Bazm aro zarrin kamarbandlarga yoqut bo'lmagil"* ifodasida ham tashqi hashamat va ichki fazilat qarama-qarshi qo'yiladi. "Zarrin kamarband", "yoqut" kabi obrazlar boylik va dabdaba timsoli bo'lsa, ularning inkor shaklida berilishi shoirning inson qadrini moddiy belgilar bilan o'lchamaslik haqidagi qarashlarini ifodalaydi. Shu orqali muallif pozitsiyasi yanada aniqlashadi: haqiqiy qadr insonning tashqi bezagida emas, balki uning ma'naviy fazilatlaridadir. She'rning barcha bandlarini birlashtirib turuvchi "bo'lmagil" takrori alohida pragmatik ahamiyatga ega. Ushbu shakl orqali shoir kitobxon bilan bevosita muloqotga kirishadi. Bu murojaat buyruq ohangiga ega bo'lsa-da, uning asosida mehr, tajriba va ma'naviy yo'l ko'rsatish mazmuni mavjud. Shuning uchun "bo'lmagil" shakli direktiv nutqiy vosita sifatida namoyon bo'lib, o'quvchini muayyan xulqiy mezonlarga amal qilishga undaydi.

Umuman olganda, "Bo'lmagil" she'rida Jamol Kamolning til shaxsiyati uning tanlagan baholovchi birliklari, obrazli ifodalari va murojaat shakllarida aks etadi. Shoirning muallif pozitsiyasi esa insoniy kamolot, kamtarlik va ma'naviy yuksaklikni ulug'lash orqali namoyon bo'ladi. She'riy nutqdagi pragmatik vositalar ijodkorning nafaqat fikrini, balki uning axloqiy-estetik dunyosini ham ochib berishga xizmat qiladi.

Jamol Kamol she'riyatini lingvopragmatik jihatdan o'rganish shuni ko'rsatadiki, shoirning badiiy nutqi uning individual tafakkuri, axloqiy-estetik qarashlari va inson haqidagi falsafiy tasavvurlarini o'zida mujassam etgan yaxlit tizimdir. Til shaxsiyati badiiy matnda faqat so'z tanlash yoki uslubiy o'ziga xoslik orqali emas, balki ijodkorning voqelikka baho berish, kitobxon bilan muloqotga kirishish va ma'naviy g'oyalarni ifodalash usullari orqali ham namoyon bo'ladi.

"Bo'lmagil" she'ri tahlili asosida shuni aytish mumkinki, Jamol Kamol poetik nutqida murojaat va nasihat ohangi muhim o'rin egallaydi. She'rda qo'llangan inkor shakllari, baholovchi birliklar hamda obrazli ifodalar shoirning insoniy fazilatlar haqidagi qarashlarini ochib beradi. Ayniqsa, "bo'lmagil" takrorining badiiy-pragmatik vazifasi orqali muallifning o'quvchiga yo'naltirilgan nutqiy strategiyasi namoyon bo'ladi.

Shoir tomonidan tor tafakkur, kibr, nodonlik kabi salbiy holatlarning inkor qilinishi va kamtarlik, ma'naviy poklik kabi fazilatlarning ulug'lanishi uning muallif pozitsiyasining asosiy mazmunini tashkil etadi. Bu holat Jamol Kamol til shaxsiyatining insonparvarlik va ma'naviy yetuklikka asoslangan poetik yo'nalishini ko'rsatadi.

Demak, Jamol Kamol she'riyatida til vositalari nafaqat badiiy tasvir yaratish, balki muallifning ichki dunyosi, hayotiy qarashlari va kitobxonga qaratilgan ma'naviy murojaatini ifodalash vazifasini ham bajaradi. Shoirning individual nutqiy qiyofasini o'rganish uning ijodiy olamini chuqurroq anglash hamda o'zbek she'riy matnining lingvopragmatik imkoniyatlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jamol Kamol. Saylanma. Anvarmirzo hikoyatlari. V qism. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
2. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: Fan, 2008.
3. Yo'ldoshev B. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Samarqand, 2008.
4. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarida. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2012.
5. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Akademnashr, 2012.
6. Hakimov M. O'zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
7. Austin J. L. How to Do Things with Words. – Oxford: Oxford University Press, 1962.
8. Searle J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969.

Xurshida BATIROVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi

OLIY TA'LIM MUASSASALARI RASMIY SAYTLARIDAGI QISQA YANGILIKLAR INSTITUTSIONAL MEDIA JANRI VA TARJIMA OBYEKTI SIFATIDA

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim muassasalari rasmiy saytlarida chop etiladigan qisqa yangiliklarning janriy, lingvistik va institutsional-kommunikativ xususiyatlari tahlil qilinadi. Qisqa yangilikning operatsion chegarasi, tarjimada sarlavha va axborot strukturasining o'zgarishi, auditoriyaga moslashtirish va qayta kontekstlashtirish masalalari yoritiladi.
Kalit so'zlar: qisqa yangilik, media janri, institutsional diskurs, OTM sayti, yangilik tarjimasi, parallel korpus, transediting, recontextualization, sarlavha.
Annotation. The article examines the genre, linguistic and institutional-communicative characteristics of news briefs published on official university websites. It discusses the operational boundaries of the genre and explores headline transformation, information restructuring, audience adaptation and recontextualization in Uzbek-to-English university news translation.
Keywords: news brief, media genre, institutional discourse, university website, news translation, parallel corpus, transediting, recontextualization, headline.
Аннотация. В статье рассматриваются жанровые, лингвистические и институционально-коммуникативные характеристики кратких новостей официальных сайтов высших образовательных учреждений. Анализируются операциональные границы краткой новости, трансформация заголовка и информационной структуры, адаптация к целевой аудитории и реконтекстуализация в переводе.
Ключевые слова: краткая новость, медиажанр, институциональный дискурс, сайт вуза, перевод новостей, параллельный корпус, трансредактирование, реконтекстуализация, заголовок.

Raqamli kommunikatsiyaning kengayishi natijasida yangilik chiqarish va tarqatish faqat professional ommaviy axborot vositalari faoliyati bilan chegaralanmay qoldi. Bugungi kunda universitetlar, davlat idoralari va boshqa tashkilotlarning rasmiy veb-saytlari ham muntazam yangilik ishlab chiqaruvchi institutsional media maydonlariga aylangan. Oliy ta'lim muassasalari saytlarida ilmiy faoliyat, xalqaro hamkorlik, talabalar yutuqlari, konferensiyalar, uchrashuvlar, grantlar va boshqa voqealar muntazam yoritiladi.

Mazkur matnlar klassik yangilik janrining faktiklik, voqeaga yo'naltirilganlik va ixchamlik kabi xususiyatlarini saqlaydi. Shu bilan birga, xabarni ishlab chiqaruvchi institut bilan xabarning asosiy subyekti ko'pincha aynan bir tashkilot bo'ladi. Demak, OTM yangiligi voqea haqida axborot berish bilan birga, muassasaning o'z faoliyatini jamoatchilikka taqdim etish vazifasini ham bajaradi.

Ko'p tilli universitet saytlarida ushbu jarayon tarjima orqali yanada murakkablashadi. O'zbekcha yangilikning inglizcha versiyasida sarlavha o'zgarishi, ayrim axborot bloklarining tushirilishi, yangi izohlarning qo'shilishi yoki matnning xalqaro auditoriya uchun qayta tashkil etilishi mumkin. Bundan kelib chiqadiki, OTM qisqa yangiliklari tarjimasini faqat so'z va gaplar o'rtasidagi formal ekvivalentlik doirasida o'rganish yetarli emas.

Maqolaning maqsadi OTM rasmiy saytlaridagi qisqa yangiliklarning janriy-kommunikativ xususiyatlarini aniqlash va ularning tarjima obyekti sifatidagi lingvistik hamda pragmatik xususiyatlarini nazariy jihatdan asoslashdan iborat.

Yangilik ommaviy kommunikatsiyaning asosiy axboriy janrlaridan biridir. Biroq "yangilik" tushunchasi hajmi, strukturasi va kommunikativ vazifasi jihatidan bir-biridan farqli matnlarni qamrab oladi. Qisqa yangilik ana shu umumiy janrning ixcham shakllaridan biri sifatida ko'rilishi mumkin.

Qisqa yangilikni faqat so'z soni bilan belgilash metodologik jihatdan yetarli emas. Masalan, bir xil hajmdagi e'lon, reklama va real voqea haqidagi xabar turli janriy xususiyatlarga ega. Demak, hajm qo'shimcha operatsion mezon bo'lishi mumkin, biroq matnning kommunikativ funksiyasi asosiy o'rinda turadi.

Mazkur tadqiqotda qisqa yangilik real sodir bo'lgan voqea haqida faktik axborot beradigan, bitta asosiy voqea atrofida shakllangan, sarlavha va nisbatan ixcham asosiy matnga ega bo'lgan axboriy media birligi sifatida tushuniladi.

O'zbek medialingvistikasida "qisqa yangilik" har doim ham mustaqil nazariy termin sifatida ajratilmaydi. U "xabar", "axboriy janr", "media matni" yoki publitsistik matn doirasida tavsiflanishi mumkin. Shundan kelib chiqadiki, "qisqa yangilik" terminini barcha media tizimlariga mutlaq tatbiq qilinadigan universal janr nomi sifatida emas, konkret tadqiqot korpusining chegarasini belgilovchi operatsion kategoriya sifatida qo'llash maqsadga muvofiq.

1-jadval. OTM qisqa yangiligini ajratish mezonlari

Mezon	Qisqa yangilikka xos belgi	Korpusdan chiqariladigan holat
Voqeaviylik	Real sodir bo'lgan voqea	Kelajakdagi tadbirga chaqiriq
Faktiklik	Faktik axborot ustun	Sof reklama yoki yo'riqnoma
Tematik yaxlitlik	Bitta markaziy voqea	Bir nechta mustaqil xabar
Struktur yaxlitlik	Sarlavha va asosiy matn	Faqat banner yoki caption
Ixchamlik	Nisbatan qisqa axborot	Keng reportaj yoki tahliliy matn
Institutsional manba	OTM rasmiy veb-sayti	Norasmiy repost

OTM yangiliklarining muhim farqi ularning muassasaning o'z kommunikativ kanalida yaratilishidir. Mustaqil media tashkiloti tashqi voqealarni yoritadi, universitet esa ko'pincha o'z faoliyati haqida o'z saytida xabar beradi.

Demak, OTM yangiliklarida faktik axborot va institutsional o'zini taqdim etish o'zaro kesishadi. Xalqaro hamkorlik haqidagi xabarda uchrashuv faktidan tashqari, universitetning xalqaro faolligi yoki hamkorlik istiqbollari ham kommunikativ markazga chiqishi mumkin.

Bunday matnlarda muhim, samarali, nufuzli, istiqbolli, muvaffaqiyatli kabi baholovchi birliklarning uchrashi tabiiy. Biroq baholovchi leksikaning mavjudligi yangilikni avtomatik

ravishda reklama matniga aylantirmaydi. Agar asosiy kommunikativ markaz real voqea haqida faktik xabar berish bo'lsa, matn axboriy janr sifatidagi maqomini saqlaydi. Shu asosda OTM qisqa yangiligini institutsional axboriy media janri sifatida tavsiflash mumkin.

E.Bielsa xalqaro axborot agentliklarida tarjima jurnalistik ishlab chiqarish jarayonidan alohida faoliyat sifatida ajralmasligini ko'rsatadi [1: 135–155]. Yangilik tarjima tilga ko'chirilish jarayonida tahrir qilinishi, qisqartirilishi va maqsad auditoriya ehtiyojiga muvofiq qayta tashkil etilishi mumkin.

K.Stetting bunday holatlarni ifodalash uchun *transediting* terminini taklif etadi [2: 371–382]. Ushbu tushuncha tarjima bilan tahrir o'rtasidagi oraliq faoliyatni anglatib, maqsad kommunikativ vaziyatiga ko'ra matnni qisqartirish, qayta tuzish yoki kengaytirish imkonini nazarda tutadi.

O'zbek korpus lingvistikasida ham parallel matnlarning tarjimaviy va qiyosiy imkoniyatlariga e'tibor kuchayib bormoqda. N.Abduraxmonova va A.Axmedova parallel hamda qiyosiy korpuslarning yozma tarjima ko'nikmalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlarini tahlil qiladilar [3]. Mualliflar korpus yordamida turli tarjima variantlarini real kontekstlarda kuzatish, qiyoslash va tarjimaviy muqobillar orasidagi farqlarni aniqlash mumkinligini ko'rsatadilar. Bundan kelib chiqadiki, parallel korpus faqat tayyor ikki tilli matnlar ombori emas. U bir xil mazmunning turli tillarda qanday realizatsiya qilinishini, tarjima variantlarining kontekstual taqsimotini va lingvistik tanlovlarning muntazamligini aniqlash imkonini beruvchi tadqiqot vositasidir.

Mazkur qarash OTM qisqa yangiliklari uchun ham to'g'ridan-to'g'ri ahamiyatga ega. Masalan, o'zbekcha hamkorlikni rivojlantirish birikmasi inglizcha matnlarda develop cooperation, strengthen cooperation, expand cooperation, enhance cooperation singari variantlarda uchrashi mumkin. Alohida bir misol bu variantlarning qaysi biri muntazam yoki qaysi kontekstga xos ekanini ko'rsatmaydi. Parallel korpus esa real variantlikni tizimli tahlil qilish imkonini beradi.

Shuningdek, A.Axmedovaning inglizcha–o'zbekcha va o'zbekcha–inglizcha parallel matnlardagi o'xshatishlarning leksik-semantik munosabatlariga bag'ishlangan tadqiqoti parallel korpusning konkret semantik hodisalarni qiyoslash vositasi sifatidagi imkoniyatini ko'rsatadi [4]. Demak, OTM qisqa yangiliklarini ham individual misollar orqali emas, bir xil lingvistik munosabatlarning parallel matnlarda qay darajada muntazam ekanini aniqlash asosida o'rganish maqsadga muvofiq.

C.Schäffner qisqa yangilik tarjimasida situativ sharoit, matn turi va target auditoriyaning mavjud bilimlari tarjima qarorlariga ta'sir qilishini ko'rsatgan [5: 1–16]. O'zbek auditoriyasi uchun tushunarli bo'lgan mahalliy tashkilot nomi, qisqartma yoki ta'lim tizimiga oid birlik ingliz tilidagi xalqaro auditoriya uchun tushuntirish talab qilishi mumkin. Natijada target matnda qo'shimcha izoh yuzaga kelishi ehtimoli mavjud. Aksincha, o'zbekcha yangilikdagi ayrim mahalliy protokol tafsilotlari inglizcha versiyada mavjud bo'lmasligi mumkin. Biroq tayyor matnga qarab "tarjimon aynan auditoriya sabab bu ma'lumotni olib tashlagan" deb aytish mumkin emas. Shundan kelib chiqadiki, avval tekstual fakt qayd qilinadi, keyin uning auditoriyaga moslashtirish bilan bog'liq bo'lish ehtimoli pragmatik interpretatsiya sifatida baholanadi.

Yangilik sarlavhasi voqeani nomlash bilan birga, uning qaysi elementi muhim deb taqdim etilishini belgilaydi. Shu sabab sarlavhadagi leksik yoki sintaktik o'zgarish butun xabarning kommunikativ fokusiga ta'sir qilishi mumkin. Masalan:

Asliyat matn: *Universitetda xorijiy delegatsiya bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.*

Tarjima matni: *University X Strengthens Cooperation with University Y.*

Birinchi sarlavhada voqeaning o'zi – "uchrashuv" markazda turadi. Ikkinchi sarlavhada esa uchrashuv natijasi va universitet faoliyati oldinga chiqarilgan. Demak, sarlavha tarjimasi semantik komponentlarning saqlanishi, sintaktik struktura, axborot fokusi va baholovchi leksika bo'yicha alohida tahlil qilinishi kerak.

J.-H.Kang *news discourse* tarjimasida *recontextualization* hodisasini ko'rsatib, matn boshqa til va kommunikativ muhitga o'tganda axborotning tanlanishi hamda diskursiv joylashuvi o'zgarishi mumkinligini ta'kidlaydi [6: 219–242]. OTM yangiliklarida ham o'zbekcha matn avval tadbir sanasi va ishtirokchilarni bersa, inglizcha versiya hamkorlikning natijasini birinchi o'ringa chiqarishi mumkin. Faktlarning asosiy qismi saqlansa-da, *information hierarchy* o'zgaradi. Bundan kelib chiqadiki, tarjima tahlilida "qaysi gap qaysi gapga tarjima qilingan?" savoli bilan cheklanmasdan, "qaysi axborot tarjima matnida kommunikativ markazga chiqarilgan?" savolini ham qo'yish zarur.

R.A.Valdeon jurnalistik tarjima bo'yicha tadqiqotlarni umumlashtirib, media tarjimasi faqat til kodini almashtirish bilan chegaralanmasligini ta'kidlaydi [7: 634–662]. Demak, OTM qisqa yangiliklarini tarjima obyekti sifatida o'rganishda lingvistik, matniy va institutsional darajalarni birgalikda tahlil qilish kerak.

Tarjima tadqiqotida yaqin tushunchalarni aralashtirmaslik muhim. Tarjima matnning asliyatdan qisqaroq bo'lishi avtomatik ravishda soddalashtirishni anglatmaydi. F.Zanettin korpusga asoslangan tarjimashunoslikda *simplification, explicitation* va *normalization* kabi hodisalarning turli ko'rsatkichlar orqali o'rganilganini ko'rsatadi [8: 20–32]. Demak: *omission ≠ compression ≠ simplification*. *Omission* asliyat tildagi ma'lum birlikning tarjimada mavjud emasligi; *compression* ma'lumotning kamroq til vositasi bilan ifodalanishi; *simplification* esa leksik yoki sintaktik murakkablik ko'rsatkichlarining kamayishi bilan bog'liq.

Xuddi shu tarzda: *addition ≠ explicitation*. Asliyat tilda semantik tayanchga ega bo'lmagan yangi fakt tarjima tiliga kiritilsa, bu *addition* hisoblanadi. Asliyat tilda implitsit mavjud bo'lgan ma'no tarjima matnida explisit ifodalansa, *explicitation* haqida so'z yuritish mumkin. Demak, korpus statistikasi tuzilishidan oldin har bir kategoriya uchun operatsion mezon belgilash zarur.

Nazariy tahlil OTM qisqa yangiliklarining uch o'zaro bog'langan xususiyatini aniqlash imkonini beradi:

- u axboriy media janridir;
- u institutsional kommunikatsiya mahsulidir;
- ko'p tilli veb-saytda u tarjima va qayta kontekstlashtirish obyektiga aylanadi.

Shu asosda quyidagi ta'rif taklif qilinadi: "OTM qisqa yangiligi – oliy ta'lim muassasasining rasmiy veb-saytida real voqea haqida ixcham va faktik ma'lumot beradigan, shu bilan birga muassasaning institutsional ommaviy kommunikatsiyasiga xizmat qiluvchi axboriy media janridir".

Tarjimani esa uch sathda o'rganish maqsadga muvofiq: lingvistik muvofiqlik → matniy qayta tashkil etish → pragmatik-institutsional natija.

Abduraxmonova va Axmedovaning parallel va qiyosiy korpuslardan tarjima jarayonida foydalanish haqidagi qarashlari ushbu modelning birinchi qatlami uchun mahalliy metodologik tayanch beradi [3]. Chunki real kontekstlarda

tarjima variantlarini qiyoslash keyingi matniy va pragmatik talqinning empirik asosini mustahkamlaydi.

OTM rasmiy saytlaridagi qisqa yangiliklar faktik axborot yetkazish bilan birga institutsional kommunikatsiyaga xizmat qiladi. Shu sabab ularni oddiy ommaviy axborot xabarining takrori sifatida emas, maxsus institutsional axboriy media janri sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Ko'p tilli OTM saytlarida ushbu janr tarjima obyekti sifatida yanada murakkab tabiat kasb etadi. Sarlavha, axborot tartibi, lokal realiyalar va baholovchi birliklar target auditoriyaga ko'ra o'zgarishi mumkin.

N.Abduraxmonova va A.Axmedovaning parallel va qiyosiy korpuslarning tarjima jarayonidagi imkoniyatlari haqidagi qarashlari o'zbek tarjimashunosligida korpusning real variantlarni kontekstual qiyoslash vositasi sifatidagi o'rnini ko'rsatadi [3]. Demak, OTM yangiliklari tarjimasini ham individual misol emas, parallel materialdagi muntazam munosabatlar asosida tadqiq qilish ilmiy jihatdan ancha asosli. Shu tariqa OTM qisqa yangiliklari tarjimasini to'liq tavsiflash uchun janriy tahlil + parallel qiyos + matniy struktura + institutsional pragmatikaning o'zaro integratsiyasi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bielsa E. Translation in global news agencies // Target, 2007. Vol. 19 (1). – P. 135–155. 10.1075/target.19.1.08bie.
2. Stetting K. Transediting – a new term for coping with the grey area between editing and translating // Proceedings from the Fourth Nordic Conference for English Studies / Ed. by G. Caie et al. – Copenhagen: University of Copenhagen, 1989. – P. 371–382.
3. Abduraxmonova N.Z., Axmedova A.N. Yozma tarjima ko'nikmasini parallel va qiyosiy korpuslar yordamida rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari // Research Focus International Scientific Journal, 2025. Vol. 3 (12). 10.5281/zenodo.14611269.
4. Axmedova A.N. Parallel korpusda o'xshatishlarning leksik-semantik munosabatlari tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2022.
5. Schäffner C. World knowledge in the process of translation // Target, 1991. Vol. 3 (1). – P. 1–16.
6. Kang J.-H. Recontextualization of news discourse: a case study of translation of news discourse on North Korea // The Translator, 2007. Vol. 13 (2). – P. 219–242.
7. Valdeón R.A. Fifteen years of journalistic translation research and more // Perspectives, 2015. Vol. 23 (4). – P. 634–662.
8. Zanettin F. Corpus methods for descriptive translation studies // Procedia – Social and Behavioral Sciences, 2013. Vol. 95. – P. 20–32.

Baxtiniso ERGASHEVA,
Koson tumani 24-maktab o'qituvchisi

LINGVOKULTUROLOGIYA VA KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA TRANSPORT TERMINOLOGIYASINING O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada transport terminologiyasi lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Transport leksikasi nafaqat moddiy voqelikni nomlash vositasi, balki xalq dunyoqarashi, milliy qadriyatlar va kognitiv modellarni o'zida mujassam etuvchi til birligi sifatida ko'rib chiqiladi. Transport terminlari konseptual metaforalar, freym va skript tuzilmalari asosida qanday shakllanishi, shuningdek, ularning milliy-madaniy konnotatsiyalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, transport terminologiyasi, konseptual metafora, freym, til manzarasi, milliy-madaniy konnotatsiya.

Annotation. This article examines transport terminology from the perspective of linguoculturology and cognitive linguistics. Transport vocabulary is regarded not merely as a means of naming material reality, but as a linguistic unit reflecting the national worldview, cultural values, and cognitive models of a people. The article discusses how transport terms are shaped by conceptual metaphors, frame and script structures, and highlights their national-cultural connotations.

Keywords: linguoculturology, cognitive linguistics, transport terminology, conceptual metaphor, frame, language worldview, national-cultural connotation.

Аннотация. В статье рассматривается транспортная терминология с точки зрения лингвокультурологии и когнитивной лингвистики. Транспортная лексика анализируется не только как средство наименования материальной действительности, но и как языковая единица, отражающая народное мировоззрение, национальные ценности и когнитивные модели. В статье освещается формирование транспортных терминов на основе концептуальных метафор, фреймовых и скриптовых структур, а также их национально-культурные коннотации.

Ключевые слова: лингвокультурология, когнитивная лингвистика, транспортная терминология, концептуальная метафора, фрейм, языковая картина мира, национально-культурная коннотация.

Zamonaviy tilshunoslikda til birliklarini nafaqat strukturaviy-semantik, balki kognitiv va lingvokulturologik jihatdan o'rganish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Til shaxsning dunyoni idrok etish tarzini, uning madaniy tajribasini va kognitiv jarayonlarini o'zida aks ettiruvchi murakkab tizim sifatida talqin qilinadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, transport sohasi jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lib, u doimiy ravishda yangi tushunchalar, metaforalar va assotsiatsiyalar bilan boyib bormoqda. Transport terminlari nafaqat texnik-amaliy ma'noga ega bo'lib qolmasdan, balki kundalik nutqda hayotiy jarayonlarni, insoniy munosabatlarni va ijtimoiy hodisalarni ifodalash uchun metaforik vosita sifatida ham faol qo'llaniladi (masalan, "hayot yo'li", "muvaffaqiyat sari yo'l olmoq" kabi birikmalar).

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda transport terminologiyasi birinchi marta lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslikning uyg'un metodologik asosida, ya'ni konseptual metafora, freym tahlili va madaniy konnotatsiya tahlili birgalikda qo'llanilgan holda o'rganilmoqda.

Tadqiqotning maqsadi – transport terminologiyasining lingvokulturologik va kognitiv xususiyatlarini aniqlash, uning konseptual metaforalar hamda freym tuzilmalari orqali qanday shakllanishini tahlil qilishdan iboratdir.

Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

– transport konseptosferasining lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlash;

– transport terminlari asosidagi konseptual metaforalarni tahlil qilish;

– transport tushunchasining kognitiv freym va skript strukturalarini yoritish;

– transport terminologiyasidagi milliy-madaniy konnotatsiyalarni aniqlash;

– olingan natijalar asosida amaliy-metodik xulosalar ishlab chiqish.

Kognitiv tilshunoslikning nazariy asoslari J.Leykoff va M.Jonsonning konseptual metafora nazariyasiga borib taqaladi [1]. Ularning tadqiqotlarida metafora nafaqat nutqiy bezak, balki inson tafakkurining bazaviy mexanizmi sifatida talqin qilingan bo'lib, bu nazariya "YO'L", "HARAKAT" kabi tushunchalarning abstrakt sohalarga ko'chirilishini tushuntirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Rus tilshunosligida E.S.Kubryakova kognitiv tilshunoslikning tushunchalar tizimini, freym va konsept kabi asosiy kategoriyalarini ishlab chiqqan bo'lsa [2], V.A.Maslova va V.N.Teliya lingvokulturologiya fanining predmeti, metodlari hamda til birliklaridagi madaniy konnotatsiyalarni o'rganish tamoyillarini asoslab berishgan [3: 4].

O'zbek tilshunosligida Sh. Safarov kognitiv tilshunoslikning nazariy-metodologik asoslarini, jumladan freym semantikasi va konseptual tahlil masalalarini keng yoritgan [5]. D.Xudayberganova va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida o'zbek tilining lingvokulturologik xususiyatlari, milliy til manzarasining shakllanish jarayonlari tahlil qilingan [6]. Ammo transport terminologiyasining aynan lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslik tutashgan nuqtada, kompleks tarzda o'rganilishi hozirgacha alohida tadqiqot obyekti bo'lmagan, bu esa mazkur ishning ilmiy ahamiyatini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda quyidagi metodlardan kompleks tarzda foydalanildi:

– Konseptual tahlil metodi transport konseptosferasining tuzilishini va uning boshqa konseptlar bilan aloqadorligini aniqlashda qo'llanildi;

– Metaforik modellashtirish metodi transport leksikasi asosida yuzaga keluvchi konseptual metaforalarni aniqlash uchun qo'llanildi;

– Lingvokulturologik tahlil metodi transport terminlaridagi milliy-madaniy konnotatsiyalarni ochib berishda foydalanildi;

– Statistik-tavsifiy tahlil elementlari aniqlangan modellarning nisbiy ulushini belgilashda ishlatildi.

Transport konseptosferasining kognitiv tuzilishi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, transport konsepti insonning fazo va harakat haqidagi bazaviy tajribasi asosida shakllanadi hamda til tizimida keng tarqalgan konseptual metaforalarning manba sohasi (source domain) sifatida faol namoyon bo'ladi.

Milliy-madaniy konnotatsiyalar tahlili. O'zbek tilidagi transport terminologiyasida tarixiy-madaniy qatlam alohida

ajralib turadi: "arava", "fayton", "karvon", "ot-ulov" kabi terminlar xalqning an'anaviy turmush tarzi, kocharma va savdo-sotiq madaniyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, ular zamonaviy "avtomobil", "metro", "elektropoyezd" kabi terminlar bilan bir qatorda tilning tarixiy qatlamlarini saqlab qoladi. Bu holat transport terminologiyasining nafaqat texnik, balki etnomadaniy xotira vositasi sifatidagi funksiyasini yaqqol namoyon etadi.

Quyidagi jadvalda transport terminlari asosida shakllangan asosiy kognitiv modellar va ularning madaniy-kognitiv mazmuni umumlashtirilgan:

1-jadval. Transport terminlari asosidagi kognitiv modellar va ularning madaniy-kognitiv mazmuni

Kognitiv model turi	Namunaviy transport termini	Madaniy-kognitiv mazmuni
Yo'l – hayot metaforasi	yo'l, safar, manzil	hayotiy yo'nalish, taqdir, maqsad sari harakat
Idish-konteyner modeli	mashinaga o'tirmoq, poyezddan tushmoq	transport vositasi – yopiq fazoviy konteyner sifatida
Kuch-harakat modeli	gaz bermoq, tormoz bermoq	nazorat, tezlik va irodaviy kuch tushunchalari
Ijtimoiy maqom belgisi	arava, fayton, "tezyurar"	tarixiy davr, ijtimoiy tabaqa, milliy turmush tarzi

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, transport terminologiyasi asosida shakllangan kognitiv modellar xilma-xil bo'lib, ular fazoviy-harakat tajribasidan tortib ijtimoiy maqom va milliy tarixgacha bo'lgan keng doiradagi tushunchalarni qamrab oladi.

Transport terminlarining diskursiv qo'llanilishi. Kundalik nutq, badiiy adabiyot va publitsistika materiallari tahlili shuni ko'rsatdiki, transport terminlari ko'pincha o'z asl denotativ ma'nosidan tashqarida, metaforik va idiomatik funksiyada qo'llaniladi. Masalan, "tormoz bermoq" birikmasi "biror ishni to'xtatib qo'ymoq" ma'nosida, "yo'lga tushmoq" esa "biror faoliyatni boshlamoq" ma'nosida faol ishlatiladi.

Olingan natijalar transport terminologiyasining shunchaki nominativ funksiya bilan cheklanmasligini, balki u orqali xalqning dunyoqarashi, tafakkur tarzi va madaniy tajribasi til vositasida ifodalanishini yana bir bor tasdiqlaydi. Transport konseptining "yo'l", "harakat" kabi bazaviy kognitiv tuzilmalar bilan uzviy bog'liqligi uni universal konseptual metaforalarning asosiy manba sohalaridan biriga aylantiradi.

Natijalarning amaliy ahamiyati til o'qitish metodikasi, tarjimashunoslik va leksikografiya sohalarida namoyon bo'ladi.

Olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi asosiy xulosalarga erishildi:

- Transport terminologiyasi lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslik tutashgan nuqtada ko'p qatlamli til hodisasi sifatida namoyon bo'ladi;
- Transport konsepti "hayot – yo'l" kabi universal konseptual metaforalarning asosiy manba sohasi vazifasini bajaradi;
- Transport konseptosferasi "yo'l", "harakat vositasi", "ishtirokchilar" va "harakat jarayoni" kabi o'zaro bog'liq freymlardan tashkil topgan;
- Erishilgan xulosalar kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, tarjimashunoslik va chet tillarni o'qitish metodikasi sohalarida amaliy-nazariy manba sifatida qo'llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
2. Кубрякова Е.С. Язык и знание. М.: Языки славянской культуры, 2004.
3. Маслова В.А. Лингвокультурология. М.: Академия, 2001.
4. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. М.: Языки русской культуры, 1996.
5. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006.
6. Xudayberganova D. O'zbek tilida matnning antroposentrik paradigmasi. – Toshkent: Fan, 2013.
7. Mahmudov N. Tilimizning tabiati. – Toshkent: Muharrir, 2012.
8. Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. М.: АСТ: Восток-Запад, 2007.
9. Воробьев В.В. Лингвокультурология: теория и методы. М.: РУДН, 1997.
10. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. – Toshkent: Universitet, 2000.

Oybarchin MAVLANOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti xorijiy filologiya fakulteti ingliz tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi, PhD

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA HISSIYOTLARNING METAFORIK IFODALANISHI: KOGNITIV-LINGVISTIK TAHLIL

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida inson hissiyotlarining metaforik ifodalanishi kognitiv-lingvistik nuqtayi nazardan qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi hissiy holatlarni ifodalovchi metaforalarning semantik xususiyatlari, konseptual asoslari hamda ikki tildagi o'xshash va farqli jihatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot materiali sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi badiiy matnlarda qo'llangan hissiy-metaforik birliklardan foydalanildi. Tahlilda konseptual metafora, qiyosiy, tavsifiy va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari g'azab, qo'rquv, qayg'u, quvonch va muhabbat kabi hissiyotlarning har ikki tilda ham olov, harakat, makon, og'irlik, yorug'lik va boshqa konseptual sohalar orqali metaforik ifodalanishini ko'rsatdi. Shu bilan birga, metaforalarning tanlanishi va semantik assotsiatsiyalarida milliy-madaniy xususiyatlar mavjudligi aniqlandi. Natijalar qiyosiy kognitiv tilshunoslik va badiiy matn tadqiqotlari uchun muhim nazariy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: hissiyot, metafora, konseptual metafora, kognitiv tilshunoslik, emotsional ma'no, badiiy matn, ingliz tili, o'zbek tili, qiyosiy tahlil.

Annotation. This article presents a comparative cognitive-linguistic analysis of the metaphorical representation of emotions in English and Uzbek. The main purpose of the study is to identify the semantic features, conceptual foundations, similarities, and differences of metaphors used to represent human emotional states in the two languages. The research material consists of emotional-metaphorical expressions found in English and Uzbek literary texts. The study employs conceptual metaphor analysis, comparative, descriptive, and contextual methods. The findings demonstrate that emotions such as anger, fear, sadness, joy, and love are metaphorically represented in both languages through conceptual domains of fire, movement, space, weight, light, and other figurative models. At the same time, the analysis reveals national and cultural differences in the selection of metaphors and their associative meanings. The findings indicate that metaphorical representations of emotions combine universal cognitive patterns with language-specific and culturally determined features. The study contributes to comparative cognitive linguistics and the linguistic investigation of literary texts.

Keywords: emotion, metaphor, conceptual metaphor, cognitive linguistics, emotional meaning, literary text, English, Uzbek, comparative analysis.

Аннотация. В статье проводится сопоставительный когнитивно-лингвистический анализ метафорического выражения эмоций в английском и узбекском языках. Основной целью исследования является выявление семантических особенностей, концептуальных основ, а также сходств и различий метафор, репрезентирующих эмоциональные состояния человека в двух языках. Материалом исследования послужили эмоционально-метафорические единицы, функционирующие в художественных текстах на английском и узбекском языках. В работе применяются методы концептуального анализа метафор, сопоставительного, описательного и контекстуального анализа. Результаты исследования показывают, что такие эмоции, как гнев, страх, печаль, радость и любовь, метафорически репрезентируются в обоих языках посредством концептуальных сфер огня, движения, пространства, веса, света и других образных моделей. Вместе с тем выявлены национально-культурные особенности выбора метафор и связанных с ними ассоциативных значений. Полученные результаты имеют теоретическое значение для сопоставительной когнитивной лингвистики и исследования художественного текста.

Ключевые слова: эмоция, метафора, концептуальная метафора, когнитивная лингвистика, эмоциональное значение, художественный текст, английский язык, узбекский язык, сопоставительный анализ.

Inson hissiyotlarini til vositasida ifodalash masalasi zamonaviy tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Hissiyotlar bevosita nomlovchi birliklar orqali ifodalanishi bilan bir qatorda, metaforik birliklar yordamida ham konseptuallashtiriladi. Ayniqsa, badiiy matnda metafora insonning ichki kechinmalarini obrazli, ta'sirchan va mazmunan chuqur ifodalash imkonini beradi. Shu sababli hissiyotlarning metaforik ifodalanishini o'rganish til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Metaforaning kognitiv tabiati G.Lakoff va M.Johnsonning konseptual metafora nazariyasida keng yoritilgan. Olimlarning qarashlariga ko'ra, metafora faqat badiiy bezak vositasi emas, balki insonning abstrakt tushunchalarni konkret tajriba asosida anglash mexanizmlaridan biridir. Keyingi tadqiqotlarda Z.Kövecses hissiyotlarning metaforik konseptuallashuviga alohida e'tibor qaratib, g'azab, qo'rquv, baxt, qayg'u va muhabbat kabi hissiy holatlar muayyan konseptual manba sohalari orqali ifodalanishini ko'rsatgan. Uning tadqiqotlari hissiyot metaforalari insonning tana tajribasi va kognitiv faoliyati bilan chambarchas bog'liqligini asoslaydi.

Ingliz tilshunosligida badiiy matn metaforalarining semantik va funksional xususiyatlari stilistika hamda kognitiv lingvistika doirasida keng tadqiq etilgan. O'zbek tilshunosligida ham metafora, ko'chim va obrazli ifoda masalalariga katta e'tibor qaratilgan. Biroq ingliz va o'zbek tillarida hissiyotlarning metaforik ifodalanishini aynan qiyosiy-kognitiv nuqtayi nazardan o'rganish yanada chuqur tadqiqotlarni talab etadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, unda hissiy holatlarning metaforik ifodalanishidagi umumiy kognitiv modellar bilan bir qatorda, ingliz va o'zbek tillariga xos milliy-madaniy xususiyatlarni aniqlashga e'tibor qaratiladi.

Mazkur tadqiqotda ingliz va o'zbek tillarida hissiyotlarning metaforik ifodalanishini aniqlash va qiyosiy tahlil qilish uchun kognitiv-lingvistik hamda qiyosiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi badiiy matnlarda uchraydigan hissiy holatlarni ifodalovchi metaforik birliklar tanlab olindi. Tahlil jarayonida asosiy e'tibor g'azab, qo'rquv, quvonch, qayg'u va muhabbat kabi hissiyotlarning til orqali konseptuallashtirilishiga qaratildi.

Tadqiqotning asosiy metodologik tamoyili konseptual metafora nazariyasiga asoslanadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, abstrakt tushunchalar, xususan, insonning hissiy holatlari konkret va tajribada bevosita anglanadigan manba domenlari orqali konseptuallashtiriladi. Shu asosda badiiy matnlarda hissiyotlarni ifodalovchi metaforalarning manba va maqsad domenlari aniqlanib, ular o'rtasidagi konseptual bog'lanishlar tahlil qilindi.

Tadqiqotda konseptual-metaforik tahlil, qiyosiy tahlil, tavsifiy tahlil, kontekstual tahlil va semantik tahlil metodlaridan kompleks ravishda foydalanildi. Konseptual-metaforik tahlil orqali hissiyotlarning qaysi obrazlar va tajribaviy sohalar asosida ifodalanishi aniqlandi. Qiyosiy metod

ingliz va o'zbek tillaridagi metaforik modellarni solishtirish hamda ular orasidagi umumiy va o'ziga xos jihatlarni belgilash imkonini berdi. Kontekstual tahlil esa metaforaning muayyan badiiy vaziyatdagi mazmuniy va emotsional funksiyasini aniqlashga xizmat qildi.

Tahlil natijalarini tizimlashtirishda hissiyot metaforalari olov, harakat, makon, og'irlik, yorug'lik va tabiiy hodisalar kabi manba domenlari asosida guruhlandi. Shu orqali ingliz va o'zbek tillarida hissiyotlarning metaforik konseptuallashtirilishidagi universal kognitiv modellar hamda milliy-madaniy xususiyatlarni aniqlash ko'zda tutildi.

G'azab insonning kuchli emotsional holatlaridan biri bo'lib, uning til orqali ifodalanishida ko'pincha jismoniy tajriba va tabiiy hodisalarga asoslangan metaforik modellar qo'llanadi. Ingliz va o'zbek tillaridagi badiiy matnlarni qiyosiy kuzatish g'azabning, avvalo, olov, issiqlik, bosim va harakat tushunchalari orqali konseptuallashtirilishini ko'rsatadi.

Ingliz tilida g'azabni olov bilan bog'lovchi metaforik birliklar keng uchraydi. Masalan, *burn with anger, flare up, fiery temper* kabi birikmalarda g'azab "olov" manba domeni orqali tasavvur qilinadi. Bunday metaforik modelda hissiyotning kuchayishi olovning yonishi yoki alanga olishiga qiyoslanadi. Shuningdek, boiling with anger ifodasida g'azab suyuqlikning qaynashi bilan bog'lanib, inson ichki holatining kuchli bosim ostida ekanligini bildiradi.

O'zbek tilida ham g'azabning olov va issiqlik bilan bog'liq konseptual modeli faol qo'llanadi. *"Jahri chiqmoq", "g'azabdan qaynamoq", "ichidan yonmoq", "alangalanmoq"* kabi ifodalarda g'azab olov, issiqlik yoki qaynash holati orqali obrazlashtiriladi. Ayniqsa, *"qaynamoq"* fe'li hissiyotning ichki bosimini va uning tashqi ifodaga yaqinlashgan holatini anglatadi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek tillarida ANGER IS FIRE/HEAT hamda ANGER IS A PRESSURIZED SUBSTANCE kabi umumiy kognitiv modellar mavjud. Biroq ularning badiiy matndagi verbal ifodalanish shakllari tilning milliy obrazlilik imkoniyatlari bilan farqlanadi. Demak, g'azab metaforalari har ikki tilda insonning fiziologik va psixologik tajribasiga tayanuvchi universal konseptual asosga ega bo'lsada, ularning leksik va obrazli namoyon bo'lishida milliy-lisoniy xususiyatlar kuzatiladi.

Tadqiqot natijalari ingliz va o'zbek tillarida hissiyotlarning metaforik ifodalanishida umumiy kognitiv modellar bilan bir qatorda, tilning milliy-madaniy xususiyatlari ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Har ikki tilda ham abstrakt hissiy holatlar insonning jismoniy tajribasi va kundalik hayotdagi konkret hodisalar orqali konseptuallashtiriladi. Xususan, **g'azab – olov/issiqlik, qayg'u – og'irlik, quvonch – yorug'lik/yuqorilik, qo'rquv – jismoniy ta'sir, muhabbat – olov** kabi konseptual modellar ikki tilda ham turli shakllarda namoyon bo'lishi aniqlandi.

Mazkur o'xshashliklar inson fiziologiyasi va emotsional tajribasining universalligini ko'rsatadi. Masalan, g'azabning tana haroratining oshishi yoki qo'rquvning jismoniy reaksiyalar bilan bog'liqligi turli tillarda o'xshash metaforik tasavvurlarning shakllanishiga asos bo'ladi. Bu holat Lakoff va Johnson tomonidan ilgari surilgan konseptual metafora nazariyasidagi metaforaning inson tajribasi bilan bevosita bog'liqligi haqidagi qarashlarni qo'llab-quvvatlaydi.

Shu bilan birga, ingliz va o'zbek tillarida bir xil konseptual mazmunning leksik va obrazli ifodalanishida farqlar mavjud. O'zbek tilida hissiyotlarni ifodalashda yurak, ko'ngil, ich, yuz kabi somatik birliklarning faol qo'llanishi kuzatiladi. Ingliz tilida esa heart, mind, body kabi birliklar bilan bir qatorda harakat, kuch, makon va fizik jarayonlarga asoslangan metaforik modellar keng qo'llanadi. Demak, metaforaning konseptual asosi umumiy bo'lishi mumkin, biroq uning til birliklari orqali verbalizatsiyasi milliy til tajribasi bilan belgilanadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, badiiy matnda metafora faqat hissiyotni nomlash vositasi emas, balki qahramonning ichki holatini obrazli va ta'sirchan tarzda ochib beruvchi kognitiv-lisoniy mexanizm hamdir. Shu jihatdan ingliz va o'zbek tillaridagi hissiyot metaforalarini qiyosiy o'rganish tillararo umumiyliklar hamda milliy o'ziga xosliklarni aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari ingliz va o'zbek tillarida hissiyotlarning metaforik ifodalanishi insonning kognitiv va jismoniy tajribasi bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatdi. Qiyosiy tahlil asosida g'azab, qo'rquv, quvonch, qayg'u va muhabbat kabi hissiyotlarni ifodalovchi metaforalarda umumiy konseptual modellar mavjudligi aniqlandi. Jumladan, olov, issiqlik, harakat, og'irlik, yorug'lik, makon va jismoniy ta'sir kabi manba sohalari abstrakt hissiy holatlarni konseptuallashtirishda faol ishtirok etadi. Bu holat hissiyotlarning metaforik ifodalanishida universal kognitiv mexanizmlar mavjudligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, ingliz va o'zbek tillarida mazkur konseptual modellarni verbalizatsiya qilish usullarida milliy-madaniy va lingvistik farqlar kuzatiladi. O'zbek tilida somatik birliklar, xususan, *"yurak", "ko'ngil", "ich"* kabi komponentlar faol qo'llansa, ingliz tilida fizik jarayon, harakat va kuchga asoslangan metaforik birliklar keng uchraydi. Demak, metafora badiiy matnda nafaqat obrazlilik, balki hissiy mazmunni konseptuallashtirish va ifodalashning muhim kognitiv vositasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
2. Kövecses Z. Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000.
3. Kövecses Z. Emotion Metaphors. – Berlin; New York: Springer, 1986.
4. Leech G.N., Short M.H. Style in Fiction: A Linguistic Introduction to English Fictional Prose. – 2nd ed. – Harlow: Pearson Longman, 2007.
5. Galperin I.R. Stylistics. – Moscow: Higher School, 1977.
6. Arnold I.V. Stylistics: Modern English. – Moscow: Flinta, 2002.
7. Семендяева Ю.Ю. Стилистические особенности репрезентации эмотивности в художественном дискурсе // Казанский лингвистический журнал, 2024, т.7, №1.
8. Tumparova G. Metaphorical Representation of Emotions and Thought Processes in an English-Language Literary Text // Foreign Languages in Uzbekistan., 2025. – Vol. 65, № 6. 10.36078/1767681640.

Shahnoza QARSHIYEVA,
Qarshi davlat texnika universiteti xorijiy tillar kafedrasi o'qituvchisi

GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEK IQTISODIY DISKURSIGA INGLIZ TILIDAN O'ZLASHGAN BIRLIKLARNING LINGVISTIK ADAPTATSIYA JARAYONLARI

Annotatsiya. Maqolada iqtisodiy diskursdagi o'zlashma birliklarning fonetik-grafik, morfologik, semantik va pragmatik adaptatsiyasi tahlil qilinadi. "Fintex", "startap", "blokcheyn", "mayning", "kraudfanding", "raqamli hamyon" va "yashil moliya" kabi birliklar misolida inglizcha iqtisodiy terminlarning o'zbek tiliga moslashuv yo'llari yoritiladi. Natijalar fonografik moslashuv, grammatik integratsiya, kalkalash, gibridlashuv va semantik ixtisoslashuv asosiy mexanizmlar ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy diskurs, o'zlashma birlik, lingvistik adaptatsiya, fonetik moslashuv, morfologik integratsiya, semantik transformatsiya, pragmatik adaptatsiya, terminologiya.

Annotation. The article examines phonetic-graphic, morphological, semantic and pragmatic adaptation of borrowed units in economic discourse. Fintech, startup, blockchain, mining, crowdfunding, digital wallet and green finance illustrate the principal mechanisms through which English-origin economic terms are integrated into Uzbek.

Keywords: economic discourse, borrowing, linguistic adaptation, phonetic adaptation, morphological integration, semantic transformation, pragmatic adaptation, terminology.

Аннотация. В статье анализируется фонетико-графическая, морфологическая, семантическая и прагматическая адаптация заимствований в экономическом дискурсе. На примере терминов финтех, стартап, блокчейн, майнинг, краудфандинг, цифровой кошелёк и зелёные финансы рассматриваются основные способы освоения англоязычных экономических терминов в узбекском языке.

Ключевые слова: экономический дискурс, заимствование, лингвистическая адаптация, фонетическая адаптация, морфологическая интеграция, семантическая трансформация, прагматика, терминология.

Globallashuv, raqamlashtirish va xalqaro iqtisodiy integratsiya zamonaviy maxsus leksikaning rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Moliyaviy texnologiyalar, elektron tijorat, kriptoaktivlar, raqamli bank xizmatlari, platformaviy iqtisodiyot va yashil moliya kabi yo'nalishlarning rivojlanishi natijasida iqtisodiy diskursda ko'plab yangi terminologik birliklar shakllanmoqda. Ularning katta qismi ingliz tilida paydo bo'lib, xalqaro kommunikatsiya orqali boshqa tillarga, jumladan, o'zbek tiliga kirib kelmoqda.

E.Haugen o'zlashishni lisoniy kontakt bilan bog'liq jarayon sifatida baholab, qabul qilingan elementlar yangi til tizimida turli darajada qayta shakllanishini ko'rsatadi [1: 210–231]. U.Weinreich esa fonetik, grammatik va leksik interferensiya bilan bir qatorda ijtimoiy-madaniy omillarning rolini ta'kidlaydi [2]. Bu qarashlar iqtisodiy terminologiya uchun ham muhim: *fintech, startup, blockchain, mining* kabi birliklar o'zbek tiliga kirgach, shakl va funksiyasi manba tilidagi holat bilan aynan bir xil qolmaydi.

Maqolaning maqsadi iqtisodiy diskursdagi o'zlashma birliklarning lingvistik adaptatsiya xususiyatlarini aniqlash hamda ularning fonetik-grafik, morfologik, semantik va pragmatik moslashuv mexanizmlarini tizimli tavsiflashdan iborat.

Tadqiqot materiali sifatida raqamli iqtisodiyot, moliyaviy texnologiyalar, kriptoaktivlar va platformaviy xizmatlarga oid *fintech, startup, blockchain, token, mining, crowdfunding, digital wallet, platform economy, green finance* kabi birliklar hamda ularning o'zbekcha shakllari tanlandi. Tavsifiy, qiyosiy-chog'ishtirma, komponent, kontekstual, semantik va pragmatik tahlil usullaridan foydalanildi.

M.T.Cabré terminologik birlikni lisoniy, kognitiv va kommunikativ jihatlarning birligi sifatida o'rganish zarurligini asoslaydi [3:35–57]. R.Temmermanning sotsiokognitiv yondashuvida terminlar bilim tizimi bilan birga rivojlanadigan, polisemiya, metafora va diaxron o'zgarishga ochiq birliklar sifatida talqin qilinadi [4: 125–154]. Shuning uchun o'zlashma iqtisodiy terminlarni shakl, tushuncha va kommunikativ vazifa o'zaro aloqasida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Fonetik-grafik adaptatsiya o'zlashma birlikning qabul qiluvchi tilga kirishidagi eng ko'zga tashlanadigan bosqichdir. Ingliz tilidagi tovush va harf birikmalari o'zbek tilining talaffuz hamda yozuv imkoniyatlariga moslashtirilganda birlikning tashqi shakli o'zgaradi. *Startup → startap, blockchain → blokcheyn, mining → mayning, crowdfunding → kraudfanding* juftliklari buning yaqqol misolidir. *FinTech* birligi o'zbek iqtisodiy matnlarida *fintech, fintex* yoki *moliyaviy texnologiyalar* shaklida uchraydi. *Fintex* variantida *tech* komponenti o'zbekcha talaffuz va grafik me'yorga yaqinlashtiriladi.

Ingliz va o'zbek iqtisodiy diskursida o'zlashma birliklarning fonetik-grafik adaptatsiyasi turli shakllarda namoyon bo'ladi. Ingliz tilidagi ayrim terminlar o'zbek tiliga deyarli o'zgarmagan holda kirsa, boshqalari talaffuz va grafik me'yorlarga moslashtiriladi. Masalan, ingliz tilidagi *leasing* birligi o'zbek tilida *lizing* shaklida qo'llanadi. Bunda inglizcha *ea* tovush birikmasi o'zbek talaffuzida soddalashib, birlikning yozilishi ham shu talaffuzga moslashtiriladi. Natijada termin mazmunan saqlanadi, shaklan esa o'zbek til tizimiga yaqinlashadi.

Inglizcha *broker* termini o'zbek tilida ham *broker* shaklida ishlatiladi. Bu birlikda sezilarli grafik o'zgarish kuzatilmaydi, chunki uning fonetik tarkibi o'zbek tilida talaffuz qilish uchun murakkab emas. Biroq birlik morfologik jihatdan o'zbek tiliga moslashib, *brokerlar, brokerning, brokerga* kabi shakllarda qo'llanadi. Demak, ayrim iqtisodiy o'zlashmalarda fonetik-grafik moslashuv minimal bo'lsa-da, grammatik integratsiya yuqori darajada bo'lishi mumkin.

Marketing birligi ham o'zbek iqtisodiy diskursida keng qo'llanadi. Ingliz tilidagi *marketing* shakli asosan saqlanadi, biroq talaffuzda u o'zbek fonetik me'yorlariga moslashadi. O'zbek tilida *marketing bo'limi, marketing strategiyasi, marketing xizmatlari* kabi birikmalar hosil qiladi. Bu holat o'zlashma birlikning nafaqat termin sifatida qabul qilinganini, balki faol birikuvchanlik xususiyatiga ega bo'lganini ham ko'rsatadi.

Inglizcha ***investment*** birligi o'zbek iqtisodiy leksikasida ko'proq ***investitsiya*** shaklida namoyon bo'ladi. Bu holatda termin ingliz tilidan bevosita emas, xalqaro terminologik qatlam orqali o'zlashtirilgan bo'lsa-da, iqtisodiy diskurs uchun juda muhim misoldir. O'zbek ***tilida*** *investitsiyalar, investitsion loyiha, investitsiya muhiti* kabi ko'plab hosila va birikmalar shakllangan. Bu birlikning fonetik-grafik va morfologik jihatdan chuqur integratsiyalashganini

ko'rsatadi. Shu sababli fonetik-grafik adaptatsiya barcha o'zlashma birliklarda bir xil kechmaydi; u terminning fonetik tarkibi, xalqaro qo'llanish darajasi va qabul qiluvchi tildagi barqarorlashuviga bog'liq.

Barcha terminlar bir xil darajada moslashmaydi. Token, API, QR, KYC kabi birliklar ko'pincha asl grafik ko'rinishiga yaqin saqlanadi. P.Durkin o'zlashmalarning shakliy o'zgarishi tarixiy va ijtimoiy kontakt intensivligiga bog'liq ekanini ko'rsatadi [5]. Zamonaviy iqtisodiy diskursda xalqaro professional muhitda faol va standartlashgan birliklar asl shaklni ko'proq saqlaydi, ommaviy auditoriyaga yo'naltirilgan terminlar esa fonografik yoki tarjimaviy moslashishga moyil bo'ladi.

O'zlashma birlikning til tizimiga real integratsiyasi uning morfologik xatti-harakatida ko'rinadi. *Startaplar, startapning, fintexga, tokenlar, blokcheynning* kabi shakllar o'zlashma asoslarning o'zbekcha ko'plik, kelishik va egalik ko'rsatkichlarini qabul qila olishini ko'rsatadi. *Fintex kompaniyalari, blokcheyn texnologiyasi, token bozori* kabi birikmalarda ham o'zlashma birliklar o'zbek sintaktik modeliga moslashadi.

Semantik adaptatsiyada terminning professional ma'nosi qabul qiluvchi tilda saqlanishi, torayishi, kengayishi yoki soddalashishi mumkin. *Startup* xalqaro professional nutqda innovatsion va tez o'sishga yo'naltirilgan biznes modelini bildirsa, o'zbek ommaviy nutqida ba'zan oddiy "yangi biznes" ma'nosida ishlatiladi. Bu semantik kengayishdir. Wallet, mining, ecosystem kabi birliklarda esa metaforik ixtisoslashuv kuzatiladi. *Digital wallet/raqamli hamyon* birikmasida jismoniy hamyonning "saqlash" funksiyasi elektron muhitga ko'chadi; mining/mayning esa tabiiy resurs qazib olish haqidagi tasavvurni kriptoiqtisodiyotdagi hisoblash jarayoniga o'tkazadi.

Haspelmath va Tadmor o'zlashish darajasining leksik soha, kontakt intensivligi hamda tilning ichki imkoniyatlari bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi [6:1–34]. *Digital wallet → raqamli hamyon va green finance → yashil moliya* kabi shakllarda bevosita fonetik o'zlashish emas, semantik kalkalash kuzatiladi. Bunday variantlar xalqaro konseptual modelni saqlagan holda mahalliy auditoriya uchun yuqori darajada tushunarli bo'ladi.

Pragmatik adaptatsiya terminning kim tomonidan, kimga va qanday maqsadda qo'llanishi bilan belgilanadi. Bir xil birlik professional matnda neytral termin, reklamada innovatsionlik belgisi, ommaviy axborotda esa izoh talab qiladigan yangi so'z bo'lishi mumkin. Demak, integratsiya adresat uchun kommunikativ qulaylikni ham talab qiladi.

Fintex atamasi bank va texnologiya mutaxassislari uchun qo'shimcha izohsiz tushunarli bo'lishi mumkin. Keng auditoriyaga mo'ljallangan matnda esa *fintex (moliyaviy texnologiyalar)* shakli samaraliroq. *Crowdfunding* uchun *kraudfanding* va *ommaviy moliyalashtirish* variantlarining parallel qo'llanishi ham shunday ehtiyoj bilan bog'liq. Nizomova maxsus terminlarning ingliz va o'zbek tillaridagi qabul qilinishi va moslashuvini tahlil qilib, globallashuv sharoitida terminologik o'zlashish kommunikativ-pragmatik ehtiyojlar asosida ham boshqarilishini ko'rsatadi [7: 31–44].

O'zlashma birliklar ayrim kontekstlarda zamonaviylik, innovatsionlik va xalqaro professional muhitga mansublikni ham bildiradi. *Startap, fintex, blokcheyn, token* kabi birliklar texnologik yangilik bilan bog'liq ijobiy assotsiatsiya hosil qilishi mumkin. Biroq ularni izohsiz haddan tashqari ko'p qo'llash matnning tushunarliligini pasaytiradi. Shu sabab pragmatik adaptatsiyaning asosiy mezoni xalqaro tanilish va mahalliy kommunikativ shaffoflik o'rtasidagi muvozanatdir.

Tahlil iqtisodiy diskursdagi o'zlashma birliklarning lingvistik adaptatsiyasi ko'p qatlamli va dinamik jarayon ekanini ko'rsatdi. O'zlashma birlik qabul qiluvchi tilning fonetik-grafik me'yorlariga, morfologik tizimiga, semantik kategoriyalariga va kommunikativ talablariga bosqichma-bosqich moslashadi.

Iqtisodiy terminologiyada xalqaro shaklni saqlash va o'zbekcha ekvivalent yaratish bir-birini inkor qilmaydi. *Fintex – moliyaviy texnologiyalar, kraudfanding – ommaviy moliyalashtirish, digital wallet – raqamli hamyon* kabi parallel shakllar xalqaro terminologik uzviylik va mahalliy tushunarlilikni birlashtiradi. O'zlashma terminlarni me'yorlashtirishda xalqaro tanilish, o'zbek tilining fonetik-morfologik me'yorlari va kommunikativ shaffoflik asosiy mezon bo'lishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Haugen E. The Analysis of Linguistic Borrowing // Language, 1950. Vol. 26, №2. – P. 210–231. 10.2307/410058.
2. Weinreich U. Languages in Contact: Findings and Problems. – New York: Linguistic Circle of New York, 1953.
3. Cabré M. T. Elements for a Theory of Terminology: Towards an Alternative Paradigm // Terminology, 2000. Vol. 6, №1. – P. 35–57.
4. Temmerman R. Towards New Ways of Terminology Description: The Sociocognitive Approach. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 2000. 10.1075/tlrp.3.
5. Durkin P. Borrowed Words: A History of Loanwords in English. – Oxford: Oxford University Press, 2014.
6. Haspelmath M., Tadmor U. The Loanword Typology Project and the World Loanword Database // Loanwords in the World's Languages: A Comparative Handbook. – Berlin; New York: De Gruyter Mouton, 2009. – P. 1–34. 10.1515/9783110218442.1.
7. Nizomova M. B. The Formation of Pedagogical Terms in the Social Environment and the Linguopragmatic Features of the Phenomenon of 'Pedagogical Language Contact' // Oriental Journal of Philology, 2025. Vol. 5, Issue. 5. – P. 31–44. 10.37547/supsci-ojp-05-05-06.

Abdulazizbek QODIROV,
Qo'qon universiteti Andijon filiali dotsent v.b.,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

IDENTITET INQIROZINING BADIIY MATNDA IFODALANISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asr oxiri va XXI asr boshlaridagi ijtimoiy, madaniy hamda ma'naviy o'zgarishlar sharoitida lirik qahramon identitetining inqirozga yuz tutishi va "yo'qolgan men" fenomenining badiiy-estetik tabiati tahlil qilinadi. Identitet inqirozining dastlab psixologiya, sotsiologiya va falsafa doirasida shakllangan nazariy tushuncha sifatidagi mazmuni ochib berilib, uning zamonaviy adabiyotshunoslikka ko'chishi, xususan, lirik subyektni anglashdagi metodologik ahamiyati yoritiladi.
Kalit so'zlar: identitet, identitet inqirozi, "yo'qolgan men", lirik qahramon, lirik subyekt, poetik "men", begonalashuv, xotira, diskurs, o'zlik, istiqlol davri she'riyati, poetik tafakkur.
Annotation. The article analyzes the crisis of the lyrical protagonist's identity and the artistic-aesthetic nature of the "lost self" phenomenon amidst the social, cultural, and spiritual transformations of the late 20th and early 21st centuries. It elucidates the concept of identity crisis originally formulated within psychology, sociology, and philosophy and highlights its transition into contemporary literary studies, particularly its methodological significance for understanding the lyrical subject.
Keywords: identity, identity crisis, "lost self", lyrical protagonist, lyrical subject, poetic "I", alienation, memory, discourse, selfhood, poetry of the independence era, poetic thought.
Аннотация: В статье анализируются кризис идентичности лирического героя и художественно-эстетическая природа феномена «утраченного Я» в условиях социальных, культурных и духовных трансформаций конца XX – начала XXI вв. Раскрывается содержание понятия кризиса идентичности, первоначально сформировавшегося в рамках психологии, социологии и философии, а также прослеживается его переход в современное литературоведение, где оно приобретает особое методологическое значение для осмысления лирического субъекта.
Ключевые слова: идентичность, кризис идентичности, «утраченное Я», лирический герой, лирический субъект, поэтическое «Я», отчуждение, память, дискурс, самость, поэзия эпохи независимости, поэтическое мышление.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida hayotning deyarli barcha sohalarida inson, jamiyat va madaniyat haqidagi ilmiy qarashlarda identitet masalasi tobora markaziy muammolardan biriga aylana bordi. Bu holat bevosita zamonaviy dunyoda kechayotgan ijtimoiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib, globallashuv jarayonlari, migratsiya, urbanizatsiya, axborot oqimining keskin kuchayib borishi, an'anaviy qadriyatlar tizimining evrilishlarga yuz tutishi, milliy va madaniy chegaralarning nisbiylashuvi insonning o'zini anglash tarziga ham ta'sir ko'rsatmay qolmadi. Natijada shaxs endi o'zini faqat barqaror ijtimoiy maqom, milliy mansublik yoki an'anaviy qadriyatlar doirasidagina emas, turli madaniy, ijtimoiy va ruhiy ta'sirlar kesishmasida idrok eta boshladi. Ana shu jarayonda identitet inqirozi zamonaviy insonning eng muhim ruhiy-ma'naviy holatlaridan biri sifatida yuzaga chiqdi.

Identitet inqirozi tushunchasi dastlab psixologiya, aniqrog'i, psixosotsial rivojlanish nazariyasi doirasida shakllangan bo'lib, shaxsning o'zini anglashidagi beqarorlik, ijtimoiy rollar orasidagi nomuvofiqlik, qadriyatlar tanlovi va hayotiy yo'nalishni belgilashdagi ichki ziddiyatlarni izohlash uchun qo'llanilgan. Bu atama birinchi bo'lib amerikalik olim E.Erikson tomonidan muomalaga kiritilgan. Uning ta'rifiga ko'ra, identitet inqirozi "rivojlanish muqarrar tarzda u yoki bu tomonga yo'nalishi kerak bo'lgan zarur burilish nuqtasi, hal qiluvchi lahza bo'lib, unda o'sish, tiklanish va yanada differensiatsiya resurslari safarbar etiladi" [5: 7].

Olim nazariyasida identitet inqirozi shaxsning psixosotsial rivojlanishining beshinchi bosqichi bo'lib, asosan o'smirlik davrida yuzaga keladi va shaxs jismoniy o'sish, jinsiy voyaga yetish hamda o'zi va boshqalar haqidagi tasavvurlarni bir butunlikka keltirish vazifasi bilan yuzma-yuz keladi. Bu o'rinda "inqiroz" tushunchasini halokat emas, burilish yoki qaror qabul qilish nuqtasi, ya'ni tabiiy va zarur rivojlanish jarayoni sifatida talqin etilishini ko'rish mumkin. Oxirgi ilmiy tadqiqotlarda esa mazkur atama kengroq ma'noda ham qo'llanilib, kasbiy yoki madaniy o'zgarishlar tufayli yuzaga keladigan har qanday o'z-o'zini qayta baholash bosqichini ham "identitet inqirozi" deya atash odat tusiga kirgan.

So'nggi yillardagi sotsiologik tadqiqotlarga ko'ra, "sotsiologik nuqtayi nazardan identitet inqirozi shaxsning o'z-o'zini anglashidagi tub noaniqlik bo'lib, ko'pincha tashqi ijtimoiy bosim va madaniy kutilmalar tufayli kuchaya boradi. U shaxsiy avtonomiya bilan jamiyat talablari o'rtasidagi doimiy ziddiyatni aks ettiradi" [7: 82]. Bundan anglashiladiki, identitet inqirozi shaxsning o'z-o'zini tasavvur qilishi bilan jamiyat yoki ijtimoiy institutlar tomonidan qo'yilgan talablar o'rtasidagi uzilish yuzaga kelganda paydo bo'ladi. Globallashuv, madaniy diffuziya va texnologik o'zgarishlarni esa bu jarayonni kuchaytiruvchi omillar sifatida ko'rsatish mumkin.

Tadqiqotda identitet inqirozi va "yo'qolgan men" fenomenini yoritishda qiyosiy-tipologik, psixologik, sotsiologik va poetik tahlil usullaridan foydalaniladi. Badiiy matndagi lirik "men"ning shakllanishi diskursiv, poststrukturalistik va narrativ identitet yondashuvlari asosida tahlil qilinadi.

Adabiyotshunoslikda identitet inqirozi badiiy qahramon yoki lirik subyektning ichki yaxlitligini yo'qotishi, o'zini barqaror "men" sifatida his qila olmasligi bilan izohlanadi. Bunday holat tashqi olam va ichki ehtiyojlar, ijtimoiy rol va ruhiy mohiyat, milliy-madaniy mansublik va shaxsiy erkinlik, xotira va bugungi hayot o'rtasidagi ziddiyatlarda namoyon bo'ladi. Nasrda identitet inqirozi syujet, konflikt, ichki monolog va ong oqimi orqali, she'riyatda esa lirik "men"ning o'z-o'ziga murojaati, yolg'izlik, begonalashuv, xotira, yo'l, soya, tun va shahar kabi obrazlar vositasida ifodalanadi.

Modernizm va postmodernizm identitet muammosining adabiyotdagi talqinini yanada chuqurlashtirdi. Modernistik adabiyotda inson parchalangan dunyoda o'z o'rnini izlayotgan, an'anaviy qadriyatlardan ruhiy tayanch topa olmayotgan shaxs sifatida tasvirlansa, postmodernistik tafakkurda identitet beqaror, ko'p qatlamli, intertekstual va o'zgaruvchan hodisa sifatida qaraladi. Shu bois badiiy qahramon va lirik "men"ni faqat biografik yoki psixologik jihatdan emas, balki madaniy-tarixiy va diskursiv muhitda tahlil qilish zarurati yuzaga keladi.

Bendelning fikricha, XX asrning 80–90-yillaridan identitet masalasi individual darajadan tashqari jamoaviy identitet nuqtayi nazaridan ham o'rganila boshlandi [10: 133]. Adabiyotshunoslikda identitet inqirozi shaxsning o'z haqiqiy "men"i bilan jamiyat tomonidan belgilangan rol o'rtasidagi ziddiyat sifatida talqin qilinadi. Shaxsning jamiyat qoidalari bilan murosaga kela olmasligi, o'z o'rnini izlash va bu jarayondagi ichki savollar qadimiy dramalardan zamonaviy roman va she'riyatgacha kuzatiladi.

Postkolonial adabiyotshunoslikda S.Hall identitetni "ikki madaniy nutq o'rtasidagi notinch, hal etilmagan makon" sifatida

izohlaydi [8: 237]. E.Said esa mustamlakadan keyingi identitet inqirozini mimikriya, begonalashuv va hukmron mafkuraga qarshilik kabi jarayonlar bilan bog'laydi [6: 32]. Mazkur qarashlar mustaqillik davri o'zbek she'riyatidagi "yo'qolgan men" fenomenini tushuntirishda muhim metodologik asos bo'la oladi. Sovet mafkuraviy cheklovlaridan keyin o'zbek she'riyatida shoirning ichki kechinmalari va individual ruhiy holatini erkin ifodalash imkoniyati kengaydi, natijada identitetning tanlovlar va ziddiyatlar ta'sirida inqirozga yuz tutishi turli poetik shakllarda namoyon bo'ldi.

Poststrukturalistik qarashlarda, xususan, R.Bart va M.Fuko konsepsiyalarida "men" real muallifning bevosita tarjimayi holi emas, balki til, matn, diskurs va madaniy kodlar asosida shakllanuvchi estetik konstruktsiya sifatida talqin qilinadi. Bart matn ma'nosini faqat muallif shaxsiyati bilan izohlashga qarshi chiqib, uni turli madaniy kodlar, avvalgi matnlar va o'quvchi talqini kesishadigan ko'p qatlamli hodisa sifatida ko'radi [9: 142]. Shu sababli she'rdagi lirik "men"ni muallifning real shaxsi bilan tenglashtirish to'g'ri emas; u matn ichida yaratilgan poetik ong shaklidir.

M.Baxtinning dialogizm nazariyasi ham identitet inqirozini tushuntirishda muhimdir. Uning qarashlarida inson ongi boshqa ovozlar, baholar va nutqlar bilan munosabatda shakllanadi. Demak, badiiy matndagi "men" jamiyat, tarix, madaniyat, xotira va "boshqa" bilan muloqotda yuzaga keladi. Turli ovozlar o'rtasidagi muvozanatning buzilishi esa identitet inqirozini keltirib chiqaradi. Lirik matnda bu holat ichki dialog, o'z-o'ziga savol berish, ikkilanish va qarama-qarshi ruhiy pozitsiyalar to'qnashuvi orqali ifodalanadi.

P.Rikyorning narrativ identitet haqidagi qarashlari identitetning vaqt va xotira bilan bog'liqligini ochib beradi. Unga ko'ra, inson o'zligini o'tmish, bugun va kelajakni yaxlit ma'no tizimiga joylashtirish orqali anglaydi [7: 98]. Hayot tajribasi yaxlit hikoya sifatida idrok etilmasa, identitetda uzilish yuzaga keladi. Adabiy matnda bu uzilish xotira parchalari, yo'qotilgan bolalik, uy, yo'l, Vatan, ona, tarixiy xotira va unutilgan qadriyatlar orqali ifodalanadi. Shu jihatdan xotira bir vaqtning o'zida ham identitetni tiklovchi, ham uning inqirozini chuqurlashtiruvchi omil vazifasini bajaradi.

Adabiyotshunoslik uchun muhim jihat shundaki, identitet inqirozi badiiy matnda faqat mavzu sifatida emas, balki poetik shakl sifatida ham namoyon bo'ladi. U she'rning obrazlar tizimida, lirik nutq ohangida, savollarning ko'pligida, kompozitsion parokandalikda, intertekstual ishoralarda, makon va xotira motivlarida yuzaga chiqadi. Masalan, "yo'l" obrazi ko'pincha o'zlikni izlashni, "uy" yo'qotilgan yaxlitlikni, "ko'zgu" o'ziga qarash va o'zini tanimaslikni, "shahar" begonalashuvni, "tun" ichki qorong'ilikni, "sukut" esa aytilmagan ruhiy og'riqni anglatadi. Shu tariqa identitet inqirozi she'riyatda mavhum nazariy tushuncha bo'lib qolmay, konkret poetik obrazlar orqali estetik mavjudlik kasb etadi.

Demak, identitet inqirozining adabiyotshunoslikka ko'chishi bu tushunchaning inson ruhiyatini izohlovchi psixologik atamadan badiiy matnni tahlil qilishga xizmat qiluvchi nazariy-estetik mezonga aylanishidir. Adabiy matnda identitet inqirozi lirik qahramonning o'zini yo'qotishi, o'zini izlashga majbur bo'lishi, jamiyat va makon bilan ziddiyatga kirishi, xotira va qadriyatlar orqali o'zini qayta tiklashga intilishi tarzida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan u istiqlol davri o'zbek she'riyatidagi lirik "men" tabiatini, uning ruhiy murakkabligini va davr poetik tafakkuridagi o'zgarishlarni ochish uchun muhim metodologik kalit vazifasini bajaradi.

Psixologik nuqtayi nazardan u insonning "men kimman?", "hayotdagi o'rnim nima?", "qanday qadriyatlarga tayanaman?" kabi savollar qarshisida ichki iztirobga tushishi bilan bog'liq bo'lsa, sotsiologik yondashuvlarda bu hodisa shaxsning jamiyatdagi o'rni, guruhga mansubligi, ijtimoiy tan olinishi va madaniy muhit bilan munosabati orqali talqin qilinadi. Adabiyot, ayniqsa, she'riyat bunday ruhiy-ma'naviy jarayonlarni eng nozik va teran shaklda aks ettiruvchi estetik maydon hisoblanadi. Chunki she'riyatda shaxsning ichki dunyosi, ruhiy iztirobi, yolg'izlik hissi, o'zini anglashga bo'lgan ehtiyoji va jamiyat bilan ziddiyati bevosita lirik kechinma orqali ifodalanadi.

Identitet inqirozi adabiy matnga ko'chganida u nazariy tushuncha sifatida emas, balki lirik "men"ning parokandaligi, ichki dialogi, savol ohangi, xotira bilan murakkab munosabati, begonalashuv, yo'l, uy, shahar, ko'zgu, soya, sukut, tun kabi obrazlar orqali badiiy shakl kasb etadi. Shu sababli adabiyotshunoslikda identitet inqirozini o'rganish lirik qahramonning ruhiy holatini tahlil qilish bilangina cheklanmaydi; u davrning estetik tafakkuri, madaniy ongidagi o'zgarishlar va shaxs haqidagi tasavvurlarning yangilanishini ham ochishga xizmat qiladi.

Istiqlol davri o'zbek she'riyati ham aynan shunday murakkab tarixiy-madaniy sharoitda shakllandi. Mustaqillik milliy o'zlikni qayta anglash, tarixiy xotirani tiklash, Vatan, til, din, madaniyat va erkinlik tushunchalarini yangicha idrok etish imkonini yaratdi. Biroq bu jarayon faqat ijobiy ruhdagi uyg'onish va o'zlikni tiklash bilan cheklanib qolmadi.

Ijtimoiy hayotdagi keskin o'zgarishlar, qadriyatlar tizimining yangilanishi, eski mafkuraviy mezonlarning yemirilishi, yangi hayot tarzining shakllanishi, urban muhitning kengayishi va global madaniy ta'sirlar shaxsning ichki dunyosida ham murakkab savollarni yuzaga chiqardi. Natijada istiqlol davri she'riyatida lirik qahramon ko'pincha barqaror va qat'iy "men" egasi sifatida emas, balki o'zini izlayotgan, yo'qotgan, qayta anglayotgan va yangi ruhiy tayanchlar topishga urinayotgan subyekt sifatida namoyon bo'la boshladi.

Mazkur jarayonda "yo'qolgan men" fenomeni alohida ahamiyat kasb etadi. "Yo'qolgan men" deganda shaxsning butunlay yo'qolishi emas, balki uning avvalgi o'zlik mezonlari bilan hozirgi hayot tajribasi o'rtasidagi uzilish, ichki yaxlitlikning buzilishi va yangi identitetni izlash jarayoni tushuniladi. Bunday lirik qahramon o'zini jamiyatdagi tayyor rollar orqali to'liq anglay olmaydi; u o'zining ichki ehtiyoji, xotirasi, qadriyatlari va tashqi muhit o'rtasidagi nomuvofiqlikni his qiladi. Shu bois zamonaviy she'riyatda "men" ko'pincha savolga aylangan, o'zidan uzoqlashgan, o'zini yo'qotgan, biroq ayni paytda o'zini qayta topishga intilgan poetik subyekt sifatida gavdalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. М.: Советская Россия, 1979.
2. Butler J. Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity. – New York; London: Routledge, 1990.
3. Castells M. The Power of Identity. – 2nd ed. – Malden; Oxford: Wiley-Blackwell, 2010.
4. Dubar C. La socialisation: Construction des identités sociales et professionnelles. – Paris: Armand Colin, 2015.
5. Erikson E.H. Identity: Youth and Crisis. – New York: W.W. Norton & Company, 1968.
6. Giddens A. Modernity and Self-Identity: Self and Society in the Late Modern Age. – Cambridge: Polity Press, 1991.
7. Рикёр П. Я-сам как другой / пер. с фр. М.: Издательство гуманитарной литературы, 2008.
8. Hall S. Cultural identity and diaspora // Identity: Community, Culture, Difference / ed. by J. Rutherford. – London: Lawrence & Wishart, 1990. – P. 222–237.

Madina QODIROVA,
Qarshi shahar 31-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

TABIAT RAMZLARI VA ULARNING JAMIYAT HAYOTINI FODALASHDAGI ESTETIK FUNKSIYASI

Annotatsiya. Maqolada Tomas Harde va Xurshid Do'stmuhammad nasrida tabiat ramzlarining jamiyat hayotini badiiy ifodalashdagi estetik funksiyasi qiyosiy aspektda tahlil qilinadi. Tabiat unsurlari peyzaj bezagi sifatida emas, balki ijtimoiy muhit, axloqiy bosim, gender me'yorlari, begonalashuv va ma'naviy tanazzulni ochuvchi poetik belgilar sifatida talqin etiladi. Tomas Hardening "Tess of the d'Urbervilles" romanidagi fasl, dala, yomg'ir, hayvon va yo'l obrazlari Xurshid Do'stmuhammadning "Chayongul" qissasidagi gul, chayon, makon va tabiiy holatlarning ramziy semantikasi bilan qiyoslanadi. Tahlil natijasida har ikki adib tabiat ramzlari orqali shaxs va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatni kuchaytirishi hamda ruhiy qarshilikni ifodalashi aniqlanadi.

Kalit so'zlar: tabiat ramzi, estetik funksiya, jamiyat, peyzaj, ijtimoiy muhit, ramziylik, qiyosiy poetika, badiiy semantika.

Annotation. The article comparatively examines the aesthetic function of nature symbols in representing social life in the prose of Thomas Hardy and Khurshid Do'stmuhammad. Natural details are treated not as decorative landscape but as poetic signs that reveal social environment, moral pressure, gender norms, alienation and spiritual crisis. Seasonal imagery, fields, rain, animals and roads in Hardy's "Tess of the d'Urbervilles" are compared with the symbolic semantics of the flower, scorpion, space and natural states in Dustmuhammad's "Chayongul". The analysis shows that both writers intensify the conflict between the individual and society through nature symbolism; whereas Do'stmuhammad's imagery foregrounds moral degradation and inner resistance.

Keywords: nature symbol, aesthetic function, society, landscape, social environment, symbolism, comparative poetics, artistic semantics.

Аннотация. В статье в сопоставительном аспекте исследуется эстетическая функция природных символов в изображении общественной жизни в прозе Томаса Харди и Хуршида Дустмухаммада. Природные детали рассматриваются не как декоративный фон, а как поэтические знаки, раскрывающие социальную среду, нравственное давление, гендерные нормы, отчуждение и духовный кризис. Образы времени года, поля, дождя, животных и дороги в романе Томаса Харди «Тэсс из рода д'Эрбервиллей» сопоставляются с символикой цветка, скорпиона, пространства и природных состояний в повести Хуршида Дустмухаммада «Цветок скорпиона». Однако у Харди она прежде всего выражает социальную обусловленность трагедии, тогда как у Дустмухаммада акцентируется нравственная деградация среды и внутренняя сопротивляемость личности.

Ключевые слова: природный символ, эстетическая функция, общество, пейзаж, социальная среда, символизм, художественная семантика.

Badiiy adabiyotda tabiat ko'pincha makon yoki peyzajni tasvirlash vositasi sifatida namoyon bo'ladi, biroq yirik epik asarlarda u bundan ancha murakkab poetik vazifani bajaradi. Tabiiy detal qahramonning ichki holatini ifodalashi, voqeaning axloqiy ohangini belgilashi, jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatni ko'rinadigan obrazga aylantirishi yoki muallifning yashirin bahosini berishi mumkin. Shu ma'noda tabiat ramzi – predmetning o'z ma'nosidan tashqariga chiqib, ijtimoiy va ma'naviy mazmunni jamlaydigan badiiy birlikdir.

N.Frye adabiy ramzni matnning alohida tahlil qilinishi mumkin bo'lgan ma'noli unsuri sifatida izohlaydi va badiiy obrazlarning tizimli aloqasi asar semantikasini kengaytirishini ko'rsatadi [3:71–92]. Mazkur yondashuv tabiat tasvirini ham syujetdan ajralgan dekorativ qatlam emas, balki ijtimoiy mazmun hosil qiluvchi poetik tizim sifatida o'rganishga asos beradi.

Maqolaning maqsadi Tomas Hardening "Tess of the d'Urbervilles" romani hamda Xurshid Do'stmuhammadning "Chayongul" qissasi misolida tabiat ramzlarining jamiyat hayotini ifodalashdagi estetik funksiyasini qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, semantik, kontekstual, germenevtik va yaqin o'qish usullaridan foydalanildi. Asosiy e'tibor tabiat obrazining qaysi ijtimoiy hodisaga bog'lanishi, qanday emotsional-baholovchi ma'no yaratishi va qahramon bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatni qanday badiiylashtirishiga qaratildi. Bunday tahlil avvalgi "tabiat konsepti" yoki umumiy "tabiat va jamiyat" munosabati doirasidan torroq bo'lib, aynan ramzning estetik mexanizmini ochishga xizmat qiladi.

Tomas Hardy poetikasida tabiat va inson hayoti o'rtasidagi aloqadorlik izchil kuzatiladi. "Tess of the d'Urbervilles" romanida qishloq manzarasi, mavsumiy almashinuv, hosil yig'imi, yomg'ir, tong, qorong'ilik, qush va boshqa tirik mavjudotlar qahramon taqdiriga parallel tarzda joylashtiriladi [1]. Md. Nuruzzaman Tess obrazi bilan tabiat o'rtasidagi yaqinlikni ekotanqidiy nuqtayi nazardan o'rganib, romandagi muhim voqealar tabiiy muhit va fasliy ritm bilan bog'langanini ta'kidlaydi [6:153–159]. Bu aloqadorlikning estetik ahamiyati shundaki, tabiat Tessning hissiy holatini shunchaki aks ettirmaydi; u jamiyatning qizga qo'ygan talablari, mehnat tartibi va axloqiy hukmlarini bilvosita ochib beradi.

Romandagi dala ramzi bir tomondan hayot, mehnat va unumdorlikni anglatadi, ikkinchi tomondan esa insonning iqtisodiy tizimga bo'ysunishini ko'rsatadi. Tessning qishloq xo'jaligi mehnatiga jalb etilishi tabiiy ritm bilan uyg'un tuyuladi, ammo bu uyg'unlik ortida og'ir mehnat, ijtimoiy tabaqalanish va tanlov imkoniyatining torligi mavjud. Dala shu tariqa ikki qatlamli estetik vazifa bajaradi: u ko'zga go'zal makon bo'lib ko'rinsa-da, ichki semantikasida jamiyatning iqtisodiy bosimini yashiradi. Hardy tabiatning tashqi go'zalligi bilan ijtimoiy haqiqatning shafqatsizligini qarama-qarshi qo'yib, kuchli badiiy kontrast hosil qiladi.

Fasl ramzlari ham jamiyat hayotining yashirin dinamikasini yoritadi. Bahor va yoz odatda yangilanish, umid va hayotiy kuch bilan bog'lanadi, kuz va qish esa so'nish, cheklanish va fojiali yakun semantikasini kuchaytiradi. Biroq Hardyda faslning an'anaviy ramziy ma'nosi doim ham bir yo'nalishda ishlamaydi. Tashqi tabiat uyg'ongan paytda qahramonning ijtimoiy imkoniyatlari cheklanishi yoki, aksincha, sovuq muhitda ichki umid paydo bo'lishi mumkin. Ana shu nomuvofiqlik estetik taranglik yaratadi. Tabiat va jamiyatning ritmi bir-biriga to'liq mos tushmagani uchun o'quvchi shaxsning tabiiy ehtiyojlari bilan ijtimoiy talablar o'rtasidagi ziddiyatni kuchliroq his qiladi.

Hardy asarida hayvon va qush obrazlari ham inson jamiyatiga nisbatan axloqiy kontrast hosil qiladi. Tessning tirik mavjudotlarga munosabati uning rahm-shafqatini ko'rsatadi; tabiatdagi zaif mavjudotlar bilan qahramonning holati o'rtasida semantik yaqinlik paydo bo'ladi. A.S.Almutairi Hardy asarlarida gullar, daraxtlar, hayvonlar va boshqa tabiiy unsurlarning ramziy vazifasi qahramonlarning psixologik hamda ijtimoiy aloqalarini ochishga xizmat qilishini qayd etadi

[7: 103–109]. Bunda hayvon obrazi faqat naturalistik detal emas. U jamiyatning "kuchli–zaif" munosabatini ko'rsatadigan etik o'lchovga aylanadi.

Xurshid Do'stmuhammadning "Chayongul" qissasida tabiat ramzi boshqacha poetik tamoyil asosida quriladi. Asar nomining o'zida ikki semantik qutb "chayon" va "gul" birlashadi. Gul odatda noziklik, go'zallik, hayot va beg'uborlik bilan assotsiatsiyalansa, chayon xavf, zahar va mudofaa ramzini uyg'otadi. Mazkur qo'shma obraz qahramon va jamiyat munosabatining murakkabligini oldindan belgilaydi. Qissadagi ramziylik bo'yicha tadqiqotlarda "gul" va "chayon" qarama-qarshiligi ayolning ijtimoiy va ruhiy bosim ostida o'zgarish jarayonini ifodalovchi markaziy timsol sifatida talqin qilingan [8: 99–101].

"Chayongul" ramzining estetik kuchi uning bir vaqtning o'zida go'zallik va tahdidni birlashtirishidadir. Jamiyat ayoldan muloyimlik, sukut, itoat va "gul"ga xos tashqi noziklikni kutadi, biroq uning sha'ni, qadr-qimmati yoki xavfsizligi buzilganda mazkur me'yor ichki qarshilikni tug'diradi. "Chayon" komponenti shu qarshilikning obrazli shaklidir. Bu yerda tabiat timsoli shaxsni biologik xususiyatga tenglashtirmaydi; aksincha, ijtimoiy muhitning inson xarakterini qanday keskin o'zgartirishini ramziy ravishda ko'rsatadi. Estetik funksiya aynan mazmuniy qarama-qarshilikdan paydo bo'ladi: gulning nozikligi bilan chayonning zahri bir obrazda tutashadi.

Do'stmuhammad qissalarida ramz va metaforaning faol qo'llanishi adib poetikasining muhim belgilaridan biri sifatida qayd etilgan. M.Qo'chqorova yozuvchi qissalarida voqea va qahramonlar milliy muhitda yaratilishi, kundalik hodisalarga keng badiiy-falsafiy ma'no yuklanishi va obrazlarning ramziylashtirilishini alohida ta'kidlaydi [9]. "Chayongul"da ham tabiiy nom ijtimoiy hodisani to'g'ridan-to'g'ri bayon qilishdan ko'ra kuchliroq estetik ta'sir yaratadi. Chunki o'quvchi "gul" va "chayon"ning an'anaviy semantikasini biladi va ularni birlashtirgan nom orqali jamiyatdagi ziddiyatning ichki mantiqini o'zi qayta quradi.

Hardy va Do'stmuhammad asarlaridagi ramzlarni qiyoslaganda, avvalo ularning miqyosi farqlanadi. Hardyda tabiat ramzi ko'pincha keng peyzaj tizimiga kiradi: dala, fasl, yomg'ir, yo'l va tirik mavjudotlar birgalikda qahramon yashayotgan ijtimoiy muhitning hissiy xaritasini yaratadi. Do'stmuhammadda esa ramziy ma'no ko'proq zichlashtirilgan, alohida obrazga jamlangan. "Chayongul" nomining o'zi qissadagi axloqiy va ijtimoiy konfliktni ixcham semiotik modelga aylantiradi. Demak, birinchi holatda tabiat ramzi makon va vaqt bo'ylab yoyilsa, ikkinchi holatda u bitta kuchli timsol atrofida konsentratsiyalanadi.

Qiyosiy tahlil tabiat ramzlarining gender munosabatlarini ifodalashdagi rolini ham ko'rsatadi. Tess ham, "Chayongul"dagi ayol obrazi ham jamiyatning ayol xulqi, or-nomus va itoat haqidagi me'yorlari bilan to'qnashadi. Hardyda tabiat qahramonning tabiiy hayotiyligini jamiyatning sun'iy axloqiy hukmlariga qarama-qarshi qo'yadi. Do'stmuhammadda esa "gul"ning "chayon" bilan semantik birlashuvi tashqi noziklik va ichki himoya ehtiyoji o'rtasidagi ziddiyatni ifodalaydi. Shunday qilib, tabiiy ramz gender muammosini biologiklashtirish uchun emas, jamiyat yaratgan bosimni ko'rsatish uchun ishlatiladi.

Mazkur tasnif tabiat ramzini faqat "qahramon ruhiyatining aks-sadosi" sifatida talqin qilish yetarli emasligini ko'rsatadi. Agar obrazning ijtimoiy konteksti hisobga olinmasa, uning estetik imkoniyati torayib qoladi. Masalan, Hardyda yomg'ir yoki sovuq faqat Tessning kayfiyatini emas, uning mehnat va yashash sharoitini ham bildiradi. "Chayongul"dagi chayon semantikasi esa faqat ruhiy g'azab yoki qo'rquv emas, balki himoyasiz qolgan insonning jamiyatga javob reaksiyasini anglatadi. Shunday qilib, tabiiy ramz psixologik va ijtimoiy ma'noni bir nuqtada tutashtiradi.

Qiyosiy tahlil Tomas Hardy va Xurshid Do'stmuhammad asarlarida tabiat ramzlari jamiyat hayotini ifodalashning faol estetik vositasi ekanini ko'rsatdi. "Tess of the d'Urbervilles"da dala, fasl, yomg'ir, hayvon va yo'l obrazlari qahramonning ijtimoiy himoyasizligi, mehnat sharoiti, gender me'yorlari va axloqiy hukm bosimini hissiy-obrazli shaklga keltiradi. "Chayongul"da esa gul va chayon semantikasining qo'shilishi jamiyatdagi zo'ravonlik, befarqlik va ma'naviy ziddiyatni bir markaziy timsolga jamlaydi. Har ikki holatda ham tabiat jamiyatning oddiy nusxasi emas; u muallifning axloqiy-estetik bahosini bilvosita yetkazadigan mustaqil poetik tizimdir. Tabiat ramzlarini psixologik, ijtimoiy-diagnostik va aksiologik funksiyalar birligida tahlil qilish ikki adib nasridagi inson–tabiat–jamiyat dialektikasini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hardy T. Tess of the d'Urbervilles / Ed. by S. Gatrell, J. Grindle. – Oxford: Oxford University Press, 2005.
2. Do'stmuhammad X. Qissalar. – Toshkent: Sharq, 2011.
3. Frye N. Anatomy of Criticism: Four Essays. – Princeton: Princeton University Press, 1957.
4. Glotfelty Ch., Fromm H. (eds.). The Ecocriticism Reader: Landmarks in Literary Ecology. – Athens; London: University of Georgia Press, 1996.
5. Lotman Yu. M. The Structure of the Artistic Text / Transl. by G. Lenhoff, R. Vroon. – Ann Arbor: University of Michigan, 1977.
6. Nuruzzaman M. Tess in Hardy's Tess of the d'Urbervilles: The Other Self of Nature // Crossings: A Journal of English Studies, 2017. Vol. 8. – P. 153–159. 10.59817/cjes.v8i.139.
7. Almutairi A.S. Exploring the Symbolism of Nature in the Works of Thomas Hardy: An Eco-critical Perspective, 2025. Vol. 9, №.4. – P. 103–109
8. Abdumajidova Z., Haydarova G. Xurshid Do'stmuhammadning "Chayongul" qissasida inson ruhiyati tasviri // Nauka i innovatsii, 2026. T. 4, №57. – B. 99–101.

Rizvon SAIDOVA,
Jizzax viloyati Pedagogik mahorat markazi o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

"LISON UT-TAYR" DOSTONINING O'RGANILISHI: ILMIY TADQIQOTLAR TAHLILI

Annotatsiya. Maqolada Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostoni bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar, xususan, Y.E.Bertels, Z.Mamadaliyeva va Sultonmurod Olim qarashlari qiyosiy tahlil qilinadi. Asarning Fariduddin Attorning "Mantiq ut-tayr" dostoni bilan munosabati, Navoiy ijodida Attor an'analarining o'zlashtirilishi, nazira va tarjimaviylik masalalari hamda ramziy obrazlar talqini yoritiladi. Tadqiqotchilar qarashlaridagi mushtarak va farqli jihatlar aniqlanib, "Lison ut-tayr"ning o'ziga xos badiiy-estetik xususiyatlari ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, "Lison ut-tayr", Fariduddin Attor, "Mantiq ut-tayr", adabiy ta'sir, nazira, tarjima, ramziy obraz, qiyosiy tahlil.

Annotation. This article provides a comparative analysis of scholarly studies devoted to Alisher Navoi's "Lison ut-Tayr", with particular attention to the works of Y.E. Bertels, Z. Mamadaliyeva, and Sultonmurod Olim. It examines the relationship between "Lison ut-Tayr" and Fariduddin Attar's "Mantiq ut-Tayr", the adaptation of Attar's literary traditions, the issues of nazira and translation, and the interpretation of symbolic images. The common and distinctive aspects of the scholars' approaches are identified, highlighting the artistic and aesthetic features of "Lison ut-Tayr".

Keywords: Alisher Navoi, "Lison ut-Tayr", Fariduddin Attar, "Mantiq ut-Tayr", literary influence, nazira, translation, symbolic image, comparative analysis.

Аннотация. В статье представлен сравнительный анализ исследований, посвящённых дастану Алишера Навои «Язык птиц», в частности научных взглядов Е.Э.Бертельса, З.Мамадалиевой и Султанмурода Олима. Рассматриваются взаимосвязь произведения с «Беседой птиц» Фаридуддина Аттара, освоение традиций Аттара в творчестве Навои, вопросы назиры и переводимости, а также интерпретация символических образов. Выявлены общие и отличительные аспекты исследовательских подходов и раскрыты художественно-эстетические особенности «Языка птиц».

Ключевые слова: Алишер Навои, «Язык птиц», Фаридуддин Аттар, «Беседа птиц», литературное влияние, назира, перевод, символический образ, сравнительный анализ.

Alisher Navoiy ijodiy merosi o'zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotida alohida o'rin tutib, uning asarlaridagi badiiy-falsafiy qarashlar, ramziy obrazlar va poetik an'analar adabiyotshunoslikning muhim tadqiqot obyektlaridan biri bo'lib kelmoqda. Shoir ijodini chuqur o'rganish, avvalo, uning badiiy tafakkuri shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan adabiy manbalar, salaflar ijodi va an'analar bilan munosabatini aniqlashni taqozo etadi. Shu jihatdan Navoiy ijodining fors-tojik adabiyoti, xususan, Fariduddin Attor merosi bilan munosabati alohida ilmiy ahamiyatga ega.

Navoiy ijodini tadqiq etishda shoirning salaflarga munosabati, ulardan foydalanish tamoyillari va mavjud adabiy an'analarni ijodiy o'zlashtirish masalasi doimo muhim muammolardan biri bo'lib kelgan. Bu masala, ayniqsa, "Lison ut-tayr" dostoni misolida yaqqol namoyon bo'ladi. Alisher Navoiyning "Foniy" taxallusi bilan yaratgan ushbu dostoni Fariduddin Attorning "Mantiq ut-tayr" asari bilan syujet, obrazlar tizimi, ramziy ma'nolar va tasavvufiy-falsafiy mazmun jihatidan mushtarakliklarga ega. Biroq mazkur o'xshashliklar "Lison ut-tayr"ni oddiy tarjima yoki taqlidiy asar sifatida baholash uchun asos bo'la olmaydi. Aksincha, ikki asarni qiyosiy o'rganish Navoiy ijodiy yondashuvining o'ziga xos jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

"Lison ut-tayr"ning "Mantiq ut-tayr" bilan munosabati masalasi XX asrdan boshlab navoiyshunoslik va sharqshunoslikda turli nuqtayi nazarlardan tadqiq etib kelinmoqda. Y.E.Bertelsning "Navoiy va Attor" tadqiqoti bu boradagi muhim ilmiy ishlardan biri bo'lib, unda ikki doston qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilinadi hamda Navoiyning Attor asariga munosabati masalasi keng yoritiladi. Bertels "Lison ut-tayr"ni "Mantiq ut-tayr"ning oddiy tarjimasi sifatida baholashdan ko'ra, undagi Navoiyga xos ijodiy o'zlashtirish va badiiy yangiliklarni ko'rsatishga e'tibor qaratadi.

Navoiy ijodining Attor merosi bilan aloqasi keyingi tadqiqotlarda ham turli jihatlardan davom ettirildi. Xususan, Z.Mamadaliyevaning "Lison ut-tayr obrazlari: ramz va majoz olami" monografiyasida doston poetikasi, ramziy obrazlarning genezisi, ularning boshqa adabiy manbalar bilan tipologik munosabati hamda Navoiy tomonidan qayta talqin qilinishi masalalariga e'tibor qaratilgan. Tadqiqotchining Anqo, Simurg' va boshqa ramziy obrazlar talqiniga doir qarashlari Navoiy va Attor ijodiy munosabatining obrazlar tizimida qanday namoyon bo'lishini anglashda muhim ahamiyatga ega.

Sultonmurod Olimning "Lison ut-tayr"ning qiyosiy poetikasi: sintez, naziraviylik va tarjimaviylik" tadqiqotida esa ikki doston o'rtasidagi adabiy ta'sir, nazira va tarjimaviylik munosabatlari alohida tahlil qilingan. Tadqiqotda Navoiy "Lison ut-tayr"ni yaratish jarayonida Attor an'anasiga munosabati, salaf va xalaf munosabatlari hamda asarning o'ziga xos badiiy xususiyatlari nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Shu jihatdan mazkur tadqiqot Bertelsning qarashlarini davom ettirish va ayrim masalalarni yangi ilmiy yondashuvlar asosida aniqlashtirishga xizmat qiladi.

Navoiy va Attor munosabati masalasining o'rganilishida mazkur tadqiqotchilar qarashlari o'rtasida umumiylik bilan bir qatorda muayyan farqlar ham mavjud. Bertels asarning originalligi va Navoiy tomonidan Attor an'analarining ijodiy o'zlashtirilishiga ko'proq e'tibor qaratgan bo'lsa, Z. Mamadaliyeva ramziy obrazlar genezisi va ularning ma'no qatlamlarini ochib berishga urg'u beradi. Sultonmurod Olim esa asarning sintez, nazira va tarjimaviylik xususiyatlarini qiyosiy poetika nuqtayi nazaridan tahlil qiladi. Ushbu yondashuvlarni o'zaro qiyoslash "Lison ut-tayr"ning Attor "Mantiq ut-tayr"i bilan munosabatini yanada kengroq va tizimliroq anglash imkonini beradi. Shundan kelib chiqib, mazkur maqolada Y.E. Bertels, Z. Mamadaliyeva va Sultonmurod Olimning "Lison ut-tayr" tadqiqiga bag'ishlangan ilmiy qarashlari qiyosiy-tahliliy asosda o'rganiladi.

Tadqiqotda asosiy e'tibor olimlarning Navoiy va Attor munosabati, "Mantiq ut-tayr" va "Lison ut-tayr" o'rtasidagi adabiy aloqalar, asarning originalligi, nazira va tarjimaviylik xususiyatlari hamda ramziy obrazlar talqiniga doir qarashlarini aniqlashga qaratiladi. Shu orqali mazkur tadqiqotlarning mushtarak va farqli jihatlarini ko'rsatish hamda "Lison ut-tayr"ning mustaqil badiiy-estetik qimmatini yoritish maqsad qilinadi. Alisher Navoiyning "Foniy" taxallusi bilan bitgan

"Lison ut-tayr" dostoni sovet davrida eng ko'p xato bilan talqin etilgan asari hisoblanadi, [2: 2] deydi navoiyshunos olim Sultonmurod Olimov bu xususida.

Yirik sharqshunos olim Y.E.Bertels "Navoiy va Attor" monografiyasida "Fariduddin Attorning "Mantiq ut-tayr" va Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" asarlarini qiyosiy-tipologik tahlilga tortgan. Sharqshunos olim Navoiyning "Lison ut-tayr" asari Attorning "Mantiq ut-tayr" asarining tarjimasi emas, balki o'ziga xos orginal asar ekanligini ko'plab misollar yordamida asoslab bergan. Bertels monografiyada turkiy va forsiy adabiyotni qiyoslab, turkiy adabiyotning fors adabiyotiga bog'liqligi masalasi yuzasidan ayrim g'arb turkiyshunoslarining turkiy adabiyotni noraso adabiyot deb baholaganliklari yanglish fikr ekanligini keltiradi va tadqiqot ishida turkiy adabiyotning o'ziga xos orginallikka ega ekanligini asoslashni maqsad qiladi. Shu bois, Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostoni va bu dostonning yaratilishiga turtki bo'lgan Fariduddin Attorning "Mantiq ut-tayr" asariga munosabatini o'rganadi.

Ushbu maqolada men mazkur metodni sharqiy turk adabiyotining yirik namoyondalaridan biri Mir Alisher Navoiyning ijodida qo'llashga va "Lison ut-tayr" dostoni Fariduddin Attorning uning uchun timsol bo'lgan "Mantiq ut-tayr" asariga munosabati masalasini yechishga urunib ko'raman.[1: 9] Professor Bertels Navoiyni har qanday orginallikdan mahrum, shuningdek, shoir emas, balki tarjimon hisoblagan E.Bloshening achchiq tilli taqrizini alohida ta'kidlaydi. Navoiyning fors shoirlari bilan bog'liqligini o'rganishda ehtiyotkorlik lozimligini, xususan, "tarjima" atamasi doirasida ishlanayotganda unga oid barcha tamoyillar atrofida o'rganish lozimligini uqtiradi. Nafaqat Navoiyning Attor asariga munosabati, balki xalafning o'z salafiga munosabatini yoritish asnosida o'z fikrlarini asoslaydi.

Sharqshunos olim Bertels "Mantiq ut-tayr"dagi shialar va sunniylar o'rtasidagi dushmanlik mavzusidagi bob Navoiy tomonidan tushirib qoldirilganini va "Mantiq ut-tayr"da Hudhudning qushlarga qilgan nutqida voqea joyi manzarasi chizilmaganligini, "Lison ut-tayr"da esa bu o'rinlarni realistik tarzda tasvirlanganini yoki Hudhud qushlarni bir vodiyga to'plab, ularni yo'lni davom ettirishlari uchun sabab so'raganida qushlarning yalinib yolvorishlari va Hudhudning e'tirozlari boshlangan o'rinlarni Navoiy ijodida kengaytirilganini o'z tadqiqot ishida haqli asoslaganligining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Taniqli olim filologiya fanlari doktori Ibrohim Haqqul: Y.E.Bertelsning tasavvuf va Sharq tasavvuf adabiyotiga bag'ishlangan asarlari bo'lmaganda, bizning so'fiylik va badiiy ijod munosabatiga doir fikr qarashlarimiz hanuz nochorligicha qolaverishi mumkin edi. Mening nazarimda, uning "Navoiy va Attor" nomli tadqiqoti Navoiy she'riyatini sayoz anglash va soxtalashtirishga bir qadar to'siq bo'lgani bilan ham qimmatli. Shuningdek, u g'arbdagi Navoiy taqlidchi shoir degan fikr qarashlarga kuchli zarba bo'lgandi, [1: 4] deb sharqshunos olimning beqiyos xizmatlarini e'tirof etgan. Ilmiy tadqiqot ishlarida ham o'ziga xos an'anaviyliklar mavjud bo'lib, yoritilayotgan bir masala yechimi keyingi tadqiqot ishlarida ham ilgari surilishi mumkin. Navoiy ijodi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar Navoiy ijodining muhim qirralarini ochishda va navoiyshunoslik rivojida ulkan hissa bo'lib qo'shilmoqda.

Navoiyshunos olima Z.Mamadaliyeva "Lison ut-tayr" dostonining poetikasi, asar ramziy obrazlarining genezisini, tipologik o'xshashliklar va farqlariga to'xtalib, bu mavzuni "Lison ut-tayr obrazlari: ramz va majoz olami" monografiyasida atroflicha yoritadi. Navoiy "Lison ut-tayr"da Semrug'ni Anqo deb atashining sababi birinchidan, Attor va G'azzoliy an'analaridan chekinmagan holda obraz tarixiga murojaat qilish bo'lsa ikkinchidan, Anqo timsolining noyob va topilmaslik xususiyatidir.

Shuningdek, olima Navoiy ma'naviy ustozi Attorni Anqoga qiyoslaganini ham keltiradi. Bu o'rinda Navoiyning Attorga munosabati ko'rinadi. Ya'ni Z.Mamadaliyeva shunday ta'kidlaydiki: "...Navoiy Anqo timsolidan "Lison ut-tayr"dagi birinchi o'rinda payg'ambarning sifati ma'nosida, ya'ni uning benazirligini ifodalashda, ikkinchi o'rinda Simrug'ning yana bir nomi sifatida, uchinchi o'rinda esa Attorga berilgan tarif o'rnida, ya'ni "noyob, qimmatli" ma'nolarida foydalanilgan. Muallif har uchala holatda ham Anqoning xalq og'zaki ijodida shakllangan noyob, topilmaslik xususiyatlariga murojaat qilgan" [3: 81].

Olima Navoiyning Attorga munosabatini ko'rsatishda keltirgan misollari va ayniqsa xalq og'zaki ijodida Anqoning uchinchi shakliga e'tibor qaratishi tadqiqot ishi mazmunini yanada boyitgan. Olima Z.Mamadaliyeva: "...Mana shu bobda Navoiy Attor ruhiga murojaat qilib undan qo'llab quvvatlashini so'raydi. CLVIII bobda esa aynan mana shu murojaat amalga oshganligi, ya'ni Navoiyning Attor ruhi tomonidan qo'llab-quvvatlaganligi aytiladi. Navoiy Attorni Qaqnusu o'zini Qaqnus bola deyishi faqatgina san'at nuqtayi nazardan bo'lmay, muallif bu da'voga qandaydir ma'noda o'zini haqli deb hisoblagan". Navoiyning Attorrni ma'naviy ustozi sifatida e'tirof etish munosabati, hamda Attor ruhidan madad kutishi sharqshunos olim Bertels va olima Z.Mamadaliyeva va Sultonmurod Olimov tadqiqotlarida aks etgan. Bu o'rinda adabiyotshunoslar tanlovi va tasviri tadqiqotlar maqsadini ochib berishda mahorat bilan tahlilga tortilgan deyish mumkin.

Sultonmurod Olimov asosan tadqiqot ishida adabiy ta'sir, nazira, va tarjimaning "Mantiq ut-tayr" va "Lison ut-tayr" o'rtasidagi jihatlarini o'rgangan. Shuningdek, adabiyotshunos Navoiyning Attorga munosabati masalasiga ham to'xtalib o'tgan. Olim "Mantiq ut-tayr" va "Lison ut-tayr" asarlari o'rtasidagi bog'liqliklar o'tgan asrning 20-yillarida yozilganini, bu mavzu Bertelsning "Attor va Navoiy" nomli tadqiqotda atroflicha o'rganilganligini qayd etadi. Unda muallifning maqsadi asosan "Lison ut-tayr"ning oxoriyligini isbotlashga qaratilgan. Bu ikki asar ko'proq shu nuqtayi nazardan o'zaro qiyoslangan va tahlilga tortilgan, deydi adabiyotshunos olim o'z tadqiqot ishida.

Sultonmurod Olimov tadqiqotida Navoiyning Attorga munosabatini ifodalashda "Lison ut-tayr"dagi Attor tarifidagi asosiy so'z va so'z birikmalarini izohi bilan keltiradi. Chunonchi, 17. "Ma'rifat bozorining attori" (B.244) – ma'rifat, ya'ni Allohni tanish bozorining attori (Bu yerda bir yo'la shoirning taxallusiga ham ishora bor). 18. "Qush tili birla takallum qilmog' ortiq Osafdin, Sulaymondin dog'i" (B. 244) – qush tilida so'zlashi Osaf bilan Sulaymondan ham ortiq [4:50] kabi. Bu kabi so'z va so'z birikmalar izohiga e'tibor qaratish orqali Navoiyning Attorga munosabati yanada oydinlashadi. Shogirdning ustoz asarlarini chuqur tadqiq etgani, ijodi bilan yaqindan tanish ekanligini ham anglatadi.

Bertels "Lison ut-tayr"ni "Mantiq ut-tayr"ning aynan tarjimasi emas, unda Navoiyning o'ziga xos ijodiy yondashuvi ham mavjud ekanligini asoslagan bo'lsa, navoiyshunos Sultonmurod Olim "Lison ut-tayrni" "Mantiq ut-tayr"ga javobiya asar ekanligini ma'lum qiladi. Olim tadqiqot ishida shunday yozadi: Bu yerda Foniyning "Lison ut-tayr"ni bitish jarayonida amal qilgan bir muhim qat'iyati (prinsipi) ayon bo'ladi: xalaf imkon qadar salafdan uzoqlashmaslik, uning

izmidan chiqmaslikning yo'lini tutgan. Navoiy "Xamsa"si dostonlaridagi xalafning salafga munosabatida bunday izchil izdoshlikni ko'rmaymiz. Aksincha, ularda muallifniing nima qilib bo'lsa ham salaf ijodi namunasidan ko'ra yangicharoq asar yaratish ilinji ustun turadi. Bu o'rinda adabiyotshunos olim "Lison ut-tayr"da Navoiyning qolgan besh dostoniga nisbatan yangicha asar yaratish harakati oz ekanligiga, ammo professor Bertels ta'kidlaganidek o'z ohoriyligiga ega ekanligiga ishora qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, sharqshunos olim Bertels o'z tadqiqot ishida Navoiyning Attor haqidagi fikrlarini keltirish asnosida hamda "Mantiq ut-tayr" va "Lison ut-tayr" asarlarini qiyosiy tahlili orqali Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonining o'ziga xos orginallikka ega ekanligini asoslagan bo'lsa, navoiyshunos olima Z.Mamadaliyeva "Lison ut-tayr" dostonida Navoiyning ijodiy yondashuvini ramziy obrazlar tahlili va ikki asar qiyosi asosida ochib bergan. Sultonmurod Olimov Alisher Navoiyning Fariduddun Attor haqidagi ta'riflarni so'z va so'z birikmalari bilan ifodalashi, ularning to'liq izohini keltirishi bilan Bertels ilgari surgan fikrlarini yanada kengaytirishda, dostondagi o'ziga xos orginallikni ochib berishda alohida o'ringa ega deyishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bertels Ye.E. Navoiy va Attor. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005.
2. "Lison ut-tayr" – ishqnoma // Jadid.uz: ma'rifiy-adabiy portal, 2024. https://jadid.uz/lison-ut-tayr-ishqnoma/.
3. Mamadaliyeva Z. "Lison ut-tayr" obrazlari: ramz va majoz olami. – Toshkent: Qaqnus Media, 2019.
4. Olimov S. "Lison ut-tayr"ning qiyosiy poetikasi: sintez, naziraviylik va tarjimaviylik: Filol. fan. dok. diss. avtoref... – Samarqand, 2023. – 68 b.

Maftuna ELMIRZAYEVA,
Qarshi davlat universiteti amaliy ingliz tili kafedrasi dotsent v.b.,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA IJTIMOIY HIMOYA TERMINLARINING KONSEPTUAL METAFORIZATSIYASI VA OBRAZLI NOMINATSIYA MODELLARI

Annotatsiya. Maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi ijtimoiy himoya terminlarining konseptual metaforizatsiyasi hamda obrazli nominatsiya modellari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. "Social safety net", "social protection floor", "coverage", "pillar", "targeting", "shock-responsive social protection" kabi terminlarda himoya, makon, tayanch, qamrov va yo'naltirish obrazlarining termin hosil qilishdagi roli yoritiladi. Ularning o'zbek tilidagi "ijtimoiy himoya", "manzilli yordam", "qamrov", "bazaviy kafolat", "tayanch mexanizm" kabi muqobillari bilan munosabati ko'rib chiqiladi. Tahlil metaforik model tarjimada to'liq saqlanishi, qisman neytrallashishi yoki yangi milliy-kommunikativ model bilan almashtirilishi mumkinligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy himoya terminologiyasi, konseptual metafora, nominatsiya, social safety net, social protection floor, qamrov, manzillilik, terminologik adaptatsiya, qiyosiy tahlil.

Annotation. The article comparatively examines conceptual metaphorization and figurative nomination models in English and Uzbek social protection terminology. The analysis focuses on such terms as "Social safety net", "social protection floor", "coverage", "pillar", "targeting", "shock-responsive social protection" revealing how the source domains of protection, space, support, covering and direction contribute to terminological meaning. Their Uzbek correspondences, including "ijtimoiy himoya", "manzilli yordam", "qamrov", "bazaviy kafolat", "tayanch mexanizm" are considered in relation to semantic and communicative adaptation. The findings show that metaphorical models may be preserved, partially neutralized or replaced by a different culturally and communicatively motivated model in translation.

Keywords: social protection terminology, conceptual metaphor, nomination, social safety net, social protection floor, coverage, targeting, terminological adaptation, comparative analysis.

Аннотация. В статье в сопоставительном аспекте исследуются концептуальная метафоризация и образные модели номинации терминов социальной защиты в английском и узбекском языках. На материале единиц «Social safety net», «social protection floor», «coverage», «pillar», «targeting», «shock-responsive social protection» рассматривается роль образов защиты, пространства, опоры, охвата и направленности в формировании терминологического значения. Анализируются их узбекские соответствия, в частности «ijtimoiy himoya» («система социальной защиты»), «manzilli yordam» («адресная помощь»), «qamrov» («охват»), «bazaviy kafolat» («базовый уровень социальной защиты»), «tayanch mexanizm» («устойчивый механизм»). Установлено, что при переводе метафорическая модель может сохраняться, частично нейтрализоваться либо заменяться иной национально-коммуникативной моделью.

Ключевые слова: социальная защита, терминология, концептуальная метафора, номинация, социальная сеть безопасности, охват, адресность, терминологическая адаптация, сопоставительный анализ.

Zamonaviy terminologiyada yangi tushunchalar faqat qat'iy mantiqiy ta'riflar orqali emas, balki kundalik tajribaga tayanuvchi obrazli modellar yordamida ham nomlanadi. Ayniqsa, ijtimoiy himoya sohasida mavhum siyosiy, huquqiy va institutsional tushunchalarni sodda va kommunikativ jihatdan ta'sirchan shaklda ifodalash ehtiyoji ko'plab metaforik terminlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. G.Lakoff va M.Johnson metaforani badiiy bezak emas, balki bir tushuncha sohasini boshqa tajriba sohasi orqali anglash imkonini beruvchi kognitiv mexanizm sifatida talqin qiladilar [1: 3–6]. Terminologiyada esa bunday ko'chish ilmiy tushunchaning nomlanishi, tizimlashtirilishi va ommalashuvida muhim vazifa bajaradi.

Ijtimoiy himoya terminologiyasi aynan shunday obrazli modellar faol bo'lgan sohalardan biridir. Ingliz tilidagi *social safety net, social protection floor, coverage, pillar, targeting, shock-responsive social protection* singari birliklar bir qarashda texnik atamalar bo'lsa-da, ularning semantik tuzilishida tarmoq, pol yoki poydevor, qoplash, tayanch ustun, nishon va zarba kabi konkret tajriba manbalari mavjud. M.T.Cabré terminologik birlikning shakl, tushuncha va kommunikativ vazifa birligida o'rganilishi lozimligini ta'kidlaydi [2: 35–57]. Shu nuqtayi nazardan metaforik ijtimoiy himoya terminlari nafaqat nom beruvchi birlik, balki soha haqidagi bilimni konseptuallashtiruvchi kognitiv vositadir.

Maqolaning maqsadi ingliz va o'zbek tillarida ijtimoiy himoya terminlarining konseptual metaforizatsiyasi va obrazli nominatsiya modellarini qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot materiali sifatida Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon banki hujjatlari hamda O'zbekistonning ijtimoiy himoya sohasidagi rasmiy terminologiyasida qo'llanadigan birliklar tanlandi. Qiyosiy-chog'ishtirma, komponent, kontekstual, kognitiv-semantik va tarjimaviy tahlil usullaridan foydalanildi. Asosiy e'tibor metaforaning termin hosil qilishdagi funksiyasi, inglizcha modelning o'zbek tilida qay darajada saqlanishi va milliy terminologik me'yor bilan qanday moslashishiga qaratildi.

Ingliz tilidagi eng yorqin metaforik birliklardan biri *social safety net* terminidir. Net "to'r, tarmoq" ma'nosini bildiradi, *safety* komponenti esa himoya va xavfsizlik semasini qo'shadi. Birlikning konseptual asosida *insonni qo'llab-quvvatlash – yiqilishdan saqlaydigan to'r* modeli yotadi. Jahon banki *social safety nets* atamasini kambag'al yoki zaif qatlamlarga naqd, natura yoki xizmat shaklida yordam beradigan, odatda badalsiz dasturlar majmuni sifatida qo'llaydi [6]. Metaforaning kommunikativ kuchi shundaki, murakkab institutsional tizim "yiqilayotgan odamni tutib qoluvchi to'r" obrazida tez anglashiladi.

O'zbek tilida mazkur termin har doim ham so'zma-so'z "ijtimoiy xavfsizlik tarmog'i" shaklida qo'llanmaydi. Rasmiy va ilmiy matnlarda ko'proq "ijtimoiy yordam", "ijtimoiy himoya dasturlari", "ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi" kabi izohli yoki funksional muqobillar uchraydi. Demak, tarjimada *net* metaforasi ko'pincha neytrallashadi va uning o'rnini *tizim* modeli egallaydi. Bunday transformatsiya terminologik adekvatlikni pasaytirmaydi; aksincha, o'zbek rasmiy diskursida tushunarlilik va me'yoriylikni kuchaytiradi. Shu bilan birga, metaforik obraz yo'qolishi natijasida inglizcha terminning ta'sirchan kognitiv komponenti qisman qisqaradi.

Social protection floor termini boshqa bir muhim modelni ifodalaydi. Floor so'zining dastlabki ma'nosi "pol, eng quyi sath" bo'lib, terminologik kontekstda minimal kafolatlar darajasini

bildiradi. Xalqaro mehnat tashkiloti social protection floors tushunchasini aholiga hayot davomida zarur tibbiy yordam va bazaviy daromad xavfsizligini ta'minlaydigan milliy asosiy kafolatlar majmui sifatida belgilaydi [4]. Bu yerda *ijtimoiy kafolat – binoning eng quyi mustahkam qatlami* konseptual modeli yuzaga keladi: undan pastga tushmaslik kerak, undan yuqorida esa himoyaning yanada yuqori bosqichlari quriladi.

O'zbek tilida floor komponentini to'g'ridan-to'g'ri "pol" deb berish terminologik me'yorga mos kelmaydi. Shu sabab "ijtimoiy himoyaning minimal darajasi", "bazaviy ijtimoiy kafolatlar", "ijtimoiy himoyaning asosiy kafolatlari" kabi muqobillar mazmunni aniqroq ifodalaydi. Bu holatda metaforik strukturadan semantik izohlashga o'tish kuzatiladi. Biroq "bazaviy", "asosiy" singari birliklar ham poydevor va tayanchga oid makoniy tasavvurni bilvosita saqlaydi. Demak, metafora to'liq yo'qolmaydi, balki aniqroq va rasmiyroq nominatsiya shakliga o'tadi.

Coverage termini ijtimoiy himoya diskursida "qamrov" tushunchasini ifodalaydi. Inglizcha cover fe'lining "yopmoq, qoplamoq" ma'nosi himoya bilan makoniy aloqani yuzaga keltiradi: tizim qancha ko'p aholini "qoplasa", uning qamrovi shuncha keng bo'ladi. O'zbekcha "qamrov" ham o'rab olish, ichiga olish ma'nosini saqlagani uchun mazkur metaforik model ikki tilda nisbatan parallel namoyon bo'ladi. "Aholini ijtimoiy himoya bilan qamrab olish", "qamrov darajasi", "xizmatlar qamrovi" birikmalarida *himoya - qoplovchi makon* modeli ochiq ko'rinadi. Bunday hollarda tarjimada ham semantik, ham obrazli moslik yuqori darajada saqlanadi.

Ijtimoiy himoya terminologiyasidagi targeting birligi tarjima jihatidan ayniqsa qiziqarli. Ingliz tilida target "nishon" bo'lib, *targeting maqsadga aniq yo'naltirish* metaforasini yaratadi. Ijtimoiy yordamda u muayyan mezonlar asosida yordam oluvchilar guruhini aniqlash va resursni ularga yo'naltirishni anglatadi. O'zbek rasmiy diskursida esa "manzilli yordam", "manzillilik", "manzilli qo'llab-quvvatlash" birliklari faol. 2023-yil 1-iyundagi PF-82-son Farmonda ham ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarga "manzilli yordam ko'rsatish" birikmasi qo'llangan [7]. Bu holat metaforaning qiziqarli almashuvini ko'rsatadi: ingliz tilidagi *nishon* modeli o'zbek tilida *manzil* modeliga o'tadi.

Pedagogik natijalar. Taklif etilayotgan metodik yondashuvning qo'llanishi natijasida quyidagi pedagogik natijalarga erishish mumkin:

1) o'quvchilarning leksikologik tushunchalarni o'zlashtirish darajasi oshadi;

2) so'z ma'nosini kontekst asosida aniqlash ko'nikmasi rivojlanadi;

3) sinonim, antonim, omonim va ko'p ma'noli so'zlarni farqlash qobiliyati shakllanadi;

4) o'quvchilarning faol lug'at boyligi kengayadi;

5) o'rganilgan leksik birliklarni mustaqil nutqda qo'llash imkoniyati kuchayadi;

6) kommunikativ kompetensiya rivojlanadi;

7) mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari shakllanadi;

8) dars jarayonida o'quvchilarning faolligi ortadi;

9) o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik kuchayadi;

10) leksikologiya fanining amaliy va kommunikativ yo'nalishi kuchayadi.

Leksikologiyani o'qitish ona tili ta'limining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning samaradorligi ko'p jihatdan tanlangan metod va pedagogik yondashuvlarga bog'liq. Mazkur tadqiqotda leksikologik bilimlarni o'quvchilarning amaliy nutqiy faoliyati bilan bog'lashga qaratilgan zamonaviy metodik yondashuvlar tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, leksikologiyani faqat ta'rif, qoida va tayyor misollar asosida o'qitish o'quvchilarning leksik imkoniyatlarini to'liq namoyon qilishga yetarli emas. Zamonaviy ta'limda kontekstual, kommunikativ, muammoli, interfaol, hamkorlikda o'qitish va raqamli metodlardan kompleks foydalanish zarur. Maqolada taklif etilgan "Nazariy tushuncha → Kontekstual taqdimot → Semantik tahlil → Interfaol mashq → Kommunikativ topshiriq → Mustaqil qo'llash → Baholash" modeli leksikologiyani o'qitishning nazariy va amaliy jihatlarini birlashtirishga xizmat qiladi. Mazkur modelning asosiy metodik afzalligi o'quvchining leksik birliklarni yodlab olishidan ko'ra, ularni anglash, tahlil qilish, taqqoslash va nutqiy vaziyatga mos ravishda qo'llashiga ustuvor ahamiyat berilishidir.

Shuningdek, leksikologiyani o'qitishda baholash mezonlarini ham qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. O'quvchining faqat nazariy bilimini emas, balki so'z ma'nosini kontekstda aniqlashi, uslubiy jihatdan to'g'ri birlikni tanlashi va uni mustaqil nutqda qo'llay olishi ham baholanishi kerak. Shunday qilib, zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish leksikologiya ta'limini nazariy bilim beruvchi yo'nalishdan o'quvchining leksik, nutqiy, kommunikativ va ijodiy kompetensiyalarini shakllantiruvchi amaliy ta'lim jarayoniga aylantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Carter R. Vocabulary: Applied Linguistic Perspectives. 2nd ed. – London: Routledge, 2012.
2. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment – Companion Volume. – Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020.
3. Nation I.S.P. Learning Vocabulary in Another Language. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2013.
4. Nazarova D. O'zbek tili leksikasining mustaqillik yillaridagi taraqqiyoti // Pedagogik mahorat. – Buxoro, 2021, №2. – B. 152–154.
5. Nazarova D.G. Unconventional ways of teaching students' morphological features of nouns // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2020. Vol. 8, №10. – P. 92–98.
6. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. 3rd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014.
7. Webb S. Approaches to Learning Vocabulary. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020.

Akmal AMANOV,
Namangan davlat chet tillar instituti turizm va tarjima kafedrasi mudiri,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

BO'LAJAK TARJIMONLARDA MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENSIYASINI AUTENTIK MATERIALLAR VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI VA UNING BOSQICHLARI

Annotatsiya. Maqolada bo'lajak tarjimonlarda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini autentik materiallar vositasida rivojlantirishning yaxlit pedagogik texnologiyasi va izchil bosqichlari ishlab chiqilgan. Texnologiya oldingi tadqiqotlarda asoslangan didaktik tamoyillar va autentik materiallarni tanlash mezonlari tizimiga tayanadi hamda diagnostika, manba tanlash, til-madaniy tayyorlov, amaliy-kommunikativ ishlov, madaniy-analitik refleksiya va monitoring-baholash kabi olti bosqichni o'z ichiga oladi. Ishlab chiqilgan texnologiya tarjimonlar tayyorlash amaliyotida o'quv jarayonini tizimli tashkil etishga xizmat qiladi.
Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, autentik materiallar, madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi, bo'lajak tarjimon, texnologiya bosqichlari, o'quv jarayoni.
Annotation. The article develops a holistic pedagogical technology for developing the intercultural communicative competence of future translators through authentic materials, together with its consistent stages. The technology relies on the didactic principles and the system of criteria for selecting authentic materials substantiated in previous studies, and comprises six stages: diagnostic, source selection, linguo-cultural preparation, practical-communicative processing, cultural-analytical reflection, and monitoring-assessment. The developed technology serves the systematic organization of the educational process in the practice of training translators.
Keywords: pedagogical technology, authentic materials, intercultural communicative competence, future translator, stages of technology, educational process.
Аннотация. В статье разработана целостная педагогическая технология развития межкультурной коммуникативной компетенции будущих переводчиков посредством аутентичных материалов и её последовательные этапы. Технология опирается на дидактические принципы и систему критериев отбора аутентичных материалов, обоснованные в предыдущих исследованиях, и включает шесть этапов: диагностический, отбора источников, лингвокультурной подготовки, практико-коммуникативной обработки, культурно-аналитической рефлексии и мониторинга-оценки. Разработанная технология служит системной организации учебного процесса в практике подготовки переводчиков.
Ключевые слова: педагогическая технология, аутентичные материалы, межкультурная коммуникативная компетенция, будущий переводчик, этапы технологии, учебный процесс.

Bo'lajak tarjimonlarda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish muammosi bo'yicha olib borilgan oldingi tadqiqotlarda ushbu jarayonning ikkita muhim tarkibiy qismi – autentik materiallardan foydalanishning didaktik tamoyillari hamda ularni tanlashning ilmiy mezonlari tizimi – alohida-alohida asoslab berilgan edi. Biroq nazariy jihatdan asoslangan tamoyillar va mezonlarning o'zi, agar ular izchil, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan yaxlit texnologik jarayonga birlashtirilmasa, amaliyotda tizimli tatbiq etilishi qiyinlashadi. Shu sababli aniqlangan tamoyillar va mezonlarni o'quv jarayonining real, bosqichlarga ajratilgan texnologik modeliga aylantirish masalasi dolzarb pedagogik-metodik vazifa bo'lib qolmoqda.

Amaliyotda kuzatilishicha, tamoyillar va mezonlarning nazariy jihatdan mavjudligi ularning avtomatik ravishda samarali qo'llanilishini kafolatlamaydi. Ko'pincha o'qituvchilar autentik material bilan ishlashning ayrim usullarini – masalan, faqat topshiriq tuzish yoki faqat matn tanlashni – bir-biridan uzilgan, tizimsiz tarzda qo'llaydilar. Bunday parchalanib ketgan yondashuv natijasida jarayonning ba'zi bosqichlari (masalan, boshlang'ich diagnostika yoki yakuniy refleksiya) butunlay e'tibordan chetda qolishi, bu esa erishilgan natijaning barqarorligi va takrorlanuvchanligiga putur yetkazishi mumkin. Shu bois alohida tamoyil va mezonlarni emas, balki ularni birlashtiruvchi, boshidan oxirigacha izchil kechadigan yaxlit texnologik jarayonni loyihalashtirish zarurati yuzaga keladi.

Muammoning dolzarbligi, shuningdek, zamonaviy tarjimon kadrlar tayyorlash tizimini xalqaro andozalar darajasiga olib chiqish, ta'lim sifatini standartlashtirish va turli oliy ta'lim muassasalarida bir xil yuqori natijaga erishishni ta'minlash zarurati bilan ham bog'liq. Aynan tayyor, oldindan loyihalashtirilgan pedagogik texnologiyaning mavjudligi – individual o'qituvchining tajribasi yoki intuitsiyasiga bog'liq bo'lmagan holda – natijaning barqarorligi va boshqa o'qituvchilar tomonidan takrorlanishi (reproduktivligi) mumkinligini ta'minlaydi, bu esa texnologik yondashuvning tasodifiy metodik tavsiyalardan asosiy afzalligidir.

Pedagogika fanida "texnologiya" tushunchasi o'quv-tarbiya jarayonini oldindan loyihalashtirilgan, izchil bosqichlardan iborat, kafolatlangan natijaga olib keluvchi tizim sifatida talqin etiladi [8]. Ushbu yondashuvga tayanib, mazkur maqolada bo'lajak tarjimonlarda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini autentik materiallar vositasida rivojlantirishning yaxlit pedagogik texnologiyasi taklif etiladi. Maqolaning maqsadi – ushbu texnologiyaning tuzilishi va tarkibiy bosqichlarini ilmiy asoslash hamda har bir bosqichning mazmuni, vazifalari va kutilayotgan natijalarini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: texnologiya tushunchasining nazariy-metodologik mohiyatini yoritish; oldingi tadqiqotlarda asoslangan tamoyillar va mezonlar tizimini yaxlit texnologik jarayonga birlashtirish; texnologiyaning har bir bosqichi uchun aniq maqsad, faoliyat va kutilayotgan natijani belgilash.

Texnologiyaning nazariy-metodologik asoslari

Taklif etilayotgan texnologiya ikki asosiy nazariy negizga tayanadi. Birinchidan, u M. Bayram [1] va D.Diardorffning [2] madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya modellaridan kelib chiqadi, unga ko'ra kompetensiya bilim, mahorat va munosabat komponentlarining bosqichma-bosqich, o'zaro bog'liq holda rivojlanishi natijasida shakllanadi. Ikkinchidan, texnologiya H.Uidowson [3], D.Nunan [4] va M.P.Breen [6] tomonidan asoslangan autentiklik nazariyasiga, xususan, autentik materialning o'quv jarayoniga faqat to'g'ri tashkil etilgan topshiriq va bosqichlar orqaligina samarali kiritilishi mumkinligi haqidagi g'oyaga tayanadi.

Texnologiyaning amaliy asosini esa oldingi tadqiqotlarda ishlab chiqilgan ikki tizim tashkil etadi: birinchisi – autentik materiallardan foydalanishning didaktik tamoyillari

(kompetensiyaga yo'naltirilganlik, madaniy-kontekstuallik, kommunikativ autentiklik, bosqichma-bosqichlik, motivatsion-qiziqarlilik, tarjimashunoslikka yo'naltirilgan tanlov, tanqidiy-refleksiv yondashuv); ikkinchisi - autentik materiallarni tanlashning to'rt guruhli mezonlar tizimi (lingvistik-stilistik, madaniy-mazmuniy, pedagogik-metodik, texnik-amaliy). Ushbu ikki tizim texnologiyaning har bir bosqichida amaliy tayanch nuqtasi vazifasini bajaradi.

Texnologiyaning tuzilishi va bosqichlari

O'tkazilgan tahlil natijasida bo'lajak tarjimonlarda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini autentik materiallar vositasida rivojlantirishning olti bosqichli texnologik modeli ishlab chiqildi (1-jadval). Har bir bosqich o'ziga xos maqsad, asosiy faoliyat turlari va kutilayotgan natijaga ega bo'lib, bosqichlar bir-biri bilan izchil, uzviy bog'liqlikda amalga oshiriladi.

1-jadval. Texnologiyaning bosqichlari

Bosqich	Maqsad	Asosiy faoliyat	Kutilayotgan natija
1. Diagnostik-tayyorgarlik	Talabalarning til va madaniy tayyorgarlik darajasini aniqlash	Test, so'rovnoma, kuzatuv orqali boshlang'ich diagnostika o'tkazish	Individual va guruh darajasi profili
2. Manba tanlash	To'rt guruhli mezonlar asosida mos autentik material tanlash	Lingvistik-stilistik, madaniy-mazmuniy, pedagogik-metodik, texnik-amaliy mezonlar bo'yicha saralash	Didaktik jihatdan asoslangan material to'plami
3. Til-madaniy tayyorlov	Matnni idrok etish uchun zarur til va fon bilimini shakllantirish	Kalit leksika, madaniy kontekst va realiylarni oldindan izohlash	Matnni tushunishga tayyorlangan talaba
4. Amaliy-kommunikativ ishlov	Materialni kommunikativ va tarjimaviy vazifalar orqali o'zlashtirish	Matn bilan ishlash, tarjima mashqlari, rolli o'yinlar, munozaralar	Amaliy til va tarjima ko'nikmalari
5. Madaniy-analitik refleksiya	Madaniy farqlarni tanqidiy anglash va o'z madaniyati bilan qiyoslash	Muhokama, insho, qiyosiy tahlil topshiriqlari	Etnorelyativ (tanqidiy-ongli) munosabat
6. Monitoring va baholash	Erishilgan natijalarni o'lchash va texnologiyani takomillashtirish	Yakuniy test, portfolio, o'z-o'zini baholash	Kompetensiya o'sishi dinamikasi va fikr-mulohaza

1. Diagnostik-tayyorgarlik bosqichi

Ushbu bosqichda talabalarning boshlang'ich til tayyorgarligi va madaniyatlararo sezgirlik darajasi til testlari, so'rovnomalar va kuzatuv metodlari orqali aniqlanadi. Diagnostika ikki asosiy yo'nalishda olib boriladi: birinchisi – talabaning lingvistik tayyorgarligi (leksik-grammatik bilim, o'qish va tinglab tushunish ko'nikmalari), ikkinchisi – uning madaniyatlararo sezgirlik darajasi, ya'ni M.Bennet modelidagi etnosentrik yoki etnorelyativ bosqichlardan qay biriga yaqinligi. Bunday ikki yo'nalishli diagnostika M.Bayram [1] modelidagi kompetensiya komponentlari (bilim, mahorat, munosabat) bo'yicha talabaning boshlang'ich holatini yaxlit tasvirlashga imkon beradi.

Diagnostika vositasi sifatida uch turdagi instrumentdan foydalaniladi:

a) CEFR darajalariga moslashtirilgan kirish til testi – o'qish va tinglab tushunish ko'nikmalarini o'lchash uchun;

b) madaniyatlararo sezgirlikni aniqlovchi moslashtirilgan so'rovnoma – talabaning o'zga madaniyatga munosabati, stereotiplarga moyilligi va noaniqlikka chidamliligini baholash uchun;

v) kirish suhbati yoki kichik guruh muhokamasi jarayonida o'qituvchi tomonidan olib boriladigan tuzilgan kuzatuv – talabaning og'zaki nutq va spontan reaksiya xususiyatlarini qayd etish uchun. Ushbu uch vositaning birgalikda qo'llanilishi diagnostikaning faqat til bilimi bilan cheklanib qolmasligini, balki kompetensiyaning munosabat komponentini ham qamrab olishini ta'minlaydi.

Olingan diagnostik ma'lumotlar asosida har bir talaba yoki talabalar guruhi uchun individual tayyorgarlik profili shakllantiriladi, bu profil keyingi – manba tanlash – bosqichida qaysi murakkablik darajasidagi va qaysi madaniy zichlikdagi materialdan boshlash kerakligini belgilovchi asosiy mezon vazifasini bajaradi. Shu tariqa diagnostik bosqich nafaqat mustaqil natija beradi, balki butun texnologik zanjirning boshlang'ich nuqtasi va keyingi barcha bosqichlarni differensiallashtiruvchi asos sifatida xizmat qiladi – bu bosqichma-bosqichlik tamoyilining [7] bevosita amaliy ifodasidir.

2. Manba tanlash bosqichi

Diagnostika natijalariga tayangan holda, oldingi tadqiqotda ishlab chiqilgan to'rt guruhli mezonlar tizimi [5] asosida guruh yoki individual talabaning saviyasiga mos autentik materiallar saralanadi. Bu bosqichda lingvistik-stilistik va pedagogik-metodik mezonlarga, boshlang'ich bosqichlarda esa ayniqsa e'tibor qaratiladi, murakkab madaniy-mazmuniy materiallar yuqori bosqichlar uchun saqlanadi.

Mezonlar guruhlarining nisbiy og'irligi diagnostik profilga qarab farqlanadi: lingvistik jihatdan zaifroq guruhlar uchun lingvistik-stilistik va pedagogik-metodik mezonlar ustuvor bo'lsa, madaniyatlararo sezgirlik darajasi past, ammo til bilimi yetarli bo'lgan talabalar uchun madaniy-mazmuniy mezonlarga alohida urg'u beriladi. Bunday nomutanosib (differensial) yondashuv bir xil materialdan barcha talabalar uchun bir xil tarzda foydalanish o'rniga, har bir guruhning haqiqiy ehtiyojiga mos individuallashtirilgan manba to'plamini shakllantirish imkonini beradi.

Amaliy jihatdan bu bosqich kafedra darajasida oldindan yaratilgan, mezonlarga muvofiq tizimlashtirilgan autentik materiallar bankidan foydalanishni taqozo etadi – bunday

bank mavjud bo'lmagan taqdirda, o'qituvchi har safar materialni qaytadan izlab topish va mezonlarga moslashtirish zaruratiga duch keladi, bu esa texnologiyaning vaqt sarfini oshiradi. Shu bois manba tanlash bosqichi nafaqat bir martalik tanlov, balki institutsional darajada doimiy yuritiladigan, davriy yangilanadigan resurs tizimining tarkibiy qismi sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir.

3. Til-madaniy tayyorlov bosqichi

Tanlangan material bilan bevosita ishlashdan oldin talabalarga matnni tushunish uchun zarur bo'lgan kalit leksika, grammatik konstruksiyalar va madaniy fon bilimi (realiylar, ijtimoiy kontekst) oldindan taqdim etiladi. Ushbu bosqich Gebhard [5] ta'kidlagan "til qiyinligi" omilini boshqarish, shuningdek matnning madaniy kontekstini izohlash orqali madaniy-kontekstuallik tamoyilini amalga oshiradi.

Amaliyotda ushbu bosqich odatda uch turdagi faoliyatni o'z ichiga oladi:

a) kalit so'z va iboralarni kontekstda ochib beruvchi lug'aviy mashqlar (moslashtirish, sinonim topish, kontekstual taxmin qilish);

b) matnda uchraydigan madaniy realiylar, tarixiy-ijtimoiy voqealar yoki institutsional tushunchalar bo'yicha qisqa tushuntirish yoxud multimedia taqdimoti;

v) talabaning mavjud fon bilimini faollashtirishga qaratilgan kirish savollari yoki miya hujumi (brainstorming) mashqi. H. Uidowson [3] ta'kidlaganidek, matndan foydalanishning aniq o'quv maqsadi qanday fon bilim ustuvor ekanligini belgilaydi - shu bois tayyorlov mazmuni tasodifiy emas, balki keyingi amaliy-kommunikativ bosqichda bajariladigan aniq vazifadan kelib chiqib rejalashtiriladi.

Ushbu bosqichning to'g'ri tashkil etilishi talabaning matn bilan uchrashuvida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kognitiv ortiqcha yuklanishning oldini oladi: agar til va madaniy tayyorgarlik yetarli darajada ta'minlanmasa, talaba autentik matnni tushunishga emas, balki uning yuzaki qiyinchiliklarini yengishga kuchini sarflaydi, bu esa motivatsion-qiziqarlilik tamoyilining buzilishiga olib kelishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, til-madaniy tayyorlov bosqichi keyingi bosqichning muvaffaqiyati uchun "ko'prik" vazifasini bajaradi.

4. Amaliy-kommunikativ ishlov bosqichi

Bu texnologiyaning markaziy bosqichi bo'lib, unda talabalar autentik material asosida tuzilgan kommunikativ va tarjimaviy topshiriqlarni bajaradilar: matnni og'zaki va yozma tarjima qilish, rolli o'yinlar, munozaralar, madaniyatlararo vaziyatlarni modellashtirish. Topshiriqlar Mishan va Nunan [4] asoslagan "vazifaning kommunikativ autentikligi" tamoyiliga muvofiq, ya'ni matnning asl kommunikativ vazifasini takrorlaydigan tarzda loyihalashtiriladi.

Bo'lajak tarjimonlarning kasbiy yo'nalishini hisobga olgan holda, ushbu bosqichdagi topshiriqlar oddiy til mashqlaridan farqli o'laroq, kelgusi kasbiy faoliyatga bevosita yaqinlashtirilgan shaklda tuziladi: qisqa matnlarni ketma-ket (konsekutiv) tarjima qilish mashqlari, madaniy vositachilik (cultural mediation) vaziyatlarini modellashtiruvchi rolli o'yinlar, hamda ikki madaniyat vakili o'rtasidagi nizoli muloqotni tahlil qiluvchi qiyosiy diskurs topshiriqlari. Bunday topshiriqlar D.Nunan [4] tavsiya etgan vazifa asosidagi o'qitish (task-based) tamoyillariga tayanadi, biroq ularning mazmuni tarjimonlik kasbiga xos vositachilik vazifasi bilan boyitiladi.

Bosqich davomida o'qituvchi tomonidan berilgan shakllantiruvchi (formativ) fikr-mulohaza muhim o'rin tutadi: har bir topshiriqdan so'ng talabaning nafaqat til xatolari, balki madaniyatlararo vositachilik sifati (masalan, madaniy nozik jihatlarni qanday izohlagani) bo'yicha ham qisqa sharh beriladi. Bu yondashuv amaliy-kommunikativ bosqichni shunchaki til mashqi emas, balki kelgusi kasbiy faoliyatning kichik modeli sifatida tajriba qilish maydoniga aylantiradi.

5. Madaniy-analitik refleksiya bosqichi

Ushbu bosqichda talabalar autentik matndagi madaniy ma'no va qadriyatlarni passiv qabul qilmasdan, ularni tanqidiy tahlil qilish, o'z milliy madaniyati bilan qiyoslash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunday refleksiv faoliyat M.Bennet modelidagi etnosentrik dunyoqarashdan etnorelyativ dunyoqarashga o'tishni rag'batlantiradi va kompetensiyaning munosabat (savoir être) komponentini shakllantirishga xizmat qiladi.

Refleksiya amaliy jihatdan bir necha shaklda tashkil etiladi: individual refleksiv kundalik (talaba har bir mashg'ulotdan so'ng o'z kuzatishlarini qisqa yozma shaklda ifodalaydi), tuzilgan guruh muhokamasi (o'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlangan savollar asosida madaniy farqlar va o'xshashliklar muhokama qilinadi) hamda qiyosiy insho (talaba matnda aks etgan madaniy hodisani o'z milliy madaniyatidagi mos hodisa bilan taqqoslab yozadi). Bunda o'qituvchining vazifasi "tog'ri" madaniy talqinni taqdim etuvchi mutaxassis emas, balki talabaning mustaqil tanqidiy fikrlashini yo'naltiruvchi fasilitator sifatida namoyon bo'ladi.

Ushbu bosqichning natijalari, xususan talabalar bildirgan fikr-mulohazalarning xarakteri (etnosentrik baholovchi fikrlardan etnorelyativ, tushunishga yo'naltirilgan fikrlarga o'tish darajasi), keyingi monitoring va baholash bosqichida kompetensiyaning munosabat komponenti bo'yicha sifatli (kvalitativ) dalil sifatida qayd etib boriladi.

6. Monitoring va baholash bosqichi

Yakuniy bosqichda talabalarning erishgan natijalari yakuniy test, portfolio yoki o'z-o'zini baholash vositalari orqali o'lchanadi, birinchi bosqichdagi boshlang'ich diagnostika natijalari bilan solishtiriladi. Olingan ma'lumotlar nafaqat talabaning individual o'sish dinamikasini ko'rsatadi, balki texnologiyaning o'zini takomillashtirish uchun ham fikr-mulohaza (feedback) vazifasini bajaradi, bu esa texnologiyaga aylanma (siklik) xususiyat beradi.

Baholash tizimi uch tarkibiy qismdan iborat bo'lishi tavsiya etiladi:

a) diagnostik bosqichda qo'llanilgan til testining takroriy (yakuniy) versiyasi – lingvistik o'sishni miqdoriy o'lchash uchun;

b) mashg'ulotlar davomida to'plangan ishlar, refleksiv kundaliklar va topshiriqlar namunalaridan iborat portfolio – kompetensiyaning sifatiy rivojlanishini kuzatish uchun;

v) kompetensiya komponentlari (bilim, mahorat, munosabat) bo'yicha tuzilgan o'z-o'zini baholash varaqasi – talabaning o'z rivojlanishini mustaqil anglashini rag'batlantirish uchun. Uch vositaning birgalikda qo'llanilishi baholashning faqat til bilimi bilan cheklanib qolmasligini ta'minlaydi.

Har bir o'quv oqimi (kohorta) bo'yicha to'plangan monitoring ma'lumotlari umumlashtirilib, ular asosida ikkinchi (manba tanlash) va uchinchi (til-madaniy tayyorlov) bosqichlarning mazmuni keyingi oqim uchun aniqlashtiriladi va zarur hollarda kafedra darajasidagi materiallar banki yangilanadi. Shu tariqa texnologiya statik, o'zgarmas jarayon emas, balki har bir sikldan so'ng o'z-o'zini takomillashtiruvchi, spiral xususiyatga ega tizim sifatida amal qiladi.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak tarjimonlarda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini autentik materiallar vositasida rivojlantirish tasodifiy, tizimsiz jarayon emas, balki oldindan loyihalashtirilgan, olti bosqichdan

(diagnostika, manba tanlash, til-madaniy tayyorlov, amaliy-kommunikativ ishlov, madaniy-analitik refleksiya, monitoring va baholash) iborat yaxlit pedagogik texnologiya sifatida tashkil etilishi lozim. Ishlab chiqilgan texnologiya oldingi tadqiqotlarda asoslangan didaktik tamoyillar va tanlash mezonlari tizimini amaliy jarayonga birlashtirib, tarjimonlar tayyorlash amaliyotida o'quv jarayonini tizimli boshqarish imkonini beradi. Bosqichlarning bir-biriga uzviy bog'liqligi va monitoring natijalarining keyingi sikllarga qayta uzatilishi texnologiyaga statik emas, balki o'z-o'zini takomillashtiruvchi, spiral xususiyat beradi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida amaliyotga tatbiq etish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1) tarjimonlar tayyorlaydigan ta'lim yo'nalishlarining o'quv dasturlariga taklif etilgan olti bosqichli texnologiyani yaxlit metodik model sifatida kiritish, uni alohida uzilgan usullar to'plami emas, balki izchil jarayon sifatida joriy etish;

2) kafedra darajasida diagnostik vositalar (kirish testi, madaniyatlararo sezgirlik so'rovnomasi) va autentik materiallar bankini birgalikda yurituvchi yagona metodik infratuzilma yaratish;

3) o'qituvchilarni texnologiyaning har bir bosqichini, ayniqsa til-madaniy tayyorlov va madaniy-analitik refleksiya bosqichlarini amalda tashkil etish bo'yicha maxsus malaka oshirish dasturlari orqali tayyorlash;

4) kelgusi tadqiqotlarda ishlab chiqilgan texnologiyaning amaliy samaradorligini bir necha o'quv oqimi (kohorta) davomida pedagogik eksperiment yordamida, kirish va yakuniy diagnostika natijalarini qiyosiy tahlil qilish orqali empirik tekshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. — Clevedon: Multilingual Matters, 1997.
2. Deardorff D.K. The Identification and Assessment of Intercultural Competence as a Student Outcome of Internationalization // Journal of Studies in International Education, 2006. Vol. 10, № 3. – P. 241–266.
3. Widdowson H.G. Learning Purpose and Language Use. – Oxford: Oxford University Press, 1983.
4. Nunan D. Designing Tasks for the Communicative Classroom. – Cambridge: Cambridge University Press, 1989.
5. Gebhard J.G. Teaching English as a Foreign or Second Language: A Teacher Self-Development and Methodology Guide. – Ann Arbor: University of Michigan Press, 2006.
6. Breen M.P. Authenticity in the Language Classroom // Applied Linguistics, 1985. Vol. 6, № 1. – P. 60–70.
7. Tomlinson B. (Ed.) Materials Development in Language Teaching. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2011.
8. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. М.: Народное образование, 1998.
9. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2012.
10. Елизарова Г.В. Культура и обучение иностранным языкам. СПб.: КАРО, 2005.

Farangiz SAG'DULLAYEVA,
PhD student Karshi state university

ENHANCING PRACTICAL-DIAGNOSTIC SKILLS IN TECHNICAL HIGHER EDUCATION THROUGH THE INTEGRATION OF INTERACTIVE METHODS AND SWOT ANALYSIS

Annotation. This article explores the possibilities of integrated application of interactive teaching methods and SWOT analysis technology in developing practical-diagnostic thinking among students of technical higher education institutions. The study analyzes the impact of interactive approaches on the effectiveness of the educational process, as well as the role of SWOT analysis in fostering students' analytical, critical, and reflective thinking skills. The findings substantiate that the integration of these methods serves as an effective tool for the formation of students' professional competencies.

Keywords: practical-diagnostic thinking, interactive methods, SWOT analysis, technical education, competencies, analytical thinking.

Annotatsiya. Mazkur maqolada texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida amaliy-diagnostik tafakkurni rivojlantirishda interaktiv metodlar va SWOT tahlil texnologiyasining integratsiyalashgan holda qo'llanish imkoniyatlari yoritilgan. Interaktiv yondashuvlarning ta'lim samaradorligiga ta'siri hamda SWOT tahlilning talabalarda analitik, tanqidiy va refleksiv fikrlashni rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilingan. Natijada mazkur metodlarning uyg'unlashuvi talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda samarali vosita ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: amaliy-diagnostik tafakkur, interaktiv metodlar, SWOT tahlil, texnik ta'lim, kompetensiya, analitik fikrlash.

Аннотация. В статье рассматриваются возможности интегрированного применения интерактивных методов и технологии SWOT-анализа в развитии практико-диагностического мышления студентов технических высших учебных заведений. В исследовании анализируется влияние интерактивных подходов на эффективность образовательного процесса, а также роль SWOT-анализа в формировании у студентов аналитического, критического и рефлексивного мышления. В результате обосновано, что интеграция данных методов является эффективным средством формирования профессиональных компетенций студентов.

Ключевые слова: практико-диагностическое мышление, интерактивные методы, SWOT-анализ, техническое образование, компетенции, аналитическое мышление.

In the modern education system, the competency-based approach is gaining increasing importance. Particularly for students in technical fields, it is essential not only to acquire theoretical knowledge but also to develop practical-diagnostic thinking. Practical-diagnostic thinking reflects students' ability to analyze problematic situations, identify cause-and-effect relationships, and develop optimal solutions. However, practice shows that in many cases the educational process is primarily focused on delivering theoretical knowledge, while students' skills in independent analysis and decision-making remain insufficiently developed. Therefore, the application of interactive methods and modern pedagogical technologies such as SWOT analysis is becoming a pressing issue.

In contemporary pedagogical approaches, interactive methods are recognized as an important didactic tool for increasing the effectiveness of the educational process. These methods transform students from passive listeners into active participants, encouraging them to acquire knowledge not in a ready-made form but through independent inquiry, analysis, and discussion. An educational environment organized on the basis of such methods enhances students' cognitive activity, develops reflective and critical thinking, and fosters practical competencies aimed at solving professional problems. A key feature of interactive methods is their ability to systematically develop students' skills in independent thinking, teamwork, comprehensive problem analysis, and evidence-based decision-making. In technical education, the use of such methods plays a particularly significant role in developing practical-diagnostic thinking. Among interactive methods, alongside brainstorming, discussion, and role-playing, case study and game-based learning hold a special place, as they provide learning experiences close to real-life situations.

The case study method (analysis of problem situations) is an interactive approach that develops students' ability to identify problems, uncover their causes, and propose optimal solutions based on the analysis of real or simulated professional situations. In this method, students are presented with a specific technical problem or a situation related to a production process. They examine the situation comprehensively, diagnose existing problems, identify contributing factors, and propose alternative solutions. The significance of the case study method in developing practical-diagnostic skills lies in its ability to encourage students to apply theoretical knowledge to real-world contexts. As a result, students develop key diagnostic competencies such as identifying and structurally analyzing problems, determining cause-and-effect relationships, evaluating and forecasting technical situations, and making informed decisions. Moreover, this method enhances students' flexibility in professional thinking and their ability to develop context-appropriate solutions.

Game-based learning is also one of the effective tools of interactive education. This method integrates game elements such as rules, roles, competition, and reward mechanisms into the learning process to increase student motivation and engagement. In technical education, complex production processes or technological systems can be simulated through modeling, simulations, and role-playing games. The importance of game-based methods in developing practical-diagnostic skills lies in providing students with a safe and controlled environment where they can make mistakes, analyze them, and draw correct conclusions. In such settings, students make decisions in near-real conditions, quickly assess problem situations, test alternative strategies, and reflect on and improve their performance.

Consequently, not only knowledge but also diagnostic thinking based on practical experience is developed. Thus, interactive methods, particularly case study and game-based learning technologies, demonstrate high effectiveness in developing practical-diagnostic skills among students in technical fields. They bring the educational process closer to real professional activity and contribute to the development of analytical, critical, and reflective thinking necessary for future engineering practice.

In innovative technical education, developing students' practical-diagnostic thinking requires a multi-stage,

systematic approach. From this perspective, integrating interactive methods with SWOT analysis technology emerges as an innovative approach that significantly enhances the effectiveness of the pedagogical process. This integration facilitates students' ability to deeply analyze problem situations, evaluate them structurally, and make well-grounded decisions. While interactive methods such as case study and game-based learning present situations close to real professional contexts, SWOT analysis provides a systematic and multifaceted evaluation framework. As a result, analytical and reflective thinking develop in a balanced and integrated manner.

The integration of the case study method with SWOT analysis enables the step-by-step formation of students' practical diagnostic activity. This process can be implemented as follows: Students are presented with a real technical problem or a situation related to a production process; The essence of the problem is identified, and key diagnostic questions are formulated. The situation is analyzed based on four components of SWOT:

- strengths (available resources and capabilities),
- weaknesses (system deficiencies),
- opportunities (development prospects),
- threats (risk factors).

In this case, Cause-and-effect relationships are identified based on the analysis and optimal solutions are developed and justified.

Through this integration, students learn not only to identify problems but also to conduct comprehensive diagnostics, analyze interrelated factors, and make strategic decisions. SWOT analysis introduces structure into the case study process, organizing and deepening students' thinking.

Similarly, integrating game-based learning with SWOT analysis creates a dynamic and interactive environment for developing diagnostic thinking. In this approach, simulation scenarios are evaluated using SWOT analysis. The process can be organized as follows: students are assigned specific roles (engineer, technologist, manager, etc.); they are presented with a problematic production or technological situation; each group analyzes the situation from its role perspective using SWOT; decisions are developed and defended based on the analysis; and finally, the most optimal solution is identified through general discussion. This integration develops key practical-diagnostic skills in students, including:

- rapid situation analysis and evaluation;
- consideration of multiple perspectives;
- decision-making under uncertainty;
- reflective self-analysis.

Game elements increase student motivation, while SWOT analysis adds analytical depth to the process. As a result, the learning process becomes not only engaging but also highly effective. The integrated use of interactive methods and SWOT analysis contributes to the development of practical-diagnostic thinking in the following areas:

– Analytical competence – the ability to systematically and deeply analyze problems;

– Prognostic competence – the ability to anticipate possible outcomes;

– Decision-making competence – the ability to choose optimal solutions among alternatives;

– Reflective competence – the ability to evaluate one's own performance and draw conclusions.

At the same time, this approach integrates theoretical knowledge with practice and prepares students for real professional activity.

The research findings indicate that integrating interactive methods particularly case study and game-based learning with SWOT analysis constitutes an effective didactic model for developing practical-diagnostic thinking among students in technical fields. This integration enhances the educational process by adding systematicity, analytical depth, and practical orientation, and serves as a key factor in the formation of students' professional competencies.

References

1. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: O'qituvchi, 2006.
3. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Sano-standart, 2015.
4. Xodjayev B.X. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. Oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha metodik qo'llanma. – Toshkent, 2016.
6. Prince M. Does active learning work? A review of the research // Journal of Engineering Education, 2004. Vol. 93, № 3. – P. 223–231.
7. Salas E., Wildman J.L., Piccolo R.F. Using simulation-based training to enhance management education // Academy of Management Learning & Education, 2009. Vol. 8, № 4. – P. 559–573.

Ойнур ЖАРКИНОВА,
преподаватель английского языка в старших классах общеобразовательной школы №50 города Андижана

РЕЦЕПТИВНАЯ ЭСТЕТИКА КАК МЕТОДОЛОГИЯ АНАЛИЗА КИНЕМАТОГРАФИЧЕСКОЙ ИНТЕРПРЕТАЦИИ ЛИТЕРАТУРНОГО ТЕКСТА (на примере романа Л.М.Олкотт «Маленькие женщины»)

Аннотация. В статье обосновывается применение рецептивной эстетики Х.Р.Яусса и В.Изера как методологической основы анализа кинематографических интерпретаций литературного произведения. На материале экранизаций романа Л.М.Олкотт «Маленькие женщины» рассматривается перенос понятий «горизонт ожидания» и «имплицитный читатель» в кинодискурс, предлагается модель анализа рецептивных стратегий экранизации.
Ключевые слова: рецептивная эстетика, горизонт ожидания, имплицитный читатель, кинодискурс, экранизация, интерпретация, «Маленькие женщины».
Annotatsiya. Ushbu maqolada X.R.Yauss va V.Izerning retseptiv estetikasini badiiy asarning kinematografik talqinlarini tahlil qilishning metodologik asosi sifatida qo'llash asoslab beriladi. L.M.Olkottning "Kichik xonimlar" romani asosidagi ekranizatsiyalar materialida "kutish gorizonti" va "implitsit o'quvchi" tushunchalarining kinodiskursga ko'chirilishi ko'rib chiqiladi, ekranizatsiyaning retseptiv strategiyalarini tahlil qilish modeli taklif etiladi.
Kalit so'zlar: retseptiv estetika, kutish gorizonti, implitsit o'quvchi, kinodiskurs, ekranizatsiya, talqin, "Kichik xonimlar".
Annotation. The article substantiates the application of H.R. Jauss's and W. Iser's reception aesthetics as a methodological basis for analysing cinematic interpretations of a literary work. Drawing on film adaptations of L.M. Alcott's novel "Little Women", it examines the transfer of the concepts "horizon of expectation" and "implied reader" into film discourse and proposes a model for analysing the reception strategies of adaptation.
Keywords: reception aesthetics, horizon of expectation, implied reader, film discourse, film adaptation, interpretation, "Little Women".

Актуальность обращения к рецептивной эстетике как методологическому основанию анализа кинематографических интерпретаций литературного произведения определяется несколькими факторами. Прежде всего современное литературоведение и киноведение всё активнее рассматривают экранизацию не как вторичный, производный от литературного источника текст, а как самостоятельный интерпретационный акт, в котором зритель занимает столь же активную позицию, какую в теории Х.Р.Яусса и В.Изера занимает читатель по отношению к литературному произведению. Кроме того, роман Л.М.Олкотт «Маленькие женщины» (1868–1869), к которому на протяжении более ста лет неоднократно обращались кинематографисты разных стран и эпох, представляет собой репрезентативный материал для изучения того, как трансформируется рецепция классического текста в зависимости от «горизонта ожидания» аудитории конкретного исторического периода. Наконец, несмотря на значительный объём работ по теории киноадаптации (Л.Хатчеон, Т.Лейтч, С.Кардуэлл), собственно рецептивно-эстетический инструментарий применительно к анализу серии разновременных экранизаций одного и того же произведения недостаточно разработан, что и определяет необходимость данного исследования.

Новизна работы заключается в систематическом переносе понятийного аппарата рецептивной эстетики – «горизонт ожидания», «эстетическая дистанция», «имплицитный читатель» – в область кинодискурса и в разработке на этой основе модели анализа рецептивных стратегий экранизации литературного произведения.

Цель статьи – обоснование методологической продуктивности рецептивно-эстетического подхода к анализу кинематографических интерпретаций литературного текста, для достижения которой предполагалось рассмотреть ключевые категории рецептивной эстетики в аспекте их применимости к анализу кинодискурса, выявить точки методологического соприкосновения рецептивной эстетики и теории киноадаптации, предложить модель рецептивно-эстетического анализа экранизации, применимую к дальнейшему исследованию кинематографических интерпретаций романа «Маленькие женщины» в кинодискурсе XX–XXI вв.

Основоположники констанцской школы рецептивной эстетики Х.-Р.Яусс и В.Изер сместили фокус литературоведческого анализа с изучения текста как замкнутой структуры на изучение процесса его восприятия читателем. Ключевое понятие концепции Яусса – «горизонт ожидания» [1, с. 45] – обозначает совокупность эстетических, этических и жанровых представлений, с которыми читатель определённой исторической эпохи подходит к произведению. Смысл произведения, согласно Яуссу, не задан раз и навсегда автором, а каждый раз заново конституируется в диалоге текста и меняющегося исторического горизонта его восприятия. В.Изер, развивая феноменологический аспект рецептивной эстетики, вводит понятие «имплицитного читателя» [2, с. 203] – структурной инстанции текста, которая программирует определённый тип восприятия, оставляя при этом «пустые места», заполняемые воображением реального читателя.

Перенос данных категорий в область кинодискурса методологически обоснован тем, что экранизация, как и всякое чтение, представляет собой акт интерпретации, совершаемый в конкретных исторических и культурных условиях. Кинорежиссёр выступает здесь в двойной роли: с одной стороны, он сам является читателем литературного первоисточника, чей горизонт ожидания сформирован эпохой создания фильма, с другой – он конструирует «имплицитного зрителя» своей картины, закладывая в кинотекст определённую программу восприятия, рассчитанную на аудиторию соответствующего периода. Именно поэтому одно и то же литературное произведение при экранизации в разные десятилетия получает существенно различные интерпретационные решения – от выбора сюжетных акцентов до трактовки центральных образов.

Данное положение согласуется с теорией киноадаптации Л.Хатчеон, которая рассматривает адаптацию как процесс, включающий одновременно интерпретацию и

творческую (ре)креацию первоисточника [3, с. 8]. По мысли исследователя, аудитория адаптации всегда находится в двойственном рецептивном положении: она воспринимает произведение и как самостоятельный текст, и – при наличии предшествующего знакомства с первоисточником – в постоянном сопоставлении с ним, что структурно близко изеровскому понятию «эстетической дистанции» между горизонтом произведения и горизонтом реципиента [2, с. 215]. С.Кардуэлл указывает на необходимость рассматривать серию экранизаций одного произведения не как ряд изолированных интерпретаций, а как своего рода диахронный интертекст, в котором каждая новая версия вступает в диалог не только с литературным первоисточником, но и с предшествующими экранизациями [4, с. 25], что также согласуется с рецептивно-эстетическим принципом историчности восприятия.

Т.Лейтч предлагает разграничивать адаптации по степени их «верности» первоисточнику, однако с позиций рецептивной эстетики данный критерий представляется вторичным: значение имеет не столько мера формального соответствия тексту-источнику, сколько то, как экранизация реконструирует и переозначивает «пустые места» романа в соответствии с горизонтом ожидания своей эпохи [5, с. 96].

На основании изложенного может быть предложена трёхуровневая модель рецептивно-эстетического анализа кинематографической интерпретации литературного текста. Первый уровень – макроуровень исторического горизонта – предполагает реконструкцию социокультурного и эстетического контекста создания экранизации: доминирующих ценностных установок эпохи, кинематографических конвенций, ожиданий массовой аудитории. Второй уровень – мезоуровень нарративно-композиционных решений – включает анализ того, какие сюжетные линии романа акцентируются, редуцируются или трансформируются, как перестраивается композиция повествования применительно к «имплицитному зрителю» фильма. Третий уровень – микроуровень образных и визуальных решений – охватывает анализ трактовки конкретных персонажей, сцен и деталей, в которых наиболее наглядно проявляется заполнение изеровских «пустых мест» текста визуальными и актёрскими средствами.

Применительно к материалу исследования – экранизациям романа Л.М.Олкотт «Маленькие женщины» 1933, 1949, 1994 и 2019 годов – предложенная модель позволяет выявить, как менялся горизонт ожидания аудитории на протяжении почти столетия: от сентиментально-дидактического прочтения 1930-х годов, ориентированного на консервативные семейные ценности эпохи Великой депрессии, до постмодернистской и феминистски маркированной интерпретации Г.Гервиг 2019 года, в которой нелинейная композиция фильма прямо реализует принцип диалога с горизонтом ожидания зрителя, уже знакомого как с романом, так и с предшествующими экранизациями.

Проведённый анализ показывает, что понятийный аппарат рецептивной эстетики – «горизонт ожидания», «имплицитный читатель», «эстетическая дистанция» – обладает значительным методологическим потенциалом при исследовании кинематографических интерпретаций литературного текста. Перенесённые в область кинодискурса, данные категории позволяют рассматривать кинорежиссёра одновременно как читателя-интерпретатора литературного первоисточника и как конструктора «имплицитного зрителя» своей картины, а серию разновременных экранизаций одного произведения – как диахронную последовательность рецептивных актов, отражающих смену исторических горизонтов восприятия.

Предложенная трёхуровневая модель анализа (макроуровень исторического горизонта, мезоуровень нарративно-композиционных решений, микроуровень образных и визуальных решений) может служить методологическим инструментом для последующего исследования конкретных экранизаций романа Л.М.Олкотт «Маленькие женщины». Дальнейшее направление исследования связано, с одной стороны, с историко-сопоставительным анализом рецептивных стратегий англоязычных экранизаций романа XX века, с другой – с углублённым рассмотрением постмодернистской реинтерпретации произведения в фильме Г.Гервиг 2019 года как наиболее показательного случая актуализации классического текста для горизонта ожидания современного зрителя.

Использованная литература

1. Яусс Х.Р. История литературы как провокация литературоведческой науки // Новое литературное обозрение, 1995, №12.
2. Изер В. Современная литературная теория: антология / Сост. И.В.Кабанова. М.: Флинта: Наука, 2004.
Стремительная эволюция информационно-коммуникационных технологий и их тотальная импликация в повседневную жизнедеятельность человека актуализируют проблему трансформации подходов к формированию характера в цифровую эпоху. Технологический прогресс не просто модифицирует паттерны коммуникации и дидактические методы, но и оказывает глубинное детерминирующее воздействие на аксиологическую сферу личности, трансформируя восприятие и практическую реализацию духовно-нравственных ценностей в различных социокультурных контекстах. Современное подрастающее поколение социализируется в специфической экосистеме, детерминантами которой выступают перманентный доступ к неограниченным массивам информации через глобальную сеть, высокая интенсивность виртуальных интеракций и интеграция социальных медиаплатформ в структуру повседневности в качестве ее неотъемлемого компонента [1].

Теоретико-методологическую основу работы составил комплексный метод анализа научно-педагогической литературы и нормативно-правовой базы в области цифровой педагогики. В процессе исследования детально изучены концептуальные подходы к формированию характера, ценностных ориентаций и поведенческих паттернов обучающихся, выросших в условиях непрерывного доступа к информационно-коммуникационным технологиям. Особый акцент сделан на компаративном анализе инновационных воспитательных моделей и оценке их дидактического потенциала.

Научно-практическая ценность исследования заключается в обосновании целостного подхода к проектированию образовательной среды, где развитие цифровых компетенций неразрывно связано с воспитанием характера. Предложенная парадигма позволяет не просто минимизировать деструктивные риски и экзогенные угрозы интернет-пространства, но и превентивно вооружить обучающихся действенным этическим инструментарием для самостоятельного преодоления моральных дилемм в виртуальной реальности.

В данном контексте целенаправленное формирование характера и нравственных качеств личности выходит за рамки традиционной трансляции академических знаний, приобретая статус фундаментального базиса для развития психологически устойчивой, гармоничной личности с твердыми моральными ориентирами. В условиях экспоненциального роста информационных потоков и амбивалентного влияния интернет-пространства критически важной задачей педагогической науки и практики становится адаптация к новым вызовам. Это требует экспликации релевантных этических категорий и стимулирования ответственного, морально детерминированного поведения субъектов образовательного процесса при оперировании цифровыми инструментами.

Онтологическая сущность воспитательного процесса определяется детерминацией отношений, которые выступают его системной основой и возникают в рамках внутренних детерминированных связей и определенных педагогических закономерностей. Данный процесс направлен на целевую модификацию социализации личности и трансформирует возможность систематического, непрерывного и структурно-функционального воздействия на индивидуально-психологическую архитектонику субъекта [2, с. 61].

Экспансия информационно-коммуникационных технологий трансформировала их в имманентный компонент жизнедеятельности современного общества, что особенно выражено в процессах социализации «цифровых аборигенов». На современном этапе детская и подростковая популяция с раннего возраста интегрирована в цифровую экосистему, активно оперируя смартфонами, планшетными компьютерами и иными гаджетами в качестве доминирующих инструментов в различных сферах активности. Импликация данных

технологических решений верифицирует глубокие сдвиги в когнитивной, коммуникативной и дидактической сферах, радикально модифицируя паттерны интерперсонального взаимодействия [3].

Предоставляя беспрецедентные преференции в аспекте оперативного доступа к глобальным информационным массивам, технологическая среда одновременно генерирует специфические амбивалентные вызовы для духовно-нравственного генеза личности [4].

Сегодня для формирования и укрепления идеи «Новый Узбекистан – новое мировоззрение» от каждого гражданина, особенно от представителей молодого поколения, требуются особая ответственность и духовный потенциал, призывающий к высоким достижениям. Укрепление этого потенциала в сердцах каждого представителя молодого поколения имеет актуальное значение [5, с. 16].

Вектор конструктивного воздействия ИКТ на структуру личности обучающихся выражается в экспоненциальном расширении образовательного пространства. Посредством глобальной сети верифицируется свободный доступ к нелинейным дидактическим материалам, научным базам данных и гетерогенным образовательным ресурсам [6]. Это открывает широкие перспективы для самообразования и углубления когнитивного поиска в индифферентных областях знаний. Кроме того, современные интерактивные приложения и геймифицированные симуляторы выступают катализаторами учебно-познавательного интереса, интенсифицируя уровень вовлеченности обучающихся в образовательный процесс [7].

Однако за указанным дидактическим потенциалом латентно скрывается комплекс деструктивных рисков, сопряженных с проблемой модерации и верификации контента. В условиях дефицита превентивного педагогического и родительского сопровождения несовершеннолетние подвергаются экзогенным угрозам со стороны деструктивного интернет-контента. Систематическое восприятие сцен насилия, обсценной лексики, девиантных поведенческих паттернов и дезинформации оказывает деформирующее воздействие на аксиологическую сферу и морально-этический генез личности. Это актуализирует триггерную роль фасилитирующего и контролирующего участия родительского и академического сообществ в процессе навигации сетевой активности детей.

Таким образом, дополнительно цифровая среда модифицирует архитектонику социальных интеракций. Социальные медиаплатформы, мессенджеры и сетевые комьюнити обеспечивают высокоскоростную конвергентную коммуникацию. Тем не менее, данная технологическая детерминанта провоцирует редукцию навыков непосредственного общения и детерминирует эскалацию таких феноменов, как кибербуллинг и виртуальное насилие. Субъекты, демонстрирующие гипертрофированную привязанность к сетевым интеракциям, часто обнаруживают дефицит интерактивной эмпатии, снижение уровня социального интеллекта и трудности при вербализации и считывании невербальных маркеров в условиях реального взаимодействия.

Литература

1. Ulum A.B., Rozi S. Penyimpangan Nilai-Nilai Islam Dalam Bermedia Sosial Siswa Sekolah Menengah Pertama (Studi Siswa SMPN 1 Kota Mojokerto) // Philosophiamundi, 2023. URL: https://philosophiamundi.id/index.php/philosophia/article/view
2. Rahmatova M.M. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni takomillashtirishda "odatlantirish va faoliyatda mashqlantirish metodi"ning integratsiyalashuvu // Guliston davlat universiteti axborotnomasi. Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2026, №2.
3. Ihza M.M., Jumadi J., Satrio A. Analisis Dampak Media Sosial Tiktok Terhadap Pendidikan Karakter Di Era Teknologi 4.0 // J-Instech, 2024, vol.5, №2.
4. Putra N., Manik A., Harahap N., Natasya R. Masalah Cyberbullying yang Terjadi di Sekolah // Jurnal Mutu Pendidikan, 2023.
5. Rahmatova M.M. Yoshlar ma'naviy salohiyatini yuksaltirishda siyosiy institutlarning o'rni (ijtimoiy-falsafiy tahlil): falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. Toshkent, 2022.
6. Nisa A.K., Muna N., Fadhillah R. Manfaat Penggunaan Media Literasi Digital Pada Minat Belajar Siswa MI Miftahul Huda Lamongan // Jurnal Wawasan Sarjana, 2023, vol.2, №3. URL: http://www.jurnalmbuton.ac.id/index.php/juwara/article/view/4701
7. Camilleri M.A., Camilleri A.C. The Use of Mobile Learning Technologies In Primary Education // Cognitive And Affective Perspectives On Immersive Technology In Education, 2020.

Dilnoza MAMATOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti doktoranti, DSc

AKADEMIK O'QISH VA YOZISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA SUN'IY INTELLEKT INTEGRATSIYASI

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim tizimida akademik o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoniga sun'iy intellekt (SI) vositalarini integratsiya qilish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida kompetensiyaga asoslangan, kognitiv, konstruktivistik va janrga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlarning ilmiy tahlili berilib, SI texnologiyalari talabaning tanqidiy fikrlashi va ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi didaktik komponent sifatida asoslab berilgan.
Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, kompyuter tizimlari, kognitiv yondashuv, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, konstruktivistik yondashuv, janrga asoslangan yondashuv.
Annotation. The article examines the integration of artificial intelligence (AI) tools into the process of developing academic reading and writing skills in higher education. Based on a scientific analysis of competency-based, cognitive, constructivist, and genre-based pedagogical approaches, the study substantiates AI technologies as a vital didactic component that supports students' critical thinking and creative activity.
Keywords: artificial intelligence, computer systems, cognitive approach, competency-based approach, constructivist approach, genre-based approach.
Аннотация. В статье исследуются вопросы интеграции инструментов искусственного интеллекта (ИИ) в процесс развития навыков академического чтения и письма в системе высшего образования. На основе научного анализа компетентностного, когнитивного, конструктивистского и жанрового педагогических подходов обосновано применение ИИ-технологий в качестве дидактического компонента, поддерживающего критическое мышление и творческую деятельность студентов.
Ключевые слова: искусственный интеллект, компьютерные системы, когнитивный подход, компетентностный подход, конструктивистский подход, жанровый подход.

Ta'lim muhitida SI vositalarining integratsiyasi hali hamon dolzarbligicha qolmoqda. SIni ta'limga integratsiyalash o'rganish va o'qitish uchun yangi sifatni olib keladi. Sun'iy intellektga asoslangan vositalar o'rganish yanada shaxsiylashtirilgan o'qitish yanada moslashuvchan va boshqaruvni qamrab oluvchi murakkab ta'lim muhitini yaratishga yordam beradi. Sun'iy intelekt vositalarini dars jarayonlarida qo'llash undan oqilona foydalanish bosqichlari talabalar uchun muhim strategiya hisoblanadi.

Akademik o'qish va yozish bugungi oliy ta'lim tizimida nafaqat til ko'nikmalarining tarkibiy qismi, balki ilmiy tafakkur, tadqiqotchilik madaniyati va kasbiy kommunikativ kompetensiyaning asosiy komponentlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Shu sababli mazkur ko'nikmalarni rivojlantirish turli pedagogik yondashuvlarning uyg'unlashuviga asoslanadi. Har bir yondashuv o'quv faoliyatining ma'lum jihatini yoritadi va birgalikda akademik savodxonlikni shakllantirishga xizmat qiladi.

1-jadval. Akademik o'qish va yozishni rivojlantirishning pedagogik yondashuvlari

Yondashuv	Mazmuni	Akademik o'qish va yozishdagi qo'llanilishi
Competency-Based Approach	Kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan	Akademik o'qish, yozish, tanqidiy fikrlash va SI savodxonligini shakllantirish
Communicative Approach	Tilni muloqot vositasi sifatida o'rganish	Ilmiy matnlarni tahlil qilish, akademik munozara va ilmiy yozuv
Constructivist Approach	Bilimni faol qurish	SI yordamida yangi bilimlarni yaratish va integratsiyalash
Cognitive Approach	Kognitiv jarayonlarni rivojlantirish	O'qilgan matnni tushunish, tahlil qilish va xulosa chiqarish
Sociocultural Approach	Hamkorlik va ijtimoiy o'rganish	SI va tengdoshlar bilan hamkorlikda yozish va tahrirlash
Process Writing Approach	Yozishni bosqichma-bosqich tashkil etish	Rejalashtirish → Qoralama → Tahrirlash → Yakuniy variant
Genre-Based Approach	Janr xususiyatlariga asoslangan o'qitish	Essay, maqola, annotatsiya, literature review yozish
Task-Based Learning	Vazifalar orqali o'qitish	SI yordamida real akademik topshiriqlarni bajarish
Inquiry-Based Learning	Tadqiqot asosida o'qitish	SI yordamida ilmiy izlanish va manbalarni tahlil qilish
AI-Enhanced Learning	SI vositalari bilan boyitilgan ta'lim	ChatGPT, Perplexity, Elicit va boshqa vositalar orqali o'qish va yozish

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv ta'lim natijasini faqat nazariy bilim bilan emas, balki uni real vaziyatlarda qo'llash qobiliyati bilan baholaydi. Bu yondashuvning nazariy asoslari Philippe Perrenoud tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib,

u kompetensiyani murakkab vaziyatlarda bilim, ko'nikma va shaxsiy sifatlarni integratsiyalashgan holda safarbar etish qobiliyati sifatida talqin qiladi [2: 107].

Akademik o'qish va yozish jarayonida mazkur yondashuv talabalarni ilmiy matnlarni tushunish, dalillarni tahlil qilish, xulosalar chiqarish hamda ilmiy uslubda mustaqil matn yaratishga yo'naltiradi. Sun'iy intellekt vositalari ushbu jarayonda talabaning ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi didaktik resurs sifatida qo'llaniladi. Muhimi, SI talabaning o'rnini bosuvchi emas, balki uning ilmiy faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida qaraladi.

Kognitiv yondashuv bilimni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va qo'llash bilan bog'liq aqliy jarayonlarni o'rganishga asoslanadi. Jerome Bruner o'rganishni faol bilish jarayoni sifatida talqin qilib, o'quvchi yangi bilimlarni mavjud bilimlar tizimi bilan bog'lash orqali o'zlashtirishini ta'kidlaydi [1]. David Ausubel esa mazmunli o'rganish nazariyasida yangi bilimning avvalgi bilimlar bilan integratsiyasi muhimligini ko'rsatadi [3].

Akademik o'qish jarayonida kognitiv yondashuv matnni tushunish, tahlil qilish, asosiy va ikkinchi darajali g'oyalarni ajratish hamda ilmiy axborotni tizimlashtirishni ta'minlaydi. Akademik yozishda esa rejalashtirish, mantiqiy tuzilma yaratish, argumentlarni asoslash va matnni tahrirlash kabi murakkab fikrlash operatsiyalari rivojlanadi.

Sun'iy intellekt vositalari ushbu kognitiv faoliyatni qo'llab-quvvatlaydi: murakkab matnlarni qisqartirish, tushunchalarni izohlash, konseptual bog'lanishlarni aniqlash va muqobil yechimlarni taklif etish orqali talabaga yuqori darajadagi fikrlash operatsiyalarini amalga oshirishda yordam beradi.

Konstruktivistik yondashuvga ko'ra, bilim tayyor holatda berilmaydi; talaba uni faol o'quv faoliyati davomida mustaqil ravishda quradi. Jean Piaget bilimning individual konstruksiyasini [7], Lev Vygotskiy esa ijtimoiy hamkorlik va yaqin rivojlanish zonasi orqali bilimning shakllanishini asoslab bergan [4].

Akademik o'qish va yozishda konstruktivistik yondashuv talabaning ilmiy manbalarni tanqidiy tahlil qilishi, turli nuqtayi nazarlarni taqqoslashi va o'z ilmiy pozitsiyasini shakllantirishiga imkon yaratadi. SI vositalari bu jarayonda muloqot sherigi, tahlil vositasi va reflektiv yordamchi sifatida xizmat qiladi.

Jarayonli yozish yondashuvi yozishni yakuniy mahsulot emas, balki bir necha bosqichlardan iborat rivojlanish jarayoni sifatida ko'radi. Linda Flower va John R. Hayes ishlab chiqqan modelda yozish rejalashtirish, matn yaratish va qayta ko'rib chiqish bosqichlarining doimiy almashinuvi sifatida izohlanadi [5].

Tadqiqotimiz davomida ishlab chiqilgan Didactic AI Reading–Writing Cycle mexanizm aynan ushbu nazariyaga mos keladi. SI vositalari rejalashtirish, dastlabki variantni ishlab chiqish, til va uslub bo'yicha fikr-mulohaza berish hamda matnni takomillashtirish bosqichlarida samarali qo'llaniladi.

Janrga asoslangan yondashuv akademik matnlarning tuzilishi, maqsadi va lingvistik xususiyatlarini o'rgatishga qaratilgan. John M.Swales ilmiy janrlarning kommunikativ maqsadlari va diskurs xususiyatlarini tahlil qilgan bo'lsa, Ken Hyland akademik yozuvni muayyan ilmiy hamjamiyat me'yorlari bilan bog'liq ijtimoiy amaliyot sifatida izohlaydi [6].

Magistratura bosqichida talabalar annotatsiya, esse, maqola, tadqiqot taklifi va adabiyotlar sharhi kabi turli janrlarda yozishni o'rganadi. SI vositalari har bir janrning tuzilishini ko'rsatishi, namunalar yaratishi va janr talablariga muvofiqligini tahlil qilishi mumkin. Biroq yakuniy ilmiy matn muallifning mustaqil intellektual mahsuli bo'lishi zarur.

*Tadqiqotga asoslangan yondashuv*ning markazida savol qo'yish, muammoni aniqlash, dalillarni yig'ish va ilmiy xulosa chiqarish turadi. Akademik o'qish va yozish aynan tadqiqotchilik faoliyatining asosiy vositalaridan biri hisoblanadi.

Sun'iy intellekt vositalari ushbu jarayonda ilmiy manbalarni qidirish, ularni saralash, asosiy g'oyalarni aniqlash va dastlabki tahlilni amalga oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, talaba SI tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni tekshirishi, ishonchliligini baholashi va ilmiy dalillar bilan tasdiqlashi lozim.

Tadqiqot natijalari asosida sun'iy intellektni akademik o'qish va yozish jarayoniga shunchaki texnik vosita sifatida emas, balki talabaning mustaqil, tanqidiy, reflektiv va ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi didaktik komponent sifatida integratsiya qilish zarurligi asoslandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bruner J.S. Toward a Theory of Instruction. – Cambridge: Harvard University Press, 1966.
2. Mulder M. Conceptions of professional competence // International Handbook of Research in Professional and Practice-based Learning / Ed. by S. Billett et al. – Dordrecht: Springer, 2014. – P. 107–137.
3. Mayer R.E. Multimedia Learning. 3rd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2021.
4. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.
5. Hayes J.R. A new framework for understanding cognition and affect in writing // The Science of Writing: Theories, Methods, Individual Differences, and Applications / Ed. by C. Levy, S. Ransdell. – Mahwah: Lawrence Erlbaum Associates, 1996. – P. 1–27.
6. Hyland K. Second Language Writing. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2019.
7. Piaget J. The Psychology of the Child. – New York: Basic Books, 1972.

Nilufar OYMATOVA,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

JADID ADABIYOTINI O'QITISHDA SUN'IY INTELLEKT VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING METODIK ASOSLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada jadid adabiyotini o'qitishda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishning metodik imkoniyatlari yoritiladi. Sun'iy intellekt yordamida badiiy matnni tahlil qilish, ma'lumotlarni izlash va tizimlashtirish, ijodiy topshiriqlar yaratish hamda talabalarning mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, SI vositalarini ta'lim maqsadi, mazmuni, metodi va kutilayotgan natija bilan uyg'unlashtirishning metodik jihatlari asoslanadi.
Kalit so'zlar: jadid adabiyoti, adabiy ta'lim, sun'iy intellekt, raqamli ta'lim, badiiy matn, metodik asoslar, SI vositalari, interpretativ tahlil, mustaqil ta'lim, tanqidiy fikrlash.
Annotation. This article examines the methodological potential of using artificial intelligence tools in teaching Jadid literature. It analyzes the use of SI for literary text analysis, information retrieval and systematization, the development of creative tasks, and the enhancement of students' independent and critical thinking. The methodological aspects of integrating SI tools with educational objectives, content, teaching methods, and expected learning outcomes are also substantiated.
Keywords: Jadid literature, literary education, artificial intelligence, digital education, literary text, methodological foundations, SI tools, interpretive analysis, independent learning, critical thinking.
Аннотация. В статье рассматриваются методические возможности использования инструментов искусственного интеллекта в преподавании джадидской литературы. Анализируются вопросы использования искусственного интеллекта для анализа художественного текста, поиска и систематизации информации, создания творческих заданий, а также развития самостоятельного и критического мышления студентов. Обосновываются методические аспекты интеграции инструментов ИИ с целями, содержанием, методами обучения и ожидаемыми результатами.
Ключевые слова: джадидская литература, литературное образование, искусственный интеллект, цифровое образование, художественный текст, методические основы, инструменты ИИ, интерпретативный анализ, самостоятельное обучение, критическое мышление.

Bugungi kunda ta'lim jarayonlarini raqamlashtirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda sun'iy intellekt imkoniyatlarini ta'lim mazmuniga integratsiya qilish oliy ta'lim oldida turgan muhim vazifalardan biridir [1]. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim jarayonini tashkil etish, o'quv materiallarini taqdim etish, talabalarning mustaqil faoliyatini yo'lga qo'yish, bilim va ko'nikmalarini baholash hamda **individual ta'lim ehtiyojlarini hisobga olish imkoniyatlarini kengaytirmoqda [2].** Shu jihatdan sun'iy intellekt vositalaridan pedagogik maqsadlarda foydalanish ta'lim mazmuni va metodlarini takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda [3].

Adabiy ta'lim, xususan, jadid adabiyotini o'qitish mazkur jarayonning muhim yo'nalishlaridan biridir. Jadid adabiyoti milliy uyg'onish, ma'rifatparvarlik, ilm-fan, taraqqiyot va milliy o'zlikni anglash kabi g'oyalarni mujassam etishi bilan talabalarning adabiy-estetik, ijtimoiy-madaniy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Jadid ijodkorlari asarlarini o'rganishda badiiy matn mazmunini o'zlashtirish bilan bir qatorda, tarixiy-madaniy kontekst, obrazlar tizimi, muallif pozitsiyasi, badiiy detallar, ramziy ma'nolar va g'oyaviy-estetik xususiyatlarni tahlil qilish talab etiladi.

Mazkur jarayonda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish jadid adabiyotini o'qitishning metodik imkoniyatlarini kengaytiradi. Generativ SI vositalari yordamida jadid adiblari va asarlariga oid ma'lumotlarni izlash, saralash va tizimlashtirish, badiiy matnni tahlil qilish, turli talqinlarni qiyoslash, muammoli va ijodiy topshiriqlar ishlab chiqish, vizual hamda multimedia materiallarini tayyorlash, shuningdek, baholash mezonlari va diagnostik vositalarni shakllantirish mumkin. Bunda SI vositalari tayyor bilimni taqdim etuvchi texnologiya sifatida emas, balki talabaning mustaqil izlanishi, tahliliy va ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida qaralishi lozim.

Ayniqsa, jadid adabiyotini o'rganishda sun'iy intellekt yordamida olingan ma'lumotlarning ishonchliligini tekshirish muhim metodik talab hisoblanadi. Talabalar SI tomonidan taqdim etilgan axborotni darsliklar, ilmiy tadqiqotlar, maqolalar va ishonchli elektron manbalar bilan qiyoslash orqali uning aniqligi va ilmiy asoslanganligini baholashlari zarur. Masalan, jadid adibi ijodiga oid ma'lumotlarni **"adib – asar – janr – yaratilgan davr – mavzu – g'oya – tarixiy kontekst – badiiy xususiyat"** mezonlari asosida tizimlashtirish talabaning adabiy hodisalar o'rtasidagi bog'lanishlarni anglash va umumlashtirish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Jadid adabiyotini o'qitishda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish ta'lim jarayonining maqsadi, mazmuni, metodlari va kutilayotgan natijalari bilan uzviy bog'liq holda tashkil etilishi lozim. Bunda sun'iy intellekt imkoniyatlari talabaning tayyor axborotni o'zlashtirishiga emas, balki ma'lumot izlash, uni tekshirish va tizimlashtirish, badiiy matnni tahlil qilish, turli talqinlarni qiyoslash, mustaqil xulosa chiqarish va ijodiy faoliyatini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Shu asosda jadid adabiyotini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishning asosiy metodik yo'nalishlarini quyidagicha belgilash mumkin.

Jadid adabiyotini o'rganishda dastlabki bosqichlardan biri adiblar, asarlar, ularning yaratilish tarixi, adabiy muhit va davrning ijtimoiy-madaniy xususiyatlariga oid ma'lumotlarni izlash va tizimlashtirishdan iborat. Sun'iy intellekt vositalari katta hajmdagi axborotni qisqa vaqt ichida saralash, tasniflash va muayyan mezonlar asosida tartiblashtirishda qo'l keladi. **Bunday faoliyat badiiy adabiyotni chuqurroq o'zlashtirish, badiiy matnni tahlil qilish hamda asarda aks etgan voqea va obrazlar tizimi yuzasidan fikrlarni yozma va og'zaki ifodalashga yo'naltirilgan metodik vazifalar bilan uyg'unlashadi [3].**

Masalan, talabalarga Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat yoki Cho'lpon ijodini o'rganishda quyidagi jadvalni mustaqil shakllantirish topshirig'i berilishi mumkin:

Mezon	Ma'lumot
Adib	Abdulla Avloniy

Asarlar	"Turkiy guliston yoxud axloq" va boshqalar
Janr	Darslik, publitsistik, badiiy asarlar
Davr	XX asr boshlari
Asosiy mavzular	Ma'rifat, axloq, milliy uyg'onish
G'oyaviy yo'nalish	Ilm-ma'rifat va taraqqiyot
Tarixiy kontekst	Jadidchilik va milliy uyg'onish
Badiiy xususiyatlar	Didaktizm, publitsistik ruh, obrazlilik

Bunda SI tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar yakuniy javob sifatida emas, balki talabaning keyingi izlanishi uchun dastlabki material sifatida qo'llanadi. Talaba ma'lumotlarni ilmiy manbalar bilan tekshiradi, xatolarni aniqlaydi va yakuniy variantni o'zi shakllantiradi. Shu orqali axborot savodxonligi va manbalarni tanqidiy baholash ko'nikmalari rivojlanadi.

Jadid adabiyotini o'qitishda SI vositalarining muhim imkoniyatlaridan biri badiiy matnni ko'p qirrali tahlil qilish jarayonini qo'llab-quvvatlashdir. Talaba muayyan asar yoki matn parchasini tanlab, undan obrazlar tizimi, konflikt, badiiy detal, ramz, muallif pozitsiyasi, til va uslub xususiyatlarini aniqlashda foydalanishi mumkin.

Masalan, Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidan parcha asosida SIga quyidagi turdagi savollar berilishi mumkin:

– Matndagi asosiy konflikt qanday ifodalangan?

– Qahramon xarakterini ochishda qaysi badiiy detallar muhim?

– Muallif pozitsiyasi qaysi tasviriy vositalar orqali namoyon bo'lgan?

– Matndagi ramziy obrazlarning funksiyasi nimadan iborat?

– Asarning tarixiy konteksti uning mazmunini qanday boyitadi?

Bunday faoliyatda asosiy metodik talab – SI javobini tayyor tahlil sifatida qabul qilmaslikdir. Talaba SI bergan fikrlarni badiiy matnning o'zi bilan solishtiradi, dalillar topadi, ayrim xulosalarni qabul qiladi yoki rad etadi. Demak, SI tahlilning o'rnini bosmaydi, balki tahliliy fikrlash uchun muammoli savollar va muqobil qarashlarni shakllantirishga yordam beradi.

Jadid adabiyoti badiiy matn bilan bir qatorda muayyan tarixiy va madaniy muhit bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli asarni faqat matn doirasida emas, balki uning yaratilish sharoiti bilan bog'liq holda o'rganish muhimdir.

Sun'iy intellekt yordamida jadidchilik harakatining rivojlanishi, yangi usul maktablari, matbuot, teatr, ma'rifatparvarlik g'oyalari va adabiy jarayon o'rtasidagi bog'lanishlarni tizimlashtirish mumkin. Masalan, talabalar "jadidchilik → maktab → matbuot → teatr → adabiyot → milliy uyg'onish" ko'rinishidagi konseptual bog'lanishni ishlab chiqishlari mumkin.

Bu jarayonda SI tarixiy ma'lumotlarni tartiblashtirishga yordam beradi, biroq tarixiy faktlarning aniqligi albatta ishonchli ilmiy manbalar asosida tekshiriladi.

Sun'iy intellekt bir xil adabiy hodisani turli nuqtayi nazardan ko'rib chiqish imkonini berishi bilan ham ahamiyatlidir. Masalan, biror jadid asaridagi "ma'rifat", "millat", "ozodlik", "ayollarning ta'limi" yoki "jaholat" tushunchalarining turli asarlarda qanday ifodalanganini qiyoslash mumkin.

Talabaga ikki yoki undan ortiq jadid adibining asarlaridan parchalar berilib, quyidagi mezonlar asosida qiyosiy tahlil topshiriladi: *mavzu → muammo → obraz → badiiy vosita → muallif munosabati → g'oyaviy xulosa.*

SI vositasi dastlabki qiyoslashni amalga oshirishda yordam beradi, talaba esa matndan dalillar keltirgan holda o'z interpretatsiyasini shakllantiradi. Natijada qiyosiy tahlil mexanik o'xshashliklarni aniqlashdan yuqori bosqichga ko'tarilib, asarning ma'no yaratish mexanizmini anglashga yo'naltiriladi.

Sun'iy intellektdan foydalanishning yana bir yo'nalishi – jadid adabiyotini o'rganishga mo'ljallangan turli darajadagi topshiriqlarni ishlab chiqishdir. Bunda topshiriqlar faqat reproduktiv xarakterda bo'lmasdan, talabaning tahliliy, qiyosiy, ijodiy va tadqiqotchilik faoliyatini rag'batlantirishi lozim. Masalan:

Reproduktiv topshiriq:

Jadid adiblarining asosiy asarlarini sanab, ularni janrlar bo'yicha tasniflang.

Tahliliy topshiriq:

Berilgan parchada qahramon ruhiy holatini ifodalovchi badiiy vositalarni aniqlang va ularning funksiyasini izohlang.

Qiyosiy topshiriq:

Ikki jadid adibining ma'rifat g'oyasini ifodalash usullarini qiyoslang.

Ijodiy topshiriq:

Tanlangan jadid asari asosida zamonaviy yoshlar uchun muammoli vaziyat yarating va uning yechimini dalillar asosida taklif qiling.

Bunday topshiriqlarni SI yordamida yaratishda o'qituvchi ularning fan maqsadiga, talabaning tayyorgarlik darajasiga va kutilayotgan ta'lim natijasiga mosligini tekshiradi.

Jadid adabiyotini o'qitishda murakkab tarixiy va adabiy jarayonlarni vizuallashtirish talabaning mavzuni yaxlit tasavvur qilishiga yordam beradi. Sun'iy intellekt vositalari yordamida adiblar ijodiy faoliyatining vaqt jadvali, asarlar xaritasi, konseptual xaritalar, infografikalar, taqdimot materiallari va boshqa vizual resurslarni ishlab chiqish mumkin.

Masalan, "Jadid adabiy muhiti" mavzusida adiblar, nashrlar, ta'lim muassasalari, teatr va matbuot o'rtasidagi aloqalarni aks ettiruvchi konseptual xarita yaratish mumkin. Bunda vizual material tayyor ma'lumotni bezash vositasi emas, balki adabiy-tarixiy bog'lanishlarni anglash vositasi sifatida qo'llanadi.

SI vositalaridan talabalarning bilim va ko'nikmalarini baholashga doir mezonlarni ishlab chiqishda ham foydalanish mumkin. Xususan, badiiy matn tahlili uchun baholash mezonlari, rubrikalar, diagnostik savollar va o'z-o'zini baholash shakllarini yaratish mumkin.

Masalan, talabaning jadid asarini interpretativ tahlil qilish faoliyati quyidagi mezonlar asosida baholanishi mumkin:

matnni tushunish → dalillardan foydalanish → badiiy vositalarni tahlil qilish → tarixiy kontekstni hisobga olish → mustaqil interpretatsiya → xulosa chiqarish.

Bunday yondashuv baholashni faqat yakuniy javobga emas, balki talabaning tahlil jarayoni va mustaqil fikrlash darajasiga yo'naltirish imkonini beradi.

Jadid adabiyotini o'qitishda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish ta'lim jarayonining mazmuni va metodlarini takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. SI vositalari yordamida jadid adiblari va asarlariga oid axborotni izlash va tizimlashtirish, badiiy matnni tahlil qilish, tarixiy-madaniy kontekstni o'rganish, qiyosiy va interpretativ

faoliyatni tashkil etish, ijodiy topshiriqlar hamda baholash vositalarini ishlab chiqish imkoniyati kengayadi.

Mazkur yondashuv orqali talabalar jadid davri ijodkorlarining shaxsiyati, hayot yo'li, tafakkur va ijodiy salohiyati, o'zbek tili va adabiyoti hamda milliy madaniyat rivojiga qo'shgan hissasi, ilmiy-ijodiy faoliyati, o'zbek davlatchiligi va ma'naviyati tarixidagi o'rnini yaxlit holda anglash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunda sun'iy intellekt tarixiy va adabiy ma'lumotlarni izlash, saralash va tizimlashtirishni yengillashtiruvchi vosita vazifasini bajaradi.

Tadqiqot doirasida SI vositalaridan foydalanish "izlash – tekshirish – tizimlashtirish – tahlil qilish – qiyoslash – talqin etish – ijodiy qo'llash – baholash" ketma-ketligi asosida tashkil etilishi mumkinligi aniqlandi. Mazkur jarayonda SI tayyor bilim yoki yakuniy xulosa beruvchi vosita sifatida emas, balki talabaning mustaqil izlanishi, tanqidiy va ijodiy fikrlashini qo'llab-quvvatlovchi raqamli vosita sifatida qo'llanadi.

Shuningdek, SI tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni ishonchli ilmiy manbalar bilan tekshirish, badiiy matnga tayanib xulosa chiqarish va talabaning shaxsiy interpretatsiyasini shakllantirish muhim metodik talab hisoblanadi. Shu bois sun'iy intellektdan foydalanish samaradorligi texnologiyaning o'ziga emas, balki uning ta'lim maqsadi – mazmun – metod – SI vositasi – talaba faoliyati – ta'lim natijasi bilan metodik jihatdan uyg'unlashtirilishiga bog'liq.

Umuman, jadid adabiyotini o'qitishda sun'iy intellekt vositalaridan maqsadli va metodik asosda foydalanish talabalarning adabiy-tarixiy bilimlarini chuqurlashtirish, jadid ijodkorlarining milliy tafakkur va madaniyat taraqqiyotidagi o'rnini anglash, badiiy matnni mustaqil talqin qilish, axborotni tanqidiy baholash hamda ijodiy va ilmiy xulosa chiqarish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son ""O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. – Toshkent, 2023.
2. Паскова А.А. Технологии искусственного интеллекта в персонализации электронного обучения // Вестник Майкопского государственного технологического университета, 2019, №3 (42).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. – Toshkent, 2024.
4. Mirzayeva Z., Jalilov K. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi. – Toshkent: Akademnashr, 2024.
5. Yo'ldosh Q., Yo'ldosh M. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.

Munisa SULAYMONOVA,
Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA IJODKORLIK FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarda ijodkorlik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirishning mazmuni-mohiyati, samarali yo'llari va usullari yoritib berilgan.
Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, ijodkorlik, tafakkur, qobilyat, pedagog, kitobxonlik.
Annotation. This article outlines the content, essence, and effective methods for fostering and developing creative thinking in prospective teachers.
Keywords: education, upbringing, creativity, thinking, aptitude, educator, reading.
Аннотация. В статье рассматриваются содержание и сущность, эффективные способы и методы формирования и развития творческого мышления у будущих учителей.
Ключевые слова: образование, воспитание, творчество, мышление, способности, педагог, чтение.

Bugungi kunda ta'lim tizimida yuz berayotgan tub o'zgarishlar pedagogning kasbiy faoliyatiga qo'yiladigan talablarning ham yangilanishini taqozo etmoqda. Zamonaviy o'qituvchi faqat tayyor bilimlarni yetkazib beruvchi mutaxassis emas, balki ta'lim jarayonini loyihalashtiruvchi, pedagogik vaziyatlarni tahlil qiluvchi, yangi metod va vositalarni ishlab chiquvchi hamda o'quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashuvchi shaxs sifatida shakllanishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, pedagogik oliy ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biridir.

Ijodkorlik insonning mavjud bilim va tajribalar asosida yangi g'oya, yangi yondashuv yoki original yechim yaratish qobiliyatini anglatadi. Pedagogik faoliyatda esa ijodkorlik yanada murakkab mazmun kasb etadi. Chunki o'qituvchi turli yosh, xarakter, qobiliyat va ehtiyojga ega bo'lgan o'quvchilar bilan ishlaydi. Bir xil metod barcha pedagogik vaziyatlarda bir xil natija bermasligi mumkin. Shu sababli o'qituvchi muayyan vaziyatni tahlil qilib, unga mos yangi usul va vositalarni tanlashi yoki ishlab chiqishi zarur.

Bo'lajak o'qituvchilarda ijodkorlikni shakllantirish faqat alohida fan doirasida amalga oshiriladigan jarayon emas. U butun pedagogik ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari, mustaqil ta'lim, amaliyot, ilmiy-tadqiqot faoliyati va talabaning individual pedagogik tajribasi bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi. Shuning uchun oliy pedagogik ta'limda ijodkorlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan yaxlit pedagogik muhitni yaratish zarur.

Bo'lajak o'qituvchining ijodkorlik faoliyati uning kasbiy faoliyatiga yangilik kiritish, mavjud pedagogik muammolarga nostandart yondashish, yangi g'oyalarni ilgari surish va ularni amaliyotda qo'llay olish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Bunday faoliyat faqat ijodiy topshiriqlarni bajarish bilan cheklanmaydi. U talabaning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatni ko'ra olishi, muqobil variantlarni taqqoslashi, qaror qabul qilishi va o'z faoliyatini baholay olishini ham qamrab oladi.

Ijodkorlikning muhim komponentlaridan biri mustaqil fikrlashdir. Talaba tayyor ma'lumotni o'zlashtirish bilan cheklanib qolmasdan, o'rganilayotgan masalaga nisbatan shaxsiy munosabatini shakllantirishi kerak. Masalan, pedagogika fanida muayyan metodning afzalliklari o'rganilganda, talabaga uni real pedagogik vaziyatda qanday qo'llash mumkinligi haqida mustaqil fikr yuritish imkoniyati berilishi ijodiy tafakkurni faollashtiradi.

Ikkinchi muhim komponent – muammoli vaziyatni aniqlash va yechim topish qobiliyati. Pedagogik faoliyat doimo turli muammoli vaziyatlarni yuzaga keltiradi. O'quvchining darsga qiziqmasligi, sinfdagi o'zaro nizolar, o'zlashtirish darajasining turlicha bo'lishi yoki ta'lim vositalaridan samarali foydalanish kabi masalalar o'qituvchidan ijodiy yondashuvni talab qiladi.

Uchinchi komponent – yangilik yaratishga intilish. Bo'lajak pedagog o'z faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirish, yangi metodlarni sinab ko'rish, raqamli vositalardan foydalanish va mavjud pedagogik tajribani qayta ishlab chiqishga intilishi lozim.

To'rtinchi komponent – refleksiya. Ijodiy faoliyat natijasini tahlil qilish, muvaffaqiyat va kamchiliklarni aniqlash, keyingi faoliyat uchun yangi strategiyalar ishlab chiqish pedagogik ijodkorlikning muhim shartidir.

Bo'lajak o'qituvchilarda ijodkorlikni rivojlantirish uchun, avvalo, oliy ta'lim muassasasida qulay ijodiy-pedagogik muhitni shakllantirish zarur. Bunday muhit talabaga o'z fikrini erkin ifodalash, xato qilishdan qo'rqmaslik, turli g'oyalarni ilgari surish va ularni muhokama qilish imkonini beradi.

An'anaviy ta'lim jarayonida o'qituvchi ko'pincha asosiy axborot manbai, talaba esa bilimni qabul qiluvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Ijodkorlikka yo'naltirilgan ta'limda esa ushbu munosabat o'zgaradi. O'qituvchi talabaning mustaqil izlanishini tashkil etuvchi va yo'naltiruvchi subyektga aylanadi.

Ijodkorlikni rivojlantirishning yana bir muhim sharti – erkin fikrlashga asoslangan ta'lim muhitidir. Talabaning har bir savolga faqat bitta "to'g'ri" javob topishga yo'naltirilishi uning ijodiy imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Shu bois ayrim topshiriqlarda bir nechta yechimga yo'l qo'yish, talabaning o'z fikrini dalillar asosida himoya qilishiga imkon berish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, ijodkorlikni rivojlantirishda fanlararo integratsiya muhim ahamiyatga ega. Masalan, pedagogika, psixologiya, axborot texnologiyalari, metodika va maxsus fanlarning imkoniyatlarini birlashtirish orqali talabaning kompleks ijodiy kompetensiyasini shakllantirish mumkin.

Pedagogik amaliyot ham ijodkorlikni rivojlantirishning muhim bosqichi hisoblanadi. Talaba real ta'lim muhitida mustaqil dars tashkil etar ekan, nazariy bilimlarini amaliy vaziyatga moslashtirishga majbur bo'ladi. Bu jarayonda u turli pedagogik muammolarga duch keladi va ularning yechimini izlash orqali kasbiy ijodkorligini rivojlantiradi.

Bo'lajak o'qituvchilarda ijodkorlik faoliyatini shakllantirish zamonaviy pedagogik ta'limning muhim yo'nalishlaridan biridir. Pedagogning kasbiy kompetensiyasi nafaqat nazariy bilimlarning hajmi, balki ushbu bilimlarni yangi va o'zgaruvchan pedagogik vaziyatlarda samarali qo'llay olish qobiliyati bilan ham belgilanadi.

Ijodkorlikni rivojlantirish uchun ta'lim jarayonida muammoli ta'lim, loyiha metodi, keys-stadi, "aqliy hujum", hamkorlikda o'qitish va refleksiv topshiriqlardan tizimli foydalanish maqsadga muvofiq. Shuningdek, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt vositalaridan pedagogik maqsad asosida foydalanish talabalarning ijodiy mahsulot yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Umuman olganda, bo'lajak o'qituvchilarda ijodkorlikni shakllantirish mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, yangicha yechimlar yaratish, pedagogik faoliyatni loyihalash va o'z faoliyatini refleksiv baholash ko'nikmalarining o'zaro birligi asosida amalga oshirilishi lozim. Bunday yondashuv kelajak pedagoglarining kasbiy moslashuvchanligi va innovatsion faoliyatga tayyorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shodmonova Sh.S., Ibragimova G.N., Mirzayeva F.O. Pedagogika nazariyasi va tarixi: darslik. – Toshkent: Sano-standart, 2022.
2. Guilford J.P. Creativity // American Psychologist, 1950. Vol. 5 (9). – P. 444–454.
3. Torrance E.P. Torrance Tests of Creative Thinking. – Bensenville: Scholastic Testing Service, 1974.
4. Amabile T.M. Creativity in Context. – Boulder: Westview Press, 1996.

Dilnozaxon KARIMJONOVA,
Andijon davlat pedagogika instituti ingliz tili fani o'qituvchisi

TALABALARNING GAPIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI: DISSERTATSION TADQIQOTLAR TAHLILI

Annotatsiya. Chet tilida gapirish ko'nikmasi til o'rganishdagi eng murakkab va muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Talabalar ko'pincha yetarli so'z boyligi va grammatik bilimga ega bo'lsalar-da, real muloqot jarayonida erkin va ravon gapirishga qiynaladilar. Bunga psixologik to'siqlar, amaliy mashqlarning yetishmasligi, an'anaviy o'qitish metodlarining asosan grammatikaga yo'naltirilgani hamda zamonaviy interaktiv vositalardan yetarlicha foydalanilmasligi sabab bo'ladi. Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ingliz tilida gapirish ko'nikmasini rivojlantirishga bag'ishlangan uchta dissertatsiya – G.B. Prenova, M.A. Rasulova va Sh.X. Xakimovning ishlari didaktik, raqamli-texnologik va kommunikativ-psixologik yondashuvlar asosida qiyosiy-tahliliy nuqtayi nazardan umumlashtirildi. Tadqiqotlar tahlili natijasida gapirish ko'nikmasini rivojlantirishning samarali yo'llari hamda bu boradagi dolzarb muammolar muhokama qilindi.

Kalit so'zlar: gapirish ko'nikmasi, kommunikativ kompetensiya, raqamli ta'lim texnologiyalari, didaktik model, og'zaki nutq, oliy ta'lim, refleksiya.

Annotation. The ability to speak in a foreign language is considered one of the most complex, yet essential, skills in language learning. Although students often possess sufficient vocabulary and grammatical knowledge, they struggle to speak freely and fluently in real communication. Additional contributing factors include psychological barriers, a lack of practical exercises, the exclusively grammar-oriented focus of traditional teaching methods, and insufficient use of modern interactive tools. This article summarizes, from a comparative-analytical perspective, the essence of these existing problems and the modern pedagogical approaches aimed at addressing them, as examined in three dissertations by G.B.Prenova, M.A.Rasulova, and Sh.Kh.Khakimov, which are devoted to developing university students' English-speaking skills through didactic, digital-technological, and communicative-psychological methods. Based on the analysis of these studies, effective ways to develop speaking skills and pressing problems in this area are discussed.

Keywords: speaking skill, communicative competence, digital educational technologies, didactic model, oral speech, higher education, reflection.

Аннотация. Навык говорения на иностранном языке является одним из самых сложных и в то же время важнейших аспектов при изучении языка. Студенты, зачастую обладая достаточным словарным запасом и грамматическими знаниями, испытывают трудности со свободной и беглой речью в реальном общении. Среди основных причин выделяются психологические барьеры, недостаток практических упражнений, ориентированность традиционных методов обучения исключительно на грамматику, а также недостаточное использование современных интерактивных средств. В статье сравнительно-аналитическим подходом обобщается сущность существующих проблем и рассматриваются современные педагогические подходы к их устранению на примере трёх диссертаций (Г.Б.Преновой, М.А.Расуловой и Ш.Х.Хакимова), посвящённых развитию навыков говорения на английском языке у студентов вузов посредством дидактических, цифровых технологических и коммуникативно-психологических методов. По результатам анализа исследований обсуждены эффективные пути развития навыка говорения и актуальные проблемы в этой области.

Ключевые слова: навык говорения, коммуникативная компетенция, цифровые образовательные технологии, дидактическая модель, устная речь, высшее образование, рефлексия.

Zamonaviy globallashuv sharoitida chet tilida erkin va samarali gapirish ko'nikmasi nafaqat kommunikativ, balki kasbiy muvaffaqiyatning ham asosiy omillaridan biriga aylanmoqda. O'zbekistonda so'nggi yillarda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar, jumladan, Prezidentimizning 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarori chet tillarini o'qitish sifatini tubdan yaxshilash va talabalarda amaliy muloqot ko'nikmalarini shakllantirishni ustuvor vazifa sifatida belgiladi.

Chet tilida gapirish ko'nikmasini o'qitish metodikasi vaqtlar davomida sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirgan. Dastlabki davrlarda ta'lim asosan an'anaviy grammatika va yozma matnlarni tarjima qilishga qaratilgan bo'lib, gapirishga deyarli e'tibor berilmagan. Keyinchalik struktura va namunalarni takroran mashq qilishga asoslangan usullar keng tarqala boshladi, biroq bu ham tabiiy muloqotda erkin gapirish ko'nikmasini yetarlicha shakllantira olmadi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab esa kommunikativ yondashuv vujudga keldi. Bunda til grammatik to'g'rilikdan ko'ra, hayotiy muloqotda samarali foydalanish vositasi sifatida qaraladigan bo'ldi. Bu davrda rolli o'yinlar, guruh bo'lib ishlash va interaktiv mashqlar ta'lim jarayoniga faol joriy etila boshladi.

So'nggi yillarda esa raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan gapirish ko'nikmasini o'qitish yanada individuallashgan va zamonaviy bosqichga o'tdi: mobil ilovalar, onlayn platformalar va sun'iy intellektga asoslangan dasturiy vositalar talabalarga o'z nutqini mustaqil ravishda mashq qilish , o'z-o'zini baholash va takomillashtirish kabi imkoniyatlarni yaratib bermoqda.

Ushbu maqolada G.B.Prenovaning [1], M.A.Rasulovaning [2] va Sh.X.Xakimovning [3] talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning zamonaviy metodlariga asoslangan dissertatsion ishlarini o'zaro qiyoslab tahlil qildik. Tahlil qilish jarayonida uchala tadqiqot ishlarining ushbu yo'nalishdagi yutuqlari, umumiy holatlari hamda mavjud muammolarga aniq va ishonchli yechimlar taklif etilganligini aniqladik.

Gapirish ko'nikmasini egallashda odatda o'quvchilar ma'lum bir qiyinchiliklarga uchraydi. Masalan, psixologik omillar tufayli: muloqot qilish jarayonida xato qilishdan qo'rqish, boshqa o'quvchilar oldida ijtimoiy noqulaylik hissi, o'z-o'ziga ishonchsizlik va shu kabi holatlar talabaning og'zaki nutqqa faol jalb bo'lishiga to'sqinlik qiladi. Bu omil, ko'pgina tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, hatto yuqori til darajasiga ega bo'lgan talabalarda ham gapirish faolligini sezilarli darajada pasayishiga sabab bo'la oladi. Amaliy mashq yetishmasligi bilan bog'liq bo'lgan muammolar esa an'anaviy dars mobaynida talabaga og'zaki nutq uchun ajratilgan vaqt cheklangan bo'lib, katta guruhlarda har bir talaba erkin va faol gapirish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Natijada nazariy bilim amaliy ko'nikmaga to'liq aylanmay qoladi.

Bundan tashqari, metodik omillar ham an'anaviy o'qitish tizimining ko'pincha faqat grammatik to'g'rilikka yo'naltirilganligi, baholash mezonlarining asosan yozma ish natijalariga asoslanishi va og'zaki nutqni tizimli va aniq baholash mexanizmlarining yetishmasligi gapirish ko'nikmasini rivojlantirishni orqaga surilishiga sabab boladi.

Yana bir dolzarb muammo zamonaviy interaktiv vositalardan yetarlicha foydalanilmasligi bilan bog'liqdir. Raqamli ta'lim platformalari, sun'iy intellektga asoslangan nutq tahlili dasturlari va mobil ilovalar talabaga individual holatda mashq qilish imkonini bersa-da, ushbu vositalar o'quv jarayoniga aniq tizimli tarzda hali to'liq integratsiya qilinmagan. Aynan shu muammolarni bartaraf etishga qaratilgan turli metodik yechimlar quyidagi uchta dissertatsion tadqiqot misolida ko'rib chiqdik.

G.Prenova tadqiqotining asosida gapirish ko'nikmasini rivojlantirishning didaktik modeli yotadi, u motivatsion, lingvistik, ijtimoiy-pragmatik va diskursiv-amaliy komponentlarning o'zaro bog'liqligiga asoslangan. Tadqiqotchi muammoli vaziyat asosida o'qitish (Problem-Based Learning), simulyatsion va rolli o'yinlar, shuningdek dars jarayonida "Flipped classroom" modelidan unumli foydalanishni taklif qiladi. Bu yondashuvning o'ziga xosligi shundaki, u gapirish ko'nikmasini alohida olingan ko'nikma sifatida emas, balki kommunikativ, psixolingvistik va madaniy omillar uyg'unligida namoyon bo'luvchi yaxlit jarayon sifatida talqin qilgan.

Tadqiqotda alohida e'tiborga molik jihati motivatsion komponentning boshqa uchta komponent bilan uzviy bog'lanishidir. Tadqiqotchining fikricha, talabaning ichki motivatsiyasi yuqori bo'lmasa, hatto eng puxta ishlab chiqilgan didaktik model ham kutilgan natijani bermaydi. Shu sababli "flipped classroom" modeli orqali talabalar darsdan oldin nazariy materialni mustaqil o'zlashtirib, auditoriya vaqtini to'liq amaliy gapirish mashqlariga bag'ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu, o'z navbatida, ikkinchi guruhda nazarda tutilgan amaliy mashq yetishmasligi muammosini bevosita hal qilishga xizmat qilgan.

M.Rasulovaning tadqiqoti esa zamonaviy raqamlashtirish sharoitida og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, Google Pronunciation, ELSA Speak va SpeakingPro kabi raqamli platformalarning talaffuz va intonatsiyani real vaqt rejimida avtomatik tahlil qilish imkoniyatlarini o'rganadi. Tadqiqotda mobil ta'lim texnologiyalari vositasida individual ta'lim jarayonini loyihalashga qaratilgan pedagogik model taklif etilgan. Bu dissertatsiyada texnologik vositaning o'zi metodikaning markaziy elementiga aylantiriganini ko'rishimiz mumkin.

Bundan tashqari, CLT (Communicative Language Teaching), SMART va SWOT metodikasini uyg'unlashtirgan holda, talabaning nutqidagi kamchiliklarni avtomatik tarzda aniqlash va individual tuzatish tavsiyalarini shakllantirish mexanizmini taklif qilingan. Bu yondashuvning muhim afzalligi shundaki, u talabaga xato qilishdan qo'rqish hissisiz, mustaqil va o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda amaliy mashq qilish imkonini beradi – bu esa birinchi navbatda psixologik to'siqlarni yengib o'tishga xizmat qiladi, chunki dastur bilan muloqot inson bilan bo'ladigan real muloqotga xos ijtimoiy noqulayliklarnini keltirib chiqarmaydi.

Sh.Xakimov esa o'z tadqiqotida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning kognitiv faollik va shaxsga yo'naltirilgan tamoyillarga asoslangan modelini taklif qiladi. Bu yerda asosiy e'tibor talabaning refleksiya qilish, o'zini-o'zi baholash va korreksiyalash qobiliyatiga, shuningdek talaba-o'qituvchi o'zaro munosabatini tenglik va hamkorlik asosida tashkil etishga qaratiladi. Interaktiv, muammoli, rolli o'yinlar va topshiriq asosidagi (task-based) metodlar uyg'unlashtiriladi.

Mazkur ish psixologik-emotsional omillarni jumladan, o'quvchining o'ziga bo'lgan ichki ishonch, motivatsiya va chet tilida muloqot qilishdan qo'rqish hissini pasaytirish kabilarni markazga qo'yilishi bilan boshqa ikkitasidan ajralib turadi. Tadqiqotchi izlanishlari orqali talaba o'z nutqidagi xatolarni mustaqil tahlil qilib, ularni bosqichma-bosqich tuzatish jarayonida ishtirok etganda, nafaqat lingvistik, balki hissiy jihatdan ham gapirishga tayyorligi ortishini asoslaydi. Bu yondashuv, yuqorida keltirilgan psixologik to'siqlar muammosiga eng bevosita javob beruvchi model hisoblanadi.

Uchala tadqiqot ishlarini o'zaro qiyoslash va tahlil qilish orqali quyidagi umumiy jihatlar ajralib turishini aniqladik:

- Baholash mezonlari deyarli bir xil klasterga tushadi: aniqlik va to'g'rilik, izchillik-mantiqiylik, pragmatik moslik va talaffuz-intonatsiya barcha uchta ishda asosiy ko'rsatkich sifatida qo'llanilgan;
- Barchasi an'anaviy frontal o'qitishdan interaktiv, talabaga yo'naltirilgan yondashuvga o'tishni zaruriy shart sifatida asoslaydi.

Ko'rib chiqilgan uchta dissertatsiya talabalarning gapirish ko'nikmasini rivojlantirish sohasida uchta to'ldiruvchi yo'nalishni ifodalaydi: didaktik-metodik (G.Prenova), raqamli-texnologik (M.Rasulova) va kommunikativ-psixologik (Sh. Xakimov). Ularning barchasi tizimli, talabaga yo'naltirilgan va interaktiv yondashuvlarning samaradorligini statistik jihatdan tasdiqlaydi. Kelgusi tadqiqotlar uchun ushbu uchta omilni birlashtirgan integrativ metodikani ishlab chiqish, shuningdek natijalarning uzoq muddatli barqarorligini va turli institutsional sharoitlarda qo'llanilishini o'rganish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Ularning barchasi tizimli, talabaga yo'naltirilgan va interaktiv yondashuvlarning samaradorligini statistik jihatdan tasdiqlaydi hamda da keltirilgan to'rt guruh muammoga (psixologik, amaliy, metodik, texnologik) turlicha, ammo bir-birini to'ldiruvchi yechimlar taklif etadi. Bunday yaxlit va zamonaviy yondashuv talabalarning nafaqat lingvistik, balki psixologik jihatdan ham erkin va ishonchli gapirish ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Prenova G.B. Talabalarda gapirish ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: Ped. fan. bo'y. fal. dok. diss. – Toshkent: TDPU, 2026. – 169 b.
2. Rasulova M.A. Raqamlashtirish sharoitida talabalarning og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: Ped. fan. bo'y. fal. dok. (PhD) diss. – Toshkent: TDPU, 2025. – 190 b.
3. Xakimov Sh.X. Talabalarda ingliz tilidan kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: Ped. fan. bo'y. fal. dok. diss. – Toshkent: TDPU, 2025. – 169 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-5117-son Qarori. – Toshkent, 2021.

Robiya SHAMIYEVA,
Specialized State General Education School № 4 for English language studies, Karmana district, navoi region" English teacher

TEACHING ENGLISH IDIOMS TO UZBEK EFL LEARNERS THROUGH CONCEPTUAL METAPHOR AWARENESS

Annotation. The article reviews research on teaching English idioms to Uzbek EFL learners through conceptual metaphor awareness. It summarises Conceptual Metaphor Theory and empirical studies, compares English and Uzbek idioms, and offers recommendations for teaching.

Keywords: idiom, conceptual metaphor, cognitive linguistics, English language teaching, contrastive analysis.

Annotatsiya. Maqolada ingliz tili idiomalarini o'zbek talabalariga konseptual metaforalar asosida o'qitishga oid adabiyotlar tahlil qilingan. Konseptual metafora nazariyasi va empirik tadqiqotlar umumlashtirilib, ingliz va o'zbek idiomalari qiyosiy tahlil qilingan hamda o'qitish uchun tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: idioma, konseptual metafora, kognitiv lingvistika, ingliz tilini o'qitish, qiyosiy tahlil.

Аннотация. В статье анализируется литература по обучению узбекских студентов английским идиомам на основе концептуальных метафор. Обобщены теория концептуальной метафоры и эмпирические исследования, проведён сопоставительный анализ английских и узбекских идиом, даны рекомендации для преподавания.

Ключевые слова: идиома, концептуальная метафора, когнитивная лингвистика, преподавание английского языка, сопоставительный анализ.

Idioms are widely regarded as one of the most difficult areas of English vocabulary, because their meaning cannot be derived from the meanings of their parts. At the same time, idioms are frequent in conversation, the media and professional communication, and their use is often seen as a sign of advanced, natural-sounding proficiency. In Uzbek EFL classrooms, however, they are still often taught as lists of expressions with translations to be memorised, on the assumption that they are arbitrary. Cognitive linguistics challenges this assumption. G.Lakoff and M.Johnson showed that metaphor is a mechanism of thought whose essence is understanding one kind of thing in terms of another [7: 5].

If many idioms are motivated by such conceptual metaphors, their motivation can be made visible to learners. Both English and Uzbek are rich in figurative expressions based on the human body, emotions and everyday experience, which makes a cognitive, comparison-based approach especially relevant for Uzbek learners. The aim of this article is to review the theory and evidence behind this approach, known as conceptual metaphor awareness, and to consider its application to Uzbek learners.

The study is a narrative literature review of foundational works in Conceptual Metaphor Theory, experimental studies of metaphor-based idiom teaching and studies of cross-linguistic influence on idiom learning. English examples were compared with Uzbek expressions from the phraseological dictionary of Sh. Rahmatullayev [8].

A conceptual metaphor is a set of mappings from a concrete source domain to an abstract target domain [5: 4]. A single metaphor produces a family of expressions: *time is money* underlies *spend time*, *waste time* and *save time* [7: 7–9], while *anger is heat* underlies *boil with anger* and *blow off steam* [5]. Z.Kövecses and P.Szabó argued that most idioms are motivated by conceptual metaphor, metonymy or conventional knowledge, and in an experiment with Hungarian learners they found that explaining the underlying metaphors improved idiom learning [6]. F.Boers obtained similar results with French-speaking students: vocabulary organized under metaphor themes was retained better than vocabulary presented traditionally, and metaphor-aware learners were also better at interpreting unfamiliar figurative expressions in economic texts [1]. This suggests that the benefit of the approach goes beyond memorising individual idioms and helps learners develop a strategy for dealing with new figurative language. Later, F.Boers, M.Demecheleer and J.Eyckmans showed that explaining the literal origin of idioms also supports comprehension and retention [2].

The learner's native language shapes these effects. S.Irujo found that idioms identical to L1 expressions were easiest, similar idioms caused interference and idioms without L1 equivalents were hardest [4]. J.Charteris-Black showed that the greatest difficulty arises when surface form is similar but the conceptual basis differs, or when the idiom is culture-specific [3]. These findings show that conceptual metaphors are grounded in shared bodily experience but are elaborated differently across cultures [5], so the same method may work differently for learners with different native languages. For Uzbek learners, therefore, metaphor awareness should be combined with English–Uzbek comparison, as illustrated in Table 1.

Table 1. Conceptual metaphors in English and Uzbek idioms

Conceptual metaphor	English idioms	Uzbek expressions	Equivalence
TIME IS MONEY	spend time, waste time, save time	vaqt sarflamoq, vaqtni tejamoq	Full
ANGER IS HEAT	blow off steam, make one's blood boil	qoni qaynamoq, jahldan tutaqib ketmoq	Same metaphor, different image
HAPPY IS UP	be over the moon, on cloud nine	boshi osmonga yetmoq, ko'ngli ko'tarilmoq	Same metaphor, different image
Culture-specific	kick the bucket	– (cf. olamdan o'tmoq)	None

Table 1 suggests three teaching strategies. Where equivalence is full, as with TIME IS MONEY, teachers can rely on positive transfer and extend the family to less familiar

idioms such as *invest time*. Where the metaphor is shared but the image differs, as with ANGER IS HEAT and HAPPY IS UP, learners should notice the specific English image to avoid word-for-word transfer. Culture-specific idioms such as *kick the bucket* require explanation of their origin [2]. Differences in the location of emotions also deserve attention. In English, emotions are mainly associated with the heart, whereas Uzbek also locates strong feelings in the liver, as in *jigari ezilmoq* (to feel deep sorrow or compassion) [8].

Discussing such differences helps learners understand that idioms reflect cultural models of the body and emotions, and develops their intercultural awareness alongside vocabulary knowledge. Based on the reviewed studies, a practical sequence for the classroom can be proposed: learners first meet idioms in authentic contexts, then the teacher groups them by conceptual metaphor, learners look for Uzbek expressions based on the same or a different metaphor, describe or draw the image behind each idiom, and finally use the idioms in speaking and writing tasks. This sequence combines the metaphor grouping tested by F. Boers [1] with the contrastive focus recommended by S. Irujo and J. Charteris-Black [3; 4]. The main gap in the literature is that experimental studies of this approach with Uzbek learners remain scarce, and long-term retention and productive use are rarely measured.

Conceptual metaphor awareness offers a well-grounded alternative to rote memorisation of English idioms. Research shows that explaining the metaphors behind idioms improves comprehension and retention, and the English–Uzbek comparison shows that Uzbek learners can build on shared metaphors while needing support with different images and culture-specific idioms. Future research should test this approach experimentally with Uzbek university students, using experimental and control groups, immediate and delayed post-tests, and measures of both comprehension and productive use. Another promising direction is the development of English–Uzbek learner materials in which idioms are organised by conceptual metaphor rather than alphabetically.

References

1. Boers F. Metaphor awareness and vocabulary retention // Applied Linguistics, 2000. Vol. 21, №4. – P. 553–571.
2. Boers F., Demecheleer M., Eyckmans J. Etymological elaboration as a strategy for learning idioms // Bogaards P., Laufer B. (eds.) Vocabulary in a Second Language. – Amsterdam: John Benjamins, 2004. – P. 53–78.
3. Charteris-Black J. Second language figurative proficiency: A comparative study of Malay and English // Applied Linguistics, 2002. Vol. 23, №1. – P. 104–133.
4. Irujo S. Don't put your leg in your mouth: Transfer in the acquisition of idioms in a second language // TESOL Quarterly, 1986. Vol. 20, №2. – P. 287–304.
5. Kövecses Z. Metaphor: A Practical Introduction. – 2nd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2010.
6. Kövecses Z., Szabó P. Idioms: A view from cognitive semantics // Applied Linguistics, 1996. Vol. 17, №3. – P. 326–355.
7. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
8. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1978.

Gavxar QURBONOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti
o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsent v.b.

YOSH, JINS VA KASBIY OMILLARNING LISONIY SHAXSGA TA'SIRI

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslik hamda sotsiolingvistikaning eng dolzarb tushunchalaridan biri bo'lmish "lisoniy shaxs" fenomenining shakllanishi va namoyon bo'lishida insonning yoshi, jinsi hamda kasbiy faoliyati kabi demografik hamda ijtimoiy omillarning o'rni tahlil qilinadi.
Kalit so'zlar: lisoniy shaxs, sotsiolingvistika, gender lingvistika, yosh va nutq, kasbiy leksika, jargon, kommunikativ kompetensiya.
Annotation. This article analyzes the role of demographic and social factors, such as age, gender, and professional activity, in the formation and manifestation of the linguistic personality -one of the most pressing concepts in linguistics and sociolinguistics.
Keywords: linguistic personality, sociolinguistics, gender linguistics, age and speech, professional vocabulary, jargon, communicative competence.
Аннотация. В данной статье анализируется роль демографических и социальных факторов, таких как возраст, пол и профессиональная деятельность, в формировании и проявлении языковой личности – одного из наиболее актуальных понятий в языкознании и социолингвистике.
Ключевые слова: языковая личность, социолингвистика, гендерная лингвистика, возраст и речь, профессиональная лексика, жаргон, коммуникативная компетенция.

Zamonaviy tilshunoslik va sotsiolingvistika sohasida tilga faqatgina axborot uzatish quroli emas, balki insonning ijtimoiy dunyoqarashi, fikrlash tarzi hamda o'zligini namoyon etish vositasi sifatida qaralmoqda. Shuninig uchun "lisoniy shaxs" tushunchasi markaziy o'rinni egallaydi. Lisoniy shaxs – til birliklarini biladigan, ularni muloqot jarayonida to'g'ri va maqsadli qo'llay oladigan, ma'lum bir milliy-madaniy hamda ijtimoiy qatlamga mansub individual insondir [1].

Lisoniy shaxs har doim muayyan ijtimoiy muhitda rivojlanadi. Uning nutqiy xulq-atvori, so'z boyligi, iboralar tanlovi hamda so'zlashuv uslubi obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida shakllanadi. Bular orasida **yosh, jins va kasbiy faoliyat** eng yetakchi o'rinni egallaydi. Mazkur maqolada ushbu uch omilning lisoniy shaxsning nutqiy va fikrlash xususiyatlariga qanday ta'sir ko'rsatishi atroflicha ko'rib chiqiladi.

Yosh omilining lisoniy shaxsga ta'siri

Inson yoshining o'zgarishi uning dunyoqarashi, psixologiyasi va ijtimoiy maqomi o'zgarishiga olib keladi. Bu jarayon bevosita uning lisoniy shaxs sifatida shakllanishida ham aks etadi. Yosh omili bo'yicha lisoniy shaxsni shartli ravishda uchta asosiy bosqichga bo'lish mumkin:

Bolalik va o'smirlik davri (slang va jargonlar ustuvorligi). Ushbu bosqichda lisoniy shaxs muloqot va identifikatsiya (o'zini ma'lum guruhga tegishli deb bilish) ehtiyojini kuchli his qiladi. O'smirlar nutqida standart adabiy tildan chekinish, **slang**, **jargon** hamda **neologizmlar** faol qo'llanadi. Masalan, hozirgi o'zbek o'smirlari va yoshlari nutqida ingliz tili hamda internet madaniyati ta'sirida paydo bo'lgan *"krintsh"*, *"vayb"*, *"topchik"* kabi so'zlarning ko'pligi ularning alohida lisoniy qatlamini yaratadi [2].

O'rta yosh va mehnat faoliyati davri (standart va neytral uslub). Insonda ijtimoiy mas'uliyat ortishi bilan uning nutqiy xulq-atvorida adabiy til me'yorlariga rioya qilish, rasmiy va neytral leksikadan foydalanish darajasi oshadi. Ushbu davrda lisoniy shaxs jamiyatning talablariga moslashib, vaziyatga qarab o'z uslubini o'zgartirish ko'nikmasiga ega bo'ladi.

Katta (keksa) yosh davri (konservativ nutq). Keksa yoshli lisoniy shaxslar nutqida an'anaviy leksika, maqol va matallar, xalqona iboralar hamda puristik (til sofligini saqlashga intiluvchi) tendensiyalar ustunlik qiladi. Ularning nutqi yoshlar nutqiga nisbatan barqaror va o'zgarishlarga kamroq beriluvchan bo'ladi [3].

Jins (gender) omilining lisoniy shaxsga ta'siri

Gender lingvistika (til va jins munosabatlarini o'rganuvchi soha) tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, erkaklar va ayollarning lisoniy shaxs sifatida shakllanishi hamda muloqot strategiyalari bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Mashhur tilshunos Robin Lakoff ta'kidlaganidek, ayollar nutqi va erkaklar nutqi o'ziga xos lisoniy belgilarga ega [4].

Omillar / Ko'rsatkichlar	Ayollar nutqiy xususiyatlari	Erkaklar nutqiy xususiyatlari
Muloqot maqsadi	Munosabatlarni o'rnatish va saqlash, empatik muloqot	Ma'lumot berish, yetakchilik qilish
Leksik xususiyatlar	Sifat va baho bildiruvchi so'zlarning ko'pligi ("ajoyib", "juda go'zal")	Faktik va obyektiv leksika, aniq atamalar
Sintaksis va Modallik	Yumshoq talab, so'roq va taxmin shakllari ("-mi deyman", "boshqacha qilganimiz ma'qulroqmasmi?")	Aniq va buyruq shaklidagi gaplar ("buni bajaring", "yo'q, unday emas").
Nutqiy etiket	Muloyimlik, tasdiq so'rash, muloqotdoshni eshitish	To'g'ridan to'g'ri fikr bildirish, suhbatdosh gapini bo'lishga moyillik

Erkaklar va ayollarning lisoniy shaxsiyatidagi bu farqlar faqat biologik emas, balki jamiyatdagi gender rollari, tarbiya va ijtimoiy kutilmalar ta'sirida rivojlanadi [5]. Ayollar nutqida emotsionallik va intonatsion xilma-xillik yuqori bo'lsa, erkaklar nutqida mantiqiy izchillik va lakonizm (qisqalik) ustuvor bo'ladi.

Kasbiy omillar va lisoniy shaxsning shakllanishi

Kasbiy faoliyat inson lisoniy shaxsiyatini eng ko'p o'zgartiruvchi va unga xos uslubni shakllantiruvchi ijtimoiy omildir. Inson

ma'lum bir sohada ishlay boshlagach, uning fikrlash doirasi va lug'at tarkibi shu soha ehtiyojlariga moslashadi.

Har bir kasb egasining o'z professional leksikasi (terminologiyasi) mavjud. Dasturchi, shifokor, huquqshunos yoki iqtisodchining lisoniy shaxs sifatida namoyon bo'lishi ularning ishlatadigan maxsus atamalarida ko'rinadi. Masalan, shifokor kundalik hayotda oddiy insonlar *"bosh og'rig'i"* deydigan tushunchani o'z kasbdoshlari bilan muloqotda *"sefalgiya"* atamasi bilan almashtiradi [6].

Terminlardan tashqari, kasbiy jamoalar ichida faqat o'zlariga tushunarli bo'lgan ekspressiv so'zlar (jargonlar) shakllanadi. Masalan, IT sohasida *"fix qilmoq"*, *"bag"*, *"bug"*; jurnalistlar nutqida *"utekchka"*, *"dedlayn"* kabi so'zlar lisoniy shaxsning kasbiy o'zligini aks ettiradi.

O'qituvchilar nutqida tushuntirish, tahlil qilish va ta'lim berish sintaksisi ustun bo'lsa, advokatlar nutqida dalillash, argumentatsiya hamda gipotetik gap qurilmalari ustunlik qiladi. Bu holat kasbiy faoliyat insonning nafaqat ish vaqtida, balki maishiy muloqotida ham nutq stiliga muhrlanishini ko'rsatadi [7].

Insonning lisoniy shaxs sifatida rivojlanishi to'xtovsiz va dinamik jarayondir. Yosh, jins va kasbiy omillar lisoniy shaxsning ichki imkoniyatlari hamda tashqi ijtimoiy muhit o'rtasida ko'prik vazifasini o'taydi.

Xulosa qilib aytganda, lisoniy shaxsni o'rganish jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy jarayonlarni tushunishga, inson va til o'rtasidagi murakkab munosabatlarni to'g'ri baholashga imkon beradi. Ushbu omillarning nutqdagi aksini bilish va tahlil qilish zamonaviy sotsiolingvistika va psixolingvistika sohalarining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umurzoqova M.E. Lisoniy shaxs va uning shakllanishida ijtimoiy omilning o'rni // Foreign Languages in Uzbekistan, 2023, №6(53).
2. Labov W. Sociolinguistic Patterns. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 2006. – 344 p.
3. Mo'minov Q. Yosh va nutqiy madaniyat: sotsiolingvistik tahlil // Filologiya masalalari, 2020, №3(2). – B. 45–52.
4. Lakoff R. Language and Woman's Place // Language in Society, 1975. Vol. 2, №1. – P. 45–80.
5. Thorne B., Henley N. Language and Sex: Difference and Dominance. – Rowley: Newbury House Publishers, 2015. – 311 p.
6. Xudoyberganova D. Matn va lisoniy shaxs kognitiv-pragmatik aspektda. – Toshkent: Akademnashr, 2019. – 160 b.
7. Wardhaugh R., Fuller J.M. An Introduction to Sociolinguistics. 8th ed. – Hoboken: Wiley-Blackwell, 2021. – 448 p.

Sharifa MO'MINJONOVA,
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi lingvistika yo'nalishi magistranti

ARAB VA O'ZBEK TILLARIDAGI IJTIMOIY MUNOSABATGA OID PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY LAKUNARLIGI

Annotatsiya. Mazkur maqolada arab va o'zbek tillarida ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi paremiologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari qiyosiy-tipologik jihatdan tadqiq etiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ikki til paremiologik fondida oila, do'stlik, qo'shnichilik, o'zaro yordam, hurmat, sadoqat va ijtimoiy hamkorlik kabi munosabatlarning ifodalanish usullarini aniqlash hamda ular orasidagi lingvomadaniy moslik va nomosliklarni ochib berishdan iborat. Paremiologik birliklar xalqning tarixiy tajribasi, axloqiy qarashlari, ijtimoiy munosabatlari va milliy qadriyatlarini ixcham hamda obrazli shaklda aks ettiruvchi til birliklari sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, semantik, komponent tahlil, lingvomadaniy va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Tahlil natijasida arab va o'zbek paremiyalarida umumiy insoniy qadriyatlar mavjudligi bilan bir qatorda, ayrim ijtimoiy tushunchalarning turli obrazlar, baholash mezonlari va milliy-madaniy kodlar orqali ifodalanishi aniqlandi. Ayniqsa, to'liq ekvivalentga ega bo'lmagan paremiologik birliklar lingvomadaniy lakunarlikning muhim ko'rinishi sifatida namoyon bo'lishi asoslandi.

Kalit so'zlar: paremiologiya, paremiologik birlik, maqol, matal, lingvomadaniyatshunoslik, lakuna, lingvomadaniy lakuna, arab tili, o'zbek tili, ijtimoiy munosabat, milliy-madaniy xususiyat, qiyosiy-tipologik tadqiq.

Annotation. This article presents a comparative-typological study of paremiological units expressing social relations in Arabic and Uzbek. Proverbs related to friendship, neighborhood, mutual assistance, respect, kinship, and interpersonal relations are analyzed from a linguocultural perspective. Particular attention is paid to units that are semantically close in the two languages but differ in imagery, semantic structure, pragmatic function, or national-cultural connotation. On the basis of the concept of linguocultural lacunarity, the study distinguishes full correspondence, partial correspondence, and culturally non-equivalent units. The analysis demonstrates that the translation of paremiological units requires attention not only to lexical equivalence but also to the historical experience, social values, and communicative norms represented in the two cultures.

Keywords: paremiology, proverb, linguoculture, linguocultural lacunarity, social relations, comparative-typological analysis, cultural code, equivalence, Arabic, Uzbek.

Аннотация. В статье в сопоставительно-типологическом аспекте исследуются паремиологические единицы арабского и узбекского языков, отражающие социальные отношения. Анализируются пословицы, связанные с дружбой, соседством, взаимопомощью, уважением, родством и межличностными отношениями. Особое внимание уделяется единицам, которые имеют близкое значение в двух языках, но различаются образной основой, семантической структурой, прагматической функцией или национально-культурной коннотацией. На основе понятия лингвокультурной лакунарности выделяются полное соответствие, частичное соответствие и культурно безэквивалентные единицы. Результаты показывают, что при переводе паремиологических единиц необходимо учитывать не только лексическую эквивалентность, но и исторический опыт, социальные ценности и коммуникативные нормы народа.

Ключевые слова: паремиология, пословица, лингвокультура, лингвокультурная лакунарность, социальные отношения, сопоставительно-типологический анализ, культурный код, эквивалентность, арабский язык, узбекский язык.

Til va madaniyat o'rtasidagi munosabatni tadqiq etishda paremiologik birliklar alohida ahamiyat kasb etadi. Maqol va matallar xalqning uzoq tarixiy davrlar davomida shakllangan hayotiy tajribasi, ijtimoiy qarashlari, axloqiy me'yorlari va baholash mezonlarini ixcham shaklda mujassamlashtiradi. Shu sababli paremiologik birlikni faqat tayyor nutq formulasi sifatida emas, balki muayyan lingvomadaniy jamoaning dunyoni idrok etish usulini aks ettiruvchi kichik madaniy matn sifatida ko'rish mumkin. Zamonaviy paremiologik tadqiqotlarda maqollar xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va madaniy o'ziga xosligini saqlovchi birliklar sifatida baholanmoqda [1: 347–360]. O'zbek maqollari ham xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribasi va maishiy turmush tarzining o'ziga xos ifodasi sifatida tavsiflanadi [3: 5].

Arab tilshunoslik an'anasida maqollarni to'plash va sharhlash juda qadimiy tarixga ega. Arab paremiografiyasining shakllanishida Abu Ubayd al-Qosim ibn Sallom, al-Johiz, al-Maydoniy, Abu Hilol al-Askariy kabi olimlarning asarlari muhim o'rin tutadi. Zamonaviy tadqiqotlarda ham arab maqollarini o'rganish tarixiy, struktur-semantik va lingvomadaniy yo'nalishlarda olib borilgani qayd etiladi [4: 1–8].

Mazkur tadqiqotda "ijtimoiy munosabatlar" tushunchasi keng ma'noda, ya'ni shaxsning boshqa shaxslar va ijtimoiy guruhlar bilan munosabatini ifodalovchi kommunikativ va axloqiy munosabatlar majmui sifatida qo'llanadi. Bunda do'stlik, qo'shnichilik, o'zaro yordam, hurmat, ishonch, qarindoshlik, hamjihatlik va ijtimoiy birdamlik kabi munosabatlar asosiy tahlil obyektini tashkil etadi. Bunday tematik guruhlarni ajratish maqollarda ifodalangan ijtimoiy tajribani tizimli ravishda qiyoslash imkonini beradi. Do'stlik munosabati arab va o'zbek paremiologik fondlarida eng faol ifodalangan mavzulardan biridir.

O'zbek tilida "Do'st boshiga ish tushganda bilinadi" maqoli haqiqiy do'stning insonning og'ir kunlarida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Mazkur birlikda "boshiga ish tushmoq" komponenti sinovli vaziyatni, "do'st" komponenti esa sadoqat va insoniy yaqinlikni bildiradi. Maqolning pragmatik vazifasi tinglovchini do'stlikning tashqi ko'rinishiga emas, uning qiyin vaziyatdagi amaliy namoyoniga baho berishga undashdan iborat. O'zbek maqollarida do'stlik va hamjihatlikning qadrlanishi xalqning jamoaviy hayot tajribasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, maqollar jamlanmasida insonning oila, el va jamiyat bilan munosabatiga oid qarashlar keng aks etgan [2: 119].

Arab tilida "الصَّدِيقُ وَقْتَ الضِّيق" shaklida qo'llanadigan maqol ham do'stning haqiqiy qadr-qimmati qiyin paytda bilinishi haqidagi mazmunni ifodalaydi. Bu birlikning o'zbek tilidagi yuqoridagi maqol bilan mazmuniy yaqinligi yuqori. Biroq obrazning qurilishi bir xil emas: o'zbek maqolida voqea-situatsiya asosida "sinov" konsepti berilsa, arab maqolida "vaqt" va "tanglik/qiyinchilik" o'rtasidagi qisqa semantik bog'lanish orqali xulosa beriladi. Shunday qilib, bu holatni to'liq shakliy ekvivalentlikdan ko'ra semantik-funksional muvofiqlik sifatida baholash maqsadga muvofiqdir. Mazkur maqolning al-Maydoniy an'anasidagi qaydi ham arab paremiologik fondida do'stlik va sadoqatga oid ifodalarning qadimiy ildizlarini ko'rsatadi [6: 512].

Qo'shnichilik munosabati esa arab va o'zbek paremiologiyasidagi lingvomadaniy tafovutlarni ko'rsatish uchun ayniqsa qulay materialdir. Arab tilida "الجَارُ قَبْلَ الدَّارِ" – "qo'shni uydan oldin" mazmunidagi maqol qo'shnining

yashash joyidan ham muhim ekanini ta'kidlaydi. Mazkur maqol al-Maydoniy an'anasida "الرَّفِيقُ قَبْلَ الطَّرِيق" bilan bir qatorda qayd etilgan va uning ma'nosi yo'lga chiqishdan oldin hamrohni, uy tanlashdan oldin esa qo'shnini hisobga olish zarurligi bilan izohlanadi [7: 197]. O'zbek tilidagi "Qo'shning tinch – sen tinch" maqoli ham qo'shnichilikning inson hayoti farovonligiga bevosita ta'sirini ifodalaydi [8: 121]. Ikki birlik o'rtasida mazmuniy yaqinlik mavjud bo'lsa-da, ularning kommunikativ qurilishi turlicha. Arab maqolida tanlov va ustuvorlik ("qo'shni – uy") modeli mavjud bo'lsa, o'zbek maqolida sabab-natija modeli ("qo'shnining tinchligi – sening tinchliging") ustun. Shu jihatdan ular qisman semantik ekvivalentlar sifatida baholanishi mumkin.

Qo'shnichilikka oid birliklarning o'ziga xosligi shundaki, ular ikki madaniyatda ham shaxsiy makon va ijtimoiy muhit o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ifodalaydi. Biroq mazkur bog'liqlikning konseptual markazi har xil. Arab maqolida "yaxshi qo'shni tanlash" va yashash joyini tanlashning bir-biriga bog'liqligi kuchli bo'lsa, o'zbek maqolida qo'shnilar o'rtasidagi tinch-totuvlikning umumiy osoyishtalikka ta'siri oldinga chiqadi. Demak, bir xil ijtimoiy konsept turli tillarda turli madaniy ssenariylar orqali verbalizatsiya qilinishi mumkin.

Lingvomadaniy lakunarlik masalasini tushuntirishda aynan mana shu farqlar muhim ahamiyatga ega. Lakuna odatda bir lingvomadaniyatda mavjud bo'lgan mazmuniy yoki madaniy elementning boshqa lingvomadaniyatda bevosita, to'liq va tabiiy muqobilga ega bo'lmasligi bilan bog'liq hodisa sifatida izohlanadi. Tor ma'noda u leksik bo'shliqni anglatsa, kengroq lingvomadaniy yondashuvda muayyan xalqning madaniy tajribasi va dunyoqarashiga xos bo'lgan, boshqa madaniyat vakili uchun izohsiz to'liq anglash qiyin bo'lgan birliklarni ham qamrab oladi. Paremiologik birliklarda lakunarlik faqat "bu maqolning boshqa tilda muqobili yo'q" degan oddiy holat bilan cheklanmaydi. U obraz, baholash, kommunikativ vazifa, tarixiy assotsiatsiya va milliy konsept darajalarida namoyon bo'lishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan arab va o'zbek paremiologik birliklaridagi lakunarlikni bir necha ko'rinishda tasniflash mumkin.

Birinchi ko'rinish – to'liq muvofiqlik. Bunda ikki tildagi maqol umumiy mazmunni, asosiy obrazni va kommunikativ vazifani deyarli bir xil ifodalaydi. "Bir qo'l bilan qarsak chalib bo'lmas" va "اليد الواحدة لا تصفق" kabi birliklar bunga yaqin misol bo'la oladi.

Ikkinchi ko'rinish – qisman muvofiqlik. Bunda umumiy mazmun mavjud, ammo obraz, semantik urg'u yoki pragmatik qo'llanishda farq kuzatiladi. "Qo'shning tinch – sen tinch" va "الجار قبل الدار" munosabati shunday turga mansub.

Uchinchi ko'rinish – funksional ekvivalentlik. Bunda ikki tildagi birliklar turli obrazlardan foydalansa ham, muayyan nutqiy vaziyatda bir xil kommunikativ vazifani bajaradi.

To'rtinchi ko'rinish – lingvomadaniy lakuna. Bunda bir til maqolida mavjud bo'lgan milliy-madaniy obraz yoki konsept ikkinchi tilda to'liq muqobilga ega emas va uni tarjima qilishda izohlash, tavsiflash yoki funksional almashtirish talab qilinadi.

Maqolning lingvomadaniy mazmunini faqat uning lug'aviy tarkibidan chiqarib bo'lmaydi. Masalan, "الجار قبل الدار" tarkibidagi "qo'shni" va "uy" komponentlari alohida olinganda universal tushunchalardir. Ammo ularning "qo'shni uydan oldin" tarzida bog'lanishi arab ijtimoiy tajribasida qo'shnichilik munosabatining qanchalik muhim ekanini ko'rsatuvchi madaniy kodga aylanadi. O'zbek "Qo'shning tinch – sen tinch" maqolida esa "tinchlik" komponenti ijtimoiy barqarorlik va kundalik farovonlik bilan bog'langan. Demak, bir xil ijtimoiy soha – qo'shnichilik ɜ ikki tilning paremiologik tizimida turli aksiologik urg'ular bilan namoyon bo'ladi.

Hurmat va ijtimoiy mavqe munosabati ham paremiologik birliklarda milliy-madaniy xususiyatlarni namoyon etadi. O'zbek xalq maqollarida kattaga hurmat, ota-ona, qarindoshlik, el-yurt va qo'ni-qo'shnichilikka oid qadriyatlarning faol ifodalanishi kuzatiladi. O'zbek paremiologik fondining umumiy tavsifida oila, jamoaviylik, mehmondo'stlik va qo'shnichilik kabi qadriyatlar muhim o'rin egallashi zamonaviy qiyosiy tadqiqotlarda ham qayd etilgan [9: 1–6]. Arab paremiologik an'anasida esa qarindoshlik, do'stlik, qo'shnichilik, saxovat, mehmondo'stlik va ijtimoiy obro' bilan bog'liq ko'plab birliklar tarixiy paremiografik manbalarda jamlangan. Shu bois ijtimoiy munosabatlarga oid maqollarni qiyoslash ikki xalqning faqat til tizimini emas, balki ijtimoiy-axloqiy tasavvurlarini ham o'rganish imkonini beradi.

Paremiologik birliklarda aks etgan qadriyatlarni lingvomadaniy jihatdan o'rganish uchun aksiologik tahlil ham muhimdir. Maqol muayyan vaziyatni shunchaki tasvirlamaydi, balki unga baho beradi. "haqiqiy do'st", "yaxshi qo'shni", "hamjihatlik", "hurmat" kabi tushunchalar ijobiy baholanadi, xiyonat, befarqlik, yomon qo'shnichilik yoki o'zaro kelishmovchilik esa salbiy baho bilan ifodalanadi. Shuning uchun maqolning semantik mazmuni bilan uning aksiologik mazmunini farqlash kerak. Qiyosiy lingvomadaniy tadqiqotlarda ham paremiologik birliklarning qadriyatlarni ixcham shaklda ifodalashi va ijtimoiy munosabatlarni baholashi alohida ta'kidlanadi.

Ijtimoiy munosabatga oid paremiologik birliklarning lakunarligini aniqlashda kontekstual tahlil ham muhim metod hisoblanadi. Bir maqolning lug'aviy tarjimasi uning real kommunikativ vazifasini to'liq ochib bermasligi mumkin. Masalan, arab tilidagi "الجار قبل الدار" birikmasini faqat "qo'shni uydan oldin" tarzida tarjima qilish uning maslahat, ogohlantirish va qadriyat ifodalovchi pragmatik funksiyalarini to'liq yetkazmaydi. Uning ma'nosini "uy tanlashda avvalo qo'shnichilik muhitiga e'tibor berish kerak" tarzida izohlash orqali kommunikativ mazmun aniqroq beriladi. Bu holat paremiologik tarjimada funksional-pragmatik ekvivalentlikning muhimligini ko'rsatadi. Zamonaviy arab-o'zbek maqollari qiyosiga bag'ishlangan tadqiqotlarda ham so'zma-so'z moslikdan ko'ra funksional va kontekstual ma'noni yetkazish muhimligi qayd etilgan [5: 1–6].

Arab va o'zbek paremiologik birliklarini qiyoslashda yana bir muhim jihat – universal va milliy xususiyatlarning o'zaro munosabatidir. Insonning do'stga ehtiyoji, yaxshi qo'shni bilan yashash istagi, o'zaro yordam va hamkorlikning zarurligi universal insoniy tajribaga mansub. Shu sababli turli xalqlar maqollarida mazmunan yaqin birliklarning uchrashi tabiiy. Biroq mazkur universal mazmunning qanday obraz orqali ifodalanishi, qaysi komponent bilan kuchaytirilishi, qanday baho bilan berilishi va qaysi kommunikativ vaziyatda ishlatilishi milliy madaniyatga bog'liq. Paremiologik birliklarning lingvomadaniy qiymati ham aynan shu nuqtada namoyon bo'ladi. Qiyosiy tadqiqotlarda maqollarni to'liq, qisman, funksional va madaniy jihatdan ekvivalentsiz birliklarga ajratish imkoniyati mavjudligi ko'rsatilgan [1: 347–360].

Xulosa qilib aytganda, arab va o'zbek tillaridagi ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi paremiologik birliklar ikki xalqning umumiy insoniy qadriyatlari bilan bir qatorda o'ziga xos milliy-madaniy tajribasini ham aks ettiradi. Do'stlik, hamkorlik va qo'shnichilik kabi mavzular ikki paremiologik tizimda umumiy konseptual asosga ega bo'lsa-da, ularning verbal va obrazli

ifodasi bir xil emas. "Do'st boshiga ish tushganda bilinadi" va "الصَّدِيقُ وَقْتَ الضِّيقِ" birliklari do'stlikning sinovdagi haqiqiy qiymatini ifodalash orqali semantik yaqinlikni namoyon etsa, "Bir qo'l bilan qarsak chalib bo'lmas" va "اليد الواحدة لا تصفق" birliklari obraz va mazmun jihatidan yanada yuqori darajadagi muvofiqlikni ko'rsatadi. "Qo'shning tinch – sen tinch" va "الجَارُ قَبْلَ الدَّارِ" esa umumiy ijtimoiy konseptga ega bo'lsa-da, uning turli madaniy talqinini namoyish etadi.

Shunday qilib, paremiologik birliklarni qiyoslashda faqat lug'aviy yoki semantik muvofiqlik bilan cheklanmasdan, obraz, aksiologiya, pragmatika va milliy-madaniy konnotatsiyani ham hisobga olish zarur. Lingvomadaniy lakunarlikni shu tarzda o'rganish arab va o'zbek tillari o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlarni yanada aniqroq ochib berishga, paremiologik birliklarning tarjima imkoniyatlarini belgilashga va ikki xalqning ijtimoiy-madaniy dunyoqarashini qiyosiy asosda yoritishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005.
2. Usmanov F.F. O'zbek milliy qadriyatlarining lingvomadaniy aspekti: monografiya. – Toshkent: Bookmany print, 2024.
3. Rajapova G.B. A linguistic, structural, and cultural comparative study of English and Uzbek paremiological units in the development of students' lexical competence // Oriental Journal of Philology, 2026. Vol. 6 (3). – P. 347–360.
4. Diniqulov A. The study of Arabic proverbs and sayings: a historical and linguocultural analysis // The Journal of Interdisciplinary Human Studies, 2026. Vol. 2 (9). – P. 248–263.
5. Fergani H.E. Arap ve Özbek dillerindeki eşdeğer atasözlerinin karşılaştırmalı analizi // Edebiyat ve Beşeri Bilimler Dergisi, 2026. Sayı 77. – S. 95–108.
6. Abu Ubayd al-Qasim ibn Sallam. Kitab al-Amthal / tahqiq: A.M. Qatamish. – Damashq: Dar al-Ma'mun li-al-Turath, 1980.
7. Al-Maydani Abu al-Fadl Ahmad ibn Muhammad. Majma' al-Amthal. – Bayrut: Dar al-Ma'rifah, 1981.
8. Yodgorova Z.G'., Jumayeva N.Sh. A comparative linguocultural study of English and Uzbek proverbs // Academic Research in Educational Sciences, 2026. Vol. 12 (12). – P. 1–6.
9. Yuldasheva I.M. Axiological landscape of English and Uzbek paremias: a comparative-linguocultural analysis // London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation, 2026. Vol. 5 (2). – P. 717–718.